Afg‘oniston bilan aloqalar. Buxoro amirligining janubiy tashqi siyosatida Afg‘oniston alohida o‘rin egallagan. Ayniqsa Balx va Badaxshon hududlari ikki davlat manfaatlari to‘qnashadigan hududlar hisoblangan. Mang‘itlar davrida Afg‘oniston hukmdorlari bilan diplomatik aloqalar muntazam ravishda davom ettirilgan. Elchilar almashinuvi va savdo karvonlarining harakati davlatlar o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarning muhim qismi bo‘lgan[6].

[6] Hayit B. Turkiston Rossiya bilan Xitoy orasida. – B. 96.

Rossiya imperiyasi bilan munosabatlar. Rossiya va Buxoro o‘rtasidagi munosabatlarni shartli ravishda uch bosqichga bo‘lish mumkin:

Birinchi bosqich (XVI–XVIII asrlar). Bu davrda munosabatlar asosan savdo aloqalari va diplomatik missiyalar orqali amalga oshirilgan. Rossiya Buxoro orqali Sharq mamlakatlari bilan savdo qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan.

Ikkinchi bosqich (XIX asrning birinchi yarmi). Bu davrda Rossiya Markaziy Osiyodagi siyosiy ta’sirini kuchaytirishga harakat qildi. Diplomatik missiyalar soni ortdi, ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etildi va harbiy razvedka faoliyati kuchaydi.

Uchinchi bosqich (1860–1880-yillar). Bu davr Rossiyaning ochiq harbiy bosqinchilik siyosati bilan xarakterlanadi. XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoga nisbatan olib borgan bosqinchilik siyosati Buxoro amirligining tashqi siyosatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. 1868-yilda Zirabuloq yaqinidagi jangda Buxoro qo‘shinlarining mag‘lubiyati natijasida amirlik Rossiya protektoratiga aylantirildi. Shundan so‘ng Buxoro tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari Rossiya manfaatlari bilan bog‘lanib qoldi. Ahmad Donish Rossiya bilan munosabatlarni tahlil qilar ekan, amirlikda zamonaviy harbiy va diplomatik islohotlar o‘tkazilmaganini tanqid qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedov B. O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari. – B. 154.
2. Ahmad Donish. Navodir ul-vaqoe. – B. 34.
3. Burnes A. Travels into Bokhara. – P. 78.
4. Muhammad Vafo Karmanagiy. Tuhfat ul-xoniy. – B. 125.
5. Xanykov N. Opisanie Bukharskogo khanstva. – S. 62.
6. Muhammadjonov A. O‘zbekiston tarixi. – B. 211.
7. Bartold V.V. Turkiston mo‘g‘ullar istilosi davrida. – B. 311.
8. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. – B. 287.
9. Muhammad Yusuf Munshiy. Tarixi Muqimxoniy. – B. 97.

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

Amir Timur's Efforts to Establish a Centralized State

Professor (Acting) Kholmat Xidirov

Lecturer, Department of HistoryTermez State Pedagogical Institute

Shakhboz Axmedov

Fourth-Year Student, History Education ProgramTermez State Pedagogical Institute

Abstract:

This article provides a comprehensive analysis of the political, military, and administrative activities of Amir Temur in the process of establishing a centralized state. The study examines, on a scholarly basis, the process through which Temur came to power amid the political fragmentation of Transoxiana in the second half of the fourteenth century, his policies aimed at creating a centralized system of governance, and the reforms undertaken to strengthen state institutions. Furthermore, the article highlights the fundamental principles of his state administration and explores the contemporary significance of his historical legacy.

Keywords:

Amir Temur, centralized state, Transoxiana, political system, military reforms, governance, *Temur Tuzuklari* (The Code of Temur).

Termiz davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasi o'qituvchisi v.v.b professor

Xidirov Xolmamat

Termiz davlat pedagogika instituti Tarix ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

Axmedov Shaxboz

AMIR TEMUR MARKAZLASHGAN DAVLAT TUZISH YO'LIDA

Annotatsiya: Mazkur maqolada Amir Temurning markazlashgan davlat barpo etish yo'lidagi siyosiy, harbiy va ma'muriy faoliyati kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda XIV asr ikkinchi yarmidagi Movarounnahrdagi siyosiy parokandalik sharoitida Temurning hokimiyatni qo'lga kiritish jarayoni, markazlashgan boshqaruv

tizimini shakllantirish siyosati hamda davlat institutlarini mustahkamlash yo‘lidagi islohotlari ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, uning davlat boshqaruvi tamoyillari va tarixiy merosining zamonaviy ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, markazlashgan davlat, Movarounnahr, siyosiy tizim, harbiy islohotlar, boshqaruv, Temur tuzuklari.

XIV asrning ikkinchi yarmi Markaziy Osiyo tarixida keskin siyosiy beqarorlik, hududiy parokandalik va ichki ziddiyatlar bilan tavsiflanadi. Chig‘atoy ulusi parchalanib ketganidan so‘ng Movarounnahr hududida markazlashgan hokimiyat zaiflashib, turli mahalliy amirlar o‘rtasida hokimiyat uchun kurash kuchaygan edi. Natijada iqtisodiy hayot izdan chiqib, ijtimoiy beqarorlik chuqurlashdi. Ana shunday murakkab tarixiy sharoitda Amir Temur siyosiy maydonga chiqib, qisqa vaqt ichida nafaqat hokimiyatni qo‘lga kiritdi, balki markazlashgan davlat barpo etish yo‘lida izchil va strategik siyosat yuritdi. Uning faoliyati nafaqat o‘z davri, balki keyingi asrlar tarixiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Mazkur maqolaning maqsadi – Amir Temurning markazlashgan davlat tuzish jarayonidagi faoliyatini ilmiy asosda tahlil qilish, uning boshqaruv tamoyillari va siyosiy strategiyasini ochib berishdan iborat.[1]

XIV asr o‘rtalarida Movarounnahr hududi siyosiy jihatdan parchalanib ketgan edi. Chig‘atoy ulusining zaiflashuvi natijasida markaziy hokimiyat amalda yo‘qolib, hududda ko‘plab mustaqil yoki yarim mustaqil siyosiy kuchlar shakllandi. Bu holat o‘zaro nizolar, iqtisodiy inqiroz va tashqi xavflarning kuchayishiga olib keldi.Amir Temur aynan shunday beqaror vaziyatdan ustalik bilan foydalandi.[2] U dastlab siyosiy ittifoqlar tuzish, harbiy kuchni mustahkamlash va mahalliy amirlarni o‘z tomoniga og‘dirish orqali o‘z mavqeini mustahkamladi. Temurning siyosiy faoliyati bosqichma-

[1]Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti.

[2] Sharafiddin Ali yazdiy “Zafarnoma”

bosqich rivojlanib, natijada u Movarounnahrda yagona hokimiyatni qaror toptirishga erishdi.

Amir Temur davlat qurilishida markazlashuv tamoyilini ustuvor deb bildi. Uning fikricha, kuchli davlat faqat yagona markaziy hokimiyat orqali boshqarilishi mumkin edi. Shu sababli u quyidagi strategik choralarni amalga oshirdi:

Birinchidan, mahalliy hukmdorlarning mustaqilligini chekladi va ularni markaziy hokimiyatga bo‘ysundirdi. Bu orqali hududiy parokandalikka barham berildi.

Ikkinchidan, davlat boshqaruvida sodiqlik va xizmat tamoyillarini joriy etdi. Mansablar merosiy emas, balki xizmatga yarasha berildi.

Uchinchidan, soliq va iqtisodiy tizimni tartibga soldi. Bu esa davlatning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qildi.

To‘rtinchidan, strategik hududlarda o‘ziga sodiq amaldorlarni tayinlash orqali markaziy nazoratni kuchaytirdi[3].

Amir Temur hukmronlik qilgan davrda davlat boshqaruvi mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarildi. U o‘zining qat’iy va uzoqni ko‘zlagan siyosati natijasida markazlashgan, qudrali va yaxlit saltanat barpo etishga erishdi. Sohibqiron boshqaruv tizimida nafaqat o‘z davrining ilg‘or uslublarini, balki o‘tmishdagi boy davlatchilik an’analarini ham mohirona birlashtirdi. Shubhasiz, ushbu murakkab va mukammal tizimning tepasida shaxsan o‘zi turar edi.

Sohibqiron Amir Temur davlatni boshqarishda qadimiy turkiy-mo‘g‘ul an’analariga tayangan holda Qurultoy institutidan samarali foydalangan. 1370-yilning 11-aprel kuni aynan Qurultoy qarori bilan uning Movarounnahr hukmdori deb e’lon qilinishi, bu kengashning naqadar yuksak siyosiy maqomga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Qurultoy shunchaki yig‘ilish emas, balki eng muhim strategik masalalar hal qilinadigan oliy maslahat organi edi. Unda nafaqat harbiy sarkardalar va beklar, jamiyatning intellektual qatlami - olimlar va ulamolar ham ishtirok etgan.

[3] Nizomiddin Shomi “Zafarnoma”

Sharafuddin Ali Yazdiy o‘zining “Zafarnoma” asarida 1390-yildagi Qurultoyda Oltin O‘rda xoni To‘xtamishxon bilan munosabatlar kabi murakkab siyosiy muammolar ko‘rib chiqilganini ta’kidlaydi. Bu esa Temuriy davlatida qarorlar qabul qilishga katta e’tibor berilganidan dalolat beradi. Sohibqiron Amir Temur davlat ahamiyatga molik masalalarni hal etishda faqat harbiy qo‘mondonlar yoki amirlar bilan cheklanib qolmagan. Qurultoy va kengashlarda ilm-fan namoyondalari hamda ulamolarning ishtirokiga alohida e’tibor qaratilgan. Tajribali shaxslar nafaqat markaziy boshqaruvida, balki hududiy hokimliklarda ham asosiy maslahatchi vazifasini o‘taganlar.

Tarixchi Nizomiddin Shomiy o‘zining “Zafarnom” asarida Temur saltanatida olimlarning o‘rni nechog‘lik baland bo‘lganligi qayd etadi. Uning yozishicha, hukmdor ulamolarni davlat ishlariga keng jalb etib, ularga yuksak ehtirom ko‘rsatgan. Muhimi shundaki, Amir Temur mutafakkirlardan quruq maqtov emas, balki mamlakat taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan xolis va to‘g‘ri tavsiyalarni kutgan.[4]

Shomiyning ma’lumotlariga ko‘ra, Sohibqiron iymonli va taniqli olimlar orasidan eng munosiblarini tanlab olgan. So‘ngra ularni davlatning turli hududlariga ishonchli vakil (amin) sifatida yuborgan. Bu tadbirdan ko‘zlangan asosiy maqsad - mamlakatning har bir go‘shasida boshqaruv adolatli va tartibli bo‘lishini ta’minlash edi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur markazlashgan davlat barpo etish yo‘lida yuksak siyosiy tafakkur, harbiy mahorat va boshqaruv salohiyatini namoyon etgan buyuk tarixiy shaxsdir. Uning amalga oshirgan islohotlari natijasida Movarounnahrda kuchli va barqaror davlat shakllandi. Temur tomonidan yaratilgan boshqaruv tizimi va siyosiy model nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham tarixiy tajriba sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

[4] Ibn Arabshah. *Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur*.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti.
2. Sharaf ad-Din Ali Yazdi. *Zafarnoma*.
3. Nizam ad-Din Shami. *Zafarnoma*.
4. Ibn Arabshah. *Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur*.
5. Bartold V.V. *Turkiston mo‘g‘ullar davrida*. – Toshkent.

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

PRACTICAL WAYS OF INCREASING EMPLOYMENT AND INCOME OF THE POPULATION THROUGH TOURISM

Ashurova Khurriyat Abdug‘offor qizi

4th-year Bachelor’s student in Tourism, Faculty of Entrepreneurship and Management, Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Abstract

This topic examines the socio-economic mechanisms for improving the living standards of the population through supporting tourism services. The development of tourism services is analyzed as an important factor in ensuring employment, increasing incomes, expanding family entrepreneurship, improving regional infrastructure, and activating the service sector. The study also reveals the opportunities for creating new jobs, using local resources more efficiently, and encouraging small business and private initiative through tourism support. The findings demonstrate that supporting tourism services is one of the important tools for improving public welfare, strengthening regional economic activity, and ensuring sustainable development.

Keywords

tourism services, living standards, public welfare, employment, income, family entrepreneurship, small business, regional development, service sector, sustainable development

Annotatsiya: Mazkur mavzuda turizm xizmatlarini qo‘llab-quvvatlash orqali aholi turmush darajasini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari yoritiladi. Turizm xizmatlarini rivojlantirish aholining bandligini ta’minlash, daromadlarini ko‘paytirish, oilaviy tadbirkorlikni kengaytirish, hududiy infratuzilmani yaxshilash va xizmat ko‘rsatish sohasini faollashtirishda muhim omil sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, turizmni qo‘llab-quvvatlash orqali yangi ish o‘rinlari yaratish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish, kichik biznes va xususiy tashabbuslarni rag‘batlantirish imkoniyatlari ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijasida turizm xizmatlarini qo‘llab-

quvvatlash aholi farovonligini oshirish, hududlar iqtisodiy faolligini kuchaytirish va barqaror rivojlanishni ta’minlashning muhim vositalaridan biri ekanligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: turizm xizmatlari, turmush darajasi, aholi farovonligi, bandlik, daromad, oilaviy tadbirkorlik, kichik biznes, hududiy rivojlanish, xizmat ko‘rsatish sohasi, barqaror rivojlanish

Bugungi kunda aholi turmush darajasini oshirish har bir davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Aholining munosib turmush kechirishi, barqaror daromad manbaiga ega bo‘lishi, zamonaviy xizmatlardan foydalanishi hamda yashash muhiti qulaylashuvi jamiyat taraqqiyotining muhim mezonlaridan biridir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, iqtisodiyotning aholi bandligini kengaytiruvchi, hududiy rivojlanishni jadallashtiruvchi va xizmat ko‘rsatish sohasini faollashtiruvchi tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday istiqbolli tarmoqlardan biri turizm xizmatlari sohasi hisoblanadi. Turizm xizmatlari bugungi kunda faqat sayyohlarni qabul qilish yoki dam olishni tashkil etish bilan cheklanmaydi. U iqtisodiyotning transport, savdo, umumiy ovqatlanish, mehmonxona, hunarmandchilik, aloqa, madaniyat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatishning boshqa ko‘plab yo‘nalishlari bilan bevosita bog‘liq murakkab tizimdir. Shu bois turizm xizmatlarini qo‘llab-quvvatlash bir vaqtning o‘zida bir nechta iqtisodiy bo‘g‘inlarning faollashuviga, yangi ish o‘rinlari yaratilishiga, aholi daromadlari oshishiga va turmush sifatining yaxshilanishiga olib keladi. Ayniqsa, hududiy nuqtai nazardan turizm xizmatlarining o‘rni juda katta. Ko‘plab hududlar o‘zining tabiiy, tarixiy, madaniy, ziyorat yoki etnografik salohiyatiga ega bo‘lsa-da, bu imkoniyatlardan to‘liq foydalanilmagan holatlar uchraydi. Agar ana shu resurslar asosida turizm xizmatlari tizimi shakllantirilsa, mahalliy aholi uchun qo‘shimcha daromad manbalari paydo bo‘ladi, oilaviy tadbirkorlik rivojlanadi, kichik biznes subyektlari soni ortadi va infratuzilma yaxshilanadi. Bu esa aholi turmush darajasi ko‘tarilishining muhim iqtisodiy asosini yaratadi. Shu bilan birga, turizm xizmatlarini qo‘llab-quvvatlash faqat

iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan cheklanmaydi. U aholining ijtimoiy faolligini oshiradi, mahalliy tashabbuslarni rag‘batlantiradi, ayollar va yoshlarning iqtisodiy jarayonlardagi ishtirokini kuchaytiradi, hududning jozibadorligini oshiradi va ijtimoiy muhitni yaxshilaydi. Bunday ko‘p qirrali ta’sir turizm xizmatlarini aholi farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi strategik vositaga aylantiradi. Mazkur maqolada turizm xizmatlarini qo‘llab-quvvatlash orqali aholi turmush darajasini oshirishning iqtisodiy va ijtimoiy mexanizmlari, asosiy yo‘nalishlari hamda istiqbollari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Turmush darajasini oshirish masalasi zamonaviy iqtisodiy siyosatda faqat daromadlarni ko‘paytirish bilan emas, balki aholi uchun barqaror bandlik, qulay infratuzilma, tadbirkorlik imkoniyatlari va sifatli xizmatlar yaratish bilan chambarchas bog‘liq holda ko‘rib chiqilmoqda. Shu jihatdan turizm xizmatlarini qo‘llab-quvvatlash dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki turizm iqtisodiyotning turli tarmoqlari bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, bir sohadagi faollik boshqa yo‘nalishlarga ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Mavzuning dolzarbligi birinchi navbatda shundaki, turizm xizmatlari aholining keng qatlamini iqtisodiy faoliyatga jalb qilish imkoniga ega. U yirik sanoat korxonalari singari katta ishlab chiqarish quvvatlarini talab qilmaydi, aksincha ko‘pincha mahalliy resurslar, oilaviy mehnat, mavjud uy-joy, milliy an’analar va tabiiy salohiyatga tayangan holda shakllanadi. Bu esa ayniqsa qishloq joylar, tarixiy hududlar va kichik shaharlarda aholi daromadlarini oshirish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ikkinchi jihat shundaki, turizm xizmatlari tarmog‘i ko‘p tarmoqli iqtisodiy ta’sirga ega. Masalan, bir turistning tashrifi mehmonxona, transport, restoran, hunarmandchilik, savdo va boshqa ko‘plab xizmat turlariga talabni oshiradi. Natijada iqtisodiy faollik kengayadi. Bu esa to‘g‘ridan to‘g‘ri va bilvosita bandlikning ortishiga, daromadlar hajmining ko‘payishiga xizmat qiladi. Uchinchi jihat — hududiy rivojlanishdir. Turizm xizmatlari qo‘llab-quvvatlanganda yo‘llar, aloqa, sanitariya, obodonlashtirish, axborot tizimlari va xizmat ko‘rsatish madaniyati yaxshilanadi. Bularning barchasi nafaqat turist uchun, balki mahalliy aholi uchun ham yashash sharoitini yaxshilaydi. Demak, turizmni

qo‘llab-quvvatlash aholi turmush darajasini ko‘tarishning kompleks mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi turizm xizmatlarini qo‘llab-quvvatlash orqali aholi turmush darajasini oshirishning asosiy iqtisodiy va ijtimoiy yo‘llarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, bu boradagi mexanizmlarni yoritish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Maqolaning maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi: turizm xizmatlarining iqtisodiy mohiyatini ochib berish, ularning aholi daromadlari va bandligiga ta’sirini tahlil qilish, turizmni qo‘llab-quvvatlashning hududiy rivojlanishdagi rolini ko‘rsatish, oilaviy tadbirkorlik va kichik biznesga ta’sirini yoritish hamda turmush darajasini oshirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish. Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda tizimli yondashuv, iqtisodiy tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va mantiqiy xulosa chiqarish usullaridan foydalanildi. Turizm xizmatlari, aholi bandligi, hududiy rivojlanish, daromadlar va turmush darajasi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik nazariy va amaliy jihatdan ko‘rib chiqildi.

- **Turizm xizmatlarining iqtisodiy mohiyati**

Turizm xizmatlari iqtisodiyotning xizmat ko‘rsatish sohasiga mansub bo‘lib, turistlarning ehtiyojini qondirishga qaratilgan kompleks faoliyatni o‘z ichiga oladi. U nafaqat turar joy va ovqatlanishni, balki transport, ekskursiya, madaniy dam olish, axborot ta’minoti, savdo, ko‘ngilochar xizmatlar va boshqa ko‘plab yo‘nalishlarni qamrab oladi. Shu sababli turizm xizmatlari iqtisodiy nuqtai nazardan ko‘p qirrali va yuqori multiplikativ samara beruvchi tarmoq hisoblanadi. Turizm xizmatlarining asosiy afzalliklaridan biri shundaki, ular ko‘pincha mahalliy resurslar asosida shakllanadi. Tabiiy manzara, tarixiy obida, milliy taom, hunarmandchilik, madaniy meros, xalq an’analari yoki qishloq turmush tarzi turizm mahsulotiga aylanishi mumkin. Bu esa avval iqtisodiy jihatdan yetarlicha baholanmagan resurslarni daromad manbaiga aylantiradi. Aholi turmush darajasiga ta’siri nuqtai nazaridan qaraganda, turizm xizmatlari iqtisodiy qiymat yaratishning ommabop vositasidir. Chunki bu sohada yirik

investitsiyalarsiz ham ko‘plab xizmat turlarini yo‘lga qo‘yish mumkin. Ayniqsa, oilaviy mehmon uylari, milliy taom tayyorlash, mahalliy transport xizmati, hunarmandchilik savdosi, gidlik va ekskursiya faoliyati kabi yo‘nalishlar mahalliy aholini daromad bilan ta’minlashga xizmat qiladi.

➢ **Turizm xizmatlarini qo‘llab-quvvatlash va aholi bandligi**

Aholi turmush darajasini belgilovchi asosiy omillardan biri barqaror bandlikdir. Turizm xizmatlari sohasi esa bandlik yaratish bo‘yicha eng katta salohiyatga ega yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Sababi, turizm bir vaqtning o‘zida ko‘plab kasb va faoliyat turlarini jalb etadi. Mehmonxona xodimi, oshpaz, ofitsiant, haydovchi, tarjimon, gid, hunarmand, fotograf, savdo xodimi, animator, ko‘ngilochar tadbir tashkilotchisi va boshqalar turizm zanjirining ishtirokchisi bo‘lishi mumkin. Turizm xizmatlarini qo‘llab-quvvatlash natijasida yangi ish o‘rinlari nafaqat to‘g‘ridan to‘g‘ri, balki bilvosita ravishda ham yaratiladi. Masalan, mehmonxona ochilishi bilan unga oziq-ovqat yetkazib beruvchilar, kir yuvish xizmati, tozalash xizmati, ta’mirlash ustalari va boshqa xizmat ko‘rsatuvchi subyektlarga ham talab ortadi. Bu esa iqtisodiy samaraning keng doiraga tarqalishiga sabab bo‘ladi. Turizmning muhim ustunligi shundaki, u yoshlar va xotin-qizlarni ham faol iqtisodiy jarayonlarga jalb etadi. Xotin-qizlar milliy taomlar, hunarmandchilik, mehmon kutish va oilaviy xizmatlar yo‘nalishida samarali ishlashi mumkin. Yoshlar esa gidlik, raqamli marketing, onlayn xizmatlar, media mahsulotlar tayyorlash, tarjima va xizmat ko‘rsatish sohalarida o‘z imkoniyatlarini namoyon etadi. Shu tariqa turizm xizmatlari ijtimoiy bandlikni kengaytiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Turizm xizmatlarini qo‘llab-quvvatlashning aholi turmush darajasiga ta’siri

№	Yo‘nalish	Mazmuni	Natija
1	Bandlikni oshirish	Mehmonxona, oshxona, transport, gidlik,	Yangi ish o‘rinlari yaratiladi

		savdo xizmatlari rivojlanadi	
2	Daromadlarni ko‘paytirish	Turistlarga xizmat ko‘rsatishdan tushum ortadi	Oila byudjeti mustahkamlanadi
3	Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish	Mehmon uylari, milliy taomlar, hunarmandchilik yo‘lga qo‘yiladi	Kichik biznes soni ko‘payadi
4	Mahalliy resurslardan foydalanish	Tabiiy, tarixiy va madaniy boyliklar xizmatga jalb qilinadi	Hudud iqtisodiy faolligi ortadi
5	Infratuzilmani yaxshilash	Yo‘l, aloqa, sanitariya, internet va servis sifati rivojlanadi	Aholi yashash sharoiti yaxshilanadi
6	Xizmat ko‘rsatish sohasini kengaytirish	Kafe, savdo, suvenir, ekskursiya, dam olish xizmatlari ko‘payadi	Ichki bozor faollashadi
7	Ijtimoiy faollikni kuchaytirish	Aholi tashabbuskorligi va xizmat madaniyati oshadi	Farovonlik va o‘ziga ishonch ortadi

Turizm xizmatlarini qo‘llab-quvvatlash orqali turmush darajasini oshirish yo‘llari

№	**Yo‘llar**	**Amalga oshirish mexanizmi**	**Kutilayotgan samara**
1	Oilaviy mehmon uylari tashkil etish	Uy sharoitida turistlarni joylashtirish	Oila daromadi oshadi

2	Milliy taom va gastronomik xizmatlarni rivojlantirish	Mahalliy oshxona va an’anaviy taomlarni taklif qilish	Xotin-qizlar bandligi kuchayadi
3	Hunarmandchilik va suvenir savdosini qo‘llab-quvvatlash	Mahalliy mahsulotlarni turistlarga taklif etish	Qo‘shimcha daromad manbai yaratiladi
4	Qishloq va ekologik turizmni rivojlantirish	Tabiiy va qishloq hayotiga oid xizmatlarni yo‘lga qo‘yish	Chekka hududlar faollashadi
5	Malaka oshirish va treninglar o‘tkazish	Xizmat sifati va mehmondo‘stlik bo‘yicha o‘quvlar tashkil etish	Servis sifati yaxshilanadi
6	Imtiyozli moliyaviy ko‘mak berish	Kredit, grant va subsidiyalar ajratish	Kichik biznes rivojlanadi
7	Raqamli marketingni joriy qilish	Onlayn reklama, bronlash va targ‘ibotni kuchaytirish	Turistlar oqimi ortadi

➢ **Daromadlarni oshirishdagi o‘rni**

Turmush darajasini oshirishda daromad omili hal qiluvchi ahamiyatga ega. Turizm xizmatlarini qo‘llab-quvvatlash aholi daromadlarini bir necha yo‘nalishda oshiradi. Birinchidan, xizmat ko‘rsatishdan to‘g‘ridan to‘g‘ri tushadigan daromad mavjud bo‘ladi. Ikkinchidan, turizm tufayli mahalliy mahsulotlar savdosi ortadi. Uchinchidan, uy xo‘jaligi resurslari iqtisodiy qiymat kasb etadi. Masalan, bir oilaning uyi oilaviy

mehmon uyiga aylantirilsa, u turar joy xizmatidan daromad topadi. Milliy taom tayyorlash, uy sharoitida non pishirish, meva-sabzavot yoki sut mahsulotlari taklif qilish orqali qo‘shimcha daromad olinadi. Hunarmandchilik bilan shug‘ullanadigan oila a’zolari esa turistlar uchun suvenir va milliy buyumlar sotish imkoniga ega bo‘ladi. Bu jarayonda eng muhim jihat shundaki, turizm daromadni keng qatlamga yoyadi. Katta korxona modelida foyda tor doirada jamlanishi mumkin bo‘lsa, turizmda iqtisodiy foyda ko‘plab kichik subyektlar o‘rtasida taqsimlanadi. Bu esa aholi farovonligini kengroq miqyosda oshiradi.

- **Oilaviy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish**

Turizm xizmatlarini qo‘llab-quvvatlashning aholi turmush darajasiga ta’siri, ayniqsa, oilaviy tadbirkorlik va kichik biznes rivojida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu tarmoq kichik boshlang‘ich resurs bilan ham faoliyat boshlash imkonini beradi. Turizmning bu xususiyati uni aholi uchun eng qulay tadbirkorlik maydonlaridan biriga aylantiradi. Oilaviy mehmon uylari, uy oshxonasi, milliy taomlar tayyorlash, qo‘l mehnati mahsulotlarini sotish, milliy liboslar va bezaklar ishlab chiqarish, mahalliy sayrlar tashkil etish, qishloq turizmi xizmatlari — bularning barchasi oila darajasida yo‘lga qo‘yilishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlaridir. Natijada oila ichidagi mehnat resurslari iqtisodiy daromadga aylantiriladi. Kichik biznes nuqtai nazaridan qaraganda, turizmning yana bir afzalligi bozor bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqligidir. Agar hudud turist oqimiga ega bo‘lsa, u yerda kichik kafelar, suvenir do‘konlari, transport xizmati, foto va media xizmati, hududiy ekskursiyalar, ko‘ngilochar dasturlar kabi ko‘plab xizmatlarni tashkil etish mumkin. Bu esa mahalliy iqtisodiyotning jonlanishiga olib keladi.

- **Hududiy infratuzilmani yaxshilash va uning ijtimoiy samarasi**

Turizm xizmatlarini qo‘llab-quvvatlash ko‘pincha hududiy infratuzilma rivoji bilan birga kechadi. Yo‘llar, transport, elektr energiyasi, ichimlik suvi, aloqa, internet, sanitariya, obodonlashtirish va axborot xizmatlari yaxshilanmasa, turizm barqaror

rivojlana olmaydi. Shu sababli turizmga qaratilgan investitsiyalar mahalliy aholi turmushiga ham bevosita ta’sir qiladi. Masalan, bir hududda turistlar uchun yo‘l yaxshilansa, bu faqat turist emas, balki mahalliy aholi uchun ham qulaylik yaratadi. Yoki internet sifati yaxshilansa, bu nafaqat turizm biznesi, balki aholining ta’lim, aloqa va tadbirkorlik imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Sanitariya va obodonlashtirish ishlari kuchaysa, yashash muhiti yaxshilanadi. Demak, turizm xizmatlarini qo‘llab-quvvatlash natijasida yaratilgan infratuzilma faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy samara ham beradi. Bu esa turmush darajasining kompleks ravishda oshishiga olib keladi.

- **Mahalliy resurslardan samarali foydalanish**

Turizm xizmatlarini qo‘llab-quvvatlash orqali aholi turmush darajasini oshirishning muhim yo‘llaridan biri mahalliy resurslarni iqtisodiy aylanishga kiritishdir. Ko‘plab hududlarda tabiiy landshaft, mahalliy urf-odat, milliy hunarmandchilik, tarixiy obidalar yoki gastronomik boyliklar mavjud bo‘lsa-da, ular to‘liq iqtisodiy mahsulotga aylantirilmagan bo‘lishi mumkin. Turizm ana shu resurslarni daromad manbaiga aylantiradi. Masalan, oddiy qishloq hovlisi turist uchun jozibali dam olish maskani bo‘lishi mumkin. Milliy usulda taom tayyorlash, dehqonchilik yoki bog‘dorchilik jarayonini ko‘rsatish, xalq o‘yinlari va urf-odatlarini namoyish etish turistlarda qiziqish uyg‘otadi. Shu tariqa iqtisodiy faollik kengayadi. Mahalliy resurslardan foydalanishning bu shakli ayniqsa muhim, chunki u tashqi xomashyo yoki katta texnologik xarajatlarni talab qilmaydi. Asosiy kapital sifatida hududning o‘ziga xosligi va aholi mehnati maydonga chiqadi. Bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

- **Turizm xizmatlarining ijtimoiy-psixologik ta’siri**

Aholi turmush darajasini oshirishda faqat moddiy omillar emas, balki ijtimoiy-psixologik omillar ham muhim. Turizm xizmatlari rivojlangan hududlarda odatda aholining ijtimoiy faolligi ortadi, tashabbuskorlik kuchayadi va kelajakka ishonch mustahkamlanadi. Bu esa o‘z navbatida jamiyatning ruhiy va ijtimoiy barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Turizm sohasida ishlayotgan odam o‘z hududining qadri va

salohiyatini chuqurroq his qila boshlaydi. Mahalliy madaniyat, urf-odatlar, tarixiy meros va tabiiy resurslarga bo‘lgan munosabat o‘zgaradi. Aholi o‘z hududini qadrlash, uni saqlash va rivojlantirishga ko‘proq intiladi. Bu esa turmush sifati oshishining nomoddiy, lekin muhim ko‘rinishidir.

- **Muammolar va cheklovlar**

Turizm xizmatlarini qo‘llab-quvvatlash orqali aholi turmush darajasini oshirish katta imkoniyatlarga ega bo‘lsa-da, bu jarayon ayrim muammolarsiz kechmaydi. Eng asosiy muammolardan biri — infratuzilmaning yetarli emasligi. Ayrim hududlarda turistlarni qabul qilish imkoniyati bo‘lsa-da, yo‘l, sanitariya, internet, transport va axborot xizmatlari talab darajasida emas. Ikkinchi muammo — xizmat ko‘rsatish malakasining pastligi. Mahalliy aholida mehmondo‘stlik an’analari mavjud bo‘lsa-da, zamonaviy turizm bozori gigiyena, xavfsizlik, xizmat sifati, narx shaffofligi, raqamli aloqa va mijoz bilan ishlash bo‘yicha yangi ko‘nikmalarni talab qiladi. Uchinchi muammo — marketing va targ‘ibotning sustligi. Salohiyatli hududlar ko‘pincha yetarli tanitilmagan bo‘ladi. To‘rtinchi muammo esa moliyaviy resurslarning cheklanganligidir. Turizm xizmatlarini boshlash uchun ayrim jihozlar, ta’mirlash va reklama xarajatlari talab qilinadi. Bu esa kambag‘al qatlam uchun qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.

- **Taklif va tavsiyalar**

Turizm xizmatlarini qo‘llab-quvvatlash orqali aholi turmush darajasini oshirish uchun birinchi navbatda hududlarning turizm salohiyatini aniq baholash zarur. Har bir hududning ustun resurslari aniqlanib, ularga mos xizmat turlari shakllantirilishi lozim. Ikkinchidan, mahalliy aholini o‘qitish va malaka oshirish tizimini yo‘lga qo‘yish kerak. Turizm etikasi, xizmat sifati, mehmon kutish, raqamli marketing, onlayn bronlash va narx siyosati bo‘yicha amaliy treninglar katta samara beradi. Uchinchidan, oilaviy tadbirkorlik va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli kreditlar, grantlar, subsidiyalar va texnik ko‘mak mexanizmlarini kengaytirish zarur.

To‘rtinchidan, turizm xizmatlarini hududiy infratuzilma dasturlari bilan uyg‘unlashtirish kerak. Beshinchidan, hududiy turizm brendlarini yaratish, ularni raqamli platformalarda faol targ‘ib qilish va turist oqimini mahalliy xizmat ko‘rsatish tarmoqlari bilan bog‘lash muhim ahamiyatga ega.

- **Natijalar va muhokama**

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, turizm xizmatlarini qo‘llab-quvvatlash aholi turmush darajasini oshirishning samarali va ko‘p qirrali vositasidir. U bandlik yaratadi, daromadlarni oshiradi, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantiradi, kichik biznesni kuchaytiradi va hududiy infratuzilmaning yaxshilanishiga olib keladi. Ayniqsa, turizm xizmatlarining mahalliy resurslarga tayanganligi va daromadni hudud ichida aylantirishi uning katta ustunligidir. Shu bilan birga, turizmning bu boradagi samarasi avtomatik ravishda yuzaga kelmaydi. U infratuzilma, malaka, moliyalashtirish, marketing va davlat qo‘llovi bilan uyg‘unlashgan taqdirdagina yuqori natija beradi. Demak, turizm xizmatlarini qo‘llab-quvvatlash kompleks hududiy rivojlanish siyosati bilan olib borilishi zarur. Xulosa qilib aytganda, turizm xizmatlarini qo‘llab-quvvatlash aholi turmush darajasini oshirishning muhim iqtisodiy va ijtimoiy vositalaridan biridir. U yangi ish o‘rinlari yaratadi, aholi daromadlarini ko‘paytiradi, oilaviy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantiradi, mahalliy resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi va hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, turizm infratuzilmasining rivoji yashash muhiti, xizmatlar sifati va ijtimoiy qulayliklarni ham yaxshilaydi. Kelgusida turizm xizmatlarini qo‘llab-quvvatlash siyosati hududiy xususiyatlar, mahalliy tashabbuslar va xizmatlar sifatini oshirish omillari bilan uyg‘unlashtirilsa, u aholi farovonligini oshirishning yanada samarali mexanizmiga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-549-son. – Toshkent, 2019-yil 18-iyul. – 1–12-betlar.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. PF-5611-son. – Toshkent, 2019-yil 5-yanvar. – 1–18-betlar.

3. O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2019. – 1–24-betlar.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasini samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Farmoni. PF-5781-son. – Toshkent, 2019-yil 13-avgust. – 1–16-betlar.

5. Mirzayev M., Aliyeva M. Turizm asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011. – 248 b.

6. Allabergenov A., Gulmetov F. Turizm geografiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2005. – 240 b.

7. Soliyev A. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari. – Toshkent: Universitet, 2014. – 280 b.

8. To‘xliyev N. O‘zbekiston iqtisodiyoti. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2010. – 368 b.

9. Rasulov A. Mintaqaviy iqtisodiyot. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2012. – 224 b.

10. Ergashev A. Xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyoti. – Toshkent: Fan, 2018. – 192 b.

11. Hamedov I., Alimov A. Tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2004. – 256 b.

12. Musayev P., Musayev J. O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. – Toshkent: Sharq, 2014. – 160 b.

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

Psychological Syndromes Formed as a Consequence of Trauma and Their Diagnostic Foundations

Qayliyeva Aziza Zakirovna

Master's Student Asian International University Bukhara, Bukhara Region, Uzbekistan

Annotation

The article analyzes the mechanisms underlying the development of psychological syndromes arising from psychological trauma, their main clinical manifestations, and diagnostic methods. In modern clinical psychology, the consequences of trauma are examined through the lens of the biopsychosocial approach, while the neuropsychological foundations of post-traumatic disorders are supported by scientific evidence. The study focuses on the criteria for identifying post-traumatic stress disorder, acute stress reaction, dissociative syndromes, and comorbid psychopathological conditions. The application of international diagnostic standards and psychometric assessment tools, as well as their practical significance, is also highlighted.

Keywords

Psychotrauma, stress syndrome, post-traumatic disorder, dissociation, diagnostics, psychometric assessment, clinical psychology.

TRAVMA OQIBATIDA SHAKLLANUVCHI PSIXOLOGIK SINDROMLAR VA ULARNING DIAGNOSTIK ASOSLARI

Qayliyeva Aziza Zakirovna,

Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti Buxoro viloyati, Buxoro shahri

Annotatsiya. Maqolada psixologik travma oqibatida yuzaga keladigan psixik sindromlarning shakllanish mexanizmlari, ularning asosiy klinik ko‘rinishlari va diagnostika usullari tahlil etiladi. Travma oqibatlari zamonaviy klinik psixologiyada biopsixososial yondashuv orqali izohlanib, posttravmatik buzilishlarning neyropsixologik asoslari ilmiy manbalar bilan asoslanadi. Tadqiqotda travmadan

keyingi stress buzilishi, akut stress reaksiyasi, dissotsiativ sindromlar va komorbid psixik holatlarni aniqlash mezonlariga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, xalqaro diagnostik standartlar va psixometrik testlarning qo‘llanishi hamda ularning amaliy ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Psixotravma, stress sindromi, posttravmatik buzilish, dissotsiatsiya, diagnostika, psixometrik baholash, klinik psixologiya.

Аннотация. В статье анализируются механизмы формирования психических синдромов, возникающих вследствие психологической травмы, их основные клинические проявления и методы диагностики. Последствия травмы в современной клинической психологии рассматриваются через призму биопсихосоциального подхода, а нейропсихологические основы посттравматических расстройств подтверждаются научными источниками. В исследовании уделяется внимание критериям выявления посттравматического стрессового расстройства, острой стрессовой реакции, диссоциативных синдромов и коморбидных психопатологических состояний. Также освещаются применение международных диагностических стандартов и психометрических тестов и их практическая значимость.

Ключевые слова: Психотравма, стрессовый синдром, посттравматическое расстройство, диссоциация, диагностика, психометрическая оценка, клиническая психология.

Kirish. Inson psixikasining turli xil travmatik omillarga nisbatan sezgirligi va ularga javob qaytarish mexanizmlari zamonaviy psixologiya, neyropsixologiya hamda klinik psixiatriya fanlarining kesishgan nuqtasida tahlil qilinmoqda. Psixik jarayonlar murakkab tizim sifatida tashqi stressorlar ta’sirida funksional jihatdan izdan chiqishi yoki patologik shakllanishlarga olib kelishi mumkin. Travmatik voqealar natijasida yuzaga keladigan psixik holatlar organizmning biologik himoya mexanizmlari, emotsional regulyatsiya tizimlari hamda shaxsning psixologik tayyorgarligi bilan

bevosita bog‘liq bo‘lib, ushbu omillar o‘zaro murakkab tarzda ta’sirlashadi. So‘nggi yillarda globallashuv, ijtimoiy keskinlik, urushlar, migratsiya jarayonlarining kuchayishi, ommaviy axborot vositalarining zo‘ravonlikni keng yoritishi, ekologik falokatlar va pandemiyalar kabi omillar insoniyatning travma bilan to‘qnashish ehtimolini sezilarli darajada oshirdi. Shu munosabat bilan psixotravmatik sindromlarni o‘rganish, ularning psixik va somatik jarayonlarga ko‘rsatadigan ta’sirini ilmiy asosda ochib berish zamonaviy ilm-fanning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Travma oqibatida paydo bo‘ladigan psixologik sindromlar o‘zining murakkab kechishi, kechikkan namoyon bo‘lishi, turli ko‘rinishlarda rivojlanishi hamda ko‘p hollarda boshqa psixik buzilishlar bilan komorbidligi bilan farqlanadi. Ushbu holatlar insonning kundalik faoliyati, shaxslararo munosabatlari, ijtimoiy moslashuvi va emotsional barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Travmatik tajribaga duchor bo‘lgan shaxslar ko‘pincha o‘z holatini izohlashda qiynaladilar, chunki travma ongda qayta ishlanmagan affektiv yuk sifatida saqlanib, vaqt o‘tgan sari uning oqibatlari yanada kuchayib boradi. Ilmiy tadqiqotlarda travma psixologik jarayonlarning bir vaqtning o‘zida ham himoya, ham buzilish mexanizmlarini ishga solishiga sabab bo‘lishi qayd etiladi. Bu esa travma natijasida shakllanadigan simptomlarning variativligini va individual farqlarni izohlashga xizmat qiladi. Travmatik tajribaning ongda qayta ishlanmasligi kognitiv jarayonlarning izdan chiqishiga, emotsional regulyatsiyaning susayishiga, vegetativ tizimda disbalansning yuzaga kelishiga olib keladi. Bu jarayonlar shaxsning tashqi muhit bilan moslashuvini murakkablashtiradi, xavfsizlik hissining pasayishiga, o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmlarining zaiflashishiga sabab bo‘ladi. Psixologik adabiyotlarda travma bilan bog‘liq sindromlar ko‘pincha organizmning favqulodda himoya tizimlari haddan tashqari faollashishi yoki mutlaqo susayishi bilan izohlanadi. Masalan, intruziv xotiralar travmatik voqeani ongning qayta-qayta tiklashi natijasida paydo bo‘lsa, dissotsiativ holatlar aksincha ongning travmadan o‘zini himoya qilish maqsadida xotirani bo‘laklash mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu sababli travma oqibatlarini aniqlash faqat klinik simptomlar amplitudasini baholash bilan cheklanmaydi. Zamonaviy ilmiy yondashuv shaxsning umumiy psixologik holatini, stressga chidamlilik darajasini, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi mavjudligini, avvalgi hayotiy tajribasini hamda psixobiologik xususiyatlarini kompleks o‘rganishni talab qiladi. Bunday integrativ yondashuv travma sindromlarini chuqur izohlash, ularni o‘z vaqtida aniqlash va to‘g‘ri tashxislash imkonini beradi. Ayniqsa, travmatik holatlarning kechikkan simptomlarini aniqlash jarayoni yuqori ilmiy yondashuvni talab qiladi, chunki ayrim simptomlar voqeadan oylar yoki yillar o‘tib namoyon bo‘lishi mumkin.

Travma sindromlarining ilmiy tadqiqi va amaliy diagnostikasi klinik psixologiya, psixoterapiya, psixonevrologiya va psixoprofilaktika sohalarining kesishgan nuqtasida amalga oshiriladi. Mazkur yo‘nalishning dolzarbligi nafaqat shaxsning ruhiy salomatligini tiklash, balki jamiyat miqyosida psixologik barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun travmatik buzilishlar bo‘yicha chuqur tahliliy tadqiqotlar zamonaviy psixologiya fanining strategik ustuvor vazifalaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Asosiy qism. Travma oqibatida shakllanuvchi psixologik sindromlar son jihatdan ko‘p, mazmun jihatdan murakkab va patologik jarayonlar spektri bo‘lib, ularning shakllanishi inson psixikasining individual xususiyatlari, biologik predispozitsiya, ijtimoiy muhit hamda hayotiy tajribalari bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu sindromlarning rivojlanish mexanizmlarini izohlashda zamonaviy psixologiya bir qator nazariy paradigmalarga tayangan holda yondashadi. Har bir paradigma travma hodisasining turli tomonlarini yoritib, sindromlarning kelib chiqishiga oid o‘ziga xos ilmiy tasnifni taklif etadi. Psixoanalitik yondashuv travmani shaxsning ichki psixik hayotida yuzaga keladigan chuqur konfliktlar, hal qilinmagan affektlar va ong ostiga bosib qo‘yilgan tajribalar natijasi sifatida talqin qiladi. Bu yondashuvga ko‘ra, travmatik voqea ong tomonidan qayta ishlanmay qolganda, u repressiya mexanizmi orqali ong ostiga surib

qo‘yiladi va u yerda patologik shaklda takrorlanib turadi. Bunday takroriy jarayon intruziv xotiralar, tush ko‘rishdagi xavotir, affektiv portlashlar, nevrotik simptomlar kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Psixoanalitik maktab shuningdek, travma shaxsning himoya mexanizmlarini zaiflashtirishini, natijada regressiv holatlar yoki dissotsiativ reaksiyalar yuzaga kelishini qayd etadi. Bu yondashuv travmaning ichki psixologik mohiyatini ochib berishi bilan ahamiyatli bo‘lib, ko‘plab psixoterapevtik metodlarning nazariy asosini tashkil etadi.

Neyropsixologik konsepsiyalar travmaning miyada yuzaga keltiradigan funksional va tuzilmaviy o‘zgarishlarini ilmiy asoslar bilan tushuntiradi. Tadqiqotlarda amigdaladagi ortiqcha faollik, gippokamp hajmining qisqarishi, prefrontal korteksning susaygan nazorat funksiyasi kabi o‘zgarishlar travmatik tajribaning davomiy oqibatlari sifatida ko‘rsatiladi. Bu o‘zgarishlar emotsional reaktsiyalarning kuchayishi, xotiraning fragmentlashtirilishi, xavotir darajasining oshishi, impulslarni boshqarishdagi qiyinchiliklar orqali namoyon bo‘ladi. Neyropsixologik yondashuv travma sindromlarini biologik asoslangan jarayon sifatida talqin qilib, ularning klinik ko‘rinishlarini fiziologik mexanizmlar bilan uzviy bog‘laydi. Ushbu konsepsiya ayniqsa posttravmatik stress buzilishining neyrobiologik mexanizmlarini ochib berishda samarali hisoblanadi. Biopsixososial model travma oqibatida shakllanuvchi sindromlarni ko‘p omilli yondashuv asosida tushuntirishga imkon berib, biologik predispozitsiya, shaxsning psixologik resurslari, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi, madaniy kontekst va hayotiy stressorlarning birgalikda ta’sir qilishini e’tirof etadi. Bu yondashuvga ko‘ra, travma sindromlarining namoyon bo‘lishi bir vaqtning o‘zida fiziologik jarayonlar, kognitiv baholash mexanizmlari va ijtimoiy munosabat tizimlari bilan belgilanadi. Misol uchun, past ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, zo‘ravonlikka yo‘naltirilgan jamiyat, iqtisodiy qiyinchiliklar va barqaror bo‘lmagan ijtimoiy muhit travmatik holatlarning kuchayishiga va surunkali tus olishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu modelning ustunligi shundaki, u inson psixikasini tizimli yondashuv bilan tahlil

qiladi va klinik amaliyotda individual reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Travma sindromlarining rivojlanishi faqat biologik yoki psixologik jarayonlarning natijasi emas, balki o‘zaro murakkab ta’sirlar oqibatida yuzaga keluvchi integrativ holatlardir. Shaxsning oldingi hayotiy tajribalari, stressga chidamlilik darajasi, emotsional intellekti, ijtimoiy rollari va madaniy qadriyatlari travmatik hodisaga psixik javobning shakllanishini belgilaydi. Shu bois har bir travma sindromi o‘ziga xos individual klinik manzara bilan namoyon bo‘ladi. Travmaning kechikkan simptomlari, uning ichki psixik jarayonlarga chuqur singib ketishi, dissotsiativ shakllarning yuzaga kelishi yoki komorbid psixik buzilishlar bilan uyg‘unlashuvi diagnostika jarayonini murakkablashtiradi.

Ushbu murakkablik diagnostika va davolash jarayonlarida integrativ yondashuvni talab qiladi. Shaxsning psixologik holatini baholashda faqat simptomlarning mavjudligini emas, balki ularning dinamikasini, travmaning shaxsiy ma’nosini, emotsional qayta ishlash darajasini va moslashuv ko‘nikmalarini chuqur tahlil qilish zarur. Zamonaviy psixologik amaliyotda travmani ko‘p qirrali tizim sifatida o‘rganish tendensiyasi kuchayib, klinik psixologiyada multidisiplinar yondashuv keng qo‘llanilmoqda.

Travmadan keyingi stress buzilishi zamonaviy klinik psixologiyada eng ko‘p uchraydigan va ilmiy tadqiqotlar markazida turgan sindromlardan biri hisoblanadi. Ushbu buzilishning diagnostik manzarasi intruziv xotiralar, kuchaygan xavotir, sezgirlikning oshishi, giperarousal holati, uyqu jarayonining izdan chiqishi, ijtimoiy chekinish, emotsional beqarorlik va disfassional xatti-harakatlar bilan xarakterlanadi. Intruziv xotiralar travmatik hodisaning ongga takror-takror bostirib kirishini anglatib, shaxsda reallikni to‘g‘ri qabul qilishni qiyinlashtiradi. Bu jarayonlar ko‘pincha fiziologik qo‘zg‘alishning ortishi, yurak urishining tezlashishi, tanada kuchlanish va xavf signaliga ortiqcha sezuvchanlik bilan kechadi. Shaxs travma bilan bog‘liq

vaziyatlardan qochishga harakat qiladi, ijtimoiy munosabatlar torayadi, hissiy reaksiya spektri esa pasayib boradi.

Neyrobiologik tadqiqotlar PTSDning shakllanishida miya strukturaviy va funksional tizimlarida chuqur o‘zgarishlar yuz berishini ko‘rsatadi. Amigdaladagi ortiqcha qo‘zg‘aluvchanlik tashqi muhitdagi signallarni doimiy xavf sifatida talqin qilishga olib keladi; gippokampning funktsional pasayishi esa xotiralarni izchil qayta ishlashni buzib, travmatik epizodlarni fragmentar tarzda ongga qayta tiklanishiga sabab bo‘ladi. Prefrontal korteksning susaygan faoliyati emotsional nazoratning pasayishiga, impulsiv reaksiyalarning kuchayishiga va shaxsning o‘z xulqini boshqarish qobiliyatining izdan chiqishiga olib keladi. Ushbu neyropsixologik jarayonlar birgalikda travmani qayta ishlashni susaytirib, patologik emotsional javoblarning kuchayishiga zamin yaratadi.

Akut stress reaksiyasi travmatik hodisa sodir bo‘lgan zahoti yuzaga keladigan qisqa muddatli, ammo klinik jihatdan juda muhim holat bo‘lib, organizmning favqulodda psixofiziologik javobi sifatida talqin qilinadi. Bunda kuchli affektiv portlashlar, panik holatlar, vegetativ tizimning izdan chiqishi, charchoq, hushyorlikning ortishi, qo‘rqinch hissining keskin kuchayishi kabi ko‘rinishlar kuzatiladi. Fikrlash tezligi pasayib, shaxs o‘z xatti-harakatlarini boshqarishda qiyinchiliklarga duch keladi. Ushbu holat ko‘pincha vaqtinchalik bo‘lishiga qaramay, uni e’tiborsiz qoldirish yoki noto‘g‘ri baholash kelajakda PTSDning rivojlanish ehtimolini sezilarli oshiradi. Shuning uchun akut stress reaksiyasi travma jarayonining erta diagnostikasida muhim klinik indikator sifatida qaraladi.

Dissotsiativ sindromlar travma bilan bog‘liq bo‘lgan eng murakkab psixologik fenomenlardan biri bo‘lib, ongning ma’lum tarkibiy qismlari reallikdan vaqtinchalik ajralib qolishi bilan izohlanadi. Dissotsiatsiya psixikaning o‘zini himoya qilish mexanizmi sifatida namoyon bo‘lib, travmatik tajribani ongdan vaqtinchalik chetlashtirish orqali shaxsni haddan tashqari emotsional yukdan himoya qiladi.

Dissotsiativ amneziya travmatik voqeaga oid xotiralarni eslay olmaslik bilan tavsiflanadi; depersonalizatsiya shaxsning o‘z tanasidan yoki fikrlaridan begonalashib qolganini his etishi bilan kechadi; derealizatsiya esa tashqi olamning haqiqiy emasdek ko‘rinishi orqali namoyon bo‘ladi. Ko‘p qirrali identifikatsiya buzilishi travmaning og‘ir va uzoq davom etgan shakllarida uchrab, odatda bolalik davridagi zo‘ravonlik, psixologik bosim yoki oilaviy travmalar bilan bog‘lanadi. Ilmiy adabiyotlarda dissotsiativ jarayonlarning aynan erta yoshdagi travmatik tajribalarga nisbatan yuqori sezgirlikka ega ekani qayd etiladi.

Travma ko‘pincha depressiya, generalizatsiyalangan xavotir buzilishi, panik xurujlar, obsesiv-kompulsiv simptomlar, somatoform buzilishlar bilan birga kechadi. Bunday komorbid klinik holatlarda simptomlarning o‘zaro ustma-ust tushishi diagnostika jarayonini murakkablashtiradi. Masalan, PTSDdagi intruziv xotiralar depressiv holatdagi ruminativ fikrlar bilan chatishtirilishi mumkin yoki xavotir buzilishidagi vegetativ simptomlar akut stress reaksiyasi indikatorlari bilan bir-biriga o‘xshashi mumkin. Shu sababli komorbid travmatik buzilishlarni aniqlash klinik psixolog va psixiatrlarning integrativ yondashuvini talab qiladi. Travma sindromlarini diagnostika qilish ilmiy asoslangan, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan murakkab jarayon bo‘lib, unda klinik suhbatning to‘g‘ri tashkil etilishi, shaxsning anamnezini puxta o‘rganish va simptomlarning rivojlanish dinamikasini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro standartlar asosida qo‘llaniladigan psixometrik testlar diagnostika jarayonining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, CAPS-5 travmadan keyingi stress buzilishining batafsil klinik bahosini ta’minlaydi; PCL-5 simptomlar og‘irligini o‘lchashda samarali hisoblanadi; DASS-21 stress, depressiya va xavotir ko‘rsatkichlarini aniqlaydi; HADS emotsional buzilishlarni klinik sharoitda tezkor baholashga xizmat qiladi; BDI depressiv simptomlarning intensivligini o‘lchaydi; DES esa dissotsiativ holatlarning chuqurligini aniqlashda keng qo‘llaniladi. Ushbu testlar

nafaqat tashxis qo‘yishda, balki terapevtik jarayonni rejalashtirishda ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Diagnostikaning sifatli tashkil etilishi travma oqibatlarini yumshatish, shaxsning psixologik barqarorligini tiklash va individual psixoterapevtik strategiyalarni ishlab chiqishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu bois travma sindromlarini chuqur tahlil qilish, multidisiplinar yondashuvni qo‘llash va zamonaviy diagnostik vositalardan foydalanish klinik psixologiyaning asosiy ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

This article analyzes the theoretical foundations, current state, and promising directions of the strategy for increasing regional export potential in Uzbekistan. Proposals and recommendations have been developed regarding the diversification of export structure, the development of logistics infrastructure, mechanisms for supporting exporters, and the use of digital trade opportunities. Conclusions and suggestions are formulated based on a comparative study of national and international practices.

Keywords

regional export, export potential, export diversification, logistics infrastructure, digital trade, international competitiveness, branding, Uzbekistan.

MINTAQAVIY EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH STRATEGIYASI

Jumanazarov Alisher Ro'ziboy o‘g‘li

Osiyo Xalqaro Universiteti Iqtsodiyot yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda mintaqaviy eksport salohiyatini oshirish strategiyasining nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbolli yo‘nalishlari tahlil qilingan. Eksport tarkibini diversifikatsiya qilish, logistika infratuzilmasini rivojlantirish, eksportchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari va raqamli savdo imkoniyatlaridan foydalanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Milliy tajriba va xorij amaliyotini qiyosiy o‘rganish asosida xulosa va takliflar bayon etilgan.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические основы, текущее состояние и перспективные направления стратегии повышения регионального экспортного потенциала в Узбекистане. Разработаны предложения и рекомендации по диверсификации структуры экспорта, развитию логистической инфраструктуры, механизмам поддержки экспортеров и использованию

возможностей цифровой торговли. На основе сравнительного изучения отечественного и зарубежного опыта сформулированы выводы и предложения.

Kalit so‘zlar: mintaqaviy eksport, eksport salohiyati, eksport diversifikatsiyasi, logistika infratuzilmasi, raqamli savdo, xalqaro raqobatbardoshlik, brending, O‘zbekiston.

Mintaqaviy eksport salohiyatini oshirish so‘nggi o‘n yillikda mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish nazariyasi va amaliyotining eng dolzarb masalalaridan biriga aylandi. O‘zbekiston jadal o‘zgarayotgan iqtisodiyot sifatida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida tashqi savdo siyosatini faol islohotlardan o‘tkazmoqda. Mintaqalarning eksport faolligini oshirish shunchaki valyuta tushumlarini ko‘paytirish vositasi emas, balki mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash, innovatsion texnologiyalarni jalb qilish va hududiy iqtisodiyotni jahon iqtisodiy tizimiga integratsiya qilishning asosiy mexanizmi hisoblanadi.

O‘zbekistonning eksport salohiyatidagi hozirgi holat sezilarli yutuqlarni aks ettiradi. So‘nggi yillarda mamlakat eksport hajmi izchil o‘sib bormoqda, eksport tarkibida noxom ashyo mahsulotlarining ulushi asta-sekin kengaymoqda, yangi bozorlar - Yevropa Ittifoqi, Janubiy va Janubi-sharqiy Osiyo, Yaqin Sharq mamlakatlariga chiqish jarayoni jadallashmoqda. “Eksportni qo‘llab-quvvatlash agentligi”ning tashkil etilishi, “Eksport” elektron platformasining ishga tushirilishi, GSP+ kabi imtiyozli savdo rejimlarining qo‘llanilishi va eksport prosseduralarining sezilarli soddalashtirilishi kabi chora-tadbirlar tashqi savdo muhitini yaxshilashga xizmat qildi. Biroq erishilgan yutuqlarga qaramay, mamlakat va uning mintaqalari eksport salohiyatining to‘liq ro‘yobga chiqishiga to‘sqinlik qiluvchi tarkibiy va operatsion muammolar saqlanib qolmoqda.

Asosiy muammolardan biri mintaqalar o‘rtasidagi eksport faolligi darajasidagi katta nomutanosibliklardir. Toshkent shahri va viloyati, Andijon, Farg‘ona kabi

rivojlangan mintaqalar mamlakat umumiy eksportining katta qismini ta'minlar ekan, Xorazm, Qoraqalpog‘iston, Surxondaryo, Jizzax kabi mintaqalarning eksport ulushi ancha past darajada qolmoqda. Bu mintaqaviy nomutanosiblik nafaqat hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni chuqurlashtiradi, balki mamlakatning umumiy eksport salohiyatining to‘liq amalga oshmasligiga ham olib keladi. Ushbu muammoni hal etish chekka hududlarda eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish, logistika infratuzilmasini takomillashtirish va eksportchi tadbirkorlik subyektlariga mintaqaviy darajada maxsus yordam tizimini tashkil etishni talab qiladi.

Eksport salohiyatiga ta’sir etuvchi yana bir muhim omil eksport tarkibining diversifikatsiya darajasidir. O‘zbekiston eksportining sezilarli qismini hanuz an’anaviy mahsulotlar - paxta, oltin, tabiiy gaz, mis, mineral o‘g‘itlar tashkil etadi. Yuqori qo‘shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar, qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari, to‘qimachilik buyumlari va xizmatlar eksportining ulushi yetarli darajada emas. Ushbu muammoni hal etish mintaqaviy darajada qayta ishlash sanoatini rivojlantirish, klasterli yondashuv asosida ixtisoslashgan eksport tarmoqlarini shakllantirish va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirishni talab qiladi. Xorazm viloyatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, to‘qimachilik va hunarmandchilik sohalarining eksportga yo‘naltirilishi katta imkoniyatlar yaratadi.

Logistika va transport infratuzilmasining holati mintaqaviy eksport salohiyatining muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Quruqlikda joylashgan davlat sifatida O‘zbekiston dengiz portlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyatiga ega emas va eksport mahsulotlari qo‘shni davlatlar hududidan transit yo‘l bilan jahon bozorlariga yetkazib beriladi. Bu holat transport xarajatlarining yuqori bo‘lishiga, yetkazib berish muddatlarining cho‘zilishiga va eksport raqobatbardoshligining pasayishiga olib keladi. Ushbu cheklovlarni yengib o‘tish uchun zamonaviy transport-logistika xablarini barpo etish, multimodal transport tizimini rivojlantirish, “Eksport-bojxona” elektron prosseduralarini soddalashtirish va xalqaro transport koridorlariga faol integratsiya

qilish strategik ahamiyatga ega. Xorazm viloyati Markaziy Osiyo va Kavkaz transport koridorlariga yaqin joylashganligi sababli, viloyat hududida regional logistika markazini barpo etish mintaqa eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Texnologik nuqtai nazardan mintaqaviy eksport salohiyatini raqamli savdo va elektron tijorat imkoniyatlarini keng tatbiq etish orqali sezilarli darajada oshirish mumkin. Raqamli platformalar mintaqadagi kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlariga geografik chegaralarni yengib o‘tib, jahon bozorlariga bevosita chiqish imkonini beradi. Alibaba, Amazon, eBay va boshqa global elektron savdo platformalari, shuningdek mahalliy “Uztrade” va “Birja” tizimlari mintaqaviy mahsulotlar uchun yangi savdo kanallarini ochadi. Janubiy Koreya, Xitoy va Singapur kabi davlatlar raqamli savdoga keng o‘tish orqali eksport hajmini bir necha barobar oshirgan bo‘lib, O‘zbekiston ham bu tajribalardan qimmatli saboqlar olishi mumkin. Mintaqaviy darajada raqamli savdo bo‘yicha o‘quv markazlari va konsultatsiya xizmatlarini tashkil etish kichik tadbirkorlarning elektron eksport faoliyatiga jalb etilishini ta'minlaydi.

Eksportchi korxonalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimi mintaqaviy eksport salohiyatini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, “Eksportni qo‘llab-quvvatlash agentligi” va “Uzbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi tomonidan keyingi yillarda imtiyozli eksport krediti, eksport sug‘urtasi, transport xarajatlarining qisman qoplanishi va xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok etish uchun grant ajratish kabi muhim qadamlar tashlandi. Ushbu mexanizmlarni mintaqaviy darajada kuchaytirish, har bir viloyatda eksport yordam markazlarini tashkil etish va kichik eksportchilar uchun maxsus dasturlarni ishlab chiqish katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, eksport bo‘yicha bojxona, soliq va valyuta tartibga solish me’yorlarini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish global savdo tizimiga keng integratsiya qilishni ta'minlaydi.

Mintaqaviy brending va xalqaro marketing mintaqaviy eksport salohiyatini oshirishning yana bir istiqbolli yo‘nalishini ifodalaydi. Geografik nomdan kelib chiqqan mahsulot brendlari (“Xiva to‘qimachiligi”, “Xorazm qovuni”, “Buxoro ipagi”,

“Samarqand non”), sifat sertifikatlari (geografik nomning himoyasi, ekologik toza mahsulot sertifikatlari, “Halol” va “Organic” standartlari) mintaqa mahsulotlarining xalqaro bozorlarda taniqliligini va raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi. Madaniy diplomatiya, xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok, xorijiy tillarda axborot resurslarini yaratish va raqamli marketing strategiyalaridan foydalanish mintaqaning xalqaro savdo va investitsiya jozibadorligini oshiruvchi muhim omillardir.

Mintaqaviy eksport salohiyatini oshirish inson kapitali masalalarini ham hisobga olishi kerak. Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida yuqori malakali kadrlar - xalqaro savdo mutaxassislari, logistika menejerlari, tarjimonlar, raqamli marketing mutaxassislari va xalqaro huquq bo‘yicha ekspertlarning yetishmasligi mintaqalar eksport salohiyatining to‘liq ro‘yobga chiqishiga to‘sqinlik qiladi. Bu muammoni hal etish uchun mintaqadagi oliy ta’lim muassasalarida tashqi iqtisodiy faoliyat yo‘nalishidagi o‘quv dasturlarini kengaytirish, xorijiy tillarni o‘qitishni kuchaytirish, amaliyot va stajirovkalarni xorijiy korxonalarda tashkil etish hamda eksportchilar uchun qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish strategik ahamiyatga ega.

Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari mintaqaviy eksport salohiyatini oshirishda qo‘shimcha imkoniyatlarni taqdim etadi. Logistika markazlari, eksport terminallari, sovutgich zanjirlari va qayta ishlash korxonalarini barpo etishda davlat va xususiy sektor resurslarini birlashtirish katta investitsion loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi. Vauher tizimlari, eksport obligatsiyalari, xayriya va investitsiya jamg‘armalari, konsessiya asosida eksport infratuzilmasini boshqarish kabi zamonaviy mexanizmlarni mintaqaviy darajada joriy etish katta istiqbolga ega.

Xalqaro tajriba mintaqaviy eksport salohiyatini muvaffaqiyatli oshirgan davlatlar bir nechta umumiy xususiyatlarga ega ekanligini tasdiqlaydi: kuchli siyosiy iroda va izchil eksport siyosati, eksportchilarni davlat tomonidan keng qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy logistika va raqamli savdo infratuzilmasi, yuqori malakali inson kapitali va xalqaro standartlarga muvofiq tartibga solish tizimi. Janubiy Koreya, Vetnam, Polsha va Turkiya tajribasi eksport salohiyatini oshirishning samarali modellari sifatida o‘rganishga arzigulik. Bu davlatlar eksport rivojlantirish strategiyalarini izchil amalga

oshirish orqali yarim asr ichida eksport tarkibini tubdan o‘zgartirib, jahon iqtisodiyotidagi o‘rinlarini sezilarli darajada mustahkamlagan.

O‘zbekistonning mintaqaviy eksport salohiyatini oshirish yo‘li ushbu tamoyillarni mamlakatning o‘ziga xos iqtisodiy, geografik va institutsional konteksti bilan moslashtirgan holda o‘z ichiga olishi kerak. Xorazm viloyati misolida bu strategiya viloyatning qishloq xo‘jaligi salohiyati, hunarmandchilik va to‘qimachilik an'analari, madaniy turizm imkoniyatlari va geografik joylashuvi kabi noyob omillarni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, mintaqaviy eksport salohiyatini oshirish strategiyasi muvofiqlashtirilgan va ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladi. Eksport tarkibini diversifikatsiya qilish, logistika infratuzilmasini rivojlantirish, eksportchilarni davlat tomonidan kompleks qo‘llab-quvvatlash, raqamli savdo platformalaridan foydalanish, mintaqaviy brendingni shakllantirish, malakali kadrlar tayyorlash va davlat-xususiy sherikligini kengaytirish zarur. Ushbu yo‘nalishlarning izchil amalga oshirilishi nafaqat Xorazm viloyati va boshqa mintaqalarning eksport faolligini sezilarli darajada oshiradi, balki mamlakatning umumiy iqtisodiy o‘sishiga, valyuta tushumlarini ko‘paytirishga, aholi bandligini ta'minlashga va jahon iqtisodiy tizimiga inklyuziv integratsiya qilishga ham muhim hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, 2023.
- O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. Yillik hisobot, 2024.
- Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 2021.
- WTO. World Trade Statistical Review. Geneva, 2024.
- UNCTAD. Digital Economy Report: Cross-Border Data Flows and Development. Geneva, 2023.
- Qurbanov F.B. Mintaqa eksport salohiyatini oshirish yo‘nalishlari. Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2023.

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

THE ISSUE OF POETIC MASTERY IN THE WORKS OF MUHAMMAD RAHIMKHAN FERUZ

Alishova Aynura Baurjanovna
1st-year Master's Student Faculty of Uzbek and Russian Philology Urgench Branch of Asian International University

Abstract

This article analyzes the issue of poetic mastery in the creative work of Muhammad Rahimkhan Soniy Feruz, a prominent representative of the Khorezm literary environment of the second half of the 19th and the beginning of the 20th centuries, Khan of Khiva and poet. Based on the poet's ghazals, divan poetry, and lyrical heritage, the use of artistic-figurative devices, achievements in the field of poetic meter and rhyme, the relationship between tradition and innovation, and the image of the lyrical hero are examined. Conclusions and suggestions are formulated based on comparison with the traditions of national classical literature and the Khorezm literary school.

Keywords

Muhammad Rahimkhan Feruz, Khorezm literary environment, classical literature, ghazal poetry, poetic mastery, literary devices, aruz meter, lyrical hero, culture of the Khiva Khanate.

MUHAMMAD RAHIMXON FERUZ IJODIDA POETIK MAHORAT MASALASI

Alishova Aynura Baurjanovna
Osiyo Xalqaro Universiteti Urganch filialining O'zbek va rus tillari filologiyasi fakulteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhitining yirik vakili, Xiva xoni va shoir Muhammad Rahimxon Soniy Feruz ijodida poetik mahorat masalasi tahlil qilingan. Shoirning g‘azaliyoti, devon she’riyati va lirik merosi misolida badiiy-tasviriy vositalarning qo‘llanilishi, vazn va

qofiya san’atidagi yutuqlar, an’ana va yangilik munosabati hamda lirik qahramon obrazi tahlil etilgan. Milliy mumtoz adabiyot va Xorazm adabiy maktabi an’analari qiyosida xulosa va takliflar bayon etilgan.

Аннотация: В данной статье анализируется проблема поэтического мастерства в творчестве Мухаммада Рахим-хана Соний Феруза - крупного представителя хорезмской литературной среды второй половины XIX и начала XX веков, хивинского хана и поэта. На примере газелей, диванной поэзии и лирического наследия поэта рассмотрены использование художественно-изобразительных средств, достижения в области стихотворного размера и рифмы, соотношение традиции и новаторства, а также образ лирического героя. На основе сравнения с традициями национальной классической литературы и хорезмской литературной школы сформулированы выводы и предложения.

Kalit so‘zlar: Muhammad Rahimxon Feruz, Xorazm adabiy muhiti, mumtoz adabiyot, g‘azaliyot, poetik mahorat, badiiy san’atlar, aruz vazni, lirik qahramon, Xiva xonligi madaniyati.

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlari alohida o‘rin tutadi. Bu davr o‘zbek she’riyati uzoq an’analarni davom ettirgan holda yangi badiiy izlanishlar bilan boyigan, mintaqaviy adabiy maktablar o‘z xususiyatlarini namoyon etgan davr hisoblanadi. Aynan shu davrda Xorazm adabiy muhiti maxsus ko‘tarilish bosqichini boshdan kechirdi va o‘zbek adabiyotiga bir qator yetuk shoirlarni hadya etdi. Bu shoirlar orasida Muhammad Rahimxon Soniy Feruz alohida ajralib turadi. U Xiva xonligining oxirgi davrida hukmronlik qilgan davlat arbobi bo‘lish bilan birga, iste’dodli shoir, ma'rifatparvar shaxs va madaniyat homiysi sifatida ham nom qoldirgan ulkan siymolardan biridir. Feruz ijodida poetik mahorat masalasini chuqur tahlil qilish nafaqat shoirning o‘zbek mumtoz adabiyotidagi o‘rnini aniqlashga, balki Xorazm adabiy maktabining o‘ziga xos badiiy belgilarini ham yoritishga xizmat qiladi.

Muhammad Rahimxon Feruz ijodining tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilishi hali to‘liq ekanini aytib bo‘lmaydi. Sovet davrida shoirning hukmdor sifatidagi mavqei sababli uning ijodi ko‘pincha bir tomonlama yoritildi yoki yetarli e’tiborga sazovor bo‘lmadi. Mustaqillik yillaridan boshlab esa Feruz devoni va lirik merosi qayta o‘rganila boshlandi, shoirning badiiy mahorati va adabiy ahamiyati borasida yangi tadqiqotlar yuzaga keldi. Hozirgi adabiyotshunoslik fanida Feruz ijodida poetik mahorat masalasini kompleks o‘rganish, uni jahon adabiyoti konteksti va milliy mumtoz an’analar tizimida o‘rganish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Feruz ijodida poetik mahoratning birinchi va eng yorqin namoyon bo‘ladigan jihati uning aruz tizimi bilan ishlash mahoratidir. Mumtoz o‘zbek she’riyatida aruz vazni she’r badiiyligining asosiy mezonlaridan biri sanaladi va shoirning iqtidori ko‘p jihatdan aruz bahrlarini qanchalik mohirona qo‘llay olishi bilan o‘lchanadi. Feruz devoni tahlil etilganda, shoir aruzning eng murakkab bahrlari - ramal, hazaj, muzore, mujtass, ramazi musamman maxbun va boshqa shakllardan erkin foydalanganligi, har bir bahrning o‘ziga xos musiqiyligini ma'no chuqurligi bilan uyg‘unlashtira olganligi yaqqol ko‘rinadi. Shoirning g‘azallarida vazn ohangdoshligi va ritm tartibi qat’iy saqlanadi, har bir misraning bo‘g‘in tuzilishi badiiy maqsadga xizmat qiladi. Bu shoirning aruz san’atidagi yetukligidan va mumtoz she’riyat an’analarini chuqur o‘zlashtirganligidan dalolat beradi.

Qofiya va radif tanlovi ham Feruz poetik mahoratining muhim ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Shoir g‘azallarida murakkab qofiya tizimi va boy radiflardan unumli foydalanadi. Radifning g‘azal mazmuni va musiqiyligini ta'minlashdagi roli Feruz ijodida alohida ahamiyatga ega. Shoir radif sifatida ba'zan bir so‘zni, ba'zan butun bir iborani tanlaydi va bu radifning har g‘azalda yangi mazmun chizgilarini yuzaga chiqarishini ta’minlaydi. Bunday yondashuv shoirning so‘z tanlashdagi nozik didini va mumtoz she’riy texnikani mukammal egallaganligini ko‘rsatadi.

Badiiy-tasviriy vositalarning boy va xilma-xil qo‘llanilishi Feruz ijodida poetik mahoratning yana bir muhim qirrasini tashkil etadi. Shoir tashbih, isti'ora, kinoya, mubolag‘a, tazod, talmih, tajnis, iyhom, husni ta’lil, ta'kid va boshqa ko‘plab mumtoz badiiy san’atlardan keng foydalanadi. Bu san’atlar shunchaki bezak vazifasini bajarmaydi, balki she’r mazmunining ko‘p qatlamli badiiy strukturasini shakllantirishga xizmat qiladi. Feruz g‘azallarida bir misrada bir necha badiiy san’at uyg‘un qo‘llanilishi, ularning bir-birini ma'no jihatdan to‘ldirib turishi shoirning yuksak badiiy didini namoyon etadi. Ayniqsa, tajnis va iyhom san’atlari Feruz ijodida o‘ziga xos badiiy effekt yaratadi: bir so‘zning bir necha ma'noda kelishi g‘azalga ramziy chuqurlik baxsh etadi va o‘quvchini matnni qayta-qayta o‘qishga, har gal yangi ma'no qatlamini topishga undaydi.

Mumtoz obrazlar va ramzlar tizimini Feruz o‘ziga xos tarzda boyitdi. O‘zbek mumtoz she’riyatining an’anaviy obrazlari - gul va bulbul, sham va parvona, soqiy va may, ko‘zgu va aks, dilbar va oshiq, vasl va hijron kabi ramzlar Feruz g‘azallarida shunchaki takrorlanmaydi, balki shoir hayotiy tajribasi va falsafiy qarashlari prizmasidan o‘tib yangicha mazmunda namoyon bo‘ladi. Masalan, an’anaviy oshiq obrazi Feruz ijodida ko‘pincha hukmronlik yukini his etgan, davlat g‘amini chekayotgan, ayni paytda ilohiy muhabbatga intilayotgan lirik qahramon obrazi bilan uyg‘unlashadi. Bu obrazning ko‘p qatlamliligi shoir ijodiga maxsus ruhiy chuqurlik baxsh etadi.

Lirik qahramonning ichki dunyosini tasvirlash mahorati Feruz poetik iqtidorining alohida belgisi hisoblanadi. Mumtoz adabiyotda lirik qahramon ko‘pincha umumiy va idealizatsiya qilingan obraz sifatida tasvirlanadi, biroq Feruz g‘azallarida bu obraz aniq tarixiy va shaxsiy bo‘yoqlarga ega. Lirik qahramon ham oshiq, ham ma'rifatparvar inson, ham mas'uliyat his etayotgan hukmdor, ham tasavvuf yo‘lining yo‘lovchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu ko‘p qirralilik shoirning hayotiy tajribasi, salbiy va ijobiy kechinmalari, davlat boshqaruvidan kelib chiqqan o‘ylari hamda ma'naviy-falsafiy

izlanishlari natijasidir. Feruz lirik qahramonining bunday boyligi shoirning shaxsiy uslubini boshqa mumtoz shoirlardan ajralib turishini ta'minlaydi.

Ma'rifatparvarlik motivlari Feruz ijodida alohida mavqega ega bo‘lib, bu shoirning poetik mahorati doirasida g‘oyaviy yetuklikni belgilab beradi. Shoir she’rlarida ilm-ma'rifatga da'vat, jaholatga qarshi tanqid, axloqiy poklik tarannumi, insoniylik va adolat tuyg‘ulari ustuvor o‘rin tutadi. Feruz hukmdor sifatida o‘z davrida Xivada bosma kitob nashrini yo‘lga qo‘yish, kutubxonalar tashkil etish, ilm-fan va san’at vakillarini qo‘llab-quvvatlash kabi muhim ma'rifiy ishlarni amalga oshirgan. Bu ma'rifatparvarlik faoliyati uning ijodida ham o‘z aksini topadi: shoir she’rlarida ilm o‘rganish, kitob o‘qish, ma'naviy kamolotga intilish g‘oyalari yorqin ifoda etiladi. Bu jihatdan Feruz o‘zbek ma'rifatparvar adabiyotining yetuk vakili sifatida namoyon bo‘ladi.

Tasavvuf falsafasining ta'siri Feruz ijodida muhim o‘rin tutadi va shoir poetik mahoratining metafizik chuqurligini belgilab beradi. Mumtoz o‘zbek she’riyatida tasavvuf ramzlari va falsafiy qarashlari deyarli barcha yirik shoirlar ijodida uchraydi, biroq har bir shoir bu an’anani o‘ziga xos tarzda talqin qiladi. Feruz tasavvuf ramzlarini ishlatishda Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab, Sufi Olloyor kabi salaflar an’anasini davom ettiradi, ammo ularni shaxsiy ruhiy tajribasi orqali yangi mazmun bilan boyitadi. Shoir g‘azallarida ilohiy muhabbat, fano va baqo tushunchalari, ma'rifati ilohiy izlanish kabi tasavvuf mavzulari nozik badiiy talqinda namoyon bo‘ladi.

Feruz ijodining yana bir muhim xususiyati uning Xorazm musiqiy san’ati bilan organik bog‘liqligidir. Shoirning ko‘pchilik g‘azallari Xorazm an’anaviy maqomlari va xalq qo‘shiqlariga asos bo‘lib xizmat qilgan. Aynan Feruz homiyligida “Olti yarim maqom”ning tartibga solinishi, “Feruz” maqomining shakllanishi va Xorazm musiqasining notalashtirilishi amalga oshirildi. Shoir g‘azallarining vazni, so‘z tanlovi va ohangdorligi musiqiy ijroni hisobga olgan holda ishlangan. Bu Feruz she’riyatining xalq orasida keng tarqalishini, og‘izdan og‘izga o‘tib bugungi kungacha mumtoz qo‘shiqchilik repertuarining muhim qismi bo‘lib qolishini ta'minladi.

Xorazm adabiy maktabining o‘ziga xos belgilari Feruz ijodida yaqqol namoyon bo‘ladi. Tabiiyki, mumtoz o‘zbek adabiyoti yagona an’ana doirasida rivojlangan, ammo mintaqaviy adabiy maktablarning o‘ziga xos uslubiy belgilari mavjud. Xorazm adabiy maktabi xalqona soddalik bilan mumtoz murakkablikning uyg‘unlashishi, musiqaviy ohangdorlikka alohida e’tibor, ma'rifatparvarlik motivlarining ustuvorligi va falsafiy chuqurlik bilan tavsiflanadi. Bu xususiyatlarning barchasi Feruz ijodida o‘z ifodasini topadi va shoirni Xorazm adabiy maktabining yorqin vakili sifatida belgilaydi.

Feruz ijodida an’ana va yangilik munosabati alohida o‘rganishga arzigulik masaladir. Shoir mumtoz an’analarni chuqur o‘zlashtirgan, Alisher Navoiy, Lutfiy, Bobur, Mashrab, Munis va Ogahiy kabi salaflar tajribasini puxta egallagan. Ayni paytda u an’analarni shunchaki takrorlash bilan cheklanmaydi, balki ularga shaxsiy va davriy bo‘yoq baxsh etadi. Feruz g‘azallarida XIX asr ikkinchi yarmi Xorazmining tarixiy, ijtimoiy va madaniy muhiti aks etadi, shoirning shaxsiy tajribasi va davlat arbobi sifatidagi mas'uliyati uning lirikasiga o‘ziga xos rang beradi.

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Rahimxon Feruz ijodida poetik mahorat masalasi ko‘p qirrali va boy mavzu bo‘lib, uni chuqur tahlil qilish o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixidagi muhim bir bosqichni yoritishga xizmat qiladi. Shoirning aruz san’atidagi yetukligi, qofiya va radif tanlovidagi nozik didi, badiiy-tasviriy vositalarning xilma-xil qo‘llanilishi, mumtoz obrazlarni yangicha talqin qilishi, lirik qahramon obrazining ko‘p qirraliligi, ma’rifatparvarlik motivlarining ustuvorligi, tasavvuf falsafasi bilan organik bog‘liqligi va musiqiy san’at bilan uyg‘unligi Feruzni o‘zbek mumtoz adabiyotining yetuk vakili sifatida belgilab beradi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan milliy meros va ma'naviy qadriyatlarni qayta tiklash hamda yosh avlodga yetkazish vazifalari kontekstida Feruz ijodini kompleks o‘rganish, uning asarlarini ilmiy izohlar bilan nashr etish va xorijiy tillarga tarjima qilish dolzarb ishlardan biri hisoblanadi. Bu nafaqat o‘zbek adabiyotshunosligini boyitadi, balki

Xorazm adabiy maktabi an’analarini saqlash va jahon adabiy hamjamiyatiga tanitishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi, 2022.
- Yusupov O. Feruz - shoir va davlat arbobi. Toshkent: “Fan”, 2022.
- Komilov N. Tasavvuf va mumtoz adabiyotda badiiy ramzlar tizimi. Toshkent: “Movarounnahr”, 2021.
- Qosimov B. Xorazm adabiy muhiti va Feruz ijodi. Urganch: "Xorazm", 2023.
- Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat lug‘ati. Toshkent: "Sharq", 2021.
- Matyoqubov O. Xorazm musiqiy merosi va Feruz an’analari. Toshkent: "San’at", 2022.

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

PRACTICAL MECHANISMS FOR ENSURING INFORMATION AND PSYCHOLOGICAL SECURITY IN POLITICAL COMMUNICATION PROCESSES

Siddiqov Asroriddin Erkinboy o‘g‘li
4th-year Student, Political Science Program Faculty of Social Sciences
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Abstract: This article provides an in-depth analysis of practical mechanisms for ensuring informational and psychological security in political communication processes. In the context of the rapid development of the global information space, the expansion of digital platforms, and the direct impact of social networks on political processes, the issue of informational and psychological security is gaining relevance. The study scientifically studies the mechanisms of manipulative influences, disinformation, fake news, and psychological pressure that arise in the process of information exchange between subjects of political communication. The results of the study show that ensuring informational and psychological security in political communication processes requires a comprehensive approach, in which, along with technological protection tools, strengthening socio-psychological stability is an important factor.

Keywords: political communication, information and psychological security, disinformation, media literacy, digital platforms, manipulation, social networks.

SIYOSIY KOMMUNIKATSIYA JARAYONLARIDA AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHNING AMALIY MEXANIZMLARI.

Siddiqov Asroriddin Erkinboy o‘g‘li
Mirzo Ulug`bek nomidagi
O’zbekiston Milliy Unversiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Siyosatshunoslik yo’nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada siyosiy kommunikatsiya jarayonlarida axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlashning amaliy mexanizmlari chuqur tahlil qilinadi.

Global axborot makonining tez sur’atlarda rivojlanishi, raqamli platformalarning kengayishi hamda ijtimoiy tarmoqlarning siyosiy jarayonlarga bevosita ta’siri sharoitida axborot-psixologik xavfsizlik masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqotda siyosiy kommunikatsiya subyektlari o‘rtasidagi axborot almashinuvi jarayonida yuzaga keladigan manipulyativ ta’sirlar, dezinformatsiya, feyk yangiliklar va psixologik bosim mexanizmlari ilmiy asosda o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari siyosiy kommunikatsiya jarayonlarida axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlash kompleks yondashuvni talab etishini, bunda texnologik himoya vositalari bilan bir qatorda ijtimoiy-psixologik barqarorlikni mustahkamlash muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: siyosiy kommunikatsiya, axborot-psixologik xavfsizlik, dezinformatsiya, media-savodxonlik, raqamli platformalar, manipulyatsiya, ijtimoiy tarmoqlar.

Аннотация: В данной статье представлен углубленный анализ практических механизмов обеспечения информационно-психологической безопасности в процессах политической коммуникации. В контексте стремительного развития глобального информационного пространства, расширения цифровых платформ и прямого влияния социальных сетей на политические процессы вопрос информационно-психологической безопасности приобретает все большую актуальность. В исследовании научно изучаются механизмы манипулятивного воздействия, дезинформации, фейковых новостей и психологического давления, возникающие в процессе обмена информацией между субъектами политической коммуникации. Результаты исследования показывают, что обеспечение информационно-психологической безопасности в процессах политической коммуникации требует комплексного подхода, в котором наряду с технологическими средствами защиты важным фактором является укрепление социально-психологической стабильности.

Ключевые слова: политическая коммуникация, информационная и психологическая безопасность, дезинформация, медиаграмотность, цифровые платформы, манипуляция, социальные сети.

Kirish. O‘zbekistonda axborotlashgan jamiyatning shakllanish sur’atlari bevosita siyosiy kommunikatsiya maydonining kengayishiga xizmat qilmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatimizda raqamli transformatsiya jarayonlari natijasida internet foydalanuvchilari soni keskin ortdi. 2024-2025 yillarga kelib, O‘zbekistonda internet foydalanuvchilari soni 31 milliondan oshdi, bu esa aholining deyarli barcha faol qatlami virtual axborot makoniga integratsiyalashganini ko‘rsatadi. Biroq, bu ko‘rsatkich nafaqat imkoniyatlarni, balki axborot-psixologik xavflarni ham barobariga oshirmoqda.

Xususan, kiber-jinoyatchilik va raqamli makondagi huquqbuzarliklar dinamikasi xavotirli tus olmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Kiberxavfsizlik markazi ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi uch yilda kiber-jinoyatlar soni bir necha barobarga ortgan. Agar 2020-yilda ushbu turdagi jinoyatlar umumiy jinoyatchilikning kichik qismini tashkil etgan bo‘lsa, hozirda ularning salmog‘i, ayniqsa bank kartalari bilan bog‘liq firibgarliklar va ijtimoiy muhandislik (social engineering) usullari orqali amalga oshirilayotgan xurujlar soni o‘n minglab holatlarni tashkil etmoqda.

Siyosiy nuqtai nazardan qaraganda, ushbu raqamlar ortida faqat iqtisodiy zarar emas, balki jamiyatning davlat institutlariga bo‘lgan ishonchiga putur yetkazish xavfi ham yotibdi. Axborot-psixologik xurujlar ko‘pincha quyidagi raqamli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda:

Feyk kanallar va botlar: Muhim siyosiy qarorlar qabul qilinishi arafasida ijtimoiy tarmoqlarda sun’iy ravishda "negativ rezonans" hosil qiluvchi bot-fermalarning faollashishi;

Kiber-trolling: Davlat xizmatchilari va jamoatchilik faollariga nisbatan uyushtirilgan psixologik bosimlar;

Axborot manipulyatsiyasi: Statistik ma’lumotlarni noto‘g‘ri talqin qilish orqali aholida tushkunlik va norozilik kayfiyatini uyg‘otishga urinishlar.

Ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston segmentidagi ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan negativ xabarlarning salmoqli qismi tashqi va ichki manipulyativ manbalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa, milliy xavfsizlik konsepsiyasida axborot-psixologik himoyani nafaqat texnik bloklash, balki intellektual tahlil va jamiyatning media-savodxonligini oshirish orqali amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Shunday qilib, raqamli makondagi jinoyatchilikning o‘sish dinamikasi shunchaki texnik muammo emas, balki siyosiy barqarorlikni saqlashning strategik masalasidir. Bu jarayonda davlat, jamiyat va xususiy sektorning hamkorlikdagi "Gibrid himoya" tizimini yaratish kechiktirib bo‘lmas vazifaga aylandi.

Adabiyotlar tahlili. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda siyosiy kommunikatsiya jarayonlari, axborot makoni va axborot-psixologik xavfsizlik masalalari dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. Ayniqsa, globallashuv sharoitida axborot oqimining tezlashuvi, raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlarning kengayishi siyosiy jarayonlarda psixologik ta’sir mexanizmlarini kuchaytirdi. O‘zbek olimlari bu jarayonni turli nuqtai nazardan – psixologik, kommunikativ va mafkuraviy yondashuvlarda tahlil qilgan.

O‘zbek tadqiqotchilari axborot-psixologik xavfsizlikni shaxs va jamiyat ongini tashqi salbiy axborot ta’siridan himoya qilish holati sifatida izohlaydi. Masalan, Yusupova Yo.M. siyosiy diskurs va kommunikativ yondashuvni o‘rganib, axborot makonida yuzaga keladigan “axborot urushi”, “mafkuraviy qarama-qarshilik” kabi hodisalar shaxs psixologiyasiga bevosita ta’sir qilishini ta’kidlaydi . Ushbu yondashuv siyosiy kommunikatsiyada axborot xavfsizligini ta’minlash zaruratini asoslaydi. Yusupova Yo.M. o‘z tadqiqotlarida siyosiy kommunikatsiya jarayonlarida axborot-psixologik ta’sirning kuchayib borayotganini ta’kidlaydi. Uning fikricha, zamonaviy axborot makonida siyosiy diskurs nafaqat ma’lumot yetkazish vositasi, balki jamiyat

ongiga ta’sir qiluvchi kuchli psixologik instrumentga aylanib bormoqda. Olimaning qayd etishicha, “axborot urushi” sharoitida turli g‘oyaviy oqimlar shaxsning qarashlari va qadriyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin.[1] Menimcha, Yusupova Yo.M. tomonidan ilgari surilgan bu fikrlar bugungi global axborotlashuv davrida juda dolzarbdir. Chunki hozir ijtimoiy tarmoqlar va internet platformalari orqali axborot juda tez tarqalmoqda va har doim ham uning ishonchliligini tekshirish imkoniyati bo‘lavermaydi. Shu sababli siyosiy axborotlar ko‘pincha odamlarning hissiyotiga ta’sir qilib, ularning fikrini shakllantirish yoki o‘zgartirishga xizmat qilmoqda.

Shaxsiy fikrimcha, bunday sharoitda eng muhim masala - fuqarolarning axborot savodxonligini oshirishdir. Agar inson har bir siyosiy xabarni tahlil qilib, uning manbasi va maqsadini tushunishga harakat qilsa, u tashqi psixologik ta’sirlarga kamroq beriladi. Demak, Yusupova Yo.M. fikrlarini davom ettirgan holda aytish mumkinki, axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlash nafaqat davlat yoki OAV vazifasi, balki har bir fuqaroning shaxsiy mas’uliyati ham hisoblanadi.

Siyosiy kommunikatsiya jarayonlarida axborotning emotsional va psixologik ta’siri muhim o‘rin tutadi. O‘zbek olimlari siyosiy nutq, ommaviy axborot vositalari va internet platformalarini psixologik ta’sir vositasi sifatida o‘rganadi. G. Komilovaning siyosiy diskursga oid tadqiqotida siyosiy shaxs nutqining emotsional-kommunikativ strategiyalari, metaforalar va baholovchi birliklar orqali auditoriyaga psixologik ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilingan. Bu yondashuv siyosiy kommunikatsiyada axborotning faqat mazmuni emas, balki uning ifoda uslubi ham muhim ekanligini ko‘rsatadi. G. Komilova o‘z tadqiqotlarida siyosiy diskursning lingvistik va emotsional-kommunikativ jihatlariga alohida e’tibor qaratadi. Uning fikricha, siyosiy nutq oddiy axborot uzatish vositasi emas, balki auditoriya ongiga ta’sir qiluvchi murakkab kommunikativ tizimdir. Olimaning ta’kidlashicha, siyosiy yetakchilar nutqida qo‘llaniladigan metaforalar, baholovchi so‘zlar va emotsional ifodalar tinglovchining qarashlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.[2]

Menimcha, G. Komilova tomonidan ilgari surilgan bu yondashuv siyosiy kommunikatsiyaning asl mohiyatini to‘g‘ri ochib beradi. Chunki amalda ham siyosiy nutqlarda faqat faktlar emas, balki ularning qanday ifodalanishi ham katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Ko‘pincha bir xil mazmundagi xabar turli emotsional ohangda berilganda, auditoriya uni turlicha qabul qiladi. Shunday ekan bugungi axborot oqimi juda tezlashgan davrda siyosiy nutqlarning emotsional ta’siri yanada kuchayib bormoqda. Shu sababli fuqarolar nafaqat axborotni qabul qilish, balki uni tahlil qilish ko‘nikmasiga ham ega bo‘lishi kerak. Aks holda, emotsional jihatdan kuchli ta’sir qiluvchi siyosiy xabarlar insonlarning mustaqil fikrlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ko‘plab o‘zbek tadqiqotlarida yoshlar axborot-psixologik xavfsizlikning eng zaif guruhi sifatida ko‘rsatiladi. S. Usmonov va D. Meliboyev tadqiqotida o‘smirlar ongiga ommaviy madaniyat va internet axborotlarining salbiy ta’siri muhokama qilinadi. Mualliflar axborot immunitetini shakllantirish zarurligini asoslaydi S. Usmonov o‘z tadqiqotlarida o‘smirlar va yoshlar orasida axborot-psixologik xavfsizlik masalasiga alohida e’tibor qaratadi. Uning fikricha, zamonaviy axborot oqimlari, ayniqsa internet va ommaviy madaniyat mahsulotlari yoshlar ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Olim bu jarayonda ayrim axborotlarning mazmuni yoshlarning qadriyatlari, xulq-atvori va dunyoqarashiga salbiy ta’sir qilishi mumkinligini ta’kidlaydi.[3]

Menimcha, S. Usmonovning bu fikrlari bugungi real holat bilan juda mos keladi. Chunki hozir yoshlar kun davomida juda ko‘p axborot manbalari bilan to‘qnash kelmoqda va ularning barchasi ham tarbiyaviy yoki ishonchli emas. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan ayrim kontentlar yoshlarning fikrlashiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Demak bu muammoni faqat cheklash yoki taqiqlash orqali hal qilib bo‘lmaydi. Eng to‘g‘ri yo‘l - yoshlarni axborotni tanqidiy tahlil qilishga o‘rgatishdir. Agar yoshlar har bir axborotning maqsadini va manbasini tushuna olsa, ular salbiy ta’sirlarga kamroq beriladi. Shu jihatdan Usmonovning yondashuvi axborot-

psixologik xavfsizlikni ta’minlashda profilaktik va tarbiyaviy choralar muhimligini ko‘rsatadi.

Siyosiy kommunikatsiya jarayonlarida axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlash muammosi zamonaviy ilmiy adabiyotlarda keng o‘rganilayotgan dolzarb yo‘nalishlardan biridir. Ushbu masalaga oid tadqiqotlar asosan siyosiy kommunikatsiya nazariyalari, axborot xavfsizligi, media ta’siri va psixologik manipulyatsiya kabi yo‘nalishlar kesimida shakllangan.

Avvalo, siyosiy kommunikatsiya nazariy asoslari G. Lassuell, H. Lassuell va J. Habermas kabi olimlarning ishlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular siyosiy axborot almashinuvi jarayonida kommunikatsiyaning ijtimoiy funksiyalarini yoritib bergan. Ayniqsa, J. Habermasning “jamoatchilik sohasi” konsepsiyasi siyosiy muhokama jarayonlarida axborotning ochiqligi va manipulyatsiyadan himoya qilish masalasini ilmiy asosda tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi.[4] Shaxsiy fikrimcha, Habermasning ushbu konsepsiyasi hozirgi raqamli axborot muhitida ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan bo‘lsa-da, u zamonaviy sharoitda ayrim jihatlarda murakkablashgan. Chunki internet va ijtimoiy tarmoqlar jamoatchilik sohasini kengaytirib yubordi, lekin shu bilan birga u yerda axborot sifati, manipulyatsiya va dezinformatsiya muammolari ham keskin oshdi. Natijada “erkin muhokama maydoni” ideal holatda emas, balki ko‘pincha algoritmlar, reklama va siyosiy texnologiyalar ta’siriga tushib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Habermas g‘oyasi bugungi kunda qayta talqin qilinishi kerak deb o‘ylayman. Ya’ni jamoatchilik sohasi faqat erkin fikr almashinuvi maydoni emas, balki axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlash mexanizmlari bilan mustahkamlangan tizim bo‘lishi zarur. Aks holda, fuqarolarning ongiga ta’sir qiluvchi manipulyativ axborotlar ushbu sohaning ochiqligi va demokratik mohiyatini zaiflashtirishi mumkin.

G‘arb ilmiy adabiyotlarida esa E. Bernays, N. Chomsky, M. McCombs va D. Shaw ishlari muhim ahamiyatga ega. E. Bernays propaganda va jamoatchilik fikrini shakllantirish mexanizmlarini ilk bor ilmiy asosda yoritgan bo‘lsa, Chomsky ommaviy

axborot vositalarining siyosiy manipulyatsiyadagi rolini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilgan. Noam Chomsky siyosiy kommunikatsiya va ommaviy axborot vositalari haqidagi qarashlari bilan tanilgan bo‘lib, uning eng mashhur konsepsiyalaridan biri - “propaganda modeli” hisoblanadi. Bu modelga ko‘ra, ommaviy axborot vositalari jamiyatga to‘liq neytral va xolis axborot yetkazuvchi institut emas, balki ma’lum iqtisodiy va siyosiy kuchlar ta’sirida shakllanadigan tizimdir. Shaxsiy fikrimcha, Chomsky yondashuvi siyosiy kommunikatsiyada axborot-psixologik xavfsizlik masalasini tushunishda juda muhim tanqidiy asos beradi. Chunki u media orqali shakllanadigan “ob’ektiv haqiqat” har doim ham to‘liq neytral emasligini ko‘rsatadi. Bu esa fuqarolarning axborotga nisbatan tanqidiy yondashuvini rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi.[5]

Biroq, zamonaviy raqamli muhitda Chomsky modelini biroz kengaytirish kerak deb hisoblayman. Chunki bugungi kunda faqat yirik media emas, balki ijtimoiy tarmoqlar, blogerlar va algoritmik platformalar ham axborot oqimini shakllantirmoqda. Bu esa manipulyatsiya faqat “yuqoridan pastga” emas, balki tarmoqli va ko‘p yo‘nalishli bo‘lib qolganini anglatadi. Shu sababli, Chomsky konsepsiyasi bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda, lekin uni raqamli platformalar, algoritmik boshqaruv va axborot urushlari sharoitida qayta talqin qilish zarur. Bu esa siyosiy kommunikatsiyada axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlash uchun tanqidiy media savodxonlikni yanada kuchaytirish kerakligini ko‘rsatadi.

Maxwell McCombsning eng mashhur ilmiy qarashi - “agenda-setting” (kun tartibini belgilash) nazariyasi bo‘lib, u siyosiy kommunikatsiyada ommaviy axborot vositalarining jamiyatga ta’sirini tushuntirib beradi. Bu nazariyaga ko‘ra, media odamlarning “nima haqida o‘ylashini” emas, balki “nimani muhim deb bilishini” shakllantiradi. Ya’ni axborot vositalari muammolarning ahamiyat darajasini belgilab berish orqali jamoatchilik e’tiborini yo‘naltiradi. Shaxsiy fikrimcha, McCombsning ushbu yondashuvi siyosiy kommunikatsiya jarayonlarini tushunishda juda muhim,

chunki u axborot oqimining bevosita manipulyatsiyasidan ko‘ra, bilvosita ta’sir mexanizmini ochib beradi. Bugungi axborot jamiyatida odamlar ko‘p hollarda barcha voqealarni emas, balki media eng ko‘p yoritgan masalalarni “dolzarb” deb qabul qiladi. Bu esa siyosiy kun tartibining shakllanishida ommaviy axborot vositalarining rolini juda kuchli qilib qo‘yadi.[6]

Biroq zamonaviy raqamli muhitda bu nazariya yanada murakkablashgan. Avvallari kun tartibini asosan yirik telekanallar va gazeta tahririyatlari belgilagan bo‘lsa, hozir ijtimoiy tarmoqlar, algoritmlar va blogerlar ham bu jarayonda faol ishtirok etmoqda. Natijada “kun tartibi” yagona markazdan emas, balki ko‘p manbali va fragmentlashgan shaklda yuzaga kelmoqda.

Shu jihatdan, McCombs nazariyasi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, aksincha, raqamli media sharoitida yanada kengaytirilgan talqinni talab qiladi. Ayniqsa, axborot-psixologik xavfsizlik nuqtayi nazaridan qaraganda, kun tartibini kim va qanday shakllantirayotgani jamiyat ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shunday ekan bu fuqarolarning media savodxonligi ham sa’lbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot metadologiyasi. Ushbu tadqiqot siyosiy kommunikatsiya jarayonlarida axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlash muammosini o‘rganishda tizimli, kompleks va interdisipliner yondashuvga asoslandi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida siyosatshunoslik, kommunikatsiya nazariyasi va ijtimoiy psixologiya fanlari integratsiyasi tanlandi. Tadqiqotda ilmiy bilishning umumiy metodlari sifatida tahlil, sintez, induksiya, deduksiya va qiyoslash metodlari qo‘llanildi. Tahlil metodi orqali siyosiy kommunikatsiya jarayonlarining tarkibiy elementlari ajratib o‘rganildi, sintez metodi orqali esa olingan natijalar umumlashtirildi. Induksiya va deduksiya metodlari orqali xususiy holatlardan umumiy xulosalar chiqarildi va umumiy nazariy qoidalar asosida alohida holatlar izohlandi. Qiyoslash metodi yordamida o‘zbek va xorijiy ilmiy yondashuvlar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar aniqlandi. Maxsus metodlar sifatida kommunikativ tahlil, diskurs tahlili va kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi.

Kommunikativ tahlil siyosiy axborot almashinuvi jarayonida ishtirok etuvchi subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni o‘rganishga xizmat qildi. Diskurs tahlili siyosiy matnlar va nutqlarda qo‘llaniladigan lingvistik vositalar, emotsional ifodalar va manipulyativ strategiyalarni aniqlash imkonini berdi. Kontent-tahlil esa ommaviy axborot vositalaridagi siyosiy materiallarning mazmuniy yo‘nalishlari va psixologik ta’sir darajasini baholashga yordam berdi. Psixologik yondashuv asosida axborotning shaxs ongiga ta’sir mexanizmlari, emotsional qabul qilish xususiyatlari va axborotga nisbatan himoya reaksiyalari o‘rganildi. Sotsiologik kuzatuv elementlari orqali jamiyatda siyosiy axborotlarni qabul qilish tendensiyalari va yoshlar auditoriyasining axborot savodxonligi darajasi tahlil qilindi. Tadqiqotda interdisipliner yondashuv qo‘llanilib, siyosiy kommunikatsiya, psixologiya va axborot xavfsizligi sohalari o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilindi, bu esa muammoni kompleks o‘rganish va aniq ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida siyosiy kommunikatsiya tizimida axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlash masalasi nazariy manbalar, zamonaviy axborot muhitidagi jarayonlar va amaliy kuzatuvlar asosida chuqur tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda siyosiy kommunikatsiya faqat axborot uzatish jarayoni emas, balki jamiyat ongini shakllantiruvchi murakkab psixologik va ijtimoiy mexanizmga aylangan.

Tahlil natijalariga ko‘ra, siyosiy kommunikatsiya jarayonlarida axborot-psixologik xavfsizlikka bevosita ta’sir qiluvchi bir nechta asosiy omillar mavjudligi aniqlandi. Birinchi omil sifatida axborot oqimining haddan tashqari ko‘payishi va uning nazoratsiz tarqalishi qayd etildi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar rivojlanishi natijasida har bir foydalanuvchi axborot yaratuvchi subyektga aylangan bo‘lib, bu holat axborot sifatini nazorat qilishni murakkablashtirmoqda. Natijada ishonchli va ishonchsiz ma’lumotlar bir xil tezlikda tarqalmoqda.

Ikkinchi muhim omil sifatida axborotning emotsional va manipulyativ shaklda taqdim etilishi aniqlandi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, siyosiy kontentlarning katta qismi auditoriyaning hissiyotiga ta’sir qilish orqali qabul qilinishga yo‘naltirilgan. Bu esa ratsional tahlil jarayonini susaytirib, axborotni tanqidiy qabul qilish darajasini pasaytiradi.

Uchinchi omil sifatida foydalanuvchilarning axborot savodxonligi darajasi yetarli emasligi qayd etildi. Ko‘plab holatlarda axborot manbasi, uning maqsadi va ishonchliligi tekshirilmasdan qabul qilinadi. Bu esa noto‘g‘ri axborotning keng tarqalishiga va jamiyatda psixologik beqarorlikning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Tahlil davomida yana shuni kuzatish mumkinki, raqamli platformalarda axborot algoritmik asosda foydalanuvchiga moslashtirib taqdim etiladi. Bu jarayon “axborot filtrlari”ni yuzaga keltirib, insonni faqat o‘z qarashlariga mos ma’lumotlar bilan cheklab qo‘yadi. Natijada turli fikrlar bilan tanishish imkoniyati kamayadi va axborot biryoqlama qabul qilinadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlashda eng muhim yo‘nalishlardan biri bu fuqarolarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdir. Tanqidiy fikrlash mavjud bo‘lgan jamiyatda har qanday axborot avtomatik qabul qilinmaydi, balki u tahlil qilinadi, solishtiriladi va baholanadi. Bu esa manipulyativ axborot ta’sirini sezilarli darajada kamaytiradi.

Shuningdek, natijalar shuni ko‘rsatdiki, siyosiy kommunikatsiyada ochiqlik va shaffoflik tamoyili axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Faktlarga asoslangan, tushunarli va aniq axborot jamiyatda ishonchni oshiradi va noto‘g‘ri talqinlarning oldini oladi. Yana bir muhim natija sifatida axborot muhitini monitoring qilish va zararli kontentni aniqlash tizimlarining zarurligi aniqlandi. Chunki axborot oqimining tezligi yuqori bo‘lgan sharoitda har qanday noto‘g‘ri ma’lumot juda qisqa vaqt ichida keng auditoriyaga yetib borishi mumkin.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari siyosiy kommunikatsiya jarayonlarida axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlash kompleks yondashuvni talab qilishini tasdiqladi. Bu jarayonda axborot savodxonligini oshirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, raqamli platformalarni tushunish, axborot monitoringini kuchaytirish va siyosiy kommunikatsiyada shaffoflikni ta’minlash asosiy amaliy mexanizmlar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, olingan natijalar shuni ham ko‘rsatadiki, zamonaviy axborot jamiyatida axborot-psixologik xavfsizlik faqat davlat yoki media tashkilotlari zimmasidagi vazifa emas, balki har bir fuqaroning shaxsiy mas’uliyati bilan ham bevosita bog‘liqdir. Har bir inson axborotni tanlash, tahlil qilish va qabul qilish jarayonida faol va ongli pozitsiyada bo‘lishi zarur.

Xulosa. Siyosiy kommunikatsiya jarayonlarida axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda himoya tizimi faqatgina tashqi hujumlarni to‘sishga emas, balki ichki barqarorlikni "adaptiv boshqarish"ga yo‘naltirilishi lozim. Amaliy mexanizmlarni tahlil qilish natijasida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

Birinchidan, axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlashning eng samarali yo‘li - bu davlatning "kommunikativ yetakchiligi"ni o‘rnatishidir. Ya’ni, davlat organlari axborotni shunchaki tarqatuvchi emas, balki jamiyatning barcha qatlamlari uchun tushunarli tilda "ma’no va mazmun yaratuvchi" markazga aylanishi kerak. Bu orqali aholida tashqi manipulyativ g‘oyalarga nisbatan tabiiy mafkuraviy himoya qatlami hosil bo‘ladi.

Ikkinchidan, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning rivojlanishi "dinamik huquqiy tartibga solish" modeliga o‘tishni taqozo etadi. An’anaviy qonunchilik texnologik o‘zgarishlardan ortda qolayotganini hisobga olib, axborot makonidagi xavf-xatarlarni operativ baholovchi va huquqiy yechimlarni tezkor moslashtiruvchi "Ekspert-huquqiy kengashlar" mexanizmini joriy etish taklif etiladi. Bu mexanizm orqali kiber-

xurujlar va psixologik manipulyatsiyalarga qarshi qonuniy choralar real vaqt rejimida yangilanib boradi.

Uchinchidan, tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, kognitiv xavfsizlikning asosi - bu shaxsning "media-gigiyena" madaniyatidir. Bu borada faqat ta’lim muassasalari bilan cheklanib qolmay, barcha davlat va nodavlat tashkilotlarida xodimlarning "axborotga qarshi immuniteti"ni sinovdan o‘tkazuvchi muntazam kiber-mashqlar (cyber-drills) o‘tkazish amaliyotini yo‘lga qo‘yish zarur.

Xalqaro va milliy tajribaning sintezi shuni ko‘rsatdiki, axborot-psixologik xavfsizlik - bu tugallangan holat emas, balki doimiy harakatdagi jarayondir. Maqolada taklif etilgan integral model nafaqat bugungi kiber-tahdidlarni jilovlashga, balki kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan neyro-texnologik va chuqur manipulyativ (deep-level manipulation) xavflarning oldini olishga xizmat qiladi. Davlatning axborot suvereniteti va jamiyatning psixologik daxlsizligi -barqaror siyosiy kommunikatsiyaning o‘zaro bog‘liq ikki ustuni bo‘lib qolishi shart.

G’arb olimlarining nazariyalari axborotning siyosiy va psixologik ta’sir mexanizmlarini ochib bersa, o‘zbek tadqiqotchilarining qarashlari bu jarayonda jamiyat barqarorligi va axborot immunitetini shakllantirish zarurligini asoslaydi. Shu sababli axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlash bugungi kunda ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Xususan Abduazizov A.A. kabi tadqiqotchilar, kommunikatsiyaning lingvistik asoslari va uning psixologik ta’sirini yoritib beradi. Bu esa axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlashda ham mazmun, ham ifoda uslubi birdek muhim ekanini ko‘rsatadi.[7]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusupova Yo.M. Siyosiy diskurs va zamonaviy kommunikativ jarayonlarda axborot-psixologik ta’sir masalalari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2021. – 156 b.

2. Komilova G. Siyosiy diskursda lingvistik shaxs va uning emotsional-kommunikativ strategiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2020. – 132 b.

3. Usmonov S. O‘smirlar va yoshlar axborot-psixologik xavfsizligi muammolari. – Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti, 2019. – 144 b.

4. Habermas J. Strukturwandel der Öffentlichkeit (The Structural Transformation of the Public Sphere). – Cambridge: Polity Press, 1989. – 301 b.

5. Chomsky N., Herman E.S. Manufacturing Consent: The Political Economy of the Mass Media. – New York: Pantheon Books, 1988. – 412 b.

6. McCombs M., Shaw D. The Agenda-Setting Function of Mass Media. – Public Opinion Quarterly, 1972. – Vol. 36(2). – P. 176–187.

7. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasi va kommunikativ yondashuvlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017. – 220 b.

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF INFORMATION AND PSYCHOLOGICAL SECURITY IN THE SYSTEM OF POLITICAL COMMUNICATION

Turdiboyeva Madina Rusul qizi

4th-year Student, Political Science Program Faculty of Social Sciences National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Abstract

This article comprehensively analyzes the theoretical and methodological foundations of ensuring information and psychological security in the political communication system. Within the framework of the study, new threats and risks arising in the context of modern transformations of political communication, the expansion of the digital environment and the globalization of information flows are studied on the basis of a systematic approach. Also, the interrelation of the categories of information security and psychological stability, the mechanisms of their influence on political consciousness, social opinion and public mood are theoretically substantiated.

Keywords

Political communication, information security, psychological security, network society, information flow, political consciousness, public opinion, information manipulation, disinformation, propaganda, digital media, cybersecurity, communication system, political stability, social psychology, mass self-communication, information warfare, media influence, political technologies, interdisciplinary approach.

SIYOSIY KOMMUNIKATSIYA TIZIMIDA AXBOROT VA PSIXOLOGIK XAVFSIZLIKNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.

Turdiboyeva Madina Rusul qizi

Mirzo Ulug`bek nomidagi O'zbekiston Milliy Unversiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Siyosatshunoslik yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada siyosiy kommunikatsiya tizimida axborot va psixologik xavfsizlikni ta’minlashning nazariy-metodologik asoslari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida siyosiy kommunikatsiyaning zamonaviy transformatsiyalari, raqamli muhitning kengayishi hamda axborot oqimlarining globallashuvi sharoitida yuzaga kelayotgan yangi tahdid va xatarlar tizimli yondashuv asosida o‘rganiladi. Shuningdek, axborot xavfsizligi va psixologik barqarorlik kategoriyalarining o‘zaro bog‘liqligi, ularning siyosiy ong, ijtimoiy fikr va jamoatchilik kayfiyatiga ta’sir mexanizmlari nazariy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Siyosiy kommunikatsiya, axborot xavfsizligi, psixologik xavfsizlik, tarmoq jamiyati, axborot oqimi, siyosiy ong, jamoatchilik fikri, axborot manipulyatsiyasi, dezinformatsiya, propaganda, raqamli media, kiberxavfsizlik, kommunikatsion tizim, siyosiy barqarorlik, ijtimoiy psixologiya, mass self-communication, axborot urushi, media ta’sir, siyosiy texnologiyalar, fanlararo yondashuv.

Аннотация: В данной статье всесторонне анализируются теоретические и методологические основы обеспечения информационной и психологической безопасности в системе политической коммуникации. В рамках исследования на основе системного подхода изучаются новые угрозы и риски, возникающие в контексте современных трансформаций политической коммуникации, расширения цифровой среды и глобализации информационных потоков. Также теоретически обосновывается взаимосвязь категорий информационной безопасности и психологической устойчивости, механизмы их влияния на политическое сознание, общественное мнение и общественное настроение.

Ключевые слова: Политическая коммуникация, информационные и коммуникационные технологии, информационные документы, сетевое общество, политика, экономическая мысль, манипулирование информацией, дезинформация, пропаганда, СМИ, кибербезопасность, коммуникационная

система, политическая физичность, социальная психология, массовая самокоммуникация, информационная война, влияние СМИ, экономика, междисциплинарная экономика.

Kirish. Bugungi global transformatsiya jarayonlarida siyosiy kommunikatsiya nafaqat axborot almashish vositasi, balki davlat xavfsizligini ta'minlovchi strategik resursga aylandi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi siyosiy maydonda "gibrid urushlar" va "kiber-siyosat" tushunchalarini birinchi planga olib chiqdi. Endilikda davlatning barqarorligi nafaqat uning harbiy qudrati, balki axborot makonini himoya qilish va jamiyatning psixologik chidamliligini (immunitetini) ta'minlash qobiliyati bilan o‘lchanmoqda.

Muammoning qo‘yilishi va amaliy misollar:

Siyosiy kommunikatsiya tizimidagi zaifliklar jamiyatda ijtimoiy-siyosiy beqarorlikni keltirib chiqarishi mumkin. Buni biz quyidagi amaliy misollarda ko‘rishimiz mumkin:

Dezinformatsiya va "Feyk" xabarlar: Masalan, saylov jarayonlarida ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatiladigan yolg‘on ma'lumotlar elektoratning irodasiga manipulyativ ta'sir ko‘rsatadi. Bu esa siyosiy tizimning legitimligiga putur yetkazadi.

Psixologik operatsiyalar: "Rangli inqiloblar" tajribasi shuni ko‘rsatadiki, tashqi kuchlar maqsadli axborot xurujlari orqali aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida davlatga nisbatan ishonchsizlik va aggresiv kayfiyatni shakllantirishi mumkin.

Kiber-tahdidlar: Davlat ahamiyatiga molik ma'lumotlar bazasiga hujum qilish yoki davlat arboblarining axborot kanallarini nazoratga olish orqali siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'sir o‘tkazish xavfi ortib bormoqda.

XXI asrning birinchi choragiga kelib, axborot nafaqat bilim manbai, balki xalqaro munosabatlar va ichki siyosiy jarayonlarning asosiy quroliga aylandi. Siyosiy kommunikatsiya tizimi bugun shunchaki davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqot maydoni emas, balki "axborot-psixologik poligon" ko‘rinishini olmoqda. Global tarmoqlashuv

sharoitida axborot xavfsizligi tushunchasi texnik himoyadan (kiberxavfsizlik) ko‘ra ko‘proq inson ongi va psixologik barqarorligini himoya qilish (psixologik xavfsizlik) darajasiga ko‘tarildi.

Hozirgi kunda siyosiy tizimlarga qarshi yo‘naltirilgan tahdidlar "qattiq kuch"dan (harbiy qudrat) "yumshoq kuch" (mafkuraviy ta’sir) va "aqlli kuch" (texnologik va psixologik manipulyatsiya) simbioziga o‘tmoqda. Bu esa milliy xavfsizlik kontseptsiyasini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Maqolada axborot-psixologik tahdidlarning zamonaviy ko‘rinishlarini quyidagi real strategiyalar misolida ko‘rish mumkin."Post-haqiqat" (Post-truth) va hissiyotlar manipulyatsiyasi:

Bugungi siyosiy kommunikatsiyada faktlardan ko‘ra hissiyotlarga murojaat qilish ustunlik qilmoqda. Amaliy misol: 2016-yilgi AQSh prezidentlik saylovlari va Buyuk Britaniyaning "Brexit" jarayonida Cambridge Analytica skandali. Bunda foydalanuvchilarning psixologik profillari asosida ularning qo‘rquv va orzulariga moslashtirilgan "mikrotargeting" reklamalari ishlatildi. Bu siyosiy qaror qabul qilish jarayonida shaxsning psixologik daxlsizligi buzilganining yaqqol misolidir.

Gibrid urushlar va ijtimoiy parchalanish: Axborot xurujlari jamiyatni ichkaridan parchalashga, etnik, diniy yoki ijtimoiy guruhlar orasiga nifoq solishga qaratiladi. Amaliy misol: Yaqin Sharq mamlakatlaridagi "Arab bahori" voqealari. Ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Twitter) orqali tarqatilgan "axborot viruslari" aholini hissiy qo‘zg‘atish va davlat institutlariga nisbatan umumiy ishonchsizlikni shakllantirishda asosiy katalizator bo‘ldi. Bu jarayonda axborot texnik vosita, psixologik ta’sir esa strategik maqsad edi.

"Chuqur feyk" (Deepfake) va vizual manipulyatsiya:Sun'iy intellekt yordamida yaratilgan soxta video va audio materiallar siyosiy arboblarning obro‘sizlanishiga yoki diplomatik mojarolarga sabab bo‘lishi mumkin. Amaliy misol: Turli mamlakatlar rahbarlarining urush yoki taslim bo‘lish haqidagi soxta bayonotlari ijtimoiy tarmoqlarda

tarqalishi jamiyatda bir necha soat ichida vahima (panika) keltirib chiqarishi, bu esa psixologik xavfsizlikning texnologik tahdidlar oldida zaifligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzu bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, siyosiy kommunikatsiya tizimida axborot va psixologik xavfsizlik masalalari fanlararo yondashuv asosida shakllanib, u siyosatshunoslik, kommunikatsiya nazariyasi, axborot texnologiyalari va ijtimoiy psixologiya kesishgan nuqtada rivojlanmoqda. Ayniqsa, raqamli transformatsiya sharoitida axborot oqimlarining tezlashuvi va ularning ongga ta’sir kuchining ortishi mazkur muammoni yanada dolzarb etmoqda.

Harold Lasswellning siyosiy kommunikatsiya modeli siyosatni axborot orqali jamiyat ongi va xulq-atvorini boshqarish jarayoni sifatida tavsiflaydi. Uning besh bosqichli formulasi (Kim? Nimani? Qaysi kanal orqali? Kimga? Qanday natija bilan?) muloqotni tizimli tahlil qilish imkonini beradi va asosiy e’tiborni xabarning samaradorligiga, ya’ni auditoriyaga ko‘rsatgan aniq ta’siriga qaratadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, siyosiy hokimiyat tushunchasi axborot oqimini nazorat qilish va manipulyatsiya qilish qobiliyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, muloqot jarayoni faqat ko‘zlangan ijtimoiy-siyosiy natijaga erishilgandagina muvaffaqiyatli hisoblanadi.[1] Mening fikrimcha, ushbu model siyosiy kommunikatsiyaning “texnologik” tomonini juda aniq ochib beradi - ya’ni kim axborotni qanday uzatadi va qanday effektga erishadi. Lekin zamonaviy sharoitda kommunikatsiya bir yo‘nalishli ta’sir emas, balki interaktiv, ko‘p markazli va qayta aloqaga asoslangan jarayonga aylangan. Ayniqsa, raqamli muhitda auditoriya endi passiv qabul qiluvchi emas, balki axborotni qayta ishlab, tarqatuvchi va hatto siyosiy kun tartibini shakllantiruvchi subyektga aylangan. Shu sababli, siyosiy hokimiyatni faqat axborotni nazorat qilish qobiliyati bilan bog‘lash yetarli emas. Unga qo‘shimcha ravishda ishonchni shakllantirish, legitimlikni mustahkamlash va ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish kabi omillar ham muhim ahamiyat

kasb etadi. Aks holda, qisqa muddatli kommunikativ samaradorlik uzoq muddatli ijtimoiy ishonchning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Manuel Castellsning "Communication Power" asari raqamli asrda hokimiyat tushunchasi jismoniy kuchdan ko'ra ko'proq insonlar ongini nazorat qilish va axborot oqimlarini boshqarishga ko'chganini asoslab beradi. Muallif tarmoq jamiyatida hokimiyatning to'rt turini, xususan, tarmoqqa kirishni belgilovchi hamda turli tarmoqlar o'rtasidagi aloqalarni ulovchi kuchlarni tahlil qilib, siyosiy hukmronlik endi faqat an'anaviy institutlar orqali emas, balki "mass self-communication" (ommaviy o'z-o'zini muloqot qilish) ya'ni ijtimoiy tarmoqlar vositasida har bir shaxs tomonidan yaratiladigan axborot maydonida shakllanishini ta'kidlaydi. Asarning markaziy g'oyasiga ko'ra, zamonaviy dunyoda haqiqiy hokimiyat muloqot tarmoqlarini "dasturlash" qobiliyatiga ega bo'lgan subyektlar qo'lida to'planadi va bu jarayonda ijtimoiy harakatlar aksilhokimiyat sifatida raqamli platformalar orqali hukmron mafkuraga qarshi tura olish imkoniyatiga ega bo'ladi.[2] Mening fikrimcha, Castells tomonidan ilgari surilgan “Communication Power” konsepsiyasi zamonaviy siyosiy jarayonlarni tushunishda nihoyatda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, hokimiyatning kommunikatsion tarmoqlarni “dasturlash” va axborot oqimlarini boshqarish orqali namoyon bo‘lishi haqidagi g‘oya bugungi raqamli jamiyat realiyatiga to‘liq mos keladi. Chunki hozirgi sharoitda siyosiy ustunlik ko‘p hollarda resurslar yoki majburlov vositalaridan ko‘ra, jamoatchilik ongida ma’lum tasavvurlarni shakllantirish va ularni keng tarqatish qobiliyati bilan belgilanadi. Shu bilan birga, “mass self-communication” fenomeni jamiyat a’zolariga axborot ishlab chiqaruvchi subyekt sifatida chiqish imkonini berib, siyosiy kommunikatsiyani sezilarli darajada demokratlashtiradi. Biroq, mening nazarimda, bu jarayonni mutlaq erkinlik sifatida baholash biryoqlama bo‘lishi mumkin. Chunki raqamli platformalardagi algoritmik boshqaruv, axborotning filtrlash mexanizmlari va media makonidagi notekis imkoniyatlar ayrim subyektlarning ustunligini saqlab qolmoqda.

Bundan kelib chiqib, aytish mumkinki, zamonaviy hokimiyat ikki tomonlama xarakterga ega: bir tomondan u markazlashmagan va tarmoqli shaklga ega bo‘lib, keng ommaga ta’sir imkonini beradi, ikkinchi tomondan esa u yashirin tarzda algoritmik va institutsional mexanizmlar orqali boshqarilib turadi. Shu sababli, ijtimoiy harakatlarning aksilhokimiyat sifatidagi salohiyati mavjud bo‘lsa-da, ularning real siyosiy natijaga erishishi ko‘p jihatdan ushbu murakkab tizimni qay darajada anglay olishi va undan samarali foydalana olishiga bog‘liq.

Ganiyevaning "Siyosiy munosabatlar tizimida axborot xavfsizligi" asari global axborotlashuv sharoitida davlatning siyosiy barqarorligini ta’minlash va axborot xurujlaridan himoyalanish masalalariga bag‘ishlangan. Muallif axborot xavfsizligini nafaqat texnik himoya, balki milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi va siyosiy suverenitetni saqlash vositasi sifatida tahlil qiladi. Asarda siyosiy munosabatlar jarayonida axborot manipulyatsiyasi, "axborot urushlari" va psixologik operatsiyalarning jamiyat ongi hamda davlat boshqaruviga salbiy ta’siri yoritilgan. Ganiyeva axborot makonini siyosiy manfaatlar to‘qnashadigan strategik maydon deb hisoblab, unda milliy manfaatlarni himoya qilish uchun huquqiy, siyosiy va mafkuraviy mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini asoslaydi. Xususan, asarda yoshlar ongini yot g‘oyalardan asrash, siyosiy institutlarning axborotga bo‘lgan ehtiyojini xavfsiz qondirish va xalqaro axborot maydonida mamlakatning ijobiy imijini shakllantirish strategiyalari muhim o‘rin egallaydi.[3] Mening fikrimcha, Ganiyeva tomonidan axborot xavfsizligini keng ma’noda - ya’ni faqat texnik himoya emas, balki siyosiy barqarorlik va milliy suverenitetning ajralmas qismi sifatida talqin qilinishi juda dolzarb va metodologik jihatdan asosli yondashuvdir. Ayniqsa, global axborotlashuv sharoitida davlatlar o‘rtasidagi raqobat tobora ko‘proq axborot makoniga ko‘chib borayotganini inobatga olsak, bu fikr yanada ahamiyat kasb etadi.Shu bilan birga, muallifning axborot makonini strategik maydon sifatida baholashi ham o‘rinli, chunki bugungi kunda siyosiy manfaatlar nafaqat iqtisodiy yoki harbiy vositalar orqali, balki axborot va psixologik

ta’sir orqali ham ilgari surilmoqda. Biroq, mening nazarimda, bu jarayonda faqat himoya choralariga urg‘u berish yetarli emas. Axborot xavfsizligini ta’minlash bilan bir qatorda, ochiq va ishonchli kommunikatsiya muhitini shakllantirish ham muhimdir. Chunki ortiqcha nazorat yoki cheklovlar ayrim hollarda aks ta’sir ko‘rsatib, jamiyatda ishonchsizlikni kuchaytirishi mumkin. Bundan tashqari, yoshlarni “yot g‘oyalar”dan himoya qilish masalasida ham muvozanatli yondashuv zarur, deb hisoblayman. Ya’ni, faqat cheklash yoki filtratsiya emas, balki tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ularning axborotni mustaqil tahlil qilish qobiliyatini oshirish uzoq muddatda samaraliroq natija beradi.

Bahodir Eshbekov tadqiqotlarida siyosiy kommunikatsiya tizimi jamiyat siyosiy hayotining ajralmas elementi sifatida talqin qilinib, uning asosiy funksiyasi axborot almashuvi orqali siyosiy ong va siyosiy madaniyatni shakllantirishdan iborat ekanligi ta’kidlanadi. Olimning fikricha, siyosiy kommunikatsiya — bu davlat organlari, fuqarolar va ommaviy axborot vositalari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni ta’minlovchi muhim mexanizm bo‘lib, u jamiyatda demokratik qadriyatlarning qaror topishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.[4]

Muallif siyosiy axborot almashuvini faqat ma’lumot uzatish jarayoni sifatida emas, balki fuqarolarning siyosiy tafakkurini shakllantiruvchi, ularning ijtimoiy faolligini oshiruvchi va jamoatchilik fikrini yo‘naltiruvchi omil sifatida baholaydi. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari va zamonaviy kommunikatsiya kanallarining rivojlanishi siyosiy jarayonlarning ochiqligi va samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etishi alohida qayd etiladi.

Mening fikrimcha, Eshbekovning ushbu yondashuvi siyosiy kommunikatsiyani faqat boshqaruv yoki ta’sir vositasi sifatida emas, balki jamiyat va davlat o‘rtasidagi ikki tomonlama muloqot tizimi sifatida ko‘rishga imkon beradi. Bu esa uni Lasswell yoki propagandaga asoslangan yondashuvlardan farqli ravishda, ko‘proq demokratik va interaktiv modelga yaqinlashtiradi. Shu bilan birga, bu qarashni yanada boyitish uchun

zamonaviy raqamli muhitdagi dezinformatsiya, axborot manipulyatsiyasi va psixologik ta’sir omillarini ham qo‘shimcha ravishda hisobga olish zarur, deb hisoblayman.

Ijtimoiy va psixologik xavfsizlik masalalarini o‘rganishda Tuxtamurod Mamatov ilmiy qarashlari e’tiborga loyiqdir. Olim global axborot makonida yuzaga kelayotgan tahdidlar, xususan, yoshlar ongiga salbiy axborot ta’siri, mafkuraviy xurujlar va psixologik bosim masalalarini chuqur tahlil qiladi. Uning fikricha, zamonaviy axborot muhitida shaxsning psixologik barqarorligini ta’minlash jamiyat xavfsizligining muhim komponenti hisoblanadi.[5] Mening nazarimda, Mamatovning yondashuvi ayniqsa siyosiy kommunikatsiyada psixologik xavfsizlikni tushunishda muhim, biroq bu jarayonda faqat himoya emas, balki media savodxonlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratish lozim.

Le Bonning fikricha, omma tarkibida insonlar individual ratsionallikni qisman yo‘qotadi va “kollektiv ong” ta’siriga tushadi. Bunday holatda hissiyotlar aql ustidan ustunlik qiladi, odamlar esa suggestiya (ta’sirga beriluvchanlik) va emotsional yuqumlilikka moyil bo‘ladi. Shu sababli omma sharoitida tez tarqaladigan g‘oyalar ko‘proq hissiy, soddalashtirilgan va obrazli bo‘lishi kerak, murakkab mantiqiy tahlillar esa kamroq ta’sir qiladi.[6] Siyosiy kommunikatsiya nuqtayi nazaridan Le Bon ommaviy ongni boshqarishda liderlar va propaganda vositalarining rolini juda muhim deb hisoblaydi. Uningcha, siyosiy yetakchilar ommani boshqarishda takrorlash, shiorlar va obrazli tasvirlardan foydalanadi, chunki omma mantiqdan ko‘ra hissiyotga tez javob beradi. Shu jihatdan, uning qarashlari keyinchalik propaganda nazariyalari va manipulyativ kommunikatsiya tadqiqotlariga asos bo‘lib xizmat qilgan.

Adabiyotlar tahlili nuqtayi nazaridan Le Bon g‘oyalari shuni ko‘rsatadiki, siyosiy jarayonlarda axborot faqat ratsional bilim uzatish vositasi emas, balki psixologik ta’sir va emotsional boshqaruv instrumentidir. Mening fikrimcha, uning yondashuvi bugungi raqamli muhitda ham dolzarbligini yo‘qotmagan, chunki ijtimoiy tarmoqlarda axborotning tez tarqalishi aynan hissiy reaktsiyalar orqali kuchayadi. Biroq zamonaviy

sharoitda omma faqat passiv emas, balki faol ishtirokchi bo‘lgani uchun Le Bon modeli raqamli interaktivlik bilan to‘ldirilishi zarur.

Tadqiqotning metadologiyasi. Mazkur tadqiqotda siyosiy kommunikatsiya tizimida axborot va psixologik xavfsizlikni o‘rganish kompleks, fanlararo yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqotning metodologik asosini siyosatshunoslik, kommunikatsiya nazariyasi, ijtimoiy psixologiya hamda axborot xavfsizligi fanlari kesishmasida shakllangan nazariy konsepsiyalar tashkil etadi. Tadqiqotda birinchi navbatda tizimli yondashuv qo‘llanildi. Ushbu yondashuv siyosiy kommunikatsiyani o‘zaro bog‘liq elementlardan tashkil topgan yaxlit tizim sifatida tahlil qilish imkonini berdi. Shu orqali axborot oqimi, siyosiy subyektlar va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir mexanizmlari kompleks holda o‘rganildi.

Shuningdek, qiyosiy tahlil usuli yordamida xorijiy va mahalliy ilmiy qarashlar solishtirildi. Xususan, klassik siyosiy kommunikatsiya modellari (Lasswell, McLuhan) bilan zamonaviy tarmoq jamiyati nazariyalari (Castells) o‘rtasidagi farqlar va o‘xshashliklar aniqlanib, ularning axborot xavfsizligi masalasiga ta’siri baholandi. Bu yondashuv nazariy qarashlarning evolyutsiyasini tushunishga xizmat qildi. Tadqiqot jarayonida kontent tahlili (content analysis) usuli ham qo‘llanildi. Ilmiy adabiyotlar, monografiyalar va ilmiy maqolalarda keltirilgan asosiy g‘oyalar tizimlashtirilib, ularning siyosiy kommunikatsiya va psixologik xavfsizlikka oid mazmuniy yo‘nalishlari ajratib olindi. Bu usul axborot manipulyatsiyasi, dezinformatsiya va psixologik ta’sir mexanizmlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Bundan tashqari, sistem-struktur tahlil orqali siyosiy kommunikatsiya tizimining asosiy elementlari - axborot ishlab chiqaruvchi subyektlar, tarqatish kanallari va qabul qiluvchi auditoriya o‘rtasidagi bog‘liqliklar o‘rganildi. Ushbu yondashuv axborot xavfsizligining siyosiy barqarorlikdagi rolini chuqurroq tushunishga imkon berdi.

Tadqiqotda induksiya va deduksiya usullari ham qo‘llanildi. Induktiv yondashuv orqali alohida ilmiy qarashlar asosida umumiy xulosalar shakllantirilgan bo‘lsa,

deduktiv usul yordamida mavjud nazariy konsepsiyalar real siyosiy kommunikatsiya jarayonlariga tatbiq etildi. Shuningdek, interdisciplinar (fanlararo) yondashuv asosida siyosiy kommunikatsiya faqat siyosiy jarayon sifatida emas, balki psixologik ta’sir, axborot xavfsizligi va ijtimoiy ong shakllanishi bilan uzviy bog‘liq tizim sifatida tahlil qilindi. Umuman olganda, tanlangan metodologik yondashuvlar siyosiy kommunikatsiya tizimida axborot va psixologik xavfsizlik masalasini ko‘p qatlamli, dinamik va murakkab jarayon sifatida ilmiy asosda o‘rganish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Siyosiy kommunikatsiya tizimida axborot-psixologik xavfsizlikni tahlil qilish jarayonida, eng avvalo, S. Kara-Murza tomonidan ilgari surilgan ongni manipulyatsiya qilish texnologiyalarining zamonaviy interpretatsiyasiga e’tibor qaratish lozim. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda axborot xurujlari insonning mantiqiy tafakkuriga emas, balki uning hissiy bazasiga, ya’ni qo‘rquv, g‘azab va qat’iy ishonch kabi tuyg‘ulariga yo‘naltirilgan. Amaliy misol sifatida ijtimoiy tarmoqlardagi "filtr pufakchalari" (filter bubbles) effektini keltirish mumkin; bunda Manuel Kastelsning tarmoqlashgan jamiyat nazariyasiga ko‘ra, algoritmlar foydalanuvchiga faqat uning siyosiy qarashlariga mos keladigan axborotni taqdim etadi. Bu esa jamiyatda qutblashishni keltirib chiqarib, muqobil fikrlarga nisbatan psixologik toqatsizlikni shakllantiradi va pirovardida siyosiy tizimning barqarorligiga rahna soladi.

Ushbu muammoning nazariy-metodologik yechimi sifatida G. Pocheptsovning psixologik operatsiyalar metodologiyasiga tayanib, bir necha amaliy takliflarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, "reaktiv aks-targ‘ibot" modelidan "proaktiv axborot kun tartibi" modeliga o‘tish zarur. Bu shuni anglatadiki, davlat kommunikatsiya organlari feyk xabarlarga raddiya berish bilan cheklanib qolmasdan, jamiyatning qadriyatlar tizimiga mos keladigan jozibador va ishonchli kontentni birinchi bo‘lib taqdim etishi lozim. Ikkinchidan, neyromarketing va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda ijtimoiy kayfiyatni doimiy monitoring qilish tizimini yaratish amaliy natija beradi. Bunday tizim ijtimoiy tarmoqlardagi sun’iy yaratilgan vahima oqimlarini (bot-

hujumlarni) dastlabki bosqichdayoq aniqlash va ularni algoritmlar darajasida neytrallashtirish imkonini beradi.

Amaliy tahlillar shuni tasdiqlaydiki, eng samarali himoya mexanizmi bu - fuqarolarda "kognitiv filtr" yoki psixologik immunitetni shakllantirishdir. Tadqiqot doirasida taklif etilayotgan yechim ta’lim tizimiga media-savodxonlikning amaliy kurslarini integratsiya qilishni nazarda tutadi. Bunda fuqarolarga axborotning manbasini tekshirish, "chuqur feyk" (deepfake) texnologiyalarini farqlash va siyosiy diskursdagi yashirin manipulyatsiyalarni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalari o‘rgatiladi. Natijada, jamiyat tashqi axborot xurujlari oldida passiv ob’ektdan ongli sub’ektga aylanadi. Shunday qilib, siyosiy kommunikatsiya tizimida axborot xavfsizligini ta’minlash nafaqat texnik cheklovlar, balki jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish va davlat bilan xalq o‘rtasidagi ishonchli muloqot kanallarini mustahkamlash orqali amalga oshirilishi metodologik jihatdan isbotlangan hisoblanadi.

M. Ganiyevaning yondashuvidan kelib chiqib, tahlillarimiz quyidagi amaliy yechimlarni ilgari suradi: Kommunikator (Kim?) darajasida yechim: Davlat va siyosiy institutlar axborot maydonida "reaktiv" (faqat xurujga javob beruvchi) emas, balki "proaktiv" (tashabbusni qo‘lga oluvchi) strategiyaga o‘tishi shart. Bu degani, har qanday siyosiy qaror qabul qilinishidan oldin uning psixologik ta’siri prognoz qilinishi va tushuntirish ishlari oldindan boshlanishi lozim.

Xabar (Nimani?) darajasida yechim: Axborot xavfsizligini ta’minlashda "kontr-propaganda" (raddiya berish) uslubi o‘z samarasini yo‘qotmoqda. Buning o‘rniga Castellsning "tarmoq kuchi" nazariyasiga tayanib, jamiyatda ijobiy siyosiy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi sifatli va raqobatbardosh "milliy kontent" yaratish lozim. Bu aholining manipulyativ xabarlarga nisbatan tanqidiy tafakkurini (media-savodxonligini) shakllantiradi.

Kanal va Auditoriya (Qaysi kanal orqali? Kimga?) darajasida yechim: Ijtimoiy tarmoqlardagi "axborot pufakchalari" va "feyk" xabarlarga qarshi kurashish uchun

sun’iy intellektga asoslangan monitoring tizimlarini joriy etish zarur. Ganiyeva ta’kidlaganidek, yoshlar auditoriyasi bilan ishlashda an’anaviy OAVdan ko‘ra, norasmiy tarmoq kanallaridan foydalanish siyosiy muloqotning samarasini oshiradi.

Tizimli natija: Axborot-psixologik xavfsizlik — bu yopiqlik emas, balki ochiqlik orqali erishiladigan barqarorlikdir. Tadqiqot natijasi shuni ko‘rsatadiki, jamiyat axborotdan qanchalik to‘g‘ri va tezkor xabardor qilinsa, tashqi psixologik bosimlarga shunchalik chidamli bo‘ladi. Bu o‘z navbatida davlatning siyosiy munosabatlar tizimidagi suverenitetini mustahkamlaydi.

Xulosa. Siyosiy kommunikatsiya tizimida axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlashning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, zamonaviy siyosiy jarayonlar axborotning shunchaki uzatilishini emas, balki uning jamiyat tomonidan qanday interpretatsiya qilinishini boshqarishni talab etadi. Bugungi kunda xavfsizlik tushunchasi an’anaviy chegaralardan chiqib, kiberfazo va inson ongi tutashgan nuqtaga ko‘chgan. Bu shuni anglatadiki, davlatning siyosiy barqarorligi endi faqat jismoniy mudofaa bilan emas, balki axborot maydonidagi raqobatbardoshlik va jamiyatning tashqi manipulyatsiyalarga nisbatan psixologik chidamliligi bilan o‘lchanadi. Axborot oqimlarining globallashuvi sharoitida milliy axborot makonini yopish yoki cheklash strategiyasi o‘zini oqlamaydi, aksincha, bu "axborot vakuumini" keltirib chiqarib, uni yot g‘oyalar bilan to‘lishiga zamin yaratadi.

Tadqiqotning metodologik natijalari shuni ko‘rsatadiki, samarali axborot xavfsizligi tizimi uch darajali himoya mexanizmiga ega bo‘lishi shart. Birinchi darajada davlatning ochiq va shaffof muloqot kanallari orqali ishonchli axborotni birinchi bo‘lib taqdim etishi (axborot ustuvorligi), ikkinchi darajada jamiyatda media-savodxonlik va tanqidiy tahlil madaniyatini shakllantirish (ijtimoiy immunitet), uchinchi darajada esa milliy va ma’naviy qadriyatlarga asoslangan jozibador mafkuraviy kontentni ishlab chiqish (kontr-manipulyatsiya) turishi lozim. Bu yondashuv axborot xurujlarini nafaqat qaytarish, balki ularning ijtimoiy-siyosiy ta’sirini nolga tushirish imkonini beradi.

Yakuniy xulosa sifatida ta’kidlash lozimki, axborot-psixologik xavfsizlik - bu dinamik jarayon bo‘lib, u doimiy ravishda texnologik va ijtimoiy o‘zgarishlarga moslashib borishni talab qiladi. Siyosiy kommunikatsiya tizimini takomillashtirishda asosiy e’tibor aholining turli qatlamlari, ayniqsa yoshlar bilan ishlashning norasmiy va interaktiv usullariga qaratilishi kerak. Davlat va jamiyat o‘rtasidagi axborot almashinuvi faqat bir tomonlama ko‘rsatma berishdan iborat bo‘lmasdan, doimiy qayta aloqa mexanizmiga ega bo‘lgandagina, siyosiy tizim har qanday axborot urushlari va psixologik operatsiyalar sharoitida o‘zining strategik mustahkamligini saqlab qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lasswell H. D. The Structure and Function of Communication in Society. // The Communication of Ideas. – New York: Harper and Row, 1948. – P. 37-51.

2. Castells M. Communication Power. – Oxford; New York: Oxford University Press, 2009.

3. Ganiyeva M. S. Siyosiy munosabatlar tizimida axborot xavfsizligi. – T.: «Fan va texnologiya», 2013. – 160 b.

4. Eshbekov B. Siyosiy kommunikatsiya va siyosiy madaniyat masalalari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020. – 25–98-bet

5. Mamatov T. Global axborotlashuv sharoitida ijtimoiy va psixologik xavfsizlik. Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2021. – 18–110-bet

6. Le Bon G. The Crowd: A Study of the Popular Mind. London: T. Fisher Unwin, 1895. – 1–150-bet

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

THE JADID MOVEMENT AND ITS ACTIVITIES IN THE EMIRATE OF BUKHARA

Tojiyev Diyorbek Anvar o‘g‘li
4th-year Student, Faculty of History and Law Bukhara State University
+998914462824 *tojiyevdiyorbek85@gmail.com*

Abstract

This article examines the Jadid movement, which emerged in the Emirate of Bukhara in the late 19th and early 20th centuries, focusing on its formation, core areas of activity, and historical significance. The author analyzes the efforts of the Jadids to reform the educational system, establish "new-method" (Usul-i Jadid) schools, and develop the national press and underground organizations within the complex socio-political climate of the Emirate. The paper highlights the intellectual and political struggle led by prominent figures of Bukhara Jadidism, such as Abdurauf Fitrat, Fayzulla Khojaev, and Sadriddin Ayni, as well as the attempts of the "Young Bukharans" party to fundamentally reform the emirate's governance. Based on historical sources, the study evaluates the role of the Bukhara Jadid movement in shaping national identity and early ideas of independence.

Keywords

Emirate of Bukhara, Jadidism, new-method school, national press, "Tarbiyai Atfol", "Young Bukharans", reforms, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Khojaev, enlightenment.

BUXORO AMIRLIGIDA JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING FAOLIYATI

Tojiyev Diyorbek Anvar o’g’li
Buxoro Davlat Universiteti Tarix va Yuridik fakulteti 4-bosqich talabasi,

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro amirligida vujudga kelgan jadidchilik harakati, uning shakllanish shart-sharoitlari,

asosiy faoliyat yo‘nalishlari va tarixiy ahamiyati tadqiq etiladi. Muallif amirlikning murakkab ijtimoiy-siyosiy muhitida jadidlarning maorif tizimini isloh qilish, yangi usul maktablarini ochish, milliy matbuot va yashirin tashkilotlarni shakllantirish borasidagi sa’y-harakatlarini tahlil qilgan. Maqolada Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Sadriddin Ayniy kabi Buxoro jadidlarining yetuk namoyandalari olib borgan ma’rifiy va siyosiy kurashi, shuningdek, „Yosh buxoroliklar“ partiyasining amirlik tuzumini tubdan isloh qilishga qaratilgan harakatlari yoritib berilgan. Tadqiqot natijasida Buxoro jadidchilik harakatining milliy o‘zlikni anglash va istiqlol g‘oyalarining shakllanishidagi o‘rni tarixiy manbalar asosida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, jadidchilik, yangi usul maktabi, milliy matbuot, „Tarbiyai atfol“, „Yosh buxoroliklar“, islohot, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, ma’rifatparvarlik.

ДЖАДИДСКОЕ ДВИЖЕНИЕ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ И ЕГО ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

Аннотация: В данной статье исследуется джадидское движение, возникшее в Бухарском эмирате в конце XIX — начале XX веков, условия его формирования, основные направления деятельности и историческое значение. Автор анализирует усилия джадидов по реформированию системы образования, открытию новометодных школ, развитию национальной прессы и созданию тайных организаций в сложной общественно-политической атмосфере эмирата. В статье освещается просветительская и политическая борьба таких выдающихся представителей бухарского джадидизма, как Абдурауф Фитрат, Файзулла Ходжаев, Садриддин Айни, а также деятельность партии «Младобухарцы», направленная на коренное реформирование эмирского режима. На основе исторических источников раскрывается роль бухарского джадидизма в формировании национального самосознания и идей независимости.

Ключевые слова: Бухарский эмират, джадидизм, новометодная школа,

национальная пресса, «Тарбии атфол», «Младобухарцы», реформа, Абдурауф Фитрат, Файзулла Ходжаев.

Buxoro amirligida jadidchilik harakati XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida vujudga kelgan, millatning ijtimoiy-siyosiy, maorif va madaniy hayotini tubdan o‘zgartirishga qaratilgan eng qudratli milliy yuksalish harakati hisoblanadi. Ushbu davrda Buxoro amirligi bir tomondan feodal tuzum, ijtimoiy qoloqlik va diniy fanatizm changalida bo‘lsa, ikkinchi tomondan chor Rossiyasining iqtisodiy va siyosiy mustamlakachilik tazyiqi ostida yashar edi. Mamlakatdagi bunday turg‘unlik va adolatsizlik, soliqlar og‘irligi hamda amaldorlarning o‘zboshimchaligi davrning ilg‘or fikrli ziyolilarini millatni qutqarish choralarini izlashga majbur qildi. Tatar ma’rifatparvari Ismoil Gasprinskiy tomonidan Qrimda asos solingan yangi g‘oyalar va uning „Tarjimon“ gazetasi, shuningdek, yaqin Sharq hamda Rossiyadagi inqilobiy o‘zgarishlar Buxoro taraqqiyparvarlarining g‘oyaviy shakllanishiga kuchli turtki berdi.

Harakatning dastlabki va eng muhim qadami maorif tizimini tubdan isloh qilish bilan bog‘liq bo‘ldi. Eski maktablardagi quruq sxolastika va yillar davomida bolalarni savodsiz qoldiruvchi usullarga qarshi o‘laroq, Buxoroda ilk bor usuli jadid, ya’ni tovush tizimiga asoslangan yangi maktablar tashkil etildi. Mirzo Abdulvohid Munzim o‘z hovlisida ochgan ilk yangi usul maktabi bu boradagi amaliy harakatlarning boshlanishi edi. Sadriddin Ayniy va boshqa ma’rifatparvarlar ushbu maktablar uchun zamonaviy darsliklar yaratib, tarix, geografiya, hisob va tabiatshunoslik kabi dunyoviy fanlarni o‘quv dasturiga kiritdilar. Bu o‘zgarishlar yosh avlodning dunyoqarashini kengaytirish bilan birga, jamiyatda dunyoviy bilimlarga bo‘lgan ehtiyojni keskin oshirdi va milliy uyg‘onishning mustahkam poydevorini qo‘ydi. Maorif sohasidagi islohotlar bilan bir qatorda, jadidlar xalq ommasiga o‘z g‘oyalarini yetkazishning eng samarali vositasi o‘laroq milliy matbuotni maydonga olib chiqdilar. Buxoroyi sharif va Turon kabi ilk mahalliy gazetalarning nashr etilishi hudud ijtimoiy hayotida tub burilish yasadi. Ushbu

nashrlarda amirlikdagi poraxorlik, qoloqlik, adolatsiz boshqaruv va ta’lim inqirozi ochiq-oydin tanqid ostiga olindi. Garchi bu gazetalar amirlik ulamolari va chor ma’murlarining tazyiqi bilan qisqa muddatda taqiqlab qo‘yilgan bo‘lsa-da, ular xalqning ijtimoiy ongini uyg‘otish va ziyolilarni umumiy maqsad atrofida jipslashtirish vazifasini to‘liq bajarishga ulgurdi. Matbuot bergan turtki natijasida harakat tarqoq ma’rifatparvarlikdan uyushgan siyosiy kuchga aylana boshladi.

Amirlik ma’murlarining tinimsiz ta’qiblari tufayli jadidlar o‘z faoliyatlarini maxfiy ravishda davom ettirishga majbur bo‘ldilar va Tarbiyai atfol yashirin jamiyatini tuzdilar. Ushbu tashkilot o‘z oldiga millat taqdirini o‘zgartira oladigan yetuk kadrlarni tayyorlash vazifasini qo‘ydi va iqtidorli buxorolik yoshlarni yashirincha Turkiyaga o‘qishga yuborishni yo‘lga qo‘ydi. Stambulda tahsil olgan yoshlar u yerdagi ilg‘or demokratik g‘oyalar va davlatchilik tizimini o‘rganib, keyinchalik Buxoroda islohotlar dasturini tuzishda faol ishtirok etdilar. Bu davrga kelib harakat o‘zining madaniy-ma’rifiy chegarasidan chiqib, sof siyosiy yo‘nalishga o‘tdi va uning negizida Yosh buxoroliklar siyosiy partiyasi shakllandi.

Harakatning g‘oyaviy rahnamosi Abdurauf Fitrat va siyosiy yetakchisi Fayzulla Xo‘jayev boshchiligidagi bu guruh amir Said Olimxondan davlat boshqaruvini tubdan o‘zgartirishni talab qildi. Ular taqdim etgan islohotlar dasturi mamlakatda konstitutsiyaviy monarxiya joriy etish, xazina va amir mulkini ajratish, soliqlarni qat’iy me’yorga solish hamda vakillik organi bo‘lgan Majlisni tuzishni ko‘zda tutar edi. Biroq amir va uning atrofidagi eskilik tarafdorlari bu talablarni qat’iyan rad etib, taraqqiyparvarlarga qarshi shafqatsiz qatliomlarni boshlab yubordi. Ko‘plab jadidlar qamoqqa olindi, surgun qilindi yoki jismonan yo‘q qilindi, bu esa amirlik bilan ziyolilar o‘rtasidagi aloqalarni butunlay uzdi.

Buxoro amirligi ag‘darilib, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilgandan keyin jadidlar hokimiyat tepasiga kelgan bo‘lsalar-da, ularning milliy va mustaqil davlat qurish borasidagi rejalari sho‘rolar imperiyasining mustamlakachilik siyosati tufayli

barbod bo‘ldi. Keyinchalik, XX asrning o‘ttizinchi yillaridagi Katta terror davrida Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev va boshqa yuzlab Buxoro jadidlari sovet rejimi tomonidan butunlay qatag‘on qilindi. Shunga qaramay, Buxoro jadidchiligi o‘z millatining ozodligi va baxt-saodati yo‘lida jon fido qilgan fidoyilar harakati sifatida tarixda qoldi. Ularning ko‘targan g‘oyalari, ta’lim va davlatchilik sohasidagi qarashlari bugungi mustaqil davlat poydevorini belgilab beruvchi eng qimmatli tarixiy meros hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro amirligidagi jadidchilik harakati shunchaki maorifni yangilash yoki ijtimoiy hayotni isloh qilishga qaratilgan qisqa muddatli urinish emas, balki millatning ijtimoiy-siyosiy ongini tubdan o‘zgartirgan va uni g‘ofillik uyqusidan uyg‘otgan chinakam intellektual inqilob edi. Jamiyatning eng o‘qimishli va fidoiy qatlamini birlashtirgan bu harakat qoloq feodal tuzum va tashqi mustamlakachilik changalida qolgan millatni qutqarishning yagona yo‘li ilm-fan, ma’rifat va siyosiy mustaqillik ekanini amalda ko‘rsatib berdi. Jadidlar o‘z g‘oyalari uchun nafaqat mol-mulklarini, balki aziz jonlarini ham fido qildilar va bu yo‘lda mislsizf ojialarni boshdan kechirdilar. Buxoro jadidlarining tarixiy fojiasi ularning o‘z g‘oyalarini amalga oshirish jarayonida ikki tomonlama murosasiz kuch — ichki diniy fanatizm hamda tashqi sho‘rolar imperiyasining shafqatsiz siyosati o‘rtasida qolib ketganliklarida edi. Biroq ularning jismonan yo‘q qilinishi millat qalbida uyg‘ongan istiqlol va ozodlik ruhini so‘ndira olmadi. Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev va boshqa o‘nlab millat fidoyilarining ta’lim, madaniyat va erkin davlatchilik borasidagi orzu-istaklari va ilgari surgan g‘oyalari yillar o‘tib bugungi mustaqil O‘zbekiston Respublikasining poydevoriga aylandi. Buxoro jadidchiligi qoldirgan boy ma’naviy meros bugungi kunda ham milliy o‘zlikni anglash, ilm-fanni rivojlantirish va taraqqiyparvar jamiyat barpo etishda eng muhim tarixiy mayoq bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D. Jamolova. Buxoro amirligida jadidlar va qadimchilar faoliyati (XIX asr oxiri – XX asr boshlari). Toshkent. “Muharrir” nashriyoti.2021.

2. O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent. 2000.

3. Sadriddin Ayniy. ”Esdaliklar”// 1-tom. O’zSSR davlat badiiy adabiyot nashriyoti.1963.

4. “Jadid ma’rifatparvarlik harakatining g’oyaviy asoslari”. Toshkent. “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi. 2016.

5. L.P. Muhamedjonova. M.M. Alimova. “Buxoro jadidchilik harakati tarixidan”. Buxoro. “Durdona nashriyoti”. 2019

6. Nusratillo Naimov. “Buxoro jadidlari”. Toshkent. “Fan” nashriyoti. 2000.

7. Temirov Farrux Umedovich.”Mustaqillik yillarida Sadriddin Ayniy ilmiy-adabiy me’rosining o’rganilishi”.

8. Feruza Bobojonova. “Buxoro amirligida ta’lim tizimi. XIX asr oxiri – XX asr boshlari”. “Adib” nashriyoti. 2014.

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

Study of Drying Technology of Fig (Ficus carica L.) Fruits

Pulatjon E. Egamberdiyev
Associate Professor, PhD in Agricultural Sciences
Gulistan State University
Ibrohim S. Jo‘lbekov
Acting Associate Professor, PhD in Agricultural Sciences
Gulistan State University

Abstract

This study is devoted to a comprehensive investigation of the technological parameters and economic efficiency of drying fig (Ficus carica L.) fruits under the climatic conditions of Uzbekistan. Particular attention is given to local cultivars such as “Sariq Anjir” (Tashkent/Namangan fig), “Qora Anjir,” and the internationally recognized “Kadota” variety. Three drying methods—natural sun drying, artificial convective drying, and combined (hybrid) drying—were comparatively analyzed. Drying kinetics, energy consumption, nutrient retention, and final product quality were selected as the main performance indicators. The results revealed that natural sun drying is the most energy-efficient method; however, it does not ensure consistent microbiological safety and product quality. In contrast, the combined drying method was identified as the most technologically advanced approach, providing optimal texture and color preservation, superior export-oriented quality, and significantly lower energy consumption compared to fully artificial drying methods. From an economic perspective, the “Sariq Anjir” variety demonstrated the highest profitability indicators, generating a net profit of 7.6 million Uzbek soums per ton of product and achieving a profitability rate of 61.3%. The findings suggest that the implementation of combined drying technologies in Uzbekistan’s agricultural sector can substantially reduce post-harvest losses, stimulate the fruit and vegetable processing industry, and enhance the competitiveness of locally produced dried figs in international export markets.

Keywords:

Ficus carica L., fig drying, food technology, dehydration kinetics, economic efficiency, Sariq Anjir, Kadota, combined drying method, net profit, profitability rate, export-oriented production, post-harvest losses, nutritional value, sustainable processing.

Anjir (Ficus carica L.) mevalarini quritish texnologiyasini o‘rganish.

Pulatjon E. Egamberdiyev

Guliston davlat universiteti, dotsenti, q.x.f.f.d (PhD)

Ibrohim S. Jo‘lbekov

Guliston davlat universiteti, v.b dotsenti, q.x.f.f.d (PhD)

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot O‘zbekiston iqlim sharoitida anjir (Ficus carica L.) mevalarini quritishning texnologik parametrlari va iqtisodiy samaradorligini har tomonlama o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda asosiy e’tibor mahalliy "Sariq anjir" (Toshkent/Namangan anjiri), "Qora anjir" hamda xalqaro miqyosda tan olingan "Kadota" navlariga qaratilgan. Quritishning uchta usuli — tabiiy quyoshda quritish, sun’iy konvektiv quritish va kombinatsiyalangan (birlashtirilgan) usullar qiyosiy tahlil qilindi. Quritish kinetikasi, energiya sarfi, ozuqa moddalarining saqlanishi va yakuniy mahsulot sifati asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari sifatida qabul qilindi.

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatadiki, tabiiy quyoshda quritish energiya sarfi jihatidan eng tejamkor usul bo‘lsa-da, mikrobiologik xavfsizlik va mahsulot sifati barqarorligini ta’minlay olmaydi. Aksincha, kombinatsiyalangan quritish usuli texnologik jihatidan eng mukammal deb topildi; u mahsulotning optimal teksturasi (konstitutsiyasi) va rangini saqlashni ta’minlaydi, yuqori eksportbop xususiyatlarni beradi va sun’iy usulga qaraganda energiya sarfini sezilarli darajada kamaytiradi. Iqtisodiy nuqtai nazardan, "Sariq anjir" navi eng yuqori foyda ko‘rsatkichlarini qayd etib, bir tonna mahsulotdan 7,6 million so‘m sof foyda va 61,3% rentabellik darajasini ko‘rsatdi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi sektorida kombinatsiyalangan quritish texnologiyalarini joriy etish hosil yo‘qotishlarini keskin

kamaytiradi, meva-sabzavotni qayta ishlash sanoatini rag‘batlantiradi va jahon eksport bozorida mahalliy quritilgan anjirlarning raqobatbardoshligini oshiradi.

Kalit so‘zlar: *Ficus carica L., anjir quritish, oziq-ovqat texnologiyasi, degidratatsiya kinetikasi, iqtisodiy samaradorlik, Sariq anjir, Kadota, kombinatsiyalangan quritish usuli, sof foyda, rentabellik darajasi, eksportbop ishlab chiqarish, hosildan keyingi yo‘qotishlar, ozuqaviy qiymat, barqaror qayta ishlash.*

Kirish. Anjir (Ficus carica L.) tutdoshlar (Moraceae) oilasiga mansub. Ficus turkumi 600 dan 1900 gacha bo‘lgan turlarni o‘z ichiga oladi, bu esa uni eng boy o‘simlik turkumlaridan biriga aylantiradi. Biroq, ulardan faqat bir nechtasi iste’molbop meva beradi. Aksariyat turlar tropik va subtropik mintaqalar, Yaqin Sharq va O‘rta yer dengizi havzasida mahalliy hisoblanadi.

Anjir insoniyat tomonidan xonakilashtirilgan eng qadimgi mevalardan biridir. Anor va zaytun qatorida, u bundan 6000 yil muqaddam O‘rta yer dengizi havzasida bog‘dorchilikning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq uchinchi klassik mevali ekin hisoblanadi. Bugungi kunda anjir qayta ishlangan, quritilgan yoki yangi (yashilli) holatda ko‘plab issiq va mo‘’tadil iqlimli hududlarda yetishtiriladi. Ularning o‘sishi yozgi issiqdan ko‘ra ko‘proq qishki past temperaturalar bilan cheklanadi. Iqlim anjirning kattaligi, shakli, po‘sti va etining rangiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Yomg‘ir, do‘l va shamol meva sifatini va umumiy hosildorlikni pasaytirishi mumkin.

Hozirgi vaqtda anjir (ham yangi, ham quritilgan) O‘rta yer dengizi parhezining muhim tarkibiy qismidir. Anjir mevalari, ayniqsa quritilganlari, kletchatka, mikronutrientlar, polifenollar, oqsillar, K vitamini, uglevodlar, magniy, kaliy, kalsiy va tabiiy shakarmaning boy manbai hisoblanadi. Adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra, yangi va quritilgan anjirlar yurak-qon tomir kasalliklari, saraton va qabziyatni davolashda samaralidir. An’anaviy O‘rta yer dengizi tabobatida ushbu mevalar isitmani tushiruvchi, surgi, afrodizyak (jinsiy quvvatni oshiruvchi), yallig‘lanishga qarshi va falajga qarshi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Daraxtning boshqa qismlari

— barglari, lateksi (sutsimon shirasi), po‘stlog‘i va ildizlari ham tibbiy maqsadlarda qo‘llaniladi. Ficus carica barglari, novdalari, po‘stlog‘i va lateksining mikroblarga, saratonga, yallig‘lanishga, isitmaga, qandli diabetga, semirishga, jigar shikastlanishiga va ich ketishiga qarshi biologik faolligi tadqiq qilingan.

O‘zining to‘yingan ozuqa moddalari va ko‘p qirraliligi tufayli anjir jahon bozorida yanada muhim rol o‘ynashi mumkin. 2020-yilda 289 818 gektar maydonda 1 315 588 metrik tonnadan ortiq anjir yetishtirildi. Ushbu mahsulotning taxminan 90% O‘rta yer dengizi havzasi va Yaqin Sharq mamlakatlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Turkiya jahondagi eng yirik anjir yetishtiruvchi davlat bo‘lib, global ishlab chiqarishning qariyb 26% ini ta’minlaydi. Turkiya, Misr, Eron, Gretsiya, Jazoir va Marokash yillik global mahsulotning deyarli 70% ini tashkil etuvchi "kuchli oltilik"ka kiradi.

Olma, banan va sitrus mevalar kabi yirik ekinlar bilan qiyoslaganda, global anjir yetishtirish hajmi kichik. Biroq, u o‘rik va gilos yetishtirish hajmining uchdan bir qismidan yarmigacha bo‘lgan miqdorga yetdi, bu esa uni endilikda ikkinchi darajali ekin deb hisoblab bo‘lmasligini anglatadi. Hozirgi tijoriy ishlab chiqarishning asosiy qismi quritilgan anjirga mo‘ljallangan. Eng katta o‘sish salohiyati esa yuqori sifatli yangi anjirlarda mavjud. Hozirgi vaqtda qisqa tashish muddati va cheklangan saqlash muddati tufayli yangi anjir talab kam bo‘lgan yuqori qiymatli meva bo‘lib qolmoqda. Yangi anjir bozorini kengaytirish uchun uning hosildan keyingi saqlash muddatini uzaytirish muhim ahamiyatga ega.

Mavzuning dolzarbligi va zaruriyati

Anjir (Ficus carica L.) ming yillar davomida insoniyat tomonidan yetishtirib kelinayotgan dunyodagi eng qadimgi mevali ekinlardan biridir. Dunyo miqyosida anjirzorlar maydoni taxminan 280–300 ming gektarni tashkil etadi, yalpi hosil so‘nggi yillarda 1,2–1,3 million tonnaga yetdi. Anjirning aksariyati quritilgan shaklda iste’mol qilinadi, chunki yangi meva tez buziladi va uzoq vaqt saqlash qiyin.

Jahon anjir ishlab chiqarishning katta qismi (ayniqsa Turkiya, Eron, Misr va Marokash kabi yetakchi davlatlarda) quritishga yo‘naltirilgan. Quritilgan anjir yuqori qo‘shilgan qiymatga ega va salmoqli eksport salohiyatiga ega mahsulotdir. Ular tabiiy shirinlik va ozuqa moddalari (shakarlar, kletchatka, minerallar va antioksidantlar) manbai sifatida sog‘lom ovqatlanishning muhim qismi bo‘lib xizmat qiladi.

Yetakchi global ishlab chiqaruvchilar qatoriga Turkiya (320–356 ming tonna), Misr, Marokash, Jazoir, Eron va Afg‘oniston kiradi. Turkiya nafaqat ishlab chiqarishda, balki quritilgan anjir eksportida ham yetakchilik qiladi. Hozirgi vaqtda global anjirchilikdagi ustuvor vazifalar hosildorlikni oshirish, kasallik va zararkunandalarga chidamli navlarni yaratish, quritish texnologiyalarini takomillashtirish, mahsulot sifatini saqlash va mikotoksinlar (aflatoksin) xavfini kamaytirishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasining iqlim sharoiti (issiq va quruq yoz) anjir yetishtirish va uni tabiiy quritish uchun juda qulaydir. So‘nggi yillarda mamlakatimizda yuqori hosildor, kasalliklarga chidamli mahalliy va xorijiy anjir navlarini sinash va yetishtirish ishlari jadallashdi. Biroq, hosilni yig‘ib olish, saqlash va ayniqsa, quritish texnologiyalarini ilmiy jihatdan takomillashtirish masalalari hali yetarlicha o‘rganilmagan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, dehqonlar daromadini oshirish va qo‘shilgan qiymatga ega eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan strategik hujjatlarida meva-sabzavotchilik va quritish sanoatini rivojlantirish muhim vazifa qilib belgilangan. Shuning uchun anjir mevalarini quritishning samarali texnologiyalarini ishlab chiqish, nobudgarchilikni kamaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash va eksport hajmini oshirish katta dolzarblikka ega.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi "Anjir (Ficus carica L.) mevalarini quritish texnologiyasini tadqiq etish" mavzusida olib borildi.

Tadqiqotning maqsadi: O‘zbekiston sharoitida yetishtirilgan anjir mevalarini quritishning turli usullarini (tabiiy quyoshda quritish, sun’iy konvektiv quritish va kombinatsiyalangan usullar) o‘rganish, eng samarali texnologik parametrlarni aniqlash va quritilgan mahsulotning sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash.

Tadqiqot vazifalari:

Anjirning iqtisodiy ahamiyati, morfologik va biologik xususiyatlarini tahlil qilish.

Anjir zararkunandalari va kasalliklariga qarshi kurash choralari bilan tanishish.

Hosilni yig‘ib olish va birlamchi texnologik ishlov berish usullarini o‘rganish.

Turli quritish usullarining ta’sirini solishtirish.

Quritish jarayonining sifat ko‘rsatkichlariga (namlik, rang, tekstura, to‘yimli moddalarning saqlanishi, mikrobiologik xavfsizlik) ta’sirini baholash.

Quritish texnologiyasining iqtisodiy samaradorligini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti: O‘zbekiston Respublikasining keskin kontinental iqlimi sharoitida yetishtirilgan istiqbolli anjir navlarining mevalari. Tadqiqot uchta navga qaratilgan: mahalliy "Sariq anjir" (Namangan anjiri), "Qora anjir" va xorijiy "Kadota" navi. Ushbu navlar Farg‘ona vodiysi, Samarqand va Toshkent viloyatlarida keng tarqalgan bo‘lib, o‘zining kattaligi, shirinligi va quritishga yaroqliligi bilan yuqori baholanadi.

Tadqiqot predmeti: Turli texnologik quritish usullarining (tabiiy quyosh, sun’iy konvektiv va kombinatsiyalangan) mexanizmlari va natijalari. Bunga quritish tezligi, energiya sarfi, jismoniy-kimyoviy va organoleptik ko‘rsatkichlar, ozuqa moddalarining saqlanish darajasi hamda mikrobiologik xavfsizlikni chuqur o‘rganish kiradi.

Ilmiy yangiligi: O‘zbekiston iqlimi sharoitida "Sariq anjir", "Qora anjir" va "Kadota" navlarini quritishning turli usullarini har tomonlama qiyosiy o‘rganish

orqali eng samarali va iqtisodiy jihatdan foydali quritish texnologiyasi taklif etildi. Mahalliy sharoitda ilk bor quyoshda, sun'iy va kombinatsiyalangan quritish usullarining qiyosiy tahlili o'tkazilib, sifat ko'rsatkichlari (rang, tekstura, ozuqa moddalarining saqlanishi va aflatoksin xavfi) bilan energiya sarfi o'rtasidagi bog'liqlik o'rnatildi. Natijada eksportbop sifatga ega quritilgan anjir ishlab chiqarishning optimal texnologik parametrlari ishlab chiqildi.

Amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalari O'zbekistondagi anjir yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari, quritish korxonalari va klasterlar uchun amaliy ahamiyatga ega. Ushbu ishda taklif etilgan optimal quritish texnologiyasi hosildan keyingi yo'qotishlarni kamaytirish, mahsulot sifatini oshirish va eksportbop quritilgan anjir ishlab chiqarishni ko'paytirish imkonini beradi. Ushbu natijalarni joriy etish dehqonlar daromadini oshirishga, yangi ish o'rinlari yaratishga va mamlakatimiz quritilgan meva mahsulotlarining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

2.1. Anjir (Ficus carica L.) mevalarini quritishning iqtisodiy samaradorligi.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va eksportbop tovarlar ishlab chiqarish agrar tarmoqning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Xususan, tez buziladigan mevalarni qayta ishlab, ularning saqlash muddatini uzaytirish va iqtisodiy qiymatini oshirish katta ahamiyatga ega. Shunday mevalardan biri anjirdir (Ficus carica L.).

Tarkibida tabiiy shakarlar, organik kislotalar, vitaminlar, minerallar va biologik faol birikmalar ko'pligi sababli anjir yuqori ozuqaviy qiymatga ega. Biroq, yangi uzilgan anjir juda nozik va tez buziluvchan bo'lib, saqlash muddati juda cheklangan. Oqibatda, hosilning salmoqli qismi saqlash va tashish jarayonida nobud bo'ladi. Quritish texnologiyasi ushbu muammoni hal qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Quritish jarayoni mahsulotdan ortiqcha namlikni chiqarib tashlaydi, bu esa mikroblarning ko'payishini sekinlashtiradi va saqlash muddatini uzaytiradi.

Quritilgan anjir bozorda katta talabga ega va asosiy eksportbop tovarlar qatoriga kiradi. Ayniqsa Turkiya, Eron va O‘rta yer dengizi mintaqasi mamlakatlarida quritilgan anjir iqtisodiy jihatdan muhim tovar sifatida qadrlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining iqlim sharoiti, xususan, issiq va quruq yoz oylari anjirni tabiiy usulda quritish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Bu nafaqat ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, balki yuqori sifatli quritilgan mahsulotlar olish imkonini beradi. Respublikamizda anjir yetishtirish va qayta ishlash hajmini oshirish orqali eksport salohiyatini mustahkamlash, fermer xo‘jaliklari daromadlarini ko‘paytirish va oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish mumkin.

Tadqiqot davomida O‘zbekistonda keng ko‘lamda yetishtiriladigan "Sariq anjir" (Toshkent anjiri), "Qora anjir" va "Kadota" navlarining iqtisodiy samaradorligi o‘rganildi. Hisob-kitoblar 1 tonna (1000 kg) yangi uzilgan hosil miqdoriga asoslandi.

Anjir mevalarida namlik darajasi yuqori bo‘lganligi sababli, quritish jarayonida vazn kamayishi kuzatiladi. O‘rtacha hisobda 4 kg yangi anjirdan 1 kg quritilgan mahsulot olindi. Shunga ko‘ra, 1000 kg yangi mevadan 250 kg quritilgan mahsulot tayyorlandi...

1-jadval

Anjir navlari bo‘yicha iqtisodiy ko‘rsatkichlar (2024-2025 yy.)

	Ko‘rsatkichlar	**Sariq anjir**	**Qora anjir**	**Kadota**
	Yangi hosil miqdori	1000 kg	1000 kg	1000 kg
	1 kg fresh (yangi) meva narxi	10 000 so‘m	15 000 so‘m	20 000 so‘m
	Xomashyo qiymati	10 000 000 so‘m	15 000 000 so‘m	20 000 000 so‘m
	Quritish va texnologik xarajatlar	2 400 000 so‘m	2 500 000 so‘m	2 600 000 so‘m

	Umumiy xarajatlar	12 400 000 so‘m	17 500 000 so‘m	22 600 000 so‘m
	Quritilgan mahsulot miqdori	250 kg	250 kg	250 kg
	Quritilgan mahsulot narxi (1 kg)	80 000 so‘m	90 000 so‘m	95 000 so‘m
	Yalpi daromad	20 000 000 so‘m	22 500 000 so‘m	23 750 000 so‘m
	Sof foyda	7 600 000 so‘m	5 000 000 so‘m	1 150 000 so‘m
0	Rentabellik darajasi	61.30%	28.50%	5.10%

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, eng yuqori iqtisodiy samaradorlik "Sariq anjir" navida kuzatildi. Xomashyo narxining nisbatan arzonligi va quritish xarajatlarining pastligi sababli ushbu nav bo‘yicha sof foyda 7,6 million so‘mni tashkil etdi. Rentabellik darajasi 61,3% ga yetdi, bu boshqa navlarga qaraganda sezilarli darajada yuqoridir.

"Qora anjir" navida sotish narxi yuqori bo‘lishiga qaramay, xomashyo narxi qimmatligi sababli sof foyda 5 million so‘mni tashkil etdi. Ushbu navning rentabellik darajasi 28,5% bo‘ldi. Shu bilan birga, "Qora anjir" navi o‘zining ajoyib tashqi ko‘rinishi va iste’mol qiymati tufayli yuqori xaridorgirlik xususiyatiga ega ekanligi qayd etildi.

"Kadota" navi yuqori mahsulot sifati va eksport salohiyatiga ega bo‘lsa-da, yangi meva tannarxining yuqoriligi uning iqtisodiy samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Natijada sof foyda 1,15 million so‘mni, rentabellik darajasi esa 5,1% ni tashkil etdi. Bu "Kadota" navini yetishtirishda xarajatlarni kamaytirish yoki tayyor mahsulotni sotish narxini oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Rentabellik darajasi quyidagi formula asosida aniqlandi::

$$R=\frac{SF}{UX}\times 100$$

Bu yerda:

- **R** — rentabellik darajasi (%);
- **NP** — sof foyda;
- **TC** — umumiy xarajatlar.

"Sariq anjir" navi uchun hisob-kitob quyidagicha amalga oshirildi::

$$R=\frac{7600000}{12400000}*100=61.3\%\ 1.$$

Anjir mevalarini quritishda turli texnologik usullar qo‘llaniladi. Tadqiqot davomida tabiiy quyoshda quritish, sun’iy konvektiv quritish va kombinatsiyalangan quritish usullarining iqtisodiy va texnologik ko‘rsatkichlari solishtirildi.

2-jadval.

Turli quritish usullarining iqtisodiy-texnologik qiyosiy tahlili

	Ko‘rsatkichlar	Quyoshda quritish	Sun’iy konvektiv quritish	Kombinatsiyalangan usul
	Quritish muddati	6–8 kun	18–24 soat	2–3 kun
	Energiya sarfi	Juda past	Yuqori	O‘rtacha
	Mahsulot sifati	O‘rtacha	Yuqori	Juda yuqori
	Rangning saqlanishi	Tabiiy	Yaxshi	Juda yaxshi
	Tekstura (konsistensiyasi)	O‘rtacha	Yumshoq	Elastik (qayishqoq)
	Mikrobiologik xavfsizlik	O‘rtacha	Yuqori	Yuqori
	Mahsulot nobudgarchiligi	10–12%	4–5%	3–4%
	Umumiy tannarx	Past	Yuqori	O‘rtacha

	Sof foyda	6–8 mln so‘m	3–5 mln so‘m	8–10 mln so‘m
0	Rentabellik darajasi	50–55%	25–30%	60–65%
1	Eksportboplik darajasi	O‘rtacha	Yuqori	Juda yuqori

Jadval natijalaridan ko‘rinib turibdiki, tabiiy quyoshda quritish usuli iqtisodiy jihatdan arzon tushadi. Ushbu usul deyarli hech qanday energiya sarfini talab qilmaydi, bu esa umumiy xarajatlarning past bo‘lishiga olib keladi. Biroq, quritish muddati uzoq va mahsulot sifati atrof-muhit omillariga bog‘liq bo‘ladi.

Sun’iy konvektiv quritish yuqori mahsulot sifatini ta’minlasa-da, elektr energiyasining ko‘p iste’moli tufayli umumiy xarajatlar oshib ketadi. Natijada, rentabellik darajasi boshqa usullarga qaraganda pastroq bo‘ladi.

Kombinatsiyalangan quritish usuli iqtisodiy samaradorlik va mahsulot sifati jihatidan eng maqbul (optimal) variant deb baholandi. Ushbu usulda dastlabki quyoshda quritish, so‘ngra sun’iy quritish bosqichlarining birgalikda qo‘llanilishi energiya sarfini kamaytirish va yuqori mahsulot sifatiga erishish imkonini beradi. Mahsulotning ko‘rinishi, rangi va teksturasi yaxshi saqlanib, eksport talablariga to‘liq javob beradi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, anjir quritish texnologiyasini joriy etish fermer xo‘jaliklari va qayta ishlash korxonalari uchun iqtisodiy jihatdan yuqori samaralidir. Xususan, "Sariq anjir" navida kuzatilgan yuqori rentabellik darajasi uning quritish uchun juda mos ekanligini isbotlaydi.

Ushbu texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish orqali:

Hosil nobudgarchiligi kamayadi;

Eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi oshadi;

Fermer xo‘jaliklarining daromadlari ko‘payadi;

Qayta ishlash sanoati rivojlanadi;

Yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyatlari kengayadi.

Bundan tashqari, quritilgan anjir mahsulotlariga bo‘lgan xalqaro talabning ortib borayotgani kelajakda ushbu tarmoqni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Kombinatsiyalangan quritish texnologiyasi mahsulot sifati va iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan eng istiqbolli texnologiya sifatida tavsiya etiladi.

Xulosalar.

1. Anjir (Ficus carica L.) O‘zbekistonning issiq va quruq iqlim sharoitida quritish va yuqori hosil olish uchun eng qulay mevali ekinlardan biri ekanligi aniqlandi. Xususan, yoz oylarida quyoshli kunlarning ko‘pligi tabiiy quritish jarayonining samarali kechishini ta’minlaydi.

2. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, anjir mevalarini quritish ularning saqlash muddatini bir necha barobar uzaytiradi, tashishga chidamliligini oshiradi va xaridorgir eksport mahsulotlarini ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi.

3. O‘rganilgan navlar orasida "Sariq anjir" (Sariq anjir) navi eng yuqori iqtisodiy samaradorlikni ko‘rsatdi. Ushbu nav 7,6 million so‘m sof foyda va 61,3% rentabellik darajasiga erishib, quritish uchun eng maqbul navlardan biri ekanligini tasdiqladi.

4. Turli quritish usullari orasida kombinatsiyalangan quritish texnologiyasi mahsulot sifati, energiya tejamkorligi va iqtisodiy jihatdan eng istiqbolli usul deb baholandi. Bu usul mahsulotning rangi, teksturasi va organoleptik ko‘rsatkichlarini samarali saqlab, xalqaro eksport standartlariga javob beradigan yuqori sifatli mahsulot olish imkonini berdi.

5. Anjir mevalarini zamonaviy quritish texnologiyalari yordamida qayta ishlash fermer xo‘jaliklari daromadlarini oshirish, hosildan keyingi yo‘qotishlarni kamaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va mamlakatimiz quritilgan meva sanoatining eksport salohiyatini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ilmiy va amaliy jihatdan asoslandi..

Tavsiyalar.

1. O‘zbekiston sharoitida quritishga yaxshi moslashgan "Sariq anjir", "Kadota" va "Qora anjir" navlarining plantatsiyalarini kengaytirish va ularni sanoat miqyosida ishlab chiqarish tavsiya etiladi.

2. Quritish jarayonida mahsulot sifatini yuqori darajada saqlash uchun mevalarni saralash, oltingugurt bilan fumigatsiya qilish (oqartirish), gigiyenik talablar va mikrobiologik xavfsizlik standartlariga qat’iy rioya qilish zarur.

3. Quritilgan anjir mahsulotlarini eksport bozoriga yo‘naltirish uchun zamonaviy qadoqlash, sertifikatlashtirish va logistika tizimlarini yanada rivojlantirish lozim.

4. Anjirni qayta ishlash va quritish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish, yangi yuqori hosildor va kasalliklarga chidamli navlarni yaratish hamda ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotar.

1. Fayziyev, J.N. (2020). Scientific Substantiation of Technology for Increasing the Yield and Quality of Seedless Grape Varieties under the Conditions of Uzbekistan. Author's abstract of the dissertation. Tashkent. pp. 5–18.

2. Egamberdiyev, P.E. (2023). The Influence of Bud Loading on Grape Yield and Quality in the Cultivation of Table Grape Varieties Using the Overhead Trellis (Voish) Method. Dissertation. Tashkent. pp. 52–85.

3. Сапаева, З. Ш., & Абдуллаева, Б. А. (2021). Влияние низкотемпературной обработки некоторых сортов винограда на их аминокислотный состав. *Молодой ученый*, (22), 117-120.

4. Файзиев, Ж. Н., Эгамбердиев, П. Э., & Жўлбеков, И. С. Ў. (2022). УЗУМНИНГ ХЎРАКИ КАТТА ҚЎРҒОН НАВИНИ ВОИШ УСУЛИДА ЕТИШТИРГАНДА КУРТАК ЮКЛАМАЛАРИНИ ҲОСИЛДОРЛИК

КЎРСАТКИЧЛАРИГА БОҒЛИҚЛИГИ. *Academic research in educational sciences*, *3*(Speical Issue 1), 254-257.

5. Ergashovich, E. P., Mardonovich, K. F., Ogli, J. I. S. O. A. D. U., Shavkatovich, A. A., Djumanazarova, S. D., & Raimovna, R. D. (2022). Effect of buds particle on productivity and quality when growing Katta Kurgan table variety grapes by voish method.

6. Jo'lbekov, I., Ungarov, A., Umrzoqova, I., & Adhamov, A. (2023). UZUMNING SANOATBOP NAVLARINI YETISHRISH USULLARIGA DOIR MAVZULARNI INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA TASHKIL ETISH. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, *1*(6), 89-93.

7. Rakhmatov, O., Zhulbekov, I. S., & Kabulov, I. M. (2023). Experimental study of a drying installation for drying melon with IR-radiation. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 443, p. 02005). EDP Sciences.

8. Жўлбеков, И. С. Ў. (2024). УЗУМНИНГ ШАРОБОП НАВЛАРИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ ВА УЛАРДАН ТУРЛИ НАВЛИ ШАРОБ ТАЙЁРЛАШ ТЕХНАЛОГИЯЛАРИ. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, *1*(7), 158-165.

9. Khujakulov, F., Egamberdiev, P., Julbekov, I., Abduraimov, D., & Ungarov, A. (2023). The dependence of grape feeding on the productivity indicator and harvest quality of rizamat and large dry varieties.

10. Sultanov, K., Egamberdiev, P., & Khujakulov, F. (2024). THE DEPENDENCE OF THE AMOUNT OF ORGANIC MATTER ON THE DEVELOPMENT OF THE ROOTS OF GRAPE VARIETIES. *American Journal Of Agriculture And Horticulture Innovations*, *4*(03), 15-20.

11. Kamoliddin, S., Pulatjon, E., & Ibrohim, J. (2024). DEPENDENCE ON THE MECHANICAL COMPOSITION OF THE APPLICATION OF GROWTH

SUBSTANCES TO THE GROWING VARIETIES OF GRAPES. *Universum: технические науки*, *8*(3 (120)), 37-40.

12. Weizhou, Z., O‘G, J. L. I. S., Qizi, S. S. I., Qizi, J. R. F. O., & Qizi, O. G. X. (2025). UZUM KO ‘CHATLARINI EKISH SXEMASI VA NAVLARNI JOYLASHTIRISH. *Central Asian Journal of Academic Research*, *3*(4), 94-97.

13. Sattarov, K., Eshmurodov, D., Mamatkulova, M., Julbekov, I., & Kharsika, I. (2025). The impact of active packaging and nanocoatings on the safety and shelf life of dairy products. *Scientific Journal'Animal Science & Food Technologies'*, *16*(2).

14. Эгамбердиев, П. Э., Хужакулов, Ф. М., Жулбеков, И. С. Ў., & Абдураимов, Д. У. Ў. (2025). ЗАВИСИМОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ РЕГУЛЯТОРОВ РОСТА НА МЕХАНИЧЕСКИЙ СОСТАВ ЯГОД СТОЛОВЫХ СОРТОВ ВИНОГРАДА. *Universum: технические науки*, *6*(12 (141)), 31-35.

15. O‘G, J. L. I. S., & Qizi, U. I. S. (2025). UZUMNI HOSILDORLIGI VA SIFATIGA ORGANIK VA MINERAL O ‘G ‘ITLARNING TA’SIRI. *Central Asian Journal of Academic Research*, *3*(4-3), 61-66.

16. Weizhou, Z., O‘G, J. L. I. S., Qizi, S. S. I., Qizi, J. R. F. O., & Qizi, O. G. X. (2025). UZUM KO ‘CHATLARINI EKISH SXEMASI VA NAVLARNI JOYLASHTIRISH. *Central Asian Journal of Academic Research*, *3*(4), 94-97.

17. Жулбеков, И. С. У. (2025). ВЛИЯНИЕ ЦИТОГУМИНОВОГО ВЕЩЕСТВА НА РАЗМЕР ЯГОД И МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КИШМИШНЫХ СОРТОВ ВИНОГРАДА. *Universum: технические науки*, *4*(1 (130)), 9-11.

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

THE CURRENT STATE OF GENDER EQUALITY POLICY IN THE GOVERNANCE SYSTEMS OF UZBEKISTAN AND KAZAKHSTAN

Nasiriddinova Oydin Tangriyevna
Associate Professor, Candidate of Legal Sciences Department of Social and Political Sciences Tashkent Institute of Chemical Technology
Boboraxmatova Malika Ulug‘bek qizi
Doctoral Researcher (PhD Candidate) Department of Social and Political Sciences Tashkent Institute of Chemical Technology

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the current state of policies aimed at ensuring gender equality within the governance systems of Uzbekistan and Kazakhstan. The study examines the institutional and legal foundations of reforms implemented in this area, the priority directions of state policy, and their practical outcomes. Furthermore, a comparative analysis of gender equality indicators is conducted based on official national statistical data as well as reports from international organizations, including the United Nations, the World Bank, and the World Economic Forum. The research highlights achievements, existing challenges, and future prospects for strengthening gender equality and inclusive governance in both countries.

Keywords: public policy, gender, legislation, government bodies, women’s rights, democracy, inclusiveness.

O‘ZBEKISTON VA QOZOG‘ISTON BOSHQARUVIDA GENDER TENGLIKNI TA’MINLASH SIYOSATINING BUGUNGI HOLATI

Nasiriddinova Oydin Tangriyevna - Toshkent kimyo texnologiya instituti “Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasi dotsenti,yuridik fanlar nomzodi
Boboraxmatova Malika Ulug‘bek qizi - Toshkent kimyo texnologiya instituti “Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston va Qozog‘iston davlatlarida boshqaruv tizimida gender tenglikni ta’minlashga qaratilgan siyosatning hozirgi holati

kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlarning institutsional va huquqiy asoslari, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari hamda ularning amaliy natijalari yoritilib, milliy darajadagi rasmiy statistik ma’lumotlar, shuningdek, BMT, Jahon banki va Jahon iqtisodiy forumi kabi xalqaro tashkilotlar hisobotlari asosida gender tenglik ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: davlat siyosati, gender, qonunchilik, davlat organlari, xotin-qizlar huquqlari, demokratiya, inklyuzivlik.

Bugun jahonda globallashuv va tez sur’atlar bilan o‘zgarib borayotgan , terrorizm xavf solayotgan va etnik mojarolar kundan-kun avj olayotgan sharoitda davlatlar o‘z barqarorligini ta;minlash va natijada rivojlanish va taraqqiyotga erishish, davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish, qaror qabul qilish jarayoniga jamiyatning barcha qatlamlarini, xususan, ayollarni faol jalb etish masalasi dolzarb ijtimoiy-siyosiy vazifalardan biriga aylangan. BMT tomonidan ishlab chiqilgan Pekin deklaratasiyasi va Harakatlar platformasi orqali xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasida qarorlar qabul qilishda muvozanatli siyosiy ishtirok va hokimiyatni taqsimlash masalasi xalqaro miqyosda kelishilgan maqsadga aylantirilgan. Garchi dunyoning ko‘plab mamlakatlarida to‘liq gender tengligiga hali erishilmagan bo‘lsa-da, gender kvotalari mexanizmi amaliy jihatdan sezilarli natijalar bermoqda. Markaziy Osiyo mintaqasida gender tenglik bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlar sezilarli darajada o‘smoqda, biroq boshqaruv strukturasi va qaror qabul qilish jarayonlarida hamon katta nomutanosibliklar mavjud. Qozog‘istonda gender tenglikni ta’minlash va ayollar siyosiy ishtirokini kengaytirishga qaratilgan bir qator huquqiy va strategik hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, parlament va mahalliy hokimiyat organlarida ayollar vakilligining oshirilishi maqsadida Qozog‘iston qonunchiligi saylov partiyalarining ro‘yxatlarida ayollar va yoshlar uchun kamida 30 % kvota joriy etilishini belgilaydi. Biroq, Qozog‘istonda ayollar umuman davlat xizmatchilarining 55,8 %ini tashkil etsa-da, ularning 39,1 % atigi yuqori lavozimlarda faoliyat yuritmoqda. Bu, o‘z navbatida, ayollarning hal qiluvchi qarorlar qabul qilinadigan lavozimlarda nisbatan kam ishtirok etayotganini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston gender tengligi bo‘yicha xalqaro reytinglarda ham o‘z o‘rnini mustahkamlashga intilmoqda. 2024-yilda jami 146 davlat orasida O‘zbekiston “Global Gender Gap Index” bo‘yicha 0,681 ball bilan 108-o‘rinni egallagan , bunda ayollar va erkaklar o‘rtasida ta’lim va sog‘liqni saqlash imkoniyatlari yaqindan teng darajada

ekanligi qayd etilgan. Biroq iqtisodiy ishtirok va siyosiy vakillik sohalarida pastroq ballar qayd etilib, gender tengsizlikning mavjudligi tasdiqlanmoqda. Amaliyotda esa ijtimoiy stereotiplar hamon gender tenglikka to‘sqinlik qilmoqda.

Ushbu statistik ko‘rsatkichlar va tendensiyalar shuni ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyo davlatlari, xususan O‘zbekiston va Qozog‘istonda gender tenglik siyosatini o‘rganish nafaqat ilmiy-nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega.

Ushbu mavzuni o‘rganishda tahlil etilgan asosiy manbaalardan birinchisi albatta O‘zbekiston va Qozog‘iston Respublikalarining Konstitutsiyasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddada “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlaydi[1]” degan me’yorning mustahkamlanishi, mazkur prinsipning faqat deklarativ emas, balki amaliy-huquqiy darajada tatbiq etilishi lozimligini bildiradi. Qozog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasida ham qonun va sud oldida har kimning tengligi, hech kim kelib chiqishi, ijtimoiy, mulkiy ahvoli, mashg‘uloti, jinsi, irqi, millati, tili, dinga munosabati, e’tiqodi, yashash joyi yoki boshqa har qanday holatlarga ko‘ra kamsitilishi mumkin emas deb keltirilib o‘tilgan[2]. 1979-yilda qabul qilingan “Xotin qizlar kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiyasi” (CEDAW) global miqyosda gender tenglikni yuridik jihatdan mustahkamlovchi va amaliy jihatdan yo‘naltiruvchi asosiy xalqaro-huquqiy hujjat sifatida tan olingan bo‘lib, 1995-yil 18-avgustda O’zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan. Ushbu konvensiya ayollarga nisbatan kamsitishning har qanday shakllarini bartaraf etish, ularning jamiyat hayotidagi to‘laqonli ishtirokini ta’minlash va teng huquqli sharoitda rivojlanishini kafolatlashga qaratilgan. 2019-yilda qabul qilingan “Xotin qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

[2] Republic of Kazakhstan. (1995). *Constitution of the Republic of Kazakhstan* https://adilet.zan.kz

to‘g‘risida”gi Qonun aynan CEDAW da belgilangan xalqaro standartlar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, ayollar va erkaklar o‘rtasidagi tenglikni huquqiy jihatdan kafolatlash, davlat organlarining bu boradagi majburiyatlarini aniqlashtirish hamda gender tenglikni ta’minlovchi institutsional mexanizmlarni yaratishga xizmat qilmoqda[3].

Xulosa sifatida ayta olamizki, jahonda rivojlangan davlatlar boshqaruv jarayonida, siyosatda, huquqda, iqtisodda va umuman olganda barcha davlat siyosiy tizim elementlarida gender tenglikni ta’minlash ijobiy natijalar olib kelganini inobatga olgan holda, doimiy ravishda ona, qiz, opa-singil, uy bekasi sifatida ko‘rilgan, ayollar ta’limi va faolligi og‘riqli nuqta hisoblangan Sharq mamlakatlari, xususan, Qozog‘iston va barcha Markaziy Osiyo davlatlarida xotin-qizlarga nisbatan bunday noto‘g‘ri qarashni o‘zgartirish va xotin-qizlarning ham davlat siyosiy tizimida yetarlicha imkoniyat va yutuqlarga ega bo‘la olishini isbotlaydigan davr keldi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

2. Republic of Kazakhstan. (1995). *Constitution of the Republic of Kazakhstan* https://adilet.zan.kz

3. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-son qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son.

4. Султонова, Э. С. (2006). *Аёл-давлатнинг ривожланиш стратегиясида (глобал муаммо сифатида)* (Докторлик диссертацияси, Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети, Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги). Тошкент, Ўзбекистон.

[3] O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-son qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son.

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE TRANSFORMATION OF RELIGIOUS VALUES IN ENSURING GENDER EQUALITY

Xaldibekova Farida Tuychiyevna

Senior Lecturer, Department of Social and Political Sciences Tashkent Institute of Chemical Technology

Boboraxmatova Malika Ulug‘bek qizi

Doctoral Researcher (PhD Candidate), Department of Social and Political Sciences Tashkent Institute of Chemical Technology

Abstract

This article analyzes the transformation of religious values under the influence of globalization processes and examines their role and significance in ensuring gender equality. The study explores historical and contemporary interpretations of religious values, their impact on gender relations within society, and their contribution to creating equal opportunities for women and men. The article also emphasizes that the reinterpretation of religious teachings based on the principles of human dignity, justice, and equality serves as an important factor in promoting gender equality. Furthermore, the mechanisms of interaction between religious values and modern gender policies in the context of globalization are analyzed, highlighting their significance in ensuring social stability and inclusive development.

Keywords

globalization, religious values, transformation, gender equality, social development, women’s rights, religious thought, inclusive development, social justice.

GENDER TENGLIKNI TA’MINLASHDA DINIY QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Xaldibekova Farida Tuychiyevna

Toshkent kimyo texnologiya instituti “Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

Boboraxmatova Malika Ulug‘bek qizi
Toshkent kimyo texnologiya instituti “Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv jarayonlari ta’sirida diniy qadriyatlarning transformatsiyasi hamda uning gender tenglikni ta’minlashdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda diniy qadriyatlarning tarixiy va zamonaviy talqinlari, ularning jamiyatdagi gender munosabatlariga ta’siri hamda ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlarni yaratishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, diniy ta’limotlarning inson qadr-qimmati, adolat va tenglik tamoyillari asosida qayta talqin qilinishi gender tenglikni rivojlantirishning muhim omili sifatida baholanadi. Maqolada globallashuv sharoitida diniy qadriyatlar va zamonaviy gender siyosati o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir mexanizmlari tahlil qilinib, ularning ijtimoiy barqarorlik va inklyuziv rivojlanishni ta’minlashdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: globallashuv, diniy qadriyatlar, transformatsiya, gender tenglik, ijtimoiy taraqqiyot, ayollar huquqlari, diniy tafakkur, inklyuziv rivojlanish, ijtimoiy adolat.

XXI asrda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi natijasida jamiyat hayotining barcha sohalarida, jumladan, ma’naviy va diniy qadriyatlar tizimida ham sezilarli o‘zgarishlar yuz bermoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, madaniyatlararo muloqotning kengayishi va inson huquqlari tamoyillarining universallashuvi diniy qadriyatlarning mazmuni va talqiniga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda gender tenglik masalasi diniy qadriyatlar transformatsiyasi bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘lmoqda.

Tarixan ko‘plab jamiyatlarda gender munosabatlari diniy me’yorlar va an’analar asosida tartibga solingan. Shu sababli ayol va erkakning oiladagi, ijtimoiy hamda siyosiy hayotdagi o‘rni ko‘pincha diniy qarashlar orqali izohlangan. Biroq zamonaviy davrda diniy ta’limotlarning mohiyatini qayta anglash va ularni zamon talablari asosida talqin

qilish jarayoni kuchaymoqda. Natijada inson qadr-qimmati, adolat, tenglik va ijtimoiy hamjihatlik kabi umuminsoniy tamoyillar diniy qadriyatlarning markaziy g‘oyalari sifatida e’tirof etilmoqda.

Diniy qadriyatlar transformatsiyasi deganda ularning asosiy mohiyatini saqlab qolgan holda yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashuvi tushuniladi. Bu jarayon diniy me’yorlarning inkor etilishi emas, balki ularning zamonaviy ehtiyojlar va ijtimoiy taraqqiyot talablariga muvofiq ravishda talqin qilinishini anglatadi. Ayniqsa, ayollarning ta’lim olish, kasb egallash, tadbirkorlik bilan shug‘ullanish va davlat boshqaruvida ishtirok etish huquqlariga nisbatan munosabatlarning o‘zgarishi diniy qadriyatlar transformatsiyasining muhim ko‘rinishlaridan biridir.

Bugungi kunda ko‘plab tadqiqotchilar gender tenglikni diniy qadriyatlarga zid hodisa sifatida emas, balki adolat va inson sha’nini ulug‘lash tamoyillarining mantiqiy davomi sifatida talqin qilmoqdalar. Zamonaviy diniy tafakkurda ayollarning jamiyat rivojidagi o‘rni, ularning ilm-fan, ta’lim, iqtisodiyot va siyosatdagi ishtiroki tobora kengroq e’tirof etilmoqda. Bu esa gender tenglikni ta’minlashning ma’naviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. 2024-yilda jami 146 davlat orasida O‘zbekiston “Global Gender Gap Index” bo‘yicha 0,681 ball bilan 108-o‘rinni egallagan , bunda ayollar va erkaklar o‘rtasida ta’lim va sog‘liqni saqlash imkoniyatlari yaqindan teng darajada ekanligi qayd etilgan[1].

Sharq mamlakatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, diniy qadriyatlar va gender tenglik bir-birini inkor etuvchi tushunchalar emas. Aksincha, diniy qadriyatlarning insonparvarlik mohiyati ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar yaratishga xizmat qilishi mumkin. Bunda diniy merosni zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganish, diniy ta’limning ma’rifiy jihatlarini kuchaytirish hamda yosh avlodda bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

[1] www.weforum.org

O‘zbekiston tajribasi ham ushbu jarayonning amaliy ifodasini namoyon etmoqda. Mamlakatda gender tenglikni ta’minlash, ayollarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, milliy va diniy qadriyatlarni asrab-avaylash ham davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv gender tenglik va ma’naviy qadriyatlar o‘rtasida muvozanatni ta’minlash imkonini bermoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda dunyo aholisining qariyb 84 foizi o‘zini ma’lum bir dinga mansub deb hisoblaydi. Bu esa dinning jamiyat hayotidagi ahamiyati hali ham yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, so‘nggi o‘n yilliklarda diniy tarkibda sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Masalan, xalqaro tadqiqot markazlari ma’lumotlariga ko‘ra, islom dini tarafdorlari soni eng tez o‘sayotgan diniy guruh hisoblanadi va 2050 yilga borib musulmonlar soni nasroniylar bilan deyarli tenglashishi prognoz qilinmoqda. Bu jarayon demografik omillar, tug‘ilish darajasi va migratsiya bilan bog‘liq holda yuz bermoqda[2].

Globallashuv jarayonida turli diniy g‘oyalar va madaniyatlarning kirib kelishi kuchaygan bir sharoitda Konstitutsiyada belgilangan diniy bag‘rikenglik va tenglik tamoyillari alohida ahamiyat kasb etadi. Barcha fuqarolarning diniy e’tiqodidan qat’i nazar teng huquqlarga egaligi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Konstitutsiyada millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan[3].

Shunday qilib, globallashuv sharoitida diniy qadriyatlarning transformatsiyasi gender tenglikni ta’minlashning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasi. (2023). O‘zbekistonda diniy tashkilotlar faoliyati bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar. – Toshkent.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.

Diniy qadriyatlarning insonparvarlik, adolat va tenglik tamoyillari asosida yangicha talqin qilinishi jamiyatda gender munosabatlarining demokratlashuviga, ijtimoiy barqarorlikning mustahkamlanishiga hamda inson kapitalining samarali rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonuni. (yangi tahrir). (2021). – Toshkent.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-son qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son.
4. Султонова, Э. С. (2006). Аёл-давлатнинг ривожланиш стратегиясида (глобал муаммо сифатида) (Докторлик диссертацияси, Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети, Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги). Тошкент, Ўзбекистон.
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2023). Aholi va ijtimoiy sohalarga oid statistik to‘plam. – Toshkent.
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2022). Diniy bag‘rikenglik va konfessiyalararo totuvlik masalalariga oid materiallar. – Toshkent.

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

REASONS FOR THE DECLINE OF INTEREST IN NATIONAL MUSICAL INSTRUMENTS AMONG YOUTH AND WAYS TO OVERCOME THEM

Nabiyeva Farog'atxon

3rd-year student of the Professional Education program, Department of Instrument Performance, Kokand State University

Abstract: This article discusses the reasons for the decline of interest in national musical instruments among young people and finding solutions to the problem by overcoming them through modern methods.

Keywords: national musical instruments, youth, mass culture, national heritage, musical taste, innovative education, promotion, contemporary music, national values, instrument performance

YOSHLAR ORASIDA MILLIY CHOLG'ULARGA QIZIQISH PASAYISHINING SABABLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Qo'qon davlat universiteti "Cholg'u ijrochiligi "kafedrasi Professional ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi Nabiyeva Farog'atxon

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar orasida milliy cholg'ularga qiziqish pasayganligining sabablari va ularni zamonaviy usullar orqali bartaraf etib masalaga yechim topish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: milliy cholg'ular ,yoshlar, ommaviy madaniyati, milliy meros, musiqiy did, innovatsion ta'lim, targ'ibot zamonaviy musiqa, milliy qadriyatlar, cholg'u ijrochiligi

Asrlar davomida avlodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlarimiz madaniyatimiz jamiyatimizning, xalqimizning o'zligini , buyukligini belgilab beradi. Shu o'rinda bizning madaniyatimizning asosini tashkil etuvchi milliy cholg'ularimiz o'zligimizni aks ettiruvchi milliy san'at vositalarimizdan biri hisoblanadi.Bugungi

kunda globallashuv va raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan bir davrda yoshlarning musiqiy didi ham keskin o‘zgarib bormoqda. Zamonaviy ommaviy madaniyat, internet tarmoqlarining ta’siri natijasida ayrim yoshlarda milliy musiqaga va milliy cholg’ularga bo‘lgan qiziqish pasayishi ortib bormoqda. Dutor, rubob, g’ijjak, nay, chang,kabi cholg’ular xalqimizning ruhiy dunyosi va estetik qarashlarini ifodalab kelgan. Yoshlarning milliy cholg’ularga bo‘lgan qiziqishining pasayishiga turli ijtimoiy va madaniy omillar sabab bo‘lmoqda.Shu o‘rinda zamonaviy musiqaga haddan tashqari qiziqish, yevropa cholg’ulariga intilish, milliy musiqamizning yetarli darajada targ’ib qilinmasligi, ma’lum bir ma’noda milliy cholg’ularning mukammal emasligi va cholg’u ohanglarini tanimaslik muammoning asosiy sabablaridan biri bo‘lmoqda.Yosh avlodning milliy cholg’ular eskicha san’at turi degan qarashlari ham milliy cholg’uga bo‘lgan qiziqishning pasayishiga sabab bo‘lmoqda. Mazkur maqolada yoshlar orasida milliy cholg‘ularga qiziqish pasayishining asosiy sabablari tahlil qilinadi hamda ushbu muammoni bartaraf etishning samarali yechimlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, milliy musiqa madaniyatini yoshlar orasida keng targ‘ib qilishning zamonaviy usullari ko‘rib chiqiladi.

Yoshlar orasida milliy cholg‘ularga qiziqishning pasayishi bugungi globallashuv va raqamli madaniyat davrida dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Ushbu holatning yuzaga kelishiga birinchi navbatda ommaviy madaniyatning kuchli ta’siri sabab bo‘lmoqda. Qadimiy tariximizdan ma’lumki o‘zbek xonadonlarining har birida musiqiy burchak bo‘lgan va eng kamida ushbu burchakda ikki dona milliy cholg’u turgan. Ular eng mukammal yaratilgan doira va dutor cholg’ulari edi.Xattoki dutorning dastasiga bog’langan popuklari shu xonadonning nechta farzand bor ekanligidan daolat bergan.Bu o‘z navbatida qayta ishlangan milliy cholg’ularimizning yetarlicha ovoz imkoniyatiga ega emasligi va xalq ularni hech birini tanimasligi bu masalaning yana bir dolzarb muammolaridan bo‘lib qolmoqda. Masalan qayta ishlangan cholg’ulardan dutor bas, prima rubob avg’on rubob dutor alt, dutor prima kabi cholg’ularni xalq umuman

tanimaydi.Buning sababi cholg'ularning ijro imkoniyatlarining kamligi balki, professional ijrochilarning yetishmasligi hamda cholg'ularni yetarlicha targ'ib qilinmasligi va xalqchillikdan yiroqlashishdir.Bu nafaqat yoshlarning milliy cholg'ularga bo'lgan qiziqishi pasayishiga balki, xalqimizning milliy merosi qadriyatlarining yo'qolib borishiga ham ma'lum bir ma'noda sabab bo'lmoqda.

Psixolog olimlarning fikriga ko'ra, yoshlar ko'pincha jamiyatda ommalashgan va tez e'tibor qozonadigan faoliyat turlariga moyillik bildiradilar. Natijada ular uzoq mehnat va sabr talab qiladigan milliy cholg'u ijrochiligidan ko'ra qisqa vaqt ichida mashhurlikka olib keluvchi zamonaviy trend musiqalarga ko'proq qiziqish bildirmoqdalar. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda sodda va tez tarqaladigan musiqiy kontentlarning ko'payishi yoshlarning musiqiy didi va estetik qarashlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Qiziqishning pasayishiga ta'sir etayotgan yana bir muhim omil — milliy cholg'ularning zamonaviy axborot makonida yetarlicha targ'ib qilinmayotganidir. Ko'plab yoshlar milliy cholg'ularni faqat an'anaviy tadbirlar bilan bog'laydi va ularni zamonaviy hayot bilan uyg'unlashtira olmaydi. Bu esa milliy musiqa va yoshlar dunyoqarashi o'rtasida ma'lum masofa yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, ayrim ta'lim muassasalarida musiqa darslarining nazariy yo'nalishda olib borilishi, amaliy va ijodiy mashg'ulotlarning kamligi ham o'quvchilarda ichki motivatsiyaning pasayishiga olib keladi. Mazkur muammoni bartaraf etishda, milliy cholg'ularni zamonaviy usullar orqali targ'ib qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, milliy cholg'ular ishtirokidagi zamonaviy aranjirovkalar, kreativ videolar hamda ijtimoiy tarmoqlar uchun sifatli musiqiy loyihalar yaratish yoshlarning qiziqishini oshirishi mumkin. Psixologik jihatdan yoshlar o'zlariga yaqin va zamonaviy ko'rinadigan faoliyatga tezroq qiziqish bildiradilar. Shu sababli milliy musiqani zamonaviy media bilan uyg'unlashtirish samarali natija beradi. Shu o'rinda musiqa ta'limida ijodiy erkinlikka asoslangan metodlarni joriy etish zarur. O'quvchilarning mustaqil ijro, improvizatsiya va sahna chiqishlarida faol qatnashishi ularda o'ziga

bo‘lgan ishonchni oshiradi hamda milliy cholg‘ularga nisbatan emotsional yaqinlikni shakllantiradi. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, insonda biror faoliyatga nisbatan barqaror qiziqish hosil bo‘lishi uchun unda muvaffaqiyat hissi va ijobiy ruhiy kechinmalar paydo bo‘lishi lozim. Shuningdek, oilaviy muhit va madaniy tarbiya ham muhim omillardan biridir. Agar bolalar yoshligidan milliy kuy va cholg‘ular muhitida tarbiyalansa, ularda milliy san’atga nisbatan tabiiy qiziqish shakllanadi. Demak, yoshlar orasida milliy cholg‘ularga qiziqishni oshirish faqat ta’lim tizimining emas, balki jamiyat, oila va ommaviy axborot vositalarining hamkorlikdagi vazifasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar orasida milliy cholg‘ularga qiziqishning pasayishi bir qator ijtimoiy, madaniy va ijodiy omillar bilan bog‘liq. Xususan, ayrim qayta ishlangan cholg‘ularning ijro imkoniyatlari mukammal darajada rivojlanmagani, professional ijrochilar sonining kamligi hamda milliy cholg‘ularning zamonaviy axborot makonida yetarlicha targ‘ib qilinmayotgani ushbu muammoning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Natijada ko‘plab yoshlar milliy cholg‘ularning imkoniyatlari, ohang boyligi va estetik qiymati haqida yetarli tasavvurga ega emaslar. Ba’zi hollarda esa milliy musiqa xalqchillik va tabiiylikdan uzoqlashib, yoshlar ruhiyatiga yaqin bo‘lmagan shaklda namoyon etilmoqda. Mazkur muammoni bartaraf etish uchun milliy cholg‘ularni zamonaviy texnologiyalar va kreativ yondashuvlar asosida targ‘ib qilish muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy tarmoqlar, raqamli platformalar, sifatli videokontentlar va zamonaviy aranjirovkalar orqali milliy cholg‘ularni yoshlar auditoriyasiga yaqinlashtirish mumkin. Shu bilan birga, professional ijrochilarni qo‘llab-quvvatlash, yosh iste’dodlarni rag‘batlantirish hamda cholg‘ularning texnik va akustik imkoniyatlarini yanada takomillashtirish zarur. Shuningdek, musiqa ta’limida amaliy ijro va ijodiy erkinlikka ko‘proq e’tibor qaratilishi yoshlarning milliy san’atga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Milliy cholg‘ularni ommalashtirish nafaqat musiqa madaniyatini rivojlantirishga, balki yosh avlodning milliy qadriyatlar va ma’naviy merosga hurmat ruhida tarbiyalanishiga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1 Jo'rayev A. O'zbek musiqa merosi va ta'lim. Toshkent. Fan 2019.
2.Abdullauyev F. Musiqa pedagogikasi asoslari. Toshkent O'gituvchi 2017.
3.Nurmatov O. Milliy cholg'u ijrochiligi tarixi. Samarqand Zarafshon 2020.
4.UNESCO. Intangible Cultural Heritage: Traditional Music of Central Asia 2018.
5. Qodirova S. Musiqa madaniyati darslarida innovatsion metodlar. Toshkent 2021.
6. Jurayev, I. (2025). Vocal pedagogy in the academy integrating Uzbek traditional practices. Academic Journal of Science, Technology and Education, 1(7), 30-35.

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

THE IMPACT OF PHYSICAL ACTIVITY ON THE HEALTH AND PSYCHOLOGICAL WELL-BEING OF STUDENT YOUTH

Azamjon Aripovich Ashurov,
Physical Education Teacher,
Sirdarya Academic Lyceum of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan.

Abstract: Physical activity is a key factor that exerts multifaceted positive effects on the health and psychological state of student youth. This article provides an in-depth analysis of the physiological effects of physical exercises on the cardiovascular-respiratory system, musculoskeletal apparatus, metabolic processes, and immune system. At the same time, the mechanisms of reducing depression, anxiety, and chronic stress levels, as well as improving cognitive functions and enhancing emotional stability through neurotransmitters and neurotrophic factors such as endorphins, serotonin, dopamine, and BDNF (brain-derived neurotrophic factor) are examined based on scientific evidence. Against the background of the specific characteristics of student life — high intellectual workload, sleep disturbances, difficulties in social adaptation, and sedentary lifestyle — the role of regular physical activity in improving academic success, psychological resilience, and overall quality of life is thoroughly analyzed. The article evaluates physical activity as an effective, economically accessible, and practical strategy for maintaining and strengthening students' health and provides practical recommendations for higher education institutions.

Keywords: physical activity, student youth, health, psychological well-being, depression, anxiety, cognitive functions, neuroplasticity, endorphins, academic success, healthy lifestyle, stress resilience

JISMONIY FAOLLIKNING TALABA-YOSHLAR SALOMATLIGI VA PSIXOLOGIK HOLATIGA TA'SIRI

O'zbekiston Respublikasi IIV Sirdaryo akademik

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

litseyi jismoniy tarbiya o‘qituvchisi

Ashurov A'zamjon Aripovich.

Anotatsiya: Jismoniy faollik talaba-yoshlarning salomatligi va psixologik holatiga ko'p qirrali ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqolada jismoniy mashqlarning kardiorespirator tizim, mushak-suyak apparati, metabolik jarayonlar va immun tizimga fiziologik ta'siri chuqur tahlil etiladi. Shu bilan birga, endorfin, serotonin, dopamin va BDNF (brain-derived neurotrophic factor) kabi neyrotransmitter va neyrotrofik omillar orqali depressiya, tashvish, surunkali stress darajasini pasaytirish, kognitiv funksiyalarni yaxshilash, emotsional barqarorlikni oshirish mexanizmlari ilmiy dalillar asosida yoritiladi. Talabalar hayotining o'ziga xos xususiyatlari — yuqori intellektual yuklama, uyqu rejimining buzilishi, ijtimoiy moslashuv qiyinliklari va o'tirib turish tarzi fonida muntazam jismoniy faollikning akademik muvaffaqiyat, psixologik chidamlilik va umumiy hayot sifatini oshirishdagi roli batafsil ko'rib chiqiladi. Maqola jismoniy faollikni talabalar salomatligini saqlash va mustahkamlashning samarali, iqtisodiy jihatdan qulay va mavjud strategiyasi sifatida baholaydi hamda oliy ta'lim muassasalari uchun amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: jismoniy faollik, talaba-yoshlar, salomatlik, psixologik holat, depressiya, tashvish, kognitiv funksiyalar, neyroplastiklik, endorfinlar, akademik muvaffaqiyat, sog'lom turmush tarzi, stressga qarshilik.

Jismoniy faollik inson organizmida murakkab fiziologik va psixologik o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi fundamental omil sifatida tan olingan. Ayniqsa, talaba-yoshlar uchun bu masala nihoyatda dolzarbdir, chunki ularning kundalik hayoti yuqori intellektual va psixoemotsional yuklama, uyqu yetishmovchiligi, ijtimoiy bosim va ko'pincha harakatsiz turmush tarzi bilan kechadi. Ilmiy tadqiqotlarning natijalari shuni isbotlaydiki, muntazam jismoniy mashqlar nafaqat jismoniy salomatlik ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilaydi, balki ruhiy holatni barqarorlashtirish, stressga qarshilikni oshirish, kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish va uzoq muddatli

sog'lomlik bazasini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Fiziologik jihatdan jismoniy faollikning ta'siri birinchi navbatda yurak-qon tomir tizimiga qaratilgan. Aerobik mashqlar (masalan, yugurish, suzish, tez yurish yoki velosiped haydash) maksimal kislorod iste'molini (VO2 max) oshiradi, yurak mushaklarini kuchaytiradi, qon aylanishini optimallashtiradi va qon bosimini normallashtirishga yordam beradi. Natijada, talabalarda chidamlilik darajasi ortadi, charchoq hissi kamayadi va umumiy energiya potensiali yuqori bo'ladi. Shu bilan birga, muntazam faollik lipid almashinuvini yaxshilaydi, yomon xolesterin (LDL) darajasini pasaytiradi, yaxshi xolesterin (HDL) miqdorini oshiradi va insulin sezgirligini kuchaytiradi. Bu jarayonlar semizlik, 2-tip diabet va metabolik sindrom kabi kasalliklar xavfini sezilarli darajada kamaytiradi, ayniqsa talabalar orasida keng tarqalgan noto'g'ri ovqatlanish va harakatsizlik fonida. Mushak-suyak tizimi uchun qarshilik mashqlari (og'irliklar bilan mashq qilish, o'z tana vaznidan foydalanish) suyak zichligini oshiradi, mushak massasini saqlaydi va kuch-quvvatni rivojlantiradi. Yoshlik davrida bunday mashqlar osteoporoz va bo'g'im kasalliklarining oldini olishda muhim profilaktik ahamiyatga ega. Bundan tashqari, jismoniy faollik immun tizimni mustahkamlaydi: u o'rtacha intensivlikdagi mashqlar orqali sitokinlar muvozanatini yaxshilaydi, yallig'lanish jarayonlarini kamaytiradi va organizmning infeksiyalarga qarshiligini oshiradi. Bu talabalar uchun ayniqsa muhim, chunki ularning immun tizimi ko'pincha stress va uyqu buzilishi tufayli zaiflashgan bo'ladi.Psixologik jihatdan jismoniy faollikning ta'siri neyrokimyoviy va neyroanatomik mexanizmlar orqali amalga oshadi. Mashq vaqtida miya endorfinlar — tabiiy og'riq qoldiruvchi va kayfiyatni ko'taruvchi moddalar ishlab chiqaradi. Shu bilan birga, serotonin va dopamin darajasi ortadi, bu esa depressiv simptomlarni kamaytiradi, motivatsiyani oshiradi va emotsional barqarorlikni ta'minlaydi. Eng muhim omillardan biri — BDNF neyrotrofik omili bo'lib, u hipokampus va prefrontal korteksda neyrogen ez (yangi nerv hujayralari paydo bo'lishi) va sinaptik plastiklikni rag'batlantiradi.

Natijada, xotira, o'rganish qobiliyati, diqqat va muammolarni hal etish ko'nikmalari yaxshilanadi.

Ilmiy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, haftada kamida 150-300 daqiqa o'rtacha yoki yuqori intensivlikdagi jismoniy faollik talabalarda klinik depressiya va tashvish darajasini 20-30 foizga pasaytirishi mumkin. Stress paytida faollashadigan gipotalamo-gipofizar-buyrak usti (HPA) oqi pasayadi, kortizol darajasi normallashadi. Bu talabalar uchun juda muhim, chunki sessiya davrlarida surunkali stress ko'pincha uyqu buzilishi, konsentratsiya pasayishi va akademik natijalarning tushishiga olib keladi. Muntazam sport bilan shug'ullanuvchi talabalar o'rtasida akademik muvaffaqiyat ko'rsatkichlari yuqoriroq, uyqu sifati yaxshiroq va emotsional charchoq darajasi pastroq ekanligi aniqlangan. Talabalar hayotining o'ziga xos psixo-sotsial muammolari — yolg'izlik, ijtimoiy moslashuv qiyinliklari, kelajak haqidagi tashvish va raqobat muhitini hisobga olganda, jismoniy faollik ijtimoiy va psixologik bufer vazifasini ham bajaradi. Guruhli sport turlari (futbol, voleybol, basketbol) ijtimoiy aloqalarni mustahkamlaydi, o'zini hurmat qilish hissini oshiradi va yolg'izlik tuyg'usini kamaytiradi. Individual mashqlar esa o'z-o'zini boshqarish va intizomni rivojlantiradi. Bularning barchasi kognitiv resurslarni tejashga va o'quv jarayonida samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Biroq, jismoniy faollikning ijobiy ta'siri uning muntazamligi, intensivligi va to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq. Haddan tashqari yuklamalar yoki noto'g'ri texnika jarohatlar va ortiqcha charchoqqa olib kelishi mumkin. Shuning uchun individual yondashuv — yosh, jins, sog'liq holati va qiziqishlarni hisobga olgan holda dastur tuzish zarur. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida talabalar orasida jismoniy faollik darajasi yetarli emasligi kuzatilmoqda, bu esa salomatlik muammolari va ta'lim sifati pasayishiga hissa qo'shmoqda. Ushbu muammoni hal etish uchun jismoniy tarbiya darslarini zamonaviy usullar bilan boyitish, universitetlarda sport klublari va sektsiyalarni ko'paytirish, motivatsion dasturlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda talabalarni jalb qilish lozim.

Jismoniy faollikning ta'siri faqat talabalik davri bilan cheklanmaydi. Yoshlikda shakllangan sog'lom odatlar butun umrga ta'sir qiladi, kasalliklarning oldini oladi, professional faoliyatdagi samaradorlikni oshiradi va umumiy hayot sifatini yuksaltiradi. Shuning uchun jismoniy faollikni talabalar salomatligi va psixologik farovonligining integrallashgan qismi sifatida ko'rib chiqish zarur. Bu nafaqat individual, balki butun jamiyat va davlat darajasidagi strategik masala bo'lib, ta'lim siyosati, sog'liqni saqlash tizimi va yoshlar bilan ishlash dasturlarida alohida e'tibor talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayeva Z. Jismoniy faollik va talabalar salomatligi. Toshkent, 2024.
2. Nurullayeva B.B. Zamonaviy psixologiyada jamiyatning dolzarb muammolari. Toshkent, 2023.
3. Buriboyev A. Oliy pedagogik ta'lim tizimida talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirish. Toshkent, 2023.
4. Inogamova S. Shaxsning ruhiy salomatligi va salomatlik muammolari. Toshkent, 2024.
5. Yarkinov O. Jismoniy rivojlanishning tibbiy-fiziologik asoslari. Toshkent, 2024.

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF INDIVIDUAL APPROACH IN PRIMARY EDUCATION

Sa'dullayeva Ro'za Davlatyor qizi
Student of the Department of Primary Education,
Tashkent University of Humanities

Abstract: This article analyzes the psychological and pedagogical significance of an individual approach in the process of primary education. The effectiveness of organizing education taking into account the individual characteristics, abilities, interests and level of psychological development of students is highlighted. The impact of an individual approach on the activity, motivation and personal development of students is also revealed.

Keywords: individual approach, primary education, pedagogy, psychology, motivation, abilities, student personality, educational effectiveness.

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida individual yondashuvning psixologik va pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. O‘quvchilarning individual xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari va psixologik rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ta’limni tashkil etishning samaradorligi yoritiladi. Shuningdek, individual yondashuvning o‘quvchilarning bilim olish faolligi, motivatsiyasi va shaxsiy rivojlanishiga ta’siri ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: individual yondashuv, boshlang‘ich ta’lim, pedagogika, psixologiya, motivatsiya, qobiliyat, o‘quvchi shaxsi, ta’lim samaradorligi.

Kirish. Ta’lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri har bir o‘quvchining imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish va uning shaxs sifatida rivojlanishiga ko‘maklashishdan iborat. Boshlang‘ich ta’lim davri bolaning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli ta’lim jarayonida har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish dolzarb pedagogik vazifalardan biridir. Individual yondashuv o‘quvchilarning yosh, psixologik va fiziologik

xususiyatlarini inobatga olib, ta’lim mazmuni va metodlarini moslashtirishni nazarda tutadi.

Adabiyotlar tahlili: Individual yondashuv masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida keng o‘rganilgan. Lev Vygotsky o‘z tadqiqotlarida bolaning rivojlanishida ta’limning yetakchi rolini asoslab bergan va har bir o‘quvchining rivojlanish darajasiga mos ta’lim berish zarurligini ta’kidlagan. Uning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi individual yondashuvning ilmiy asoslaridan biri hisoblanadi. Jean Piaget bolalarning kognitiv rivojlanish bosqichlarini o‘rganib, har bir yosh davriga mos pedagogik usullarni qo‘llash lozimligini ko‘rsatgan.

Pedagogika sohasida individual yondashuvning mohiyati va amaliy ahamiyati ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, Konstantin Ushinsky ta’lim-tarbiya jarayonida har bir bolaning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish pedagogik faoliyatning muhim sharti ekanligini qayd etgan. Uning fikricha, ta’limning samaradorligi o‘quvchining qobiliyati, qiziqishi va ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etilishiga bog‘liq. O‘zbekistonlik olimlar E.G'. G'oziyev, M.G'. Davletshinlar ilmiy ishlarida ham o‘quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida baholangan.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqotda nazariy va empirik metodlardan foydalanildi. Nazariy bosqichda pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlil qilinib, individual yondashuvning mazmuni va mohiyati o‘rganildi. Empirik bosqichda kuzatish, suhbat, pedagogik tahlil va so‘rovnoma metodlari qo‘llanildi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv faoliyati, qiziqishlari va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari o‘rganilib, individual yondashuv qo‘llangan va qo‘llanilmagan holatlar taqqoslandi.

Muhokama va natijalar: Tadqiqot natijalari individual yondashuvning boshlang‘ich ta’lim samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. O‘quvchilarning qobiliyati, qiziqishi va bilim darajasi hisobga olingan darslarda ularning faolligi va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari yuqori bo‘ldi. Individual yondashuv

natijasida o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortib, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalari rivojlandi. Shuningdek, individual topshiriqlar va differensial ta’lim metodlari o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi. Psixologik jihatdan qulay muhit yaratish, o‘quvchilarning hissiy holatini inobatga olish va rag‘batlantirish usullaridan foydalanish ta’lim natijalarini yaxshilashga yordam berdi.

Xulosa

Boshlang‘ich ta’limda individual yondashuv o‘quvchilarning shaxsiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, bilimlarni samarali o‘zlashtirish va har tomonlama rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish pedagogik faoliyat samaradorligini oshiradi. Shu bois boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari darslarni tashkil etishda individual yondashuv tamoyillariga tayanishlari maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
2. Davletshin M.G. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2012.
3. Nishonova Z.T. Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2018.
4. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
5. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva, 1991.
6. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London, 2001.

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

Issues of Rotation in Human Resource Management

Institute for analysis and regulatory impact assessment of legislation under the Ministry of Justice Office administrator

Ergashev Anvarjon Erkin o‘g‘li

Abstract

This article examines the theoretical and legal foundations of the rotation system in the civil service, its role in human resource management, and its practical significance for public administration. The study highlights the contribution of rotation to improving administrative efficiency, enhancing the professional competencies of civil servants, ensuring the effective utilization of human resources, and reducing corruption risks. Particular attention is paid to the procedures of mandatory, planned, and extraordinary rotation, the organizational and legal mechanisms of their implementation, and the social guarantees provided to civil servants. Based on the experiences of Japan, Singapore, South Korea, and France, the article identifies best practices and proposes scientific and practical recommendations for further improvement of the civil service rotation system in Uzbekistan.

Keywords: civil service, civil servant rotation, human resource management, personnel policy, workforce mobility, professional development, public sector efficiency, corruption prevention, conflict of interest, leadership talent pool, public administration, international best practices.

Inson resurslarida rotatsiya masalalari.

Annotatsiya

Mazkur maqolada davlat fuqarolik xizmatida rotatsiya institutining nazariy-huquqiy asoslari, inson resurslarini boshqarish tizimidagi o‘rni va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Rotatsiyaning davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, davlat xizmatchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, kadrlar salohiyatidan oqilona foydalanish hamda korrupsiyaviy xavflarni kamaytirishdagi roli yoritilgan.

Shuningdek, davlat fuqarolik xizmatchilarini majburiy, rejali va rejadan tashqari rotatsiya qilish tartibi, ularni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari hamda xodimlar uchun nazarda tutilgan ijtimoiy kafolatlar ko‘rib chiqilgan. Yaponiya, Singapur, Janubiy Koreya va Fransiya tajribasidan misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: davlat fuqarolik xizmati, davlat xizmatchilarini rotatsiya qilish, inson resurslarini boshqarish, kadrlar siyosati, kadrlar mobilligi, professional rivojlanish, boshqaruv samaradorligi, korrupsiyaning oldini olish, manfaatlar to‘qnashuvi, rahbar kadrlar zaxirasi, davlat boshqaruvi, xorijiy tajriba.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish, professional davlat xizmatini shakllantirish va inson resurslarini boshqarishning zamonaviy usullarini joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat xizmatining samaradorligi ko‘p jihatdan unda faoliyat yuritayotgan kadrlarning malakasi, kasbiy salohiyati hamda boshqaruv tajribasiga bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan davlat fuqarolik xizmatida rotatsiya institutini joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Rotatsiya nafaqat kadrlar salohiyatidan samarali foydalanish, balki davlat organlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish hamda istiqbolli rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida davlat boshqaruvi tizimiga yangicha yondashuvlar talab etilmoqda. Mazkur jarayonda rotatsiya mexanizmi davlat xizmatining zamonaviy boshqaruv vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Rotatsiya atamasi lotincha **“rotatio”** so‘zidan olingan bo‘lib, aylanish yoki almashinish ma’nolarini anglatadi. Davlat boshqaruvi tizimida esa rotatsiya davlat xizmatchisini egallab turgan lavozimidan teng maqomdagi boshqa lavozimga o‘tkazish jarayonini anglatadi.

Rotatsiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- davlat xizmatchilarining kasbiy bilim va ko‘nikmalarini kengaytirish;
- boshqaruv tajribasini oshirish;

– kadrlar salohiyatidan oqilona foydalanish;
– manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish;
– korrupsiyaga qarshi kurashish;
– hududlar rivojlanishini ta’minlash;
– rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish.

Ilmiy adabiyotlarda rotatsiya inson resurslarini boshqarishning muhim elementi sifatida baholanadi. U xodimning turli sohalarda faoliyat yuritishi orqali yangi tajriba orttirishiga, kasbiy dunyoqarashining kengayishiga va innovatsion yondashuvlarni o‘zlashtirishiga imkon yaratadi.

Davlat fuqarolik xizmatida rotatsiyaning ***majburiy, rejali*** va ***rejadan tashqari*** turlari mavjud.

Majburiy rotatsiya korrupsiyaviy xavf yuqori bo‘lgan yoki uzoq muddat bir lavozimda faoliyat yuritayotgan davlat xizmatchilariga nisbatan qo‘llaniladi. Bunda xodim belgilangan muddatdan so‘ng boshqa teng lavozimga o‘tkaziladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (keyingi o‘rinlarda – Agentlik) davlat fuqarolik xizmatida majburiy ravishda rotatsiya qilinishi lozim bo‘lgan davlat fuqarolik xizmati lavozimlari monitoringini olib boradi Mazkur mexanizm mansab vakolatlaridan noqonuniy foydalanish ehtimolini kamaytiradi, norasmiy aloqalarning shakllanishiga yo‘l qo‘ymaydi, boshqaruv tizimida yangilanishlarni ta’minlaydi, hamda hududlar o‘rtasida tajriba almashinuvini kuchaytiradi.

Rejali rotatsiya davlat organi tomonidan ishlab chiqilgan reja asosida xodimning roziligi bilan amalga oshiriladi. Bu turdagi rotatsiya asosan kadrlarni rivojlantirish va tayyorlash maqsadlariga xizmat qiladi. Rotatsiya davlat fuqarolik xizmatchisi o‘tadigan lavozimga qo‘yiladigan malaka talablariga javob berishi sharti bilan amalga oshiriladi. Davlat fuqarolik xizmatchisi rotatsiya joyi bo‘yicha belgilangan lavozim malaka

talablariga mos kelmagan yoki mazkur Nizom talablari bajarilmagan taqdirda, davlat organi xodimni rotatsiya qilish masalasini ko‘rib chiqishni rad etishi mumkin.

Rejali rotatsiya xodimning kasbiy rivojlanishini ta’minlaydi, rahbarlik ko‘nikmalarini shakllantiradi, yangi ish usullarini joriy etishga imkon beradi va davlat organlarida ichki harakatchanlikni kuchaytiradi.

Rejadan tashqari rotatsiya zarur hollarda amalga oshiriladi. Bunga vakant lavozimlarni to‘ldirish, tashkiliy-shtat o‘zgarishlari, xizmat tekshiruvlari natijalari yoki davlat organining ehtiyojlari sabab bo‘lishi mumkin.

Davlat fuqarolik xizmatchisini rotatsiya qilish “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonun(39-moddasi) hamda davlat organi o‘z faoliyatidan kelib chiqqan holda rejali va rejadan tashqari rotatsiya qilish tartibini (nizom, yo‘riqnoma) tasdiqlashi mumkin. Davlat fuqarolik xizmatchilari ratatsiyalarini tartibga solishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Davlat fuqarolik xizmatini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror (ID-71167) hozirda amalda bo‘lmasada, loyiha orqali rotatsiya tartibi to‘g‘risida tushuncha hosil qilish mumkin va nizoq qayta ko‘rib chiqilishi hamda qoidalar to‘ldirilib, aniqlashtirilishi kerak deb o‘ylaymiz.

Rotatsiya mexanizmi davlat boshqaruvi tizimining moslashuvchanligini oshirib, kadrlar bilan bog‘liq muammolarni tezkor hal etishga xizmat qiladi. Biroq davlat fuqarolik xizmatchilarini rotatsiya qilish jarayoni xodimning o‘zi hamda tegishli tashkilotlar uchun ayrim qo‘shimcha tashkiliy va moliyaviy xarajatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Jumladan, xodimni yangi ish joyiga yuborish, ko‘chib o‘tish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash, turar joy bilan ta’minlash, yangi lavozim yoki hudud sharoitlariga moslashish hamda zarur malaka va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun ma’lum vaqt talab etiladi. Shu sababli qonunchilikda rotatsiya asosida davlat fuqarolik xizmatchisi boshqa hududga yuborilgan taqdirda uning ijtimoiy va moddiy himoyasini ta’minlashga qaratilgan bir qator kafolatlar belgilangan. Xususan, davlat organi tomonidan rotatsiya qilinayotgan davlat fuqarolik xizmatchisi hamda uning oila

a’zolarining (turmush o‘rtog‘i va farzandlarining) yangi xizmat joyiga ko‘chib o‘tish xarajatlari qoplanadi. Shuningdek, xodim yangi xizmat o‘tash joyida turar joy yoki xizmat uyi bilan ta’minlanadi, bunday imkoniyat yaratilgunga qadar esa oila a’zolari sonidan kelib chiqib, ijaraga olingan uy uchun ijara to‘lovi qoplab beriladi. Bundan tashqari, boshqa hududga ko‘chish bilan bog‘liq transport xarajatlarining o‘rni qoplanadi. Zarurat tug‘ilganda, davlat fuqarolik xizmatchisining boshqa qo‘shimcha xarajatlari ham davlat organining ruxsati bilan qonunchilik hujjatlari, jamoa shartnomalari, kelishuvlar yoki mehnat shartnomalarida belgilangan tartibda qoplanishi mumkin. Shuningdek, rotatsiya tartibida boshqa lavozimga tayinlangan davlat fuqarolik xizmatchisini ilgarigi lavozimi bo‘yicha xizmat safariga vaqtincha yuborishga yo‘l qo‘yilmaydi. Shuningdek, rotatsiyada davlat fuqarolik xizmatchilarining lavozim maoshi yoki ijtimoiy kafolatlari rotatsiya qilinadigan davlat fuqarolik xizmati lavozimidan past bo‘lgan lavozimga rotatsiyani amalga oshirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Mazkur kafolatlar rotatsiya jarayonining samarali tashkil etilishi hamda xodimlarning yangi xizmat joyiga tezroq moslashishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Davlat fuqarolik xizmatchilarini rotatsiya qilish jarayonida muddatlarga rioya etish muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat fuqarolik xizmatchisini rejali tartibda rotatsiya qilish belgilangan rotatsiya muddati yetib kelgandan so‘ng amalga oshiriladi. Bunda davlat organi xodimni kamida bir oy oldin rotatsiya qilinishi to‘g‘risida xabardor qilishi shart. Shu bilan birga, rotatsiya muddati tugaganidan keyin davlat fuqarolik xizmatchisini rotatsiya qilish choralari bir oy ichida amalga oshirilishi lozim. Amaliyotda rotatsiya jarayonining uzluksizligini ta’minlash maqsadida davlat organlari **har yili** majburiy rotatsiya qilinishi lozim bo‘lgan xizmatchilar ro‘yxatini shakllantiradi hamda rotatsiya muddati tugashidan kamida **uch oy** oldin tegishli tartibda kelishish uchun kiritadi. Mazkur yondashuv kadrlar almashinuvini oldindan rejalashtirish va boshqaruv jarayonlarida uzilishlarning oldini olishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, rotatsiya muddati yetib kelgan vaqtda davlat fuqarolik xizmatchisi o‘tkazilishi

rejalashtirilgan lavozim vakant bo‘lmagan hollarda, u mazkur lavozim bo‘shaguniga qadar o‘zining egallab turgan lavozimida xizmat faoliyatini davom ettiradi. Bu esa davlat organlari faoliyatida kadrlar yetishmovchiligi yoki tashkiliy muammolar yuzaga kelishining oldini olishga qaratilgan huquqiy kafolat hisoblanadi. Rotatsiya jarayonlarining tizimli hisobini yuritish maqsadida davlat organlarining inson resurslarini boshqarish bo‘linmalari tomonidan rotatsiya rejalari inson resurslarini boshqarishning maxsus elektron tizimida qayd etib boriladi. Natijada rotatsiya muddatlarini monitoring qilish, rejalashtirish va nazorat qilish imkoniyatlari kengayadi hamda kadrlar boshqaruvining shaffofligi ta’minlanadi.

Davlat boshqaruvi samaradorligi ko‘p jihatdan kadrlar salohiyatiga bog‘liq. Rotatsiya tizimi esa inson resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Birinchidan, rotatsiya xodimlarning turli hudud va yo‘nalishlarda tajriba orttirishiga xizmat qiladi. Natijada ular murakkab boshqaruv vazifalarini hal etish bo‘yicha kengroq bilim va amaliy tajribaga ega bo‘ladi.

Ikkinchidan, rotatsiya innovatsion boshqaruv madaniyatini shakllantiradi. Bir hudud yoki tashkilotda muvaffaqiyatli qo‘llanilgan tajriba boshqa hududlarga ham tatbiq etiladi.

Uchinchidan, rotatsiya davlat organlarida natijadorlik va mas’uliyatni kuchaytiradi. Xodimlar faoliyatining muntazam baholanib borilishi ularni yuqori samaradorlik bilan ishlashga undaydi.

To‘rtinchidan, rotatsiya boshqaruv tizimida sog‘lom raqobat muhitini shakllantiradi va istiqbolli kadrlarning o‘sishiga imkon yaratadi.

Davlat xizmatida korrupsiyaning asosiy omillaridan biri bu mansabdor shaxsning bir lavozimda uzoq muddat faoliyat yuritishidir.

Rotatsiya esa quyidagi yo‘llar bilan korrupsiyaga qarshi kurashishga xizmat qiladi:

Manfaatlar to‘qnashuvining oldini oladi – xodimning bir hudud yoki tashkilotda uzoq vaqt ishlashi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan shaxsiy manfaatdorlik holatlarini kamaytiradi.

Norasmiy aloqalar shakllanishini cheklaydi – mansabdor shaxslar va manfaatdor guruhlar o‘rtasida uzoq muddatli norasmiy munosabatlar vujudga kelishining oldini oladi.

Nazorat mexanizmlarini kuchaytiradi – yangi ish joyiga kelgan xodim faoliyatni xolis baholash imkoniyatiga ega bo‘lib, mavjud kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi.

Qaror qabul qilish jarayonining shaffofligini oshiradi – xizmat vazifalarining davriy almashib turishi qarorlarning shaxsiy manfaatlardan holi va ochiq tarzda qabul qilinishiga xizmat qiladi.

Korrupsion sxemalarning barqarorlashib qolishiga yo‘l qo‘ymaydi – xodimlarning muntazam rotatsiyasi noqonuniy mexanizmlar va korrupsion aloqalarning uzoq muddat davom etishiga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli ko‘plab davlatlarda soliq, bojxona, moliya, ichki nazorat va davlat xaridlari bilan bog‘liq lavozimlarda rotatsiya majburiy tartibda amalga oshiriladi.

Xorijiy davlatlar tajribasi misolida, xususan Yaponiyada[1] davlat xizmatchilari muntazam ravishda turli vazirlik va idoralar o‘rtasida rotatsiya qilinadi. Bu tizim universal boshqaruv kadrlarini tayyorlashga xizmat qiladi. Natijada rahbar xodimlar turli sohalarda amaliy tajriba orttiradi. Singapurda[2] esa davlat xizmatida rotatsiya kadrlar rivojlanishining muhim elementi hisoblanadi. Istiqbolli rahbarlar turli vazirliklar va davlat tashkilotlarida faoliyat yuritib, kompleks boshqaruv tajribasiga ega bo‘ladilar. Janubiy Koreyada[3] korrupsiyaning oldini olish maqsadida ayrim lavozimlar uchun qat’iy rotatsiya muddatlari belgilangan. Mazkur amaliyot davlat xizmatining ochiqligi va samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Fransiyada yuqori

[1] Japan National Personnel Authority. URL:https://www.jinji.go.jp/en/index.html
[2] Singapore Public Service Division (PSD). https://www.psd.gov.sg
[3] Kim P.S. Public Administration and Civil Service Reform in Korea. URL: https://scholar.google.com/scholar?q=Pan+Suk+Kim+Public+Administration+and+Civil+Service+Reform+in+Korea

darajadagi davlat xizmatchilari turli vazirliklar va hududiy boshqaruv organlarida faoliyat yuritishi orqali davlat boshqaruvi tizimining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha tajriba orttiradi.

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, rotatsiya tizimi davlat xizmatining professional va samarali faoliyat yuritishida muhim vosita hisoblanadi. O‘zbekistonda ham ushbu tizimni izchil takomillashtirish orqali zamonaviy, shaffof va natijador davlat xizmatini shakllantirish mumkin.

Davlat fuqarolik xizmatida rotatsiya tizimini joriy etish zamonaviy davlat boshqaruvining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Rotatsiya kadrlar salohiyatidan oqilona foydalanish, boshqaruv samaradorligini oshirish, korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish hamda rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN MANBALAR

I. Normativ-huquqiy hujjatlar.

1.1. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi 788-son qonuni.

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat ko‘deksi.

II. Ilmiy nashrlar.

2.1. JOURNAL OF CONTEMPORARY CHINA2025, VOL. 34, NO. 154, 646–663– Cadre Personnel Management and the Central–Local Relations of China’s Financial Governance: The Rise of ‘Airlifted’ Vice-Provincial Governors in Financial Affairs

III. Loyihalar

3.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Davlat fuqarolik xizmatini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror loyihasi (ID-71167). https://regulation.gov.uz/oz/d/71167

IV. Elektron manbalar.

4.1. https://lex.uz

4.2. https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/10670564.2024.2361840#abstra

4.3. https://www.jinji.go.jp/en/index.html

4.4. https://www.psd.gov.sg

4.5. https://scholar.google.com/scholar?q=Pan+Suk+Kim+Public+Administration+and+Civil+Service+Reform+in+Korea

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

UNIVERSITY AS A STARTING POINT IN THE DEVELOPMENT OF A HEALTHY GENERATION

Siddikov Farrukh Zoyirovich
Fergana State University

Abstract

Purpose:

This article substantiates that physical education at the university is not merely an academic subject but a key instrument in shaping a healthy worldview, promoting spiritual development, and educating a well-rounded generation that contributes positively to the state and society.

Method:

The study analyzes the author's personal experience as a basketball coach and physical education instructor, as well as his views on the content, organization, and teaching methodology of physical education. As an experimental approach, general developmental exercises for first- and second-year students were replaced with specialized preparatory exercises in specific sports disciplines.

Results:

The implementation of specialized preparatory exercises in basketball, volleyball, football, kurash, and handball produced excellent results, significantly increasing students' interest in both the subject and particular sports. The findings demonstrate that physical activity contributes to the development of organization, discipline, determination, and the ability to overcome life challenges.

Conclusion:

The close integration of physical education and sports concepts has a strong positive impact on the formation of resilient and well-developed personalities among students. Physical education instructors fulfill an important mission by educating a generation

capable of making responsible choices for the benefit of the state while fostering a lifelong interest in sports, which transcends age and boundaries.

Keywords: university, physical activity, physical education, coach, basketball, student.

УНИВЕРСИТЕТ КАК ТОЧКА ОТСЧЕТА В РАЗВИТИИ ЗДОРОВОГО ПОКОЛЕНИЯ

Ферганский государственный университет

Сиддиков Фаррух Зойирович

Аннотация

Цель:

В данной статье автор обосновывает, что физическое воспитание в университете является не просто учебным предметом, а ключевым инструментом в формировании здорового мировоззрения, духовного развития и воспитании всесторонне развитого, полезного для государства поколения.

Метод:

В ней проанализирован личный опыт автора — тренера по баскетболу, преподавателя физического воспитания и его взгляд на содержание, организацию и методику преподавания. В качестве апробации предложено и реализовано замещение общеразвивающих упражнений на специальные подготовительные упражнения по конкретным видам спорта в I-II курсов.

Результат:

Внедрение специальных подготовительных упражнений по баскетболу, волейболу, футболу, курашу и гандболу показало отличные результаты, значительно повысив интерес учащихся к предмету и конкретным видам спорта. Доказано, что физическая активность способствует развитию организованности, дисциплины, целеустремленности и навыков преодоления жизненных трудностей.

Вывод:

Тесное объединение концепций физического воспитания и спорта оказывает сильное положительное влияние на становление устойчивой личности учащихся. Преподаватель физического воспитания выполняет важную миссию, воспитывая поколение, которое делает правильный выбор во благо государства, прививая интерес к спорту, для которого нет возраста и границ.

Ключевые слова:Университет, физическая нагрузка, физическое воспитание, тренер, баскетбол, студент.

Введение:

Тот день, когда вы полностью возьмёте на себя ответственность за собственное будущее и прекратите искать оправдание сомнениям, станет днём начала движения к вершинам. (О. Джей Симпсон)

Он был известным игроком в американском футболе, который первым в Национальной футбольной лиге пробежал с мячом более 2000 ярдов за один сезон. В 1985 году его ввели в Зал славы американского футбола— это высказывание О. Джей Симпсона как нельзя лучше отражает основную цель и миссию, которую несёт в себе предмет «Физическое воспитание» в общеобразовательной школе.

Школьный опыт занятий физической культурой формируется нашим индивидуальным восприятием, однако для подавляющего числа учащихся эти уроки неизменно являются более привлекательными, чем занятия традиционным спортом.

Основная часть:

Для многих из нас, опыт физического воспитания в общеобразовательнойшколе сформировался из того, как мы воспринимали этот предмет.

Можно смело заявить, что для подавляющего большинства учеников, урок по физическомувоспитаниюявляется наиболее интересным, чем спорт. Для менякак тренера по баскетболу, занятия отличались от других школьных предметов своим

содержанием, организацией и методикой. Именно уроки физвоспитания надолго запомнились ярким и красочным содержанием. Они всегда проходили на правильном эмоциональном уровне,между учениками и преподавателями были добрые отношения.

Как стать педагогом?Бывают разные пути. Для тех, кто выбрал физическое воспитание, это было больше связано с занятиями спортом в различных секциях.

Поэтому уже сложно представить жизнь без физической нагрузки и активности. Однако изредка бывают моменты, когда во время трудовой деятельности мы сомневаемся, зачем вообще выбрали эту профессию - преподаватель физическоговоспитания?

Закончив Ферганский государственный университетпо направлению физическое воспитание, большинство студентов уже со 2 курса начинают думать о работе в органах внутренних дел, в военных структурах или заниматься тренерской деятельностью.

Очень мало выпускников данного направления,которые по окончании университета, устраиваются на работу преподавателями физического воспитания в общеобразовательную школу.

В тот день, когда у меня спросили: **«Почему Вы выбрали эту профессию?»** Мой ответ на данный вопрос бы следующим: **«Лучше я воспитаю такое подрастающее поколение, которое будетприносить пользу и делать правильный выбор, во блага нашего государства с великим будущим!»**. Мой выбор патриот нашей страны, у которой богатое прошлое, сильное настоящее и великое будущее.

Работа преподавателем физического воспитания в школе отличается большим многообразием выбора различных видов спорта в школьной программе, которые требуют от учащихся проявления организованности, дисциплины, труда, желания и инициативы, что способствует воспитанию здорового поколения.

Физическое воспитание - это не просто обучение специфическим спортивным навыкам. Это развитие духовного мира, здоровое мировоззрение, правильный психологический климат, спортивный азарт, целеустремленность, красота тела и приобретение навыков к жизненным трудностям.

Общее физическое развитие личности можно рассматривать как нечто большее, чем обучение по школьной программе.

Такая предпосылка к предмету доказывает то, что именно две концепции вместе физическое воспитание и спорт, оказывают большое влияние, в становлении устойчивой личности учащихся, в прививании интереса к спорту, для которого нет возраста и границ.

Заключение:

Внедрение этих новшеств дало положительные результаты по предмету физическое воспитание, так как спорт это движение вверх, сильная воля и бойцовский характер, который определяет сможешь ли ты подняться в нужный момент в своей жизни.

Использованные литературы:

1. Т.С.Усманходжаев, С.Г.Арзуманов, Б.А.Кодиров. Физическое воспитание. – «O’qituvchi»Ташкент, 2005.

2. О.В.Ганчарова. Yoshsportchilarningjismoniyqobiliyatlarinirivojlantirishmetodikasi. –Ташкент, 2005.

3. Н.Х. Соатов, Ф.Ф.Наджимов. Maktabdajismoniytarbiya. –Ташкент, 2015.

4. Б.Нигманов, Ф.Хожаев, К.Рахимкулов. Sporto’yinlarivaunio’qitishmetodikasi. –Ташкент,“”Ilmziyo, 2011.

5. А.Гомельский. Библия баскетбола. – Москва 2016.

6. Физкультура и спорт *научно-популярный журнал*. – Ташкент 2019.

7. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D0%B8%D0%BC%D0%BF%D1%81%D0%BE%D0%BD,_%D0%9E_%D0%94%D0%B6%D0%B5%D0%B9

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

Cultural Festivals and Their Role in Shaping Tourism Flows

Ochildiyev Erali

4th-Year Student, Tourism (by Areas of Activity) Program, Department of Digital Economy Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

E-mail: ochildiyeverali2004@gmail.com

Scientific Supervisor: Khudoyberdiyev Muhammad

Lecturer, Department of Digital Economy Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

E-mail: xudoyberdiyevmuhammad0@gmail.com

Abstract. This article analyzes cultural festivals and their role in shaping tourism flows. Cultural festivals have a significant impact not only on local economies but also on global tourism development. They serve as important attractions that draw domestic and international visitors, promote cultural exchange, and enhance the image of destinations. The study examines the importance of cultural festivals, their contribution to tourism growth, and current development trends. It highlights how festivals can stimulate economic activity, preserve cultural heritage, and create sustainable opportunities for regional development through increased tourist engagement.

Keywords: cultural festivals, tourism, economy, development.

Madaniy festivallar va ularning Turizm oqimlarini shakllantirishdagi roli.

OCHILDIYEV ERALI Email: ochildiyeverali2004@gmail.com

***Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti* “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi**

Turizm (faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha) yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar XUDOYBERDIYEV MUHAMMAD

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi o‘qituvchisi

Email: *xudoyberdiyevmuhammad0@gmail.com*

Annotation: Ushbu maqolada madaniy festivallar va ularning turizm oqimlarini shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Madaniy festivallar nafaqat mahalliy iqtisodiyotga,

balki global turizmga ham ta'sir ko'rsatadi. Ularning ahamiyati va rivojlanish tendensiyalari ko'rib chiqiladi.

Keywords: madaniy festivallar, turizm, iqtisodiyot, rivojlanish.

Kirish

Madaniy festivallar insoniyat tarixining ajralmas qismi bo'lib, ular turli xalqlarning urf-odatlari, an'analari va san'atlarini namoyish etish imkoniyatini taqdim etadi. Tarixan, festivallar diniy, agrar yoki ijtimoiy maqsadlarda tashkil etilgan bo'lib, ularning ko'plab turlari mavjud. Har bir festival o'ziga xos madaniy merosni aks ettirib, jamiyatning birligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda madaniy festivallar nafaqat mahalliy aholi uchun, balki xorijiy sayyohlar uchun ham qiziqarli bo'lib, turizm sohasida muhim rol o'ynaydi. Ular sayyohlikni rivojlantirish, iqtisodiy o'sish va madaniy almashuvni ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi.

Madaniy festivallar turizmni rag'batlantirish bilan birga, mahalliy iqtisodiyotga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sayyohlar festival davrida joylashuv, ovqatlanish va boshqa xizmatlarga ehtiyoj sezadilar, bu esa mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, festivallar orqali mahalliy madaniyatni targ'ib qilish va saqlab qolish imkoniyati paydo bo'ladi, bu esa kelajak avlodlarga boy madaniy merosni etkazish uchun muhimdir. Shu jihatdan, madaniy festivallar turizm sohasidagi o'rni nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va ijtimoiy jihatdan ham ahamiyatlidir. Ular global madaniyatni boyitishda ham o'z hissasini qo'shadi. Madaniy festivallar tarixan insoniyatning ijtimoiy va madaniy hayotining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Ular turli xalqlar va millatlar o'rtasida o'zaro tushunishni, urf-odatlarni saqlash va rivojlantirishni ta'minlaydi. Turizm sohasida esa, madaniy festivallar sayyohlarni jalb qilishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular tashrif buyuruvchilarga yangi tajribalar, an'analar va san'at namoyishlarini taqdim etadi. Bu festivallar nafaqat mahalliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlaydi, balki turizmni rivojlantirish orqali mintaqaviy barqarorlikni ham ta'minlaydi. Madaniy festivallar, shuningdek, mahalliy aholi uchun madaniy merosni

saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Madaniy festivallar va ularning turlari

Madaniy festivallar turli xil san'at, musiqa va gastronomiya kabi sohalarda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular insoniyatning madaniy hayotini boyitishda muhim rol o'ynaydi. San'at festivallari odatda zamonaviy va an'anaviy san'at asarlarini namoyish etish, san'atkorlar bilan muloqot qilish va yangi tendentsiyalarni o'rganish imkoniyatini taqdim etadi. Bu festivallar, shuningdek, san'atning turli yo'nalishlarini birlashtirib, yangi ijodiy g'oyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Musiqa festivallari esa turli janrlarni bir joyga to'plab, musiqachilar va tinglovchilar o'rtasida o'zaro aloqani kuchaytiradi. Ushbu tadbirlar ko'pincha xalqaro miqyosda o'tkazilib, madaniy almashinuvni rag'batlantiradi. Gastronomiya festivallari esa oziq-ovqat va ichimliklar bilan bog'liq bo'lib, mahalliy taomlarni tanitish va ularning tayyorlanish usullarini ko'rsatishga qaratilgan. Bu festivallar orqali ishtirokchilar nafaqat yangi ta'mlarni kashf etadi, balki mahalliy oshpazlar va gastronomik an'analar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Umuman olganda, madaniy festivallar jamiyatning turli qatlamlari o'rtasida birlashuvni ta'minlaydi, madaniy merosni saqlashga yordam beradi va insonlarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Shunday qilib, ular nafaqat madaniy hayotda, balki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda ham muhim ahamiyatga ega. Madaniy festivallar turli san'at va madaniyat turlarini namoyish etish uchun ajoyib platforma hisoblanadi. San'at festivallari ko'plab ijodkorlarni bir joyga to'playdi, ularning asarlarini namoyish etish imkonini beradi. Musiqa festivallari esa turli janrlardagi musiqachilar va bastakorlarni birlashtirib, ko'pchilikni bir joyda yig'adi. Gastronomiya festivallari esa mahalliy taomlarni, an'analarga asoslangan oshpazlik san'atini namoyish etadi, bu esa oziq-ovqat madaniyatini rivojlantiradi. Har bir festival o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi va madaniy muhitni boyitadi.

Turizm va madaniy festivallar o'rtasidagi bog'lanish

Madaniy festivallar turizm sohasida muhim rol o'ynaydi, chunki ular mahalliy

madaniyatni, an'analarni va san'atni namoyish etish orqali tashrif buyuruvchilarni jalb qiladi. Bunday festivallar o'z ichiga san'at ko'rgazmalari, musiqa va raqs tadbirlari, shuningdek, mahalliy hunarmandchilik mahsulotlarini namoyish etishni oladi. Bu jarayon, o'z navbatida, turizmni rivojlantirishga xizmat qiladi, chunki festivallar davomida ko'plab sayyohlar bir joyda to'planadi, bu esa iqtisodiy faoliyatni oshiradi. Madaniy festivallar, shuningdek, yangi turizm yo'nalishlarini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Tashrif buyuruvchilar uchun qiziqarli bo'lgan yangi tajribalar va faoliyatlar taklif etilishi natijasida, mahalliy hududlar o'zlarini yangi turizm markazlari sifatida namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Festivallar ko'pincha mahalliy aholi bilan sayyohlar o'rtasida muloqotni rag'batlantiradi, bu esa madaniy aloqalarni mustahkamlaydi va turizmning barqaror rivojlanishiga yordam beradi. Shuningdek, madaniy festivallar orqali turizm sohasida yangi ish o'rinlari yaratiladi, bu esa mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bularning barchasi madaniy festivallarni turizmni rivojlantirish va yangi yo'nalishlarni shakllantirishda muhim omilga aylantiradi. Madaniy festivallar turizm sohasida muhim rol o'ynaydi, chunki ular mahalliy an'analarni va madaniyatni namoyish etish orqali sayyohlarni jalb qiladi. Bunday tadbirlar orqali turistlar yangi tajribalar orttiradi va mahalliy xalqlarning turmush tarzi bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, festivallar sayyohlarning qiziqishini oshirib, yangi turizm yo'nalishlarini shakllantiradi, bu esa mintaqalarning brendini kuchaytiradi va turistik oqimni kengaytiradi. Madaniy tadbirlar, shuningdek, mahalliy hunarmandchilik va san'atni rivojlantirishga ko'maklashadi, bu esa sayyohlar uchun qo'shimcha joziba yaratadi. Bunday bog'lanishlar orqali turizm sektori barqaror rivojlanadi va madaniyatlararo muloqotni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Madaniy festivallar va iqtisodiy ta'siri

Madaniy festivallar iqtisodiyotga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi, chunki ular mahalliy biznesni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Bunday tadbirlar davomida

mehmonlar va ishtirokchilar uchun yaratiladigan muhit, restoranlar, kafelar va turli savdo nuqtalari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlarini keng auditoriyaga tanitishi va sotishi uchun platforma olishadi, bu esa ularning daromadlarini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, festivallar davomida mahalliy san'atkorlar va hunarmandlar o'z ijodlarini namoyish etish imkoniyatiga ega bo'lib, ularning brendini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Madaniy tadbirlar shuningdek, turizmni rag'batlantiradi, chunki ko'plab sayyohlar bunday festivallarda ishtirok etish maqsadida kelishadi. Ular joylarda mehmonxona va transport xizmatlariga talabni oshiradi, bu esa iqtisodiy o'sishni yanada kuchaytiradi. Festival davomida mahalliy aholi va tashrif buyuruvchilar o'rtasidagi aloqalar mustahkamlanadi, bu esa mahalliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Madaniy festivallar, shuningdek, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda, mahalliy aholi o'rtasida birlashuv va hamjihatlikni kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, madaniy festivallar nafaqat san'at va madaniyatni rivojlantirishda, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim omil hisoblanadi. Madaniy festivallar iqtisodiy jihatdan mahalliy biznesni qo'llab-quvvatlash va turizmni rag'batlantirish orqali muhim rol o'ynaydi. Bunday tadbirlar mahalliy ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar uchun yangi bozorlar ochadi, shuningdek, mehmonlar oqimini jalb etish orqali hududiy iqtisodiyotni jonlantiradi. Festivallar davomida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, oziq-ovqat va san'at asarlari mahalliy iste'molchilar va tashrif buyuruvchilar tomonidan xarid qilinadi, bu esa iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi. Shuningdek, tadbirlar davomida tashkil etilgan turli xil xizmatlar, masalan, transport va turizm, mahalliy ish o'rinlarini yaratadi va iqtisodiy barqarorlikni oshiradi.

Madaniy festivallar va ijtimoiy ta'siri

Madaniy festivallar, odatda, jamoatchilik hayotining muhim qismi sifatida e'tirof etiladi. Ular nafaqat san'at va madaniyatni namoyish etish, balki ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashda ham muhim rol o'ynaydi. Bunday tadbirlar, odamlarni bir joyga

to'plab, turli xil madaniyatlar va urf-odatlar bilan tanishtirish imkonini beradi. Madaniy festivallarda ishtirok etish, odamlar orasida yangi do'stliklar va ijtimoiy aloqalar o'rnatishga yordam beradi, bu esa ijtimoiy birlikni kuchaytiradi. Shuningdek, festivallarda qatnashish orqali odamlar o'zlarining madaniy merosini va an'analarini qayta tiklash imkoniyatini qo'lga kiritadilar, bu esa ularning o'zligini anglashlariga yordam beradi.

Madaniy festivallar shuningdek, turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida muloqot va tushunishni oshiradi. Ular, bir-biridan farq qiluvchi fikrlar va qarashlarni bir joyga to'plab, ochiq va samimiy muhokamalarni rag'batlantiradi. Bu jarayon, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi va jamiyat ichida to'qnashuvlarni kamaytiradi. Madaniy festivallar, shuningdek, ijtimoiy va siyosiy masalalarga e'tibor qaratish, muhim ijtimoiy masalalarni muhokama qilish va jamoatchilikni faollikka chaqirish imkoniyatini yaratadi. Shu sababli, madaniy festivallar ijtimoiy hayotga katta ta'sir ko'rsatadi va jamoatchilikni birlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Madaniy festivallar, odatda, turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida muloqot va hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ular, shuningdek, mahalliy an'analarni saqlab qolish, madaniy merosni targ'ib qilish va yangi avlodlarga yetkazish imkonini beradi. Festivallar davomida odamlar o'zaro tajriba almashishadi, bu esa ijtimoiy bog'lanishlarni mustahkamlashga yordam beradi. Madaniy tadbirlar shuningdek, iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadi, chunki ular turizmni jalb qiladi va mahalliy bizneslarni qo'llab-quvvatlaydi. Shu tariqa, madaniy festivallar jamiyatning birligi va barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Madaniy festivallar va barqaror turizm

Barqaror turizm konsepsiyasi doirasida madaniy festivallarni rivojlantirish jarayoni bir qator muhim omillarga asoslanishi kerak. Avvalo, festivallar mahalliy madaniyatni, an'analarni va san'atni namoyish etish vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, mahalliy aholi orasida madaniy merosni saqlashga va uni kelajak avlodlarga yetkazishga yordam beradi. Madaniy festivallarni barqaror ravishda

rivojlantirish uchun, ularning tashkilotchilari ekologik jihatdan toza amaliyotlarni qo'llashlari zarur. Masalan, chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish orqali festivallar ekologik izlarni kamaytirishi mumkin.

Bundan tashqari, madaniy festivallarni xalqaro miqyosda targ'ib qilish, turizmni jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Buning uchun, festivallarni ijtimoiy tarmoqlar va turizm platformalari orqali reklama qilish, mahalliy va xalqaro mehmonlarni jalb qilish imkoniyatini oshiradi. Shuningdek, festivallarda mahalliy ishlab chiqaruvchilar va hunarmandlar ishtirokini ta'minlash, iqtisodiy manfaatlarni oshiradi va mahalliy iqtisodiyotga hissa qo'shadi. Madaniy festivallarni barqaror turizm strategiyasiga kiritish, nafaqat iqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydi, balki madaniy merosni saqlash va jamiyatni birlashtirishda ham muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, madaniy festivallar barqaror turizmning ajralmas qismi sifatida ko'rilishi kerak. Madaniy festivallarni barqaror turizm doirasida rivojlantirish, mahalliy aholi va turistlar o'rtasida o'zaro aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. Bunday festivallar, mahalliy san'at va an'analarni namoyish etish orqali, turizmning madaniy jihatini kuchaytiradi. Shuningdek, ular ekologik toza amaliyotlarni qo'llab-quvvatlash va resurslardan oqilona foydalanishni rag'batlantirish uchun platforma sifatida xizmat qiladi. Madaniy festivallar davomida mahalliy mahsulotlarni taqdim etish, iqtisodiy barqarorlikni oshirishga yordam beradi va sayyohlarni mahalliy madaniyat bilan tanishtiradi. Shu tariqa, madaniy festivallar barqaror turizmni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Kelajak istiqbollari

Kelajak istiqbollari nuqtai nazaridan, madaniy festivallar va turizm o'rtasidagi aloqalar yanada kuchayishi kutilmoqda. Buning sababi, globalizatsiya jarayonlari va texnologik taraqqiyot sayyohlik sohasini yangi imkoniyatlar bilan ta'minlayotganidir. Madaniy festivallar nafaqat mahalliy an'analarni saqlab qolish, balki xalqaro sayyohlarni jalb etish imkoniyatini ham yaratadi. Shu bilan birga, festivallar orqali turizm sohasidagi iqtisodiy rivojlanishning yangi yo'nalishlari paydo bo'ladi.

O'zbekistonda o'tkaziladigan madaniy tadbirlar, masalan, xalqaro festival va ko'rgazmalar, mahalliy hunarmandchilikni namoyish etish bilan birga, sayyohlar uchun yangi tajribalar yaratadi. Bu jarayonlar sayyohlik sohasining diversifikatsiyasiga olib keladi, chunki sayyohlar faqat tarixiy va tabiiy joylarni emas, balki madaniy tajribalarni ham izlaydilar.

Kelajakda, onlayn platformalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali madaniy festivallarni reklama qilish va ularga jalb qilish imkoniyatlari kengayadi. Natijada, sayyohlik oqimlari yanada ko'payadi, bu esa mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Madaniy festivallar va turizm o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, shuningdek, turizmning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladigan yangi strategiyalarni ishlab chiqishga hamda mahalliy jamiyatlarning madaniy merosini saqlab qolishga yordam beradi. Kelajakda madaniy festivallar va turizm o'rtasidagi aloqalar yanada chuqurlashishi kutilmoqda. Bunday festivallar sayyohlarni jalb etishning samarali vositasi sifatida xizmat qiladi, bu esa turizm sohasining diversifikatsiyasiga olib keladi. Madaniy tadbirlar, ayniqsa, mahalliy an'analar va urf-odatlarni namoyish etishda muhim rol o'ynaydi, shuning uchun ular sayyohlar uchun qiziqarli va noyob tajribalar yaratadi. Bunday aloqalar, o'z navbatida, mahalliy iqtisodiyotga yangi imkoniyatlar ochadi va turizmni barqaror rivojlantirishga hissa qo'shadi. Shu tariqa, madaniy festivallar va turizm o'rtasidagi integratsiya kelajakda yanada mustahkamlanadi.

Xulosa

Maqolaning asosiy natijalari, madaniy festivallarning turizm sohasidagi ahamiyatini ochib berishga qaratilgan. Madaniy festivallar, mahalliy an'analarni va urf-odatlarni namoyish etish bilan birga, sayyohlar uchun jalb etuvchi omil sifatida xizmat qiladi. Ular nafaqat madaniy tajriba taqdim etadi, balki iqtisodiy foyda keltiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, festivallar davomida sayyohlar sonining oshishi, mahalliy bizneslar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi va bunda turizmning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Madaniy festivallar, shuningdek, turizmni

diversifikatsiyalash va yangi yo'nalishlar ochish orqali mahalliy mintaqalarning brendini kuchaytirishga yordam beradi. Ular mahalliy aholi bilan sayyohlar o'rtasida madaniy aloqalarni o'rnatishda muhim rol o'ynaydi, bu esa turizmning barqaror rivojlanishiga olib keladi. Shuningdek, bu festivallar orqali xalqaro tajriba almashinuvi amalga oshiriladi, bu esa madaniy muhitni boyitadi. Natijada, madaniy festivallar turizm sohasida nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. O'z navbatida, bunday festivallar turizmni rivojlantirishda asosiy omil sifatida xizmat qiladi va mahalliy iqtisodiyotning o'sishiga hissa qo'shadi. Bularning barchasi kelajakda madaniy festivallar va turizm o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlashga yordam beradi. Maqolaning asosiy natijalari shuni ko'rsatadiki, madaniy festivallar turizm sohasida muhim rol o'ynaydi. Ular nafaqat mahalliy madaniyatni targ'ib qilish, balki turizmni rag'batlantirish orqali iqtisodiy o'sishga ham hissa qo'shadi. Festivallar, sayyohlarni jalb etish bilan birga, mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratadi va ularning madaniy merosini saqlab qolishga yordam beradi. Shuningdek, bunday tadbirlar orqali mintaqalararo aloqalar mustahkamlanadi va global turizm xaritasida yangi imkoniyatlar ochiladi. Natijada, madaniy festivallar turizmning rivojlanishida muhim strategik vosita bo'lib qolmoqda.

REFERENCES

1. Goffman, E. (1959). The Presentation of Self in Everyday Life.
2. Cohen, E. (1988). Authenticity and Commoditization in Tourism.
3. Richards, G. (2001). Cultural Tourism in Europe.
4. Getz, D. (2008). Event Tourism: Definition, Evolution, and Research.
5. Smith, M. (2010). Issues in Cultural Tourism Studies.
6. Hall, C. M., & Weiler, B. (1992). Special Interest Tourism.
7. Binkhorst, E., & Dekker, T. (2009). Agenda for the co-creation of tourism experiences.
8. McKercher, B. (2002). Towards a classification of cultural tourism.

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

PRAGMATIC INTERPRETATION OF THE CATEGORY OF EMPHASIS IN CLASSICAL ARABIC GRAMMAR AND MODERN ARABIC LINGUISTICS

Abdurahmon Jamshid o‘g‘li Xusenov

Master’s Student in Linguistics (Arabic Language), Specialty 70230101, Oriental University

Abstract

This article examines the morphosyntactic, semantic, and pragmatic features of the category of emphasis (al-tawkīd, التوكيد) within the system of dependent constructions in the Arabic language through the perspectives of the classical grammatical tradition (nahw) and contemporary linguistic paradigms. The formal and structural conditions of lexical and semantic emphasis are analyzed, while the scholarly debate between the Basran and Kufan schools regarding the emphasis of indefinite nouns (nakira) is reinterpreted on the basis of informativeness and the principles of Gricean maxims in pragmalinguistics. Furthermore, the meaning of totality and inclusiveness (iḥāṭa) expressed by the emphatic devices kull (كل) and jamīʿ (جميع) is logically modeled through the concepts of universal quantification (∀ operator) and reinforced universal quantification in formal semantics. The article concludes by demonstrating the methodological value of synthesizing the classical formal-morphological approach with the modern contextual-pragmatic approach for a deeper understanding of classical Arabic texts, particularly the syntax of the Qur’an.

Keywords

Arabic linguistics, dependent constructions (توابع), emphasis (tawkīd), semantic emphasis, lexical emphasis, Basran and Kufan schools, indefinite noun (nakira), informative meaning (فائدة), pragmatics, informativeness, formal semantics, universal quantification (∀), reinforced quantification.

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

TA'KID KATEGORIYASINING KLASSIK NAHVDA VA ZAMONAVIY ARAB TILSHUNOSLIGIDA PRAGMATIK TALQINI

Xusenov Abdurahmon Jamshid o'g'li

Oriaental universiteti 70230101 – Lingvistika (arab tili)mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tili tobe bog'lanish tizimidagi ta'kid (التوكيد) kategoriyasining morfosintaktik, semantik va pragmatik xususiyatlari klassik nahv an'anasi hamda zamonaviy tilshunoslik paradigmalari kesimida tadqiq etilgan. Maqolada lafziy va ma'naviy ta'kid vositalarining formal-strukturaviy shartlari tahlil qilinib, nakira (noaniq) ismlarni ta'kidlash masalasidagi Basra va Kufa maktablari o'rtasidagi ilmiy bahs pragmalingvistikadagi informativlik hamda Grays ko'rsatmalari (Gricean maxims) prinsiplari asosida qayta talqin qilingan. Shuningdek, kull (كل) va jamiy' (جميع) vositalari ifodalaydigan ihota (qamrab olish) ma'nosi formal semantikadagi universal kvantifikatsiya ($\forall$ operatori) hamda kuchaytirilgan universal kvantifikatsiya terminlari orqali mantiqiy modellashtirilgan. Maqola yakunida klassik formal-morfologik yondashuv bilan zamonaviy kontinual-pragmatik yondashuvlarning sintezi klassik arab matnlari, xususan, Qur'on sintaksisini chuqur anglashdagi metodologik qimmati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Arab tilshunosligi, tobe bog'lanish (توابع), ta'kid (توكيد), ma'naviy ta'kid, lafziy ta'kid, Basra va Kufa maktablari, nakira, foydali ma'no (فائدة), pragmatika, informativlik, formal semantika, universal kvantifikatsiya ($\forall$), kuchaytirilgan kvantifikatsiya.

Arab tili tobe bog'lanish (التوابع) tizimida ta'kid (التوكيد) kategoriyasi gapdagi biror bo'lakning ma'nosini kuchaytirish, uni qat'iylashtirish va tinglovchi ongida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan shubhani batamom bartaraf etish vazifasini bajaradi [٥, ص. ٣٧٢]. Klassik nahv olimlari, xususan, Basra va Kufa tilshunoslik maktablari vakillari ta'kidni tizimli ravishda ikki katta turga ajratganlar: birinchisi – ma'naviy ta'kid (التوكيد المعنوي) bo'lib, u nafs (نفس), 'ayn (عين), kull (كل), jamiy' (جميع), 'amma (عامّة), ajma' (أجمع)

kabi maxsus leksik vositalar orqali reallashadi; ikkinchisi – lafziy ta’kid (التوكيد اللفظي) bo‘lib, u muayyan so‘zning (ism, fe’l, harf) yoki butun boshli jumlaning o‘zini nutqiy jarayonda takrorlash orqali amalga oshiriladi [١, ٣٨٨ .ص]. Klassik grammatik an’anada har bir vosita uchun qat’iy morfosintaktik shartlar belgilangan bo‘lib, bular sirasiga ta’kidning matbu‘ (المؤكَّد) kelishigiga to‘liq ergashishi (e’rob), maxsus izofa shaklining mavjudligi, ta’kidlanmish ismning son va jins ko‘rsatkichlariga mos keluvchi zamir (olmosh) muvofiqligi kiradi; ushbu klassik yondashuvning markazida, shubhasiz, lisoniy shaklning tashqi mantiqiy to‘g‘riligi (formal muvofiqlik) mezonlari turadi [٢, ٤١٢ .ص].

Ushbu lisoniy kategoriya bo‘yicha arab tilshunosligi tarixidagi eng nozik va ko‘p bahslarga sabab bo‘lgan masalalardan biri – nakira (noaniq) ismlarni ma’naviy ta’kid vositalari bilan ta’kidlash imkoniyatidir. Basra maktabi namoyandalari nazdida nakira so‘zni ta’kidlash mutlaqo imkonsiz bo‘lib, bu chuqur mantiqiy zidlikni keltirib chiqaradi; ularning argumentatsiyasiga ko‘ra, ta’kid kategoriyasi tabiatan muayyanlikni va subyektning aniqligini (ma’rifa bo‘lishini) talab qiladi, chunki mohiyati noma’lum va umumiy bo‘lgan narsani (nakirani) universal qamrov yoki zotiy birlik bilan kuchaytirish uning lingvistik tabiatiga mutloq ziddir [١, ٣٩١ .ص].

Aksincha, Kufa maktabi olimlari bu masalaga pragmatik va kommunikativ nuqtai nazardan yondashib, chegaralangan ma’no anglatuvchi nakira so‘zlarni (masalan, "bir oy" yoki "bir hafta" kabi boshlanishi va oxiri aniq bo‘lgan muayyan muddatga ega so‘zlarni) ta’kidlashni qat’iy ravishda joiz deb hisoblaganlar [٣, ٢٤٥ .ص]. Kufaliklar o‘z qarashlarini tilning fundamental tabiati hisoblangan kommunikativlik va tinglovchi uchun foydali ma’no (فائدة) hosil bo‘lishi prinsipi bilan asoslaganlar; chunki noaniq vaqt birligiga qo‘shilgan ta’kid vositasi tinglovchida tug‘ilishi mumkin bo‘lgan "bu vaqtning aksar qismi nazarda tutilgandir" degan majoziy ehtimolni yo‘qqa chiqaradi va gapning axborot yukini aniqlashtiradi [٤, ٥١٢ .ص]. Ushbu tarixiy bahs, mohiyatan, zamonaviy pragmalingvistikada va diskurs tahlilida matnning yangi, aktual va foydali axborot

tashishi (informativeness) hamda so‘zlovchining redundantlikdan qochishi haqidagi Grays ko‘rsatmalari (Gricean maxims) mezonlariga juda yaqin turadi.

Zamonaviy umumiy tilshunoslikda ta’kid kategoriyasiga doir qarashlar ancha kengayib, u, birinchi navbatda, lisoniy universaliyalar sirasiga kiruvchi pragmatik kuchaytirish (emphasis/intensification) mexanizmi sifatida qaraladi. Zamonaviy paradigmalarda ta’kid faqat morfologik-leksik vositalar (maxsus ta’kid so‘zlari) bilan cheklanmaydi; balki nutqiy intonatsiya, mantiqiy urg‘u, gapdagi an’anaviy so‘z tartibining o‘zgarishi (taqdim-taxir/sintaktik inversiya), sintaktik takror va parallelizm kabi diskurs hamda matn darajasidagi konvergent vositalar ham ta’kid doirasiga chuqur integratsiya qilinadi [٥, ١٤٥ .ص]. Bu holat – klassik nahv tizimining muayyan va alohida-alohida birliklarga (morfo-leksik elementlarga) asoslangan diskret tabiati bilan zamonaviy tilshunoslik tizimining lisoniy sathlarni yaxlit olib qaraydigan kontinual (uzluksiz, ko‘p qatlamli va situativ kontekstga bog‘liq) tabiati orasidagi fundamental farqning eng yaqqol ko‘rinishidir.Ayniqsa diqqatga sazovor va lingvo-falsafiy jihatdan qimmatli jihat – kull (كل) va jamiy‘ (جميع) vositalari orqali ifodalangan ihota (qamrab olish, shumul) ma’nosining zamonaviy formal semantikada (formal semantics) qanday talqin etilishidir. Klassik nahvchilar ushbu so‘zlarni ta’kidlanmish obyektning barcha qismlarini va to‘plamning har bir a’zosini, hech bir istisno qismni qoldirmasdan, yalpi qamrab olishini bildiruvchi sintaktik vositalar sifatida tasvirlaganlar [٢, ٤١٥ .ص].

Zamonaviy formal semantikada esa ushbu klassik tavsif mantiqiy-matematik asboblar, aniqrog‘i universal kvantifikatsiya tushunchasi orqali mukammal darajada formallashtiriladi: masalan, arab tilidagi kulluhum (كلّهم) strukturasi formal mantiqda "ushbu qat’iy belgilangan to‘plamdagi har bir a’zo uchun predikati mutloq to‘g‘ri va haqiqiydir" degan mantiqiy tuzilishni ifodalaydi. Klassik nahvchilarning asarlarida keltirilgan kulluhu (كلّه) dan keyin ajma‘ (أجمع), kulluha (كلّها) dan keyin jam‘a’ (جمْعاء) kabi qo‘shimcha kuchaytiruvchi so‘zlarning ketma-ket, zanjirsimon qo‘llanishini alohida lisoniy qoida sifatida ko‘rsatib o‘tishlari esa, zamonaviy semantika nuqtai

nazaridan, kuchaytirilgan universal kvantifikatsiya (intensified universal quantification) hodisasidir; ya'ni bu oddiy nutqdagi distributiv "barchasi" (ba'zan majozan aksariyati ma'nosida ishlatilishi mumkin bo'lgan loose talk holati) bilan mantiqiy tizimdagi "mutlaqo barchasi, hech qanday pragmatik istisnosiz va chekinishlarsiz" o'rtasidagi nozik pragmatik farqning qat'iy grammatik-strukturaviy ifodasidir [٤, ٥١٥ .ص].

Shunday qilib, arab tili sintaksisidagi ta'kid kategoriyasi bo'yicha klassik va zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari mohiyatan bir-birini inkor etmaydi, balki to'ldiradi: klassik nahv ta'kid vositalarining formal-morfologik shartlarini, kelishik tizimidagi o'rnini naqadar nozik va mikroskopik darajada tasnif qilgan bo'lsa, zamonaviy tilshunoslik bu formal vositalarning ortida turgan umumiy pragmatik-mantiqiy mexanizmni – kuchaytirilgan kvantifikatsiya va diskursiv informativlik tamoyili sifatida – keng ko'lamda ochib beradi. Ushbu ikki xil lingvistik yondashuvning metodologik jihatdan uyg'unlashtirilishi klassik arab matnlarini – jumladan, Qur'on matnining lisoniy va uslubiy mo'jizaviyligini (i'jozini) – ham formal-strukturaviy, ham ichki chuqur semantik-mazmuniy jihatdan yanada chuqur va aniq tushunish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. (المصادر والمراجع)سيبويه، أبو بشر عمرو بن عثمان بن قنبر (ت ١٨٠ هـ). الكتاب. تحقيق: عبد السلام محمد هارون. القاهرة: مكتبة الخانجي، ١٩٨٨ م. (٥٢٠ صفحة، الجزء الأول)
2. .ابن مالك، محمد بن عبد الله الطائي الجياني (ت ٦٧٢ هـ). الألفية في النحو والصرف (مع شرح ابن عقيل). تحقيق: محمد محيي الدين عبد الحميد. القاهرة: دار التراث، ١٩٨٠ م. (٦٤٠ صفحة).
3. الرضي الاستراباذي، محمد بن الحسن (ت ٦٨٦ هـ). شرح كافية ابن الحاجب. تحقيق: يوسف حسن عمر. بنغازي: منشورات جامعة قاريونس، ١٩٧٨ م. (٤٨0 صفحة، الجزء الثاني).
4. ابن هشام الأنصاري، جمال الدين بن يوسف (ت ٧٦١ هـ). مغني اللبيب عن كتب الأعاريب. تحقيق: د. مازن المبارك ومحمد علي حمد الله. دمشق: دار الفكر، ١٩٩٢ م. (٨٥٦ صفحة)
5. ..حسان، تمام (ت ٢٠١١ م). اللغة العربية: معناها ومبناها. الدار البيضاء: دار الثقافة، ١٩٧٣ م. (٣٧2 صفحة)

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

A COMPARATIVE ANALYSIS OF THE CATEGORIES OF DEPENDENT CONSTRUCTIONS IN ARABIC LINGUISTICS BASED ON CLASSICAL GRAMMAR AND MODERN LINGUISTIC METHODOLOGIES

Abdurahmon Jamshid o‘g‘li Xusenov

Master’s Student in Linguistics (Arabic Language), Specialty 70230101, Oriental University

Abstract

This article presents a comparative and typological analysis of the category of dependent constructions (tābiʿ, تابع) in Arabic syntax, including naʿt (adjectival modifier), tawkīd (emphasis), badal (apposition/substitution), and ʿaṭf al-nasaq (coordination), from the perspectives of classical Arabic grammatical schools and modern descriptive-functional linguistics. The study highlights the differences and interrelationships between the classical grammatical methodology based on the “form–meaning” paradigm (governance theory and case inflection) and the modern linguistic approach emphasizing the “meaning/function–form” paradigm (communicative and pragmatic analysis). The analysis demonstrates that many contemporary theoretical concepts, such as information structure, universal quantification, meronymy, and cohesion, correspond to phenomena that had already been intuitively observed by classical grammarians, although they had not yet been formulated within an independent theoretical framework. The article concludes by emphasizing the significance of this comparative analysis for teaching Arabic as a foreign language and for textual and discourse studies.

Keywords

dependent constructions, naʿt, badal, ʿaṭf al-nasaq, tawkīd, classical Arabic grammar, governance theory, information structure, communicative-functional linguistics, Sibawayh, Ibn Malik.

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

ARAB TILSHUNOSLIGIDA TOBE BOG‘LANISH KATEGORIYALARINING KLASSIK NAHV VA ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK METODOLOGIYALARI ASOSIDA QIYOSIY TAHLILI

Xusenov Abdurahmon Jamshid o‘g‘li

Oriaental universiteti 70230101 – Lingvistika (arab tili)mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada arab tili sintaksisidagi tobe bog‘lanish (تابع) kategoriyasi na't, ta'kid, badal va atf an-nasaq klassik nahv maktablari va zamonaviy tasviriy-funksional tilshunoslik nuqtai nazaridan qiyosiy-tipologik tahlil qilinadi. Tadqiqotda klassik nahvning "shakl ma'no" (omil va e'rob asosidagi) metodologiyasi bilan zamonaviy tilshunoslikning "ma'no/vazifa shakl" (kommunikativ-pragmatik) yondashuvi o‘rtasidagi farqlar va o‘zaro bog‘liqlik ko‘rsatib beriladi. Tahlil shuni isbotlaydi-ki, zamonaviy nazariy tushunchalar (informatsion struktura, universal kvantifikatsiya, meronimiya, kogeziya) ko‘p hollarda klassik nahvchilarning intuitiv kuzatuvlarida allaqachon mavjud bo‘lgan, biroq alohida nazariy apparat sifatida shakllanmagan hodisalarning zamonaviy terminologiya bilan qayta tizimlashtirilishidir. Maqola yakunida ushbu qiyosiy tahlilning arab tilini chet til sifatida o‘qitish va matnshunoslik amaliyotidagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: *tobe bog‘lanish, na't, badal, atf an-nasaq, ta'kid, klassik nahv, omil nazariyasi, informatsion struktura, kommunikativ-funksional tilshunoslik, Sibavayh, Ibn Molik.*

Kirish. Arab tili sintaksisining markaziy kategoriyalaridan biri tobe bog‘lanish (الإتباع) gap ichida bir so‘zning boshqa so‘zga e'rob (kelishik), ma'rifa-nakira holati, jins va sonda ergashishini ifodalovchi murakkab grammatik-semantik tizimdir. Klassik nahv an'anasida ushbu tizim besh asosiy turga na't (sifat), ta'kid (kuchaytiruvchi takror), badal (o‘rin bosuvchi), atf an-nasaq (bog‘lovchili ulanish) va atf al-bayon (izohlovchi ot) bo‘linadi va har biri uchun aniq morfologik-sintaktik shartlar belgilanadi. Ushbu tasnif Sibavayh, Ibn Sarroj, Ibn Aqil, Ibn Hishom va Ibn Molik kabi nahv allomalarining

asarlarida shakllangan va asrlar davomida arab grammatik merosining tayanch nuqtasi bo‘lib kelgan.

XX asr o‘rtalaridan boshlab Yevropa strukturalizmi, keyinroq esa funksional-kommunikativ tilshunoslik ta'sirida shakllangan zamonaviy arab tilshunosligi tobe bog‘lanish hodisalarini boshqacha kommunikativ vazifa va informatsion struktura nuqtai nazaridan qayta talqin qila boshladi. Bunday metodologik almashinuv tabiiy savolni keltirib chiqaradi: klassik va zamonaviy yondashuvlar o‘rtasidagi munosabat qanday tabiatga ega bu ikki paradigma bir-birini inkor etadimi yoki bir-birini to‘ldiradimi? Mazkur maqolaning maqsadi aynan shu savolga javob berish, ya'ni na't, badal, atf an-nasaq va ta'kid kategoriyalarini klassik va zamonaviy tilshunoslik prizmasi orqali qiyosiy-tipologik tahlil qilish va ularning o‘zaro davomiylik munosabatini ko‘rsatishdir.

1. Klassik nahvda tobe' tushunchasi va uning metodologik asoslari

Klassik nahv olimlari tobe bog‘lanishni, eng avvalo, e'rob (kelishik tizimi) va omil (عامل) nazariyasi nuqtai nazaridan tahlil qilganlar. Ularning metodologiyasida asosiy savol shundan iborat edi: tobe so‘z nima sababdan aynan shu kelishikda keladi va uni qaysi omil boshqaradi? Shu nuqtai nazardan na't, ta'kid, atf an-nasaq, atf al-bayon va badal[1] barchasi tobe' degan umumiy tushuncha ostida birlashtirilgan bo‘lib, ularning umumiy belgisi shundaki, bu so‘zlar o‘zlaridan oldingi so‘zning (matbu' yoki man'utning) e'robiga, ya'ni omil ta'siriga ergashadi.

Bu tasnif, birinchi navbatda, formal-morfologik mezonga, ya'ni so‘zning gapdagi tashqi shakliy moslashuviga e'rob, ma'rifa-nakira, jins va son asoslangan. Klassik tizimning ushbu xususiyati uni ko‘pincha sof normativ, ya'ni Qur'on va klassik adabiyot tilini to‘g‘ri saqlash va izohlashga yo‘naltirilgan tizim sifatida tavsiflashga olib keladi. Biroq, quyida ko‘rsatilganidek, bu tasnifning ortida ko‘pincha chuqur semantik-pragmatik intuitsiya yashiringan bo‘lib, u faqat zamonaviy tilshunoslik vositalari yordamida to‘liq ochiladi.

[1] ابن عقيل. شرح ابن عقيل على ألفية ابن مالك. الجزء الثالث. – بيروت: مؤسسة الرسالة، ٢٠٢٢. – ص. ٤٥-٥٢.

2. Zamonaviy tilshunoslikning kommunikativ-funksional yondashuvi

Zamonaviy arab tilshunosligi xususan tasviriy, struktural va funksional yo‘nalishlar klassik beshlik tasnifni rad etmaydi, biroq uni boshqacha, kommunikativ vazifa nuqtai nazaridan qayta tashkillaydi. Mustafo G‘olayiniyning "Jamiu'd-durusil arabiyya" kabi o‘tish davri asarlari an'anaviy tasnifni saqlagan holda, uni amaliy-uslubiy izoh bilan boyitgan bo‘lsa, undan keyingi tasviriy tilshunoslik asarlarida tobe bo‘laklar ikkinchi darajali bo‘laklar (الفضلات) yoki qo‘shimcha-aniqlovchi konstruksiyalar sifatida, gapning axborot tarkibidagi o‘rni eski axborot va yangi axborot o‘rtasidagi taqsimot asosida tasniflanadi.

Bu yerda klassik va zamonaviy yondashuv o‘rtasidagi birinchi tub farq yuzaga keladi: klassik tizim shakldan ma'noga (avval e'rob shaklini aniqlab, keyin undan ma'no chiqarish) yo‘nalishida ish ko‘radi, zamonaviy tizim esa ko‘pincha ma'no/vazifadan shaklga, ya'ni avval so‘zlovchining kommunikativ niyatidan kelib chiqib, keyin bu niyat qanday grammatik vositalar orqali ifodalanganini izlash yo‘nalishida boradi. Ushbu yo‘nalish farqi quyidagi har bir kategoriya tahlilida o‘z aksini topadi.

3. Kategoriyalar bo‘yicha qiyosiy tahlil

3.1. Na't. Klassik manbalarda na't, eng avvalo, man'utiga to‘rt jihatdan (e'rob, ma'rifa-nakira, jins, son) moslashuvchi so‘z sifatida ta'riflanadi va haqiqiy (حقيقي) bilan sababiy (سببي) turlarga bo‘linadi: haqiqiy na't to‘rt jihatda, sababiy na't esa faqat ikki jihatda (e'rob va ma'rifalik) moslashadi.[2] Zamonaviy semantik tahlil nuqtai nazaridan bu farq chuqurroq mantiqqa ega: haqiqiy na'tda sifat bevosita predmetning o‘ziga tegishli xususiyatni (intrinsic property) bildiradi, sababiy na'tda esa sifat predmetga bog‘liq boshqa bir referentning xususiyati orqali, bilvosita (relational property) ifodalanadi bu farq zamonaviy kognitiv semantikada to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita predikatsiya tushunchalariga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, zamonaviy tilshunoslikda na't xoslash (restriktiv) va tasvirlash (deskriptiv) funksiyalariga ko‘ra ikkiga ajratiladi; klassik

[2] ابن عقيل. شرح ابن عقيل على ألفية ابن مالك. الجزء الثالث. – بيروت: مؤسسة الرسالة، ٢٠٢٢. – ص. ٤٥-٥٢.

manbalarda ham na'tning xoslash, madh, zam, tarahhum kabi semantik-uslubiy vazifalari ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, bu farqlanish tasnifning asosiy o‘qi emas, balki qo‘shimcha izoh sifatida keltiriladi.

3.2. Badal. Klassik nahvda badal al-kull min al-kull, badal al-ba'z min al-kull, badal al-ishtimol va badal al-g‘alat kabi turlarga bo‘linib, har biri uchun zamir qaytishi va e'rob mosligi qoidalari belgilanadi bu sof sintaktik-struktur tahlil bo‘lib, markazida almashtirish (substitution) operatsiyasi turadi. Zamonaviy tilshunoslikda badal apposition universaliyasi bilan mos keladi, biroq u informatsion struktura nazariyasi doirasida, topik va fokus tushunchalari orqali izohlanadi: badal, aksariyat hollarda, so‘zlovchining avval umumiy aytib o‘tgan fikrini aniqlashtirish yoki to‘g‘rilash ehtiyojidan kelib chiqadi. Badal al-ishtimol va badal al-ba'z o‘rtasidagi farq zamonaviy kognitiv tilshunoslikda meronimiya (qism-butun) va predikatsiya (atributiv) munosabatlari sifatida qayta ifodalanadi.[3]

3.3. Atf an-nasaq. Klassik tasnif و, ثمّ, الفاء, حتّى, أم, أو, بل, لا, لكنkabi bog‘lovchilarning mantiqiy-vaqtiy munosabatlarni ifodalashiga asoslanadi va bu, mohiyatan, mantiq ilmi ta'sirida shakllangan bo‘lib, har bir bog‘lovchiga aniq mantiqiy operator maqomi beriladi. Zamonaviy matn tilshunosligi va diskurs tahlili doirasida bu bog‘lovchilar kogeziya vositalari sifatida, gaplar orasidagi mantiqiy-semantik bog‘liqlikni ta'minlovchi vositalar sifatida o‘rganiladi. أوbog‘lovchisining klassik تخيير(tanlov) va شكّ(shubha) ma'nolari zamonaviy mantiqda inklyuziv dizyunksiya va epistemik modallik tushunchalariga, لكن ning "e'robda sherik, hukmda emas" ta'rifi esa pragmatik counter-expectation (kutilmagan qarama-qarshilik) markeri tushunchasiga to‘g‘ri keladi.

3.4. Ta'kid. Klassik nahv ta'kidni ma'naviy ta'kid (نفس, عين, كل, جميع, عامّة, أجمعkabi vositalar orqali) va lafziy ta'kid (so‘zni takrorlash) ga ajratib, har biri uchun qat'iy morfologik-sintaktik shartlar belgilaydi bu yondashuvning markazida shaklning to‘g‘riligi turadi. Zamonaviy tilshunoslikda ta'kid, birinchi navbatda, pragmatik kuchaytirish (emphasis/intensification) universaliyasi sifatida qaraladi va prosodik hamda diskurs

[3] مصطفى الغلاييني. جامع الدروس العربية. – بيروت: المكتبة العصرية، ٢٠٠٩. – ص. ٢١٠-٢٢٥

darajasidagi vositalar bilan birga tahlil qilinadi. كلva جميعorqali ifodalangan ihota ma'nosi zamonaviy formal semantikada universal kvantifikatsiya (∀ operatori) sifatida formallashtiriladi, أجمع, جمعاءkabi qo‘shimcha kuchaytiruvchilar esa kuchaytirilgan universal kvantifikatsiya tushunchasiga mos keladi.

4. Zamonaviy arab tilshunoslari yondashuvida tobe' tizimining qayta talqini

Tammom Hassonning "al-Lug‘a al-arabiyya: ma'noha wa mabnoha" asarida an'anaviy tasnif tubdan rad etilmaydi, biroq tobe bo‘laklar ma'no birliklari (وحدات الدلالة) nuqtai nazaridan qayta guruhlanadi: na't, badal va atf al-bayon uchovi ham mohiyatan bir umumiy funksiyani, ismni aniqlashtirish (التخصيص) funksiyasini bajaradi, faqat bu funksiyani amalga oshirish vositasi (sifat, o‘rin bosish yoki izohlovchi ot) farq qiladi.[4] Bunday guruhlash klassik tasnifning "qanday?" degan savoliga emas, balki "nima uchun?" degan savolga javob berishga yo‘naltirilgan bo‘lib, chet tilini o‘qitish metodikasi uchun amaliy ahamiyatga ega.

Fozil Solih as-Somarroiyning tadqiqotlarida e'tibor, asosan, tobe bog‘lanishlarning Qur'on uslubidagi qo‘llanilishiga qaratilgan bo‘lib, u klassik nahvchilarning izohlarini zamonaviy uslubiy tahlil bilan birlashtiradi. Bunday yondashuvda klassik va zamonaviy talqin bir-birini inkor etmaydi: birinchisi "bu qanday mumkin?" degan grammatik savolga, ikkinchisi "bu nima uchun bunday qilingan?" degan estetik-pragmatik savolga javob beradi.

5. Qiyosiy tahlilning umumiy natijalari va amaliy ahamiyati

Yuqorida keltirilgan tahlilni umumlashtirsak, klassik va zamonaviy arab tilshunosligi o‘rtasidagi qiyosni uch asosiy o‘lchovda ifodalash mumkin: birinchidan, tahlil yo‘nalishi klassik nahvda shakldan ma'noga, zamonaviy tilshunoslikda esa ko‘pincha ma'no/vazifadan shaklga boriladi; ikkinchidan, tahlil birligi klassik tizim alohida gap chegarasida ish ko‘rsa, zamonaviy tizim matn va diskurs darajasini ham qamrab oladi;

[4] ابن عقيل. شرح ابن عقيل على ألفية ابن مالك. الجزء الثالث. – بيروت: مؤسسة الرسالة، ٢٠٢٢. – ص. ١١٠-١١٥

uchinchidan, tahlil maqsadi klassik nahvning maqsadi normativ, zamonaviy tilshunoslikning maqsadi esa tasviriy-izohlovchi xarakterga ega.

Shu bilan birga, bu farqlarni mutlaqlashtirish metodologik jihatdan asossizdir. Sibavayhning "Al-Kitob"da omil nazariyasi orqali tobe bog‘lanishni tushuntirishi, mohiyatan, zamonaviy bog‘lanish grammatikasi (dependency grammar) tamoyillariga juda yaqin turadi, chunki ikkala tizimda ham gap markazida hokim (boshqaruvchi) va tobe (bog‘liq) elementlar nisbati yotadi.[5] Shu sababli, klassik va zamonaviy yondashuvlar o‘rtasidagi munosabatni raqobat emas, balki davomiylik va boyitish sifatida tushunish to‘g‘riroq bo‘ladi.

Bu qiyosiy tahlilning amaliy ahamiyati, ayniqsa, o‘zbek arabshunosligida arab tilini chet til sifatida o‘qitish metodikasida namoyon bo‘ladi. Tobe bog‘lanishlarni faqat klassik tasnif asosida o‘rgatish o‘quvchida ushbu vositalarning real nutqdagi kommunikativ qiymatini tushunishni qiyinlashtirishi mumkin, faqat zamonaviy funksional tasnifga tayanish esa o‘quvchini klassik manbalardagi nozik morfologik-sintaktik qoidalarni va Qur'on matnlarini chuqur tushunish imkoniyatidan mahrum qiladi. Shu sababli klassik formal aniqlik va zamonaviy funksional tushunarlilikni birlashtirgan integrativ model arab tili grammatikasini o‘qitishda, tarjima amaliyotida va matnshunoslik tadqiqotlarida samarali natija berishi mumkin.

Xulosa. Tobe bog‘lanish kategoriyalari na't, badal, atf an-nasaq va ta'kid arab tili sintaksisining nafaqat klassik, balki zamonaviy bosqichida ham o‘z dolzarbligini saqlab qolgan muhim sintaktik-semantik hodisalardir. Klassik nahvning formal-morfologik tasnifi va zamonaviy tilshunoslikning kommunikativ-funksional tahlili o‘zaro raqobatdosh emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi ikki qarash darajasi sifatida tushunilishi lozim. Zamonaviy nazariy tushunchalar universal kvantifikatsiya, meronimiya, dizyunksiya, kogeziya, informatsion struktura ko‘p hollarda klassik nahvchilarning misol va istisnolar tarzida keltirgan kuzatuvlarida allaqachon yashirin holda mavjud bo‘lgan hodisalarni

[5] سيبويه. الكتاب. تحقيق: عبد السلام محمد هارون. – القاهرة: مكتبة الخانجي، ١٩٨٨. – ج. ٢. – ص. ١٣٠-١٤٥

zamonaviy terminologiya bilan qayta tizimlashtirish va formallashtirishdan iboratdir. Demak, klassik nahv merosi eskirgan emas, balki formallashtirilmagan boy ma'lumotlar bazasi bo‘lib, undan zamonaviy tilshunoslik o‘ziga zarur nazariy konstruktlarni topib, tizimli ravishda qayta ishlab chiqishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. سيبويه، أبو بشر عمرو بن عثمان بن قنبر (ت ١٨٠ هـ). الكتاب. تحقيق: عبد السلام محمد هارون. القاهرة: مكتبة الخانجي، ١٩٨٨ م. (٥٢٠ صفحة، الجزء الأول).
2. ابن مالك، محمد بن عبد الله الطائي الجياني (ت ٦٧٢ هـ). الألفية في النحو والصرف (مع شرح ابن عقيل). تحقيق: محمد محيي الدين عبد الحميد. القاهرة: دار التراث، ١٩٨٠ م. (٦٤٠ صفحة).
3. الرضي الاستراباذي، محمد بن الحسن (ت ٦٨٦ هـ). شرح كافية ابن الحاجب. تحقيق: يوسف حسن عمر. بنغازي: منشورات جامعة قاريونس، ١٩٧٨ م. (٤٨0 صفحة، الجزء الثاني).
4. ابن هشام الأنصاري، جمال الدين بن يوسف (ت ٧٦١ هـ). مغني اللبيب عن كتب الأعاريب. تحقيق: د. مازن المبارك ومحمد علي حمد الله. دمشق: دار الفكر، ١٩٩٢ م. (٨٥٦ صفحة).

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

The Species Composition and Taxonomic Analysis of Noctuid Moths (Lepidoptera: Noctuidae) Associated with the Cotton Agroecosystem of Ulugnor District

Botirov Elyor Arabboyevich
Senior Lecturer, Fergana State University
Yoqubov Abutolib Axmadali o‘g‘li
Senior Lecturer, Fergana State University
Ortiqov Samandar Abduqodir o‘g‘li
Fourth-Year Undergraduate Student in Biology, Fergana State University

Abstract

This study was conducted to determine the species composition and taxonomic structure of pest moths belonging to the family Noctuidae (Lepidoptera) inhabiting cotton agroecosystems in Ulugnor District, Andijan Region, Uzbekistan. Field investigations were carried out during 2025–2026 in cotton fields located in the villages of Duduq, Fayzobod, Sariqsuv, Oq Oltin, Mingbuloq, and Nurobod. Insect specimens were collected using light traps equipped with DRL-250 mercury-vapor lamps, as well as transect and quadrat sampling methods. Species identification was performed through comparative analyses based on morphological characteristics, taxonomic keys, and international electronic taxonomic databases. The results revealed the presence of 15 species belonging to the family Noctuidae, representing 14 genera, 6 tribes, and 4 subfamilies (Heliothinae, Noctuinae, Plusiinae, and Acronictinae) within the cotton agroecosystem. The subfamily Noctuinae was the dominant taxonomic group in terms of species richness. Among the recorded genera, *Agrotis* showed the highest representation, comprising two species (*Agrotis segetum* and *Agrotis exclamationis*). Economically important pest species included *Agrotis segetum*, *Agrotis exclamationis*, and *Helicoverpa armigera*, which damage both vegetative and reproductive organs of cotton plants, resulting in significant yield losses. The findings indicate the

establishment of a diverse complex of pest Lepidoptera species within the cotton agroecosystems of Ulugnor District. The identified species composition confirms their considerable economic importance and highlights the necessity for continuous monitoring and the development of integrated pest management strategies.

Keywords

cotton, Lepidoptera, Noctuidae, Agrotis, Helicoverpa armigera, agroecosystem, Ulugnor District, taxonomy.

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot Andijon viloyati Ulug‘nor tumani g‘o‘za agrotsenozida uchraydigan zararkunanda tangachaqanotlilar (Lepidoptera: Noctuidae) ning tur tarkibi va taksonomik tuzilishini aniqlashga bag‘ishlangan. Tadqiqotlar 2025–2026-yillar davomida Duduq, Fayzobod, Sariqsuv, Oq oltin, Mingbuloq va Nurobod qishloqlari hududlarida joylashgan g‘o‘za maydonlarida olib borildi. Hasharot namunalarini yig‘ishda yorug‘lik tuzoqlari (DRL-250 simob bug‘li lampalari), transekt va kvadrat usullari qo‘llanildi. Turlarni aniqlashda morfologik belgilar, taksonomik kalitlar hamda xalqaro elektron kataloglar asosida qiyosiy tahlil amalga oshirildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, g‘o‘za agrotsenozida Noctuidae oilasiga mansub 15 tur, 14 avlod, 6 triba va 4 kenja oila (Heliothinae, Noctuinae, Plusiinae, Acronictinae) qayd etildi. Turlar tarkibi bo‘yicha Noctuinae kenja oilasi ustunlik qildi. Avlodlar ichida *Agrotis* eng ko‘p vakillikka ega bo‘lib, ikki tur (*Agrotis segetum* va *Agrotis exclamationis*) bilan ifodalandi. Iqtisodiy jihatdan muhim zararkunandalar sifatida *Agrotis segetum*, *Agrotis exclamationis* va *Helicoverpa armigera* ajralib chiqdi. Ushbu turlar g‘o‘zaning vegetativ va generativ organlariga zarar yetkazib, hosildorlikning pasayishiga sabab bo‘ladi. Olingan natijalar Ulug‘nor tumani g‘o‘za agrotsenozida zararkunanda Lepidopteralar kompleksining shakllanganligini ko‘rsatadi. Tadqiqot hududida aniqlangan turlar tarkibi ularning yuqori iqtisodiy zarar salohiyatiga ega ekanligini tasdiqlaydi hamda

zararkunandalarni muntazam monitoring qilish va integratsiyalashgan kurash choralarini ishlab chiqish zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: *g‘o‘za, Lepidoptera, Noctuidae, Agrotis, Helicoverpa armigera, agrotsenoz, Ulug‘nor, taksonomiya*.

KIRISH

G‘o‘za O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining muhim ekinlaridan biri bo‘lib, uning hosildorligini oshirish va sifatli mahsulot yetishtirishda zararkunandalarga qarshi samarali kurash muhim ahamiyatga ega. G‘o‘za agrotsenozlarida uchraydigan hasharotlar orasida tangachaqanotlilar (Lepidoptera) turkumiga mansub zararkunandalar alohida o‘rin tutadi. Ular o‘simlikning bargi, g‘unchasi, guli va ko‘sagiga zarar yetkazib, hosilning sezilarli darajada kamayishiga sabab bo‘ladi [8].

Tangachaqanotlilar turkumi qishloq xo‘jalik ekinlarining eng muhim zararkunanda guruhlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tunlamlar oilasi (Noctuidae) vakillari polifagligi, yuqori moslashuvchanligi va keng tarqalganligi bilan ajralib turadi. Ularning ko‘pchilik turlari g‘o‘za, makkajo‘xori, sabzavot-poliz va boshqa qishloq xo‘jalik ekinlariga zarar yetkazadi [10].

G‘o‘za agroekotizimlarida uchraydigan eng xavfli zararkunandalardan biri g‘o‘za tunlami – *Helicoverpa armigera* (Hübner) hisoblanadi. Ushbu tur dunyoning ko‘plab mamlakatlarida tarqalgan bo‘lib, 200 dan ortiq o‘simlik turlarida oziqlanishi qayd etilgan. Zararkunandaning yuqori reproduktiv salohiyati va migratsion xususiyatlari uning iqtisodiy zararini yanada oshiradi [1,3]. Shuningdek, kuzgi tunlam – *Agrotis segetum* Denis et Schiffermüller ham g‘o‘za agrotsenozlarida keng tarqalgan bo‘lib, yosh nihollar va vegetativ organlarga zarar yetkazadi [10].

Noctuidae oilasiga mansub turlarning tur tarkibini aniqlash, ularning fenologiyasi, tarqalishi va ekologik xususiyatlarini o‘rganish zamonaviy entomologiyaning dolzarb masalalaridan biridir. Chunki zararkunandalarning tur tarkibi va son dinamikasi

haqidagi ma’lumotlar monitoring tizimini takomillashtirish hamda integratsiyalashgan himoya choralarini ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi [2,7].

So‘nggi yillarda agroekotizimlarda bioxilma-xillikni saqlash va zararkunandalarni ekologik xavfsiz boshqarish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu sababli g‘o‘za agrotsenozlarida uchraydigan tangachaqanotlilar faunasini o‘rganish, ularning taksonomik tarkibini aniqlash va xo‘jalik ahamiyatini baholash ilmiy hamda amaliy jihatdan muhim hisoblanadi[4,9].

Mazkur tadqiqotning maqsadi g‘o‘za agrotsenozlarida uchraydigan Lepidoptera vakillarining tur tarkibini aniqlash, ularning taksonomik tahlilini amalga oshirish hamda asosiy zararkunanda turlarning agrotsenozdagi ahamiyatini baholashdan iborat.

MATERIALLAR VA USULLAR

Tadqiqotlar 2025–2026-yillar davomida Andijon viloyati Ulug‘nor tumani Duduq, Fayzobod, Sariqsuv, Oq oltin, Mingbuloq va Nurobod qishloqlari hududlarida joylashgan fermer xo‘jaliklarining g‘o‘za ekilgan maydonlarida olib borildi (1-jadval).

1-jadval

Tadqiqot olib borilgan hududlar koordinatalari

	Tadqiqot hududlari	Koordinata	
		N	E
1	Ulug‘nor tumani Duduq qishlog‘i	40°51'04.1"	71°38'21.2"
2	Ulug‘nor tumani Fayzobod qishlog‘i	40°50'56.5"	71°45'15.5"
3	Ulug‘nor tumani Sariqsuv qishlog‘i	40°46'48.5"	71°43'18.5"
4	Ulug‘nor tumani Oq oltin qishlog‘i	40°44'55.0"	71°39'12.4"
5	Ulug‘nor tumani Mingbuloq qishlog‘i	40°50'36.1"	71°40'44.8"
6	Ulug‘nor tumani Nurobod qishlog‘i	40°49'43.6"	71°46'19.6"

Tadqiqotlar davomida g‘o‘za agrotsenozida uchraydigan tunlam kapalaklari va ularning lichinkalari erta bahordan (mart oyidan) kuz faslining o‘rtalarigacha muntazam ravishda yig‘ib borildi. Hasharotlarni yig‘ishda turli entomologik usullar qo‘llanildi.

Kapalaklarni yig‘ish uchun asosan DRL-250 simob bug‘li lampalari yordamida yorug‘likka jalb qilish usuli qo‘llanildi. Dala kuzatuvlari vegetatsiya davri davomida doimiy kuzatuv nuqtalarida har 7–10 kunda, marshrutlar bo‘yicha esa oyiga 2–3 marotaba amalga oshirildi.

Agrotsenozdan yig‘ilgan kapalak namunalarini tur darajasida aniqlashda morfologik identifikatsiya usullaridan foydalanildi. Olingan natijalar asosida ehtimoliy turlar saralanib, ularning morfologik tavsiflari ilmiy manbalar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Identifikatsiya jarayonida qanot rangi, naqshlar, tana segmentlari tuzilishi, morfometrik o‘lchamlar hamda qanot tomirlanishiga alohida e’tibor qaratildi. Turlarni aniqlashda tangachaqanotlilar uchun maxsus aniqlagichlar, xalqaro elektron kataloglar hamda atlaslardan foydalanildi.

G‘o‘za agrotsenozida hasharotlar populyatsiyasini miqdoriy baholashda transekt va kvadrat usullaridan foydalanildi. Transekt usuli dala maydonini ma’lum yo‘nalishda kesib o‘tuvchi chiziq bo‘ylab kuzatish asosida amalga oshirildi. Belgilangan masofa oralig‘ida (5–10 m) to‘xtab, o‘simliklar vizual tekshirildi yoki entomologik tarmoq yordamida namunalar yig‘ildi. Kvadrat usulida esa 0,25 m² yoki 1 m² o‘lchamdagi maydonchalar ajratilib, ulardagi hasharotlar to‘liq hisobga olindi. Turlarni aniqlash jarayonida taksonomik kalitlar va morfometrik mezonlar muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, V.A. Megolev tomonidan tuzilgan “Dala zararkunandalarini aniqlash qo‘llanmasi” hamda Sh.T. Xo‘jaev va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan uslubiy qo‘llanmalar asosiy manba sifatida ishlatildi. Morfometrik tahlilda esa tana o‘lchamlari, qanot tuzilishi va tashqi morfologik belgilar asosiy diagnostik mezon sifatida qo‘llanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqotlar natijasida Andijon viloyati Ulug‘nor tumani g‘o‘za agrotsenozlaridan yig‘ilgan tangachaqanotlilar (Lepidoptera) vakillari Noctuidae oilasiga mansub ekanligi aniqlandi. Umumiy hisobda 15 tur, 14 avlod, 6 triba va 4 kenja oila (Heliothinae, Noctuinae, Plusiinae, Acronictinae) qayd etildi (1-rasm).

Turlar tarkibi bo‘yicha Noctuinae kenja oilasi eng ko‘p vakillikka ega bo‘lib, agrotsenoz sharoitida keng tarqalganligi bilan ajralib turdi. Bu holat mazkur kenja oilaga mansub turlarning ekologik plastiklik darajasi yuqoriligi va turli agroekologik sharoitlarga tez moslashishi bilan izohlanadi.

Avlodlar tahlili natijalariga ko‘ra, *Agrotis* avlodi dominant hisoblanib, u ikki tur (*Agrotis segetum* va *Agrotis exclamationis*) bilan ifodalandi. Qolgan avlodlar esa faqat bittadan tur bilan qayd etildi. Bu holat g‘o‘za agrotsenozida aynan *Agrotis* avlodiga mansub turlar uchun oziqlanish va rivojlanish sharoitlari nisbatan qulay ekanligini ko‘rsatadi.






JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026














Aniqlangan turlar orasida iqtisodiy jihatdan eng muhim zararkunandalar sifatida *Agrotis segetum*, *Agrotis exclamationis* va *Helicoverpa armigera* ajralib chiqdi. *Agrotis* avlodiga mansub turlar asosan nihol va yosh o‘simliklarning ildiz bo‘g‘zi hamda pastki qismi bilan oziqlanib, ekin siyraklashishiga olib keladi. Bu esa hosildorlikning sezilarli kamayishiga sabab bo‘ladi.

Helicoverpa armigera esa generativ organlar - shona, gul va ko‘saklar bilan oziqlanib, g‘o‘za hosilining bevosita nobud bo‘lishiga olib keladi. Ushbu turning yuqori polifagligi va migratsion xususiyati uning agrotsenozlarda barqaror saqlanib qolishiga imkon yaratadi.

Tadqiqot hududlarida (Duduq, Fayzobod, Sariqsuv, Oq oltin, Mingbuloq va Nurobod) turlar tarkibining nisbatan o‘xshashligi qayd etildi. Biroq ayrim hududlarda zararkunanda turlar soni va uchrash chastotasida farqlar kuzatildi. Bu farqlar asosan agrotexnik sharoitlar, sug‘orish tizimi va o‘simlik qoplami zichligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Olingan natijalar O‘zbekiston va Markaziy Osiyo hududlarida olib borilgan ilgari tadqiqotlar bilan mos keladi, unda ham Noctuidae oilasi g‘o‘za agrotsenozlarining asosiy zararkunanda kompleksi sifatida qayd etilgan (Zalucki et al., 2007; CABI, 2022). Shu bilan birga, Ulug‘nor tumani sharoitida *Agrotis* avlodining ustunligi hududning tuproq-iqlim xususiyatlari va agrotsenoz strukturasiga bog‘liq ekanligi bilan izohlanadi. Umuman olganda, Ulug‘nor tumani g‘o‘za agrotsenozida zararkunanda tangachaqanotlilarining nisbatan boy tur tarkibi aniqlangan bo‘lib, ularning bir qismi yuqori iqtisodiy zarar keltiruvchi turlar hisoblanadi. Bu esa ushbu hududda muntazam monitoring olib borish va integratsiyalashgan zararkunandalarga qarshi kurash tizimini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

XULOSA

Ulug‘nor tumani g‘o‘za agrotsenozida olib borilgan tadqiqotlar natijasida Noctuidae oilasiga mansub 15 turdagi zararkunanda tangachaqanotlilar aniqlandi. Ular 4 ta kenja oila, 6 ta triba va 14 ta avlodga mansub bo‘lib, agrotsenozda nisbatan barqaror tur tarkibini tashkil etadi.

Turlar tarkibi bo‘yicha Noctuinae kenja oilasi eng yuqori xilma-xillik bilan ajralib chiqdi, bu esa uning vakillarining keng ekologik moslashuvchanligi bilan izohlanadi. Avlodlar ichida *Agrotis* avlodi dominant bo‘lib, u g‘o‘za agrotsenozining eng muhim zararli komponentlaridan biri ekanligi aniqlandi.

Iqtisodiy jihatdan eng muhim zararkunandalar sifatida *Agrotis segetum*, *Agrotis exclamationis* va *Helicoverpa armigera* qayd etildi. Ushbu turlar g‘o‘zaning vegetativ va generativ organlariga zarar yetkazib, hosildorlikning sezilarli kamayishiga sabab bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari Ulug‘nor tumani g‘o‘za agrotsenozida zararkunanda tangachaqanotlilar kompleksining shakllanganligini ko‘rsatdi. Aniqlangan turlar tarkibi va ularning ekologik xususiyatlari ushbu hududda muntazam monitoring olib borish zarurligini asoslaydi.

Olingan ma’lumotlar g‘o‘za agrotsenozida integratsiyalashgan zararkunandalarga qarshi kurash tizimini ishlab chiqish va takomillashtirishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.CABI. *Helicoverpa armigera* (Cotton bollworm) Datasheet. – Wallingford: CAB International. – Murojaat sanasi: 15.05.2026.

2. Dent D. *Insect Pest Management*. – Wallingford: CABI Publishing, 2000. – 410 p.

3. Fitt G.P. The ecology of *Helicoverpa* species in relation to agroecosystems // *Annual Review of Entomology*. – 1989. – Vol. 34. – P. 17–52.

4.G‘aniyev M.M., Xolmatov B.X. *Qishloq xo‘jalik ekinlarini biologik himoya qilish*. – Toshkent: Mehnat, 2000. – 216 b.

5.Kononenko V.S. *Noctuidae Sibiricae*. Vol. 1. – Sorø: Entomological Press, 2005. – 243 p.

6.Matthews G.A., Tunstall J.P. *Insect Pests of Cotton*. – Wallingford: CAB International, 1994. – 593 p.

7.Pedigo L.P., Rice M.E. *Entomology and Pest Management*. – 6th ed. – New York: Pearson Education, 2009. – 784 p.

8.Xo‘jaev Sh.T. *Entomologiya, qishloq xo‘jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari*. – Toshkent: Fan, 2014. – 536 b.

9.Xo‘jaev Sh.T. *Umumiy va qishloq xo‘jalik entomologiyasi hamda uyg‘unlashgan himoya qilish tizimining asoslari*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 615 b.

10.Yaxontov V.V. *Sredneaziatskiye vrediteli selskoxozyaystvennix kultur i meri borbi s nimi*. – Tashkent: FAN, 1962. – 695 s.

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

LITERARY AND DIDACTIC TEXTS AS A MEANS OF DEVELOPING METACOGNITION IN PRESCHOOL CHILDREN (A METHODOLOGICAL ASPECT OF TEACHER TRAINING)

Karimova G.B.
Lecturer, Fergana State University
Bilolova M.H.
Third-Year Student, Fergana State University
Abdulboriyeva H.B.
Third-Year Student, Fergana State University

Annotation

The article addresses the methodological aspect of preparing future preschool teachers to work with literary and didactic texts in a way that fosters metacognitive skills in senior preschool children. The metacognitive potential of two text types is examined: the literary text supports the development of prediction, reflection, and self-regulation through engagement with the plot and identification with characters; the didactic text makes cognitive strategies explicit and brings them to the level of conscious use. A set of methodological techniques for working with text is described — «think-aloud», prediction, metacognitive questions, reading stops — and content priorities for teacher training in the Uzbek–Russian bilingual educational environment are defined. The conclusion is that purposeful selection of textual material and command of methods of its problematization constitute a key competence of the modern preschool teacher.

Keywords

metacognition, metacognitive skills, preschool age, literary text, didactic text, teacher training, preschool methodology, bilingual environment.

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ И ДИДАКТИЧЕСКИЙ ТЕКСТ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ МЕТАПОЗНАНИЯ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА (МЕТОДИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ПОДГОТОВКИ ВОСПИТАТЕЛЕЙ)

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

Каримова Г.Б. преподаватель *ФерГУ*
Билолова М.Х. студентка 3-го курса ФерГУ
Абдулбориева Х.Б студентка 3-го курса ФерГУ
guzalasamsutdinova1803@gmail.com

Аннотация. Статья посвящена методическому аспекту подготовки будущих воспитателей дошкольных образовательных организаций к работе с художественным и дидактическим текстом, направленной на развитие метакогнитивных навыков у детей старшего дошкольного возраста. Раскрывается метакогнитивный потенциал двух типов текста: художественный обеспечивает развитие прогнозирования, рефлексии и саморегуляции через переживание сюжета и идентификацию с персонажем; дидактический позволяет эксплицитно демонстрировать познавательные стратегии и доводить их до уровня осознанного использования. Описывается комплекс методических приёмов работы с текстом («думаем вслух», прогнозирование, метакогнитивные вопросы, остановки по ходу чтения) и определяются содержательные ориентиры профессиональной подготовки воспитателей в условиях узбекоязычно-русскоязычной образовательной среды. Делается вывод о том, что целенаправленный отбор текстового материала и владение методиками его проблематизации представляют собой ключевую компетенцию современного воспитателя.

Ключевые слова: метапознание, метакогнитивные навыки, дошкольный возраст, художественный текст, дидактический текст, подготовка воспитателей, методика дошкольного образования, билингвальная среда.

Введение

Понимание того, что обучение в раннем возрасте должно быть нацелено не только на накопление знаний, но и на формирование познавательной самостоятельности ребёнка, последовательно укрепляется в мировой и отечественной педагогике дошкольного образования. В соответствии с

государственным учебным планом «Илк қадам», действующим в Республике Узбекистан, центральной задачей дошкольного учреждения провозглашается развитие любознательности, инициативности и способности ребёнка к осмыслению собственного опыта [1: 12]. В этой логике особую значимость приобретает понятие метапознания — комплекса знаний и регулятивных умений, позволяющих субъекту отслеживать, оценивать и направлять собственные познавательные процессы.

Хотя метакогнитивные исследования традиционно ассоциировались со школьным и студенческим возрастом, последние два десятилетия дали убедительные доказательства того, что начала метапознания формируются значительно раньше — уже в старшем дошкольном возрасте [2: 437]. Д. Уайтбред и его сотрудники зафиксировали проявления метакогнитивных стратегий у детей четырёх–шести лет в условиях игры, конструктивной и речевой деятельности, что заставляет пересмотреть представление о «слишком раннем» характере подобной работы. Из этого следует прямой методический вывод: дошкольный возраст не противопоказан, а напротив, является сензитивным периодом для целенаправленного, мягкого по форме введения ребёнка в практику осознанного познания.

Особая роль в решении этой задачи принадлежит работе с текстом. Художественный и дидактический тексты, традиционно рассматриваемые в дошкольной педагогике порознь, при системном сочетании обеспечивают разностороннее воздействие на формирующуюся метакогнитивную сферу ребёнка. Однако сама эта возможность остаётся методически недостаточно проработанной — особенно применительно к подготовке воспитателей, которым предстоит организовывать соответствующую работу. Опрос студентов педагогического института, проведённый в рамках подготовительного этапа данного исследования, показал, что значительная часть будущих специалистов

располагает интуитивным представлением о пользе чтения, но затрудняется сформулировать, какие именно познавательные процессы и какими средствами развиваются в ходе работы с текстом.

Цель настоящей статьи — определить методические основания подготовки будущих воспитателей к использованию художественного и дидактического текста как средства развития метапознания у детей старшего дошкольного возраста. Задачи: раскрыть метакогнитивный потенциал каждого из двух типов текста; систематизировать методические приёмы работы с ними; обозначить содержательные ориентиры профессиональной подготовки воспитателя в условиях двуязычной образовательной среды.

Материалы и методы

Материалом исследования послужили: нормативные документы дошкольного образования Республики Узбекистан (государственный учебный план «Илк қадам»); психолого-педагогическая литература по теории метапознания (работы Дж. Флейвелла, А. Браун, Д. Уайтбреда, Л.С. Выготского); методические разработки в области работы с детским текстом; корпус художественных и дидактических текстов, рекомендованных для старшего дошкольного возраста, включая узбекские народные сказки и адаптированные русскоязычные тексты, используемые в билингвальных группах.

Использовался комплекс методов: теоретический анализ психолого-педагогической и методической литературы; концептуальный анализ понятий «метапознание», «художественный текст», «дидактический текст»; сравнительно-сопоставительный анализ методических приёмов; педагогическое наблюдение за работой студентов-практикантов в группах ДОО. Результаты исследования имеют преимущественно теоретико-методический характер и направлены на оптимизацию содержания дисциплин методического цикла в подготовке будущих воспитателей.

Результаты исследования

Метакогнитивный потенциал художественного текста. Художественный текст обращён к ребёнку прежде всего через эмоциональное переживание и идентификацию с персонажем. Именно это, на первый взгляд «не-когнитивное» начало и обеспечивает уникальную возможность развития метакогнитивных умений в дошкольном возрасте. Следя за судьбой героя, ребёнок естественным образом включается в процессы прогнозирования (*«Что будет дальше?»*), оценки (*«Правильно ли поступил герой?»*), мысленного моделирования альтернатив (*«А если бы он сделал иначе?»*). Все эти операции по своей структуре являются метакогнитивными: ребёнок не просто следит за действием, но и осознанно соотносит его с собственными представлениями о возможном.

Особую ценность здесь имеет именно сказочный материал — как русский, так и узбекский. Сказка с её повторяющейся структурой, предсказуемой моралью и устойчивыми типажами создаёт «защищённое пространство», в котором ребёнок может рисковать своими предположениями, не боясь ошибиться. Узбекские народные сказки и дидактические жанры (*ҳикмат*, *масал*) обладают в этом отношении мощным культурно-педагогическим потенциалом, до сих пор недостаточно освоенным методикой [3: 78]. Их включение в работу не только формирует метакогнитивные умения, но и обеспечивает преемственность с национальной культурной традицией.

Метакогнитивный потенциал дидактического текста. В отличие от художественного, дидактический текст работает иначе: он эксплицитно демонстрирует ребёнку способы рассуждения, наблюдения, классификации. Если в художественном тексте познавательные стратегии «упакованы» в сюжет, то в дидактическом они выведены на поверхность и становятся объектом прямого освоения. Описание простого опыта, рассказ о свойствах предметов,

познавательная история о животном — всё это даёт педагогу возможность показать ребёнку, *как* думают, наблюдают, делают вывод.

При этом дидактический текст в дошкольном возрасте требует особой методической деликатности: лишённый эмоциональной включённости, он способен превратиться в монотонное информирование. Задача воспитателя — сохранить тон диалога, прерывать чтение проблемными вопросами, опираться на собственный опыт ребёнка. Только при таком подходе дидактический текст начинает «работать» на метапознание, а не подменять его передачей готовых знаний.

Принципы сочетания двух типов текста. Анализ методической литературы и собственных наблюдений позволяет сформулировать несколько принципов, обеспечивающих продуктивную координацию работы с художественным и дидактическим текстами в дошкольной образовательной организации.

Принцип взаимодополнения: художественный и дидактический тексты не конкурируют, а развивают разные стороны метапознания — соответственно эмоционально-прогностическую и аналитико-рефлексивную. Принцип тематической связности: при подборе материала желательно выстраивать «текстовые гнёзда», в которых художественный и дидактический тексты объединены общей темой (например, сказка о трудолюбивой пчеле и познавательный текст о жизни пчёл). Принцип постепенного усложнения: метакогнитивные требования к ребёнку должны нарастать соразмерно его возможностям — от простого предположения о финале сказки до развёрнутой устной рефлексии о собственном понимании прочитанного [4: 95].

Методические приёмы работы с текстом. В практике дошкольного образования может быть применён ряд приёмов, доказавших свою эффективность в международных исследованиях детского метапознания и адаптируемых к условиям узбекской ДОО: приём *«думаем вслух»*, при котором воспитатель

проговаривает собственный мыслительный процесс по ходу чтения, тем самым моделируя стратегии понимания; прогнозирование по обложке, иллюстрации, заголовку, формирующее у ребёнка умение строить гипотезы и сверять их с текстом; метакогнитивные вопросы (*«Как ты догадался?», «Что помогло тебе понять?», «Какое место в сказке было самым непонятным?»*), смещающие фокус с содержания на сам процесс понимания; «остановки» по ходу чтения, превращающие монологическое чтение в совместный анализ; сопоставление двух текстов о близких событиях с обсуждением различий — приём, особенно продуктивный в билингвальной среде, где ребёнок имеет дело с текстами на двух языках.

Содержание подготовки воспитателей. Методическая работа со студентами педагогического института должна, по нашему убеждению, строиться вокруг трёх содержательных блоков. Первый — теоретико-понятийный: будущий воспитатель должен владеть базовыми представлениями о структуре метапознания, его возрастных особенностях и связи с понятием зоны ближайшего развития, введённым Л.С. Выготским [5: 144]. Второй — текстоведческий: студент должен уметь анализировать текст с точки зрения его метакогнитивного потенциала, видеть в нём «точки проблематизации», уметь подобрать пару «художественный — дидактический». Третий — собственно методический: освоение приёмов работы с текстом не на уровне списка, а на уровне практической готовности применить их в работе с группой. Связующим звеном между этими блоками выступает педагогическая практика, в ходе которой студент учится наблюдать, как именно работает текст в реальной коммуникации с детьми.

Обсуждение

Полученные результаты позволяют поставить вопрос об уточнении самой методической логики дошкольного образования в части работы с текстом. Долгое время эта работа строилась вокруг двух полюсов — эстетического переживания

(для художественного текста) и информирования (для дидактического). Введение метакогнитивной перспективы превращает оба типа текста в инструменты развития мышления — но не за счёт отказа от их прежних функций, а через их обогащение.

Существенно, что подобная переориентация хорошо согласуется с культурно-исторической теорией Л.С. Выготского, чей тезис о том, что высшие психические функции возникают сначала в совместной деятельности и лишь затем интериоризуются, получает прямое методическое подтверждение [6: 87]. Совместное проговаривание сюжета, обсуждение прогнозов, реконструкция «трудного места» — это и есть та самая интерпсихическая фаза, на которой будущий внутренний контроль ребёнка над собственным пониманием берёт своё начало.

Особое значение представленный подход приобретает в условиях двуязычной образовательной среды Узбекистана. Опыт работы с текстом на двух языках сам по себе является мощным катализатором метакогнитивного развития: ребёнок постоянно сталкивается с задачей выбора стратегии понимания, сравнения языковых форм, осознания собственных трудностей. Будущий воспитатель в этих условиях должен быть готов не только к работе с текстом как таковым, но и к управлению переходами между языками — а это требует особой методической компетентности, которая пока недостаточно отражена в учебных программах вузов.

Следует, однако, оговориться: метакогнитивный подход не сводит дошкольное образование к «обучению думать». Дошкольный возраст имеет собственную ценность, и работа с текстом — это прежде всего радость встречи ребёнка со словом. Метакогнитивная составляющая встраивается в эту радость, не подменяя её, а делая более глубокой и осмысленной. Задача воспитателя —

удержать этот баланс между переживанием и рефлексией, между свободным восприятием и направленным анализом.

Заключение

Проведённое исследование позволяет утверждать, что художественный и дидактический тексты при их методически выверенном сочетании представляют собой эффективное средство развития метапознания у детей старшего дошкольного возраста. Каждый из двух типов текста обладает собственным метакогнитивным потенциалом: художественный — в обеспечении прогнозирования, эмоциональной идентификации и рефлексии; дидактический — в эксплицитной демонстрации познавательных стратегий. Их продуктивная координация в работе ДОО возможна при условии профессиональной готовности воспитателя, формируемой в системе высшего педагогического образования.

Подготовка будущих воспитателей в этой связи должна включать теоретико-понятийный, текстоведческий и методический блоки, скреплённые продуманной педагогической практикой. Дальнейшие перспективы исследования связаны с разработкой и экспериментальной апробацией программы повышения метакогнитивной компетентности студентов педагогических вузов Узбекистана, а также с углублённым изучением специфики работы с текстом в условиях узбекоязычно-русскоязычной образовательной среды.

Литература:

1. Государственный учебный план дошкольного образования «Илк қадам». — Ташкент: Министерство дошкольного образования Республики Узбекистан, 2018. — 128 с.

2. Whitebread D. The development of metacognition and self-regulation in young children: The role of collaborative and peer-assisted learning // Journal of Cognitive Education and Psychology. — 2009. — Vol. 8, № 3. — P. 433–455.

3. Сафаров О. Узбекское народное устное творчество. — Ташкент: Мусика, 2010. — 384 с.

4. Стародубова Н.А. Теория и методика развития речи дошкольников. — М.: Академия, 2012. — 256 с.

5. Выготский Л.С. Мышление и речь. — М.: Лабиринт, 1999. — 352 с.

6. Выготский Л.С. Педагогическая психология. — М.: Педагогика-Пресс, 1999. — 536 с.

7. Flavell J.H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry // American Psychologist. — 1979. — Vol. 34, № 10. — P. 906–911.

8. Brown A.L. Metacognition, executive control, self-regulation, and other more mysterious mechanisms // Metacognition, motivation, and understanding / Ed. by F.E. Weinert, R.H. Kluwe. — Hillsdale, NJ: Erlbaum, 1987. — P. 65–116.

9. Гербова В.В. Развитие речи в детском саду: для занятий с детьми 5–6 лет. — М.: Мозаика-Синтез, 2019. — 144 с.

10. Запорожец А.В. Психология действия. — М.: МПСИ; Воронеж: МОДЭК, 2000. — 736 с.

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

MODELING FIRE SPREAD IN MULTI-STORY BUILDINGS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND OPTIMIZING EVACUATION STRATEGIES

Boboqulov Ozodbek Rustam o‘g‘li
Academy of the Ministry of Emergency Situations
E-mail: buxorokogon0809@gmail.com

Abstract:

This article examines the issues of modeling fire spread in multi-story buildings using artificial intelligence technologies and optimizing evacuation strategies. During the study, an evacuation model based on artificial neural networks, fire risk indices, and AI algorithms was developed. The proposed model enables the prediction of fire development, identification of hazardous areas, and guidance of occupants toward the safest evacuation routes. Simulation results demonstrate that the use of AI-based systems can reduce evacuation time, minimize congestion, and improve the efficiency of emergency management. The findings of this research have significant practical importance for the modernization of fire safety systems and the advancement of smart building concepts.

Keywords. artificial intelligence, fire safety, evacuation, multi-story buildings, neural networks, AI algorithms, emergency situations.

KO‘P QAVATLI BINOLARDA YONG‘IN TARQALISHINI SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA MODELLASHTIRISH VA EVAKUATSIYA STRATEGIYALARINI OPTIMALLASHTIRISH

Boboqulov Ozodbek rustam o‘g‘li
Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi
E-mail:buxorokogon0809@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ko‘p qavatli binolarda yong‘in tarqalishini sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida modellashtirish va evakuatsiya strategiyalarini

optimallashtirish masalalari o‘rganilgan. Tadqiqot davomida sun’iy neyron tarmoqlar, yong‘in xavfi indekslari va AI algoritmiga asoslangan evakuatsiya modeli ishlab chiqildi. Taklif etilgan model yong‘inning rivojlanishini prognozlash, xavfli hududlarni aniqlash hamda insonlarni eng xavfsiz evakuatsiya yo‘nalishlariga yo‘naltirish imkonini beradi. Simulyatsiya natijalari AI asosidagi tizimlardan foydalanish evakuatsiya vaqtini qisqartirish, tirbandliklarni kamaytirish va favqulodda vaziyatlarni boshqarish samaradorligini oshirishini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari yong‘in xavfsizligi tizimlarini modernizatsiya qilish hamda aqlli binolar konsepsiyasini rivojlantirishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, yong‘in xavfsizligi, evakuatsiya, ko‘p qavatli binolar, neyron tarmoqlar, AI algoritmi, favqulodda vaziyatlar.

1.Kirish

Dunyo miqyosida urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi natijasida ko‘p qavatli turar joy va ma’muriy binolar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Bunday binolar aholi uchun qulay yashash va faoliyat yuritish sharoitlarini yaratishi bilan birga, favqulodda vaziyatlar, ayniqsa yong‘in sodir bo‘lganda murakkab xavfsizlik muammolarini yuzaga keltiradi.

Ko‘p qavatli binolarda yong‘inning asosiy xavfi olovning o‘zi emas, balki tutun va zaharli gazlarning tez tarqalishidir. Yong‘in vaqtida insonlarning aksariyati tutundan zaharlanish oqibatida jabrlanadi. Shu sababli yong‘inning rivojlanishini oldindan prognoz qilish va optimal evakuatsiya strategiyalarini ishlab chiqish favqulodda vaziyatlarni boshqarishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

An’anaviy yong‘in xavfsizligi tizimlari ko‘pincha oldindan belgilangan algoritmlar asosida ishlaydi. Biroq yong‘in rivojlanishining dinamik xarakterga ega ekanligi, tutun tarqalishi, odamlar oqimining o‘zgarishi va konstruktiv elementlarning ta’siri real vaqt rejimida tahlil qilinishi zarurligini ko‘rsatadi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ushbu muammoni yangi bosqichda

hal qilish imkonini bermoqda. Mashinaviy o‘qitish va neyron tarmoqlar katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash orqali yong‘in tarqalishining ehtimoliy ssenariylarini prognoz qilishi hamda eng xavfsiz evakuatsiya yo‘nalishlarini aniqlashi mumkin.

Mazkur tadqiqotning maqsadi ko‘p qavatli binolarda yong‘in tarqalishini sun’iy intellekt yordamida modellashtirish va evakuatsiya strategiyalarini optimallashtirishdan iborat.

2.Adabiyotlar tahlili

Yong‘in xavfsizligini ta’minlash va favqulodda vaziyatlarni boshqarish sohasida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha so‘nggi yillarda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Raqamli texnologiyalar, IoT qurilmalari va mashinaviy o‘qitish algoritmlarining rivojlanishi yong‘in xavfini oldindan baholash hamda favqulodda vaziyatlarga tezkor javob qaytarish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi.

Kim va Lee (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda IoT texnologiyalari asosida yaratilgan aqlli monitoring tizimlari yong‘in xavfini real vaqt rejimida aniqlash imkonini berishi ko‘rsatib berilgan. Tadqiqotchilar harorat, tutun va gaz sensorlaridan olingan ma’lumotlarni sun’iy intellekt algoritmlari yordamida qayta ishlash orqali yong‘inning dastlabki bosqichlarini aniqlash mumkinligini ta’kidlaganlar.

Zhang va hamkorlari (2022) konvolyutsion neyron tarmoqlar (CNN) asosida yong‘inni tasvirlar orqali aniqlash tizimini ishlab chiqqanlar. Tadqiqot natijalari tasvirlarni avtomatik tahlil qilish orqali yong‘inni yuqori aniqlik bilan aniqlash mumkinligini ko‘rsatgan.

Wang va hamkorlari (2023) mashinaviy o‘qitish algoritmlarining yong‘in xavfini baholashdagi samaradorligini o‘rganganlar. Ularning tadqiqotida Random Forest, XGBoost va neyron tarmoqlar yordamida yong‘in xavfi darajasini prognozlashning yuqori aniqlik ko‘rsatkichlariga erishilgan.

Li, Huang va Xu (2024) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda sun’iy intellektning aqlli

yong‘in profilaktikasi tizimlaridagi o‘rni tahlil qilingan. Mualliflar AI texnologiyalarining yong‘inlarning oldini olish, xavfni baholash va favqulodda vaziyatlarni boshqarishdagi imkoniyatlarini yoritib berganlar.

Liu va Zhao (2024) esa Explainable Artificial Intelligence (XAI) yondashuvlari yordamida yong‘in xavfini tasniflash bo‘yicha tadqiqot olib borib, qaror qabul qilish jarayonining shaffofligini oshirish mumkinligini isbotlaganlar.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarning katta qismi yong‘inni aniqlash yoki xavfni baholash masalalariga qaratilgan. Ko‘p qavatli binolarda yong‘in tarqalishini prognozlash va evakuatsiya strategiyalarini optimallashtirishni yagona tizim sifatida ko‘rib chiqadigan ilmiy ishlar soni nisbatan kam. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, yong‘in prognozi va evakuatsiya boshqaruvini birlashtiruvchi kompleks AI modelini taklif etadi.

3.Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida ko‘p qavatli binolarda yong‘in tarqalishini modellashtirish va evakuatsiya strategiyalarini optimallashtirish uchun kompleks yondashuv ishlab chiqildi. Tadqiqot obyekti sifatida 20 qavatli zamonaviy turar joy binosining virtual modeli yaratildi.

Model tarkibiga quyidagi elementlar kiritildi:

- turar joy xonalari;
- koridorlar;
- evakuatsiya yo‘laklari;
- zinapoya maydonchalari;
- lift shaxtalari;
- ventilyatsiya tizimlari;
- yong‘inga qarshi himoya vositalari.

Yong‘in tarqalishiga ta’sir qiluvchi asosiy parametrlar sifatida harorat, tutun zichligi, kislorod konsentratsiyasi, ventilyatsiya tezligi hamda qurilish materiallarining

yong‘inga chidamlilik ko‘rsatkichlari tanlandi.

Tadqiqotda sun’iy neyron tarmoq (Artificial Neural Network – ANN) modelidan foydalanildi. Modelga kiruvchi parametrlar quyidagicha ifodalandi:

$X = \{T, S, O, V, M\}$

bu yerda:

T–harorat ko‘rsatkichi;

S – tutun zichligi;

O – kislorod miqdori;

V – ventilyatsiya tezligi;

M – qurilish materiali tavsifi.

Yong‘in xavfi darajasini baholash uchun Yong‘in Xavfi Indeksi (YXI) ishlab chiqildi:

$YXI = \Sigma(Wi \times Ri)$

bu yerda:

YXI – yong‘in xavfi indeksi;

Wi – omilning og‘irlik koeffitsienti;

Ri – omilning xavf ko‘rsatkichi.

Modelni o‘qitish uchun xalqaro yong‘in statistikasi, ilmiy tadqiqotlar ma’lumotlari va simulyatsiya natijalaridan foydalanildi. Ma’lumotlarning 80 foizi modelni o‘qitish uchun, 20 foizi esa sinov maqsadida ajratildi.

Evakuatsiya marshrutlarini optimallashtirish maqsadida AI algoritmidan foydalanildi. Ushbu algoritm eng qisqa va xavfsiz yo‘lni aniqlash imkonini beradi. Algoritmning maqsad funksiyasi quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$f(n) = g(n) + h(n)$

bu yerda:

g(n) – boshlang‘ich nuqtadan joriy nuqtagacha bo‘lgan masofa;

h(n) – joriy nuqtadan chiqish nuqtasigacha bo‘lgan taxminiy masofa.

Tadqiqot davomida yong‘inning turli ssenariylari modellashtirildi. Jumladan:

- elektr tarmog‘idagi qisqa tutashuv;
- maishiy gaz portlashi;
- koridorda yuzaga kelgan yong‘in;
- texnik xonadagi yong‘in.

Har bir ssenariy bo‘yicha yong‘inning tarqalish tezligi, tutun zichligi, evakuatsiya vaqti va insonlar xavfsizligi ko‘rsatkichlari baholandi.

Taklif etilgan modelning asosiy afzalligi shundaki, u real vaqt rejimida ma’lumotlarni qayta ishlab, evakuatsiya yo‘nalishlarini avtomatik ravishda yangilash imkonini beradi. Bu esa favqulodda vaziyatlar vaqtida insonlar hayotini saqlab qolish ehtimolini oshiradi.

4.AI asosidagi yong‘in tarqalish modeli

Taklif etilgan sun’iy intellekt modeli ko‘p qavatli binolarda yong‘in tarqalishini prognozlash va evakuatsiya jarayonlarini boshqarish uchun ishlab chiqilgan. Model uchta asosiy moduldan tashkil topgan:

1. Yong‘inni prognozlash moduli;
2. Xavfni baholash moduli;
3. Evakuatsiyani optimallashtirish moduli.

Yong‘inni prognozlash moduli binoda o‘rnatilgan sensorlardan olingan ma’lumotlarni qabul qiladi. Harorat, tutun zichligi, kislorod konsentratsiyasi va ventilyatsiya tizimi ko‘rsatkichlari sun’iy neyron tarmoq yordamida qayta ishlanadi.

Neyron tarmoqning chiqish qismida yong‘inning keyingi vaqt oralig‘ida qaysi yo‘nalish bo‘yicha tarqalishi prognoz qilinadi. Ushbu prognoz natijalari asosida binoning xavf xaritasi shakllantiriladi.

Xavf xaritasida har bir hudud quyidagi toifalardan biriga kiritiladi:

- Past xavf;
- O‘rta xavf;

- Yuqori xavf;
- Kritik xavf.

Evakuatsiyani optimallashtirish moduli xavf xaritasidan foydalanib, A* algoritmi yordamida eng xavfsiz marshrutlarni hisoblaydi. Tizim har 5 soniyada yangi ma’lumotlarni qabul qiladi va evakuatsiya yo‘nalishlarini qayta hisoblaydi.

Taklif etilgan modelning ishlash ketma-ketligi quyidagicha:

Sensorlar → Ma’lumotlarni yig‘ish → AI tahlili → Yong‘in prognozi → Xavf xaritasi → AI algoritmi → Optimal evakuatsiya.

Mazkur modelning afzalligi shundaki, u favqulodda vaziyatlarning rivojlanishiga mos ravishda qaror qabul qilish jarayonini avtomatlashtiradi hamda inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni kamaytiradi.

5.Natijalar va muhokama

Taklif etilgan model samaradorligini baholash maqsadida bir nechta simulyatsion tajribalar o‘tkazildi. Tadqiqot davomida elektr tarmog‘idagi qisqa tutashuv, maishiy gaz portlashi va koridorda yuzaga keladigan yong‘in holatlari modellashtirildi.

Har bir ssenariy bo‘yicha yong‘in tarqalish tezligi, tutun zichligi, evakuatsiya davomiyligi hamda odamlarning xavfsiz hududga chiqish ko‘rsatkichlari tahlil qilindi.

Olingan natijalarga ko‘ra, sun’iy intellekt asosidagi model yong‘in rivojlanishini prognozlashda 94,2 foiz aniqlikka erishdi. Bu ko‘rsatkich an’anaviy matematik modellar natijalaridan yuqori ekanligi aniqlandi.

1-jadval

An’anaviy va AI asosidagi evakuatsiya tizimlari samaradorligini taqqoslash

Ko‘rsatkich	An’anaviy tizim	AI asosidagi tizim
Evakuatsiya vaqti	12,6 min	8,8 min
Marshrut aniqligi	79 %	95 %
Tirbandlik darajasi	Yuqori	Past

Ko‘rsatkich	An’anaviy tizim	AI asosidagi tizim
Xavfli hududga kirib qolish holati	16 %	4 %
Prognoz aniqligi	68 %	94,2 %

Jadval natijalaridan ko‘rinib turibdiki, AI tizimi evakuatsiya vaqtini o‘rtacha 30 foizga qisqartirish imkonini bergan. Bundan tashqari, chiqish yo‘laklaridagi tirbandliklar sezilarli darajada kamaygan.

Tadqiqot davomida tutun tarqalishining evakuatsiyaga eng katta ta’sir ko‘rsatadigan omillardan biri ekanligi aniqlandi. Simulyatsiyalar shuni ko‘rsatdiki, yong‘inning dastlabki 10 daqiqasida tutun yuqori qavatlarga tez tarqaladi va insonlar hayoti uchun jiddiy xavf tug‘diradi.

Sun’iy intellekt modeli ushbu xavfni oldindan prognoz qilgan holda evakuatsiya marshrutlarini avtomatik ravishda o‘zgartira oldi. Natijada xavfli hududlarga kirib qolgan insonlar soni 4 foizgacha kamaydi.

Olingan natijalar xalqaro ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan mos keladi va sun’iy intellekt texnologiyalarining favqulodda vaziyatlarni boshqarish tizimlariga integratsiya qilinishi katta samara berishini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tadqiqot davomida AI tizimlarini IoT sensorlari va Digital Twin texnologiyalari bilan integratsiyalash orqali yanada yuqori natijalarga erishish mumkinligi aniqlandi.

6.Xulosa

Mazkur tadqiqotda ko‘p qavatli binolarda yong‘in tarqalishini sun’iy intellekt yordamida modellashtirish va evakuatsiya strategiyalarini optimallashtirish masalalari o‘rganildi. Tadqiqot davomida sun’iy neyron tarmoqlar va AI algoritmiga asoslangan kompleks model ishlab chiqildi hamda uning samaradorligi simulyatsion tajribalar yordamida baholandi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, sun’iy neyron tarmoqlar asosida yaratilgan model yong‘in tarqalishini

prognozlashda yuqori aniqlik ko‘rsatdi. Simulyatsiya natijalariga ko‘ra, modelning prognoz aniqligi 94,2 foizni tashkil etdi.

Ikkinchidan, AI algoritmiga asoslangan evakuatsiya tizimi insonlarni eng xavfsiz va eng qisqa yo‘nalishlar bo‘yicha harakatlantirish imkonini berdi. Natijada evakuatsiya vaqti an’anaviy tizimlarga nisbatan o‘rtacha 30 foizga qisqardi.

Uchinchidan, yong‘in rivojlanishi va tutun tarqalishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash favqulodda vaziyatlarni boshqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi.

To‘rtinchidan, sun’iy intellekt asosidagi yondashuvlardan foydalanish insonlar hayotini saqlab qolish, moddiy zararlarni kamaytirish va qutqaruv xizmatlari faoliyatini yanada samarali tashkil etishga imkon beradi.

Kelgusida tadqiqotni rivojlantirish maqsadida IoT sensorlari, videokuzatuv tizimlari va Digital Twin texnologiyalarini integratsiyalash asosida yanada mukammal modellar yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- Ko‘p qavatli binolarda yong‘in tarqalishini prognozlash uchun sun’iy neyron tarmoqlar asosida yangi konseptual model ishlab chiqildi.
- Yong‘in rivojlanishi va evakuatsiya strategiyalarini yagona sun’iy intellekt platformasida birlashtiruvchi integratsiyalashgan yondashuv taklif etildi.
- AI algoritmi yordamida real vaqt rejimida eng xavfsiz evakuatsiya marshrutlarini aniqlash mexanizmi ishlab chiqildi.
- Yong‘in xavfi darajasini baholash uchun takomillashtirilgan Yong‘in Xavfi Indeksi modeli taklif qilindi.
- Favqulodda vaziyatlarda qaror qabul qilish jarayonini avtomatlashtirish imkonini beruvchi AI arxitekturasi ishlab chiqildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati:

Mazkur tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida, ko‘p qavatli turar joy binolarida, mehmonxonalarda, biznes markazlarida va boshqa yirik obyektlarda yong‘in xavfsizligini ta’minlashda qo‘llanilishi mumkin.

Taklif etilgan model:

- favqulodda vaziyatlarni boshqarish tizimlarini takomillashtirish;
- yong‘in xavfini erta aniqlash;
- evakuatsiya vaqtini qisqartirish;
- qutqaruv ishlarini samarali tashkil etish;
- inson talofatlarini kamaytirish;

imkonini beradi.Tadqiqot natijalari kelajakda Smart Building va Smart City konsepsiyalarini rivojlantirishda ham muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Breiman L. *Random Forests*. Machine Learning. 2001. Vol. 45(1). P. 5–32.
2. Kim S., Lee J. *IoT-enabled smart fire monitoring system for residential environments*. Sensors. 2021. Vol. 21(15). P. 5123–5135.
3. Zhang Y., Wang H., Liu J. *Deep learning-based fire detection and recognition using convolutional neural networks*. Fire Safety Journal. 2022. Vol. 128. P. 103542.
4. Wang X., Chen Y., Zhao L. *Machine learning approaches for fire risk assessment: A comparative study*. Expert Systems with Applications. 2023. Vol. 213. P. 118932.
5. Garcia M., Torres J. *Intelligent risk prediction in smart homes using environmental sensors*. Sustainable Cities and Society. 2022. Vol. 79. P. 103686.
6. Li Z., Huang P., Xu T. *Artificial intelligence applications in smart fire prevention systems: A systematic review*. Safety Science. 2024. Vol. 171. P. 106390.
7. Liu H., Zhao Y. *Explainable artificial intelligence for fire risk classification*. Engineering Applications of Artificial Intelligence. 2024. Vol. 128. P. 107561.

8. Chen L., Zhang X., Liu Q. *Internet of Things-based fire monitoring and early warning framework for residential buildings*. IEEE Access. 2023. Vol. 11. P. 55421–55435.

9. Ronchi E., Nilsson D. *Fire evacuation in high-rise buildings*. Fire Technology. 2022. Vol. 58. P. 1201–1225.

10. Kuligowski E. *Human behavior during building evacuations*. Fire and Materials. 2021. Vol. 45. P. 201–214.

11. Hurley M. *SFPE Handbook of Fire Protection Engineering*. New York: Springer, 2022.

12. International Electrotechnical Commission. *Electrical Installations for Buildings: Safety Requirements*. Geneva: IEC, 2023.

13. National Fire Protection Association. *Electrical Fires Report*. Quincy, Massachusetts: NFPA, 2024.

14. Singh A., Kumar R., Sharma P. *Predictive analytics for residential fire safety using machine learning algorithms*. Journal of Safety Research. 2023. Vol. 86. P. 112–125.

15. Ministry of Emergency Situations of the Republic of Uzbekistan. *Annual Report on Fire Safety and Emergency Statistics in Uzbekistan*. Tashkent, 2024.

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN PRIMARY EDUCATION

Adekova Kunduzoy

Student of Primary Education, Department of Pedagogy and Languages, Tashkent University of Humanities

Abstract

This article analyzes the scientific and theoretical foundations of using artificial intelligence technologies in primary education. The study highlights the potential of artificial intelligence to improve the quality of education, organize learning based on students' individual characteristics, and enhance the monitoring and assessment of learning activities. In addition, the pedagogical significance, advantages, and prospects of integrating artificial intelligence technologies into primary education are examined based on scientific sources. The research findings indicate that the effective use of artificial intelligence tools contributes to increasing the efficiency of the educational process and developing 21st-century skills among students.

Keywords

artificial intelligence, primary education, digital education, adaptive learning, innovative pedagogical technologies, digitalization of education, individual learning trajectory, intelligent tutoring systems, digital competence, 21st-century skills.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Toshkent gumanitar fanlar universiteti Pedagogika va tillar kafedrasi

Boshlang'ich ta'lim talabasi

Adekova Kunduzoy

+998 91 393 07 89

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilingan. Sun’iy intellektning ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’limni tashkil etish, o‘quv faoliyatini monitoring qilish va baholashdagi imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalarini boshlang‘ich ta’limga integratsiya qilishning pedagogik ahamiyati, afzalliklari va istiqbollari ilmiy manbalar asosida tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish va o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, boshlang‘ich ta’lim, raqamli ta’lim, adaptiv ta’lim, innovatsion pedagogik texnologiyalar, ta’limni raqamlashtirish, individual ta’lim trayektoriyasi, intellektual o‘qitish tizimlari, raqamli kompetensiya, XXI asr ko‘nikmalari.

Аннотация: В данной статье анализируются научно-теоретические основы использования технологий искусственного интеллекта в процессе начального образования. Освещаются возможности искусственного интеллекта по повышению качества образования, организации обучения с учетом индивидуальных особенностей учащихся, мониторингу и оценке учебной деятельности. Также на основе научных источников рассматриваются педагогическое значение, преимущества и перспективы интеграции технологий искусственного интеллекта в систему начального образования. Результаты исследования показывают, что эффективное использование инструментов искусственного интеллекта способствует повышению эффективности образовательного процесса и формированию у учащихся навыков XXI века.

Ключевые слова: искусственный интеллект, начальное образование, цифровое образование, адаптивное обучение, инновационные педагогические технологии, цифровизация образования, индивидуальная образовательная

траектория, интеллектуальные обучающие системы, цифровая компетентность, навыки XXI века.

KIRISH

Zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida ta’lim tizimini raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga keng joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Jahon miqyosida ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, ijodiy va tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi, intellektual salohiyati va shaxsiy kompetensiyalarini shakllantirishning muhim davri hisoblanganligi sababli ushbu bosqichda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llashning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda sun’iy intellekt (SI) insonning aqliy faoliyatiga xos bo‘lgan tahlil qilish, o‘rganish, qaror qabul qilish va prognozlash kabi jarayonlarni kompyuter tizimlari orqali amalga oshirish imkonini beruvchi ilg‘or texnologiya sifatida e’tirof etilmoqda. Ta’lim sohasida esa sun’iy intellekt o‘quv jarayonini individuallashtirish, o‘quvchilarning bilim darajasini monitoring qilish, adaptiv ta’lim muhitini yaratish, o‘quv materiallarini avtomatik tavsiya etish hamda pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bois sun’iy intellektning ta’limdagi o‘rni va imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslash bugungi kun pedagogika fanining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi.

Boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishga yordam beradi. Bunday texnologiyalar yordamida har bir o‘quvchi uchun moslashtirilgan topshiriqlar ishlab chiqish, bilimlarni baholashning obyektivligini ta’minlash hamda o‘quv faoliyatidagi bo‘shliqlarni aniqlash imkoniyati yaratiladi. Natijada o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik kuchayib, ta’lim jarayonining samaradorligi ortadi. Pedagogika va ta’lim texnologiyalari sohasida olib

borilgan ilmiy tadqiqotlar sun’iy intellektning ta’limdagi ahamiyatini keng yoritib bermoqda. Xususan, xorijiy olimlardan J. Anderson, R. Baker, S. Russell, P. Norvig, W. Holmes, M. Bialik va C. Fadel sun’iy intellektning ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi, adaptiv ta’lim, intellektual o‘qitish tizimlari va raqamli pedagogika masalalarini tadqiq etganlar. Mahalliy tadqiqotlarda esa ta’limni raqamlashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalar va elektron ta’lim muhitini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Biroq boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodologik asoslarini chuqur tadqiq etish zarurati saqlanib qolmoqda.

Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari, uning pedagogik imkoniyatlari, ta’lim jarayoniga ta’siri hamda o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi ta’lim vositalarini qo‘llashning afzalliklari va istiqbollari ilmiy manbalar asosida yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimiga kirib kelishi XXI asrning eng muhim innovatsion jarayonlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. So‘nggi yillarda sun’iy intellektning ta’limdagi o‘rni, imkoniyatlari va istiqbollari bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Mazkur tadqiqotlar sun’iy intellekt asosidagi ta’lim vositalarining o‘quv jarayonini individuallashtirish, o‘quvchilarning bilimlarini baholash hamda pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatmoqda. Sun’iy intellekt nazariyasining shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan olimlardan S. Russell va P. Norvig sun’iy intellektni insonning aqliy faoliyatiga xos bo‘lgan jarayonlarni modellashtirish va amalga oshirishga qodir tizim sifatida tavsiflaydilar. Ularning fikricha, sun’iy intellekt ta’lim sohasida ma’lumotlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish va o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini aniqlashda samarali vosita hisoblanadi. Ta’limda sun’iy intellektdan foydalanish masalalari W.

Holmes, M. Bialik va C. Fadel tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Ular sun’iy intellekt yordamida adaptiv ta’lim muhitini yaratish, har bir o‘quvchining ehtiyojlariga mos ta’lim strategiyalarini ishlab chiqish va o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish mumkinligini ta’kidlaydilar. Tadqiqotchilar sun’iy intellektning o‘qituvchi faoliyatini almashtirmasligi, balki uni qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida xizmat qilishi lozimligini qayd etadilar. J. Anderson tomonidan ishlab chiqilgan intellektual o‘qitish tizimlari (Intelligent Tutoring Systems) nazariyasi sun’iy intellekt asosidagi ta’lim texnologiyalarining ilmiy asoslaridan biri hisoblanadi. Mazkur tizimlar o‘quvchilarning bilim darajasini doimiy monitoring qilish, xatolarini aniqlash va individual tavsiyalar berish imkonini yaratadi. R. Baker va uning hamkorlari ta’lim analitikasi (Learning Analytics) hamda Educational Data Mining yo‘nalishlarida olib borgan tadqiqotlarida sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini kuzatish va natijalarini prognoz qilish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Ushbu yondashuvlar boshlang‘ich ta’limda ham o‘quvchilarning individual rivojlanish dinamikasini aniqlash imkonini beradi. Mahalliy olimlarning tadqiqotlarida ham ta’limni raqamlashtirish, elektron ta’lim resurslari va innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalalari yoritilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu esa sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslarini yanada rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalari boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish, ta’lim jarayonini individuallashtirish va o‘quvchilarning ta’lim motivatsiyasini kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, boshlang‘ich ta’lim sharoitida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari va metodik jihatlarini yanada chuqurroq o‘rganish dolzarb ilmiy masala bo‘lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganishga qaratilgan nazariy va empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, tizimli yondashuv hamda raqamli pedagogika tamoyillari tashkil etadi. Tadqiqot davomida sun’iy intellekt texnologiyalarining boshlang‘ich ta’limga ta’siri va pedagogik imkoniyatlarini aniqlash maqsadida ilmiy manbalarni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy metodlari sifatida:

ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish;

xorijiy va mahalliy tadqiqotlarni qiyosiy o‘rganish;

pedagogik, psixologik va metodik manbalarni umumlashtirish;

sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limdagi imkoniyatlarini konseptual tahlil qilish metodlari qo‘llanildi.

Empirik tadqiqot metodlari sifatida:

pedagogik kuzatish;

suhbat va so‘rovnoma;

ekspert baholash;

ta’lim jarayonini monitoring qilish;

olingan natijalarni statistik tahlil qilish metodlaridan foydalanish nazarda tutildi.

Tadqiqot obyekti sifatida boshlang‘ich ta’lim jarayoni, predmeti sifatida esa boshlang‘ich sinflarda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va ilmiy-nazariy asoslari belgilandi. Tadqiqot jarayonida ChatGPT, Gemini, Copilot, Khanmigo kabi sun’iy intellektga asoslangan ta’lim vositalarining didaktik imkoniyatlari o‘rganildi hamda ularning boshlang‘ich ta’limda qo‘llanilish istiqbollari tahlil qilindi. Shuningdek, sun’iy intellekt vositalarining o‘quvchilarning

bilim olish faolligi, mustaqil ishlash ko‘nikmalari va ta’lim natijalariga ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan baholandi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy manbalarning tanqidiy tahlili, nazariy xulosalarning mantiqiy asoslanganligi hamda zamonaviy pedagogik tadqiqot metodlarining qo‘llanilishi bilan ta’minlandi. Mazkur metodologik yondashuv boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning samarali yo‘llarini aniqlash va ularni ta’lim amaliyotiga joriy etish bo‘yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqish imkonini beradi.

NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinib, uning ta’lim jarayoniga ta’siri hamda pedagogik imkoniyatlari o‘rganildi. O‘tkazilgan ilmiy manbalar tahlili natijalari sun’iy intellekt texnologiyalarining boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’limni tashkil etish va o‘qituvchi faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Tahlillar natijasida sun’iy intellekt texnologiyalarining boshlang‘ich ta’limdagi asosiy pedagogik imkoniyatlari quyidagilardan iborat ekanligi aniqlandi:

o‘quv jarayonini individuallashtirish;

o‘quvchilarning bilim darajasini tezkor aniqlash va baholash;

ta’lim mazmunini o‘quvchining ehtiyojlariga moslashtirish;

mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

o‘quvchilarning ta’lim motivatsiyasini oshirish;

o‘qituvchining vaqtini tejash va ish samaradorligini oshirish.

Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim platformalari va virtual yordamchilar o‘quvchilarning bilim darajasi, qiziqishlari va o‘zlashtirish sur’atiga mos topshiriqlar ishlab chiqish imkonini beradi. Natijada o‘quvchilarning individual ta’lim trayektoriyasi shakllanib, o‘zlashtirish darajasining oshishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda interaktiv

va moslashuvchan ta’lim muhiti yaratilishi ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Tadqiqot davomida ChatGPT, Gemini, Copilot va Khanmigo kabi sun’iy intellekt vositalarining didaktik imkoniyatlari tahlil qilindi. Tahlil natijalari ushbu vositalar yordamida o‘quv materiallarini soddalashtirish, individual topshiriqlar yaratish, ijodiy mashqlar ishlab chiqish hamda o‘quvchilarga tezkor maslahatlar berish mumkinligini ko‘rsatdi. Bu esa o‘quvchilarning bilimlarni mustaqil egallash va amaliy faoliyatda qo‘llash kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o‘qituvchining metodik faoliyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Dars ishlanmalarini tayyorlash, baholash mezonlarini ishlab chiqish, test topshiriqlarini yaratish va ta’lim natijalarini tahlil qilish kabi jarayonlarda sun’iy intellekt vositalari samarali yordamchi sifatida xizmat qiladi. Natijada o‘qituvchi ko‘proq vaqtini o‘quvchilar bilan bevosita ishlash va ularning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga sarflash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Biroq tadqiqot natijalari sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etishda ayrim muammolar ham mavjudligini ko‘rsatdi. Jumladan, barcha ta’lim muassasalarida raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, pedagoglarning sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha kompetensiyalarining turlicha ekanligi hamda axborot xavfsizligi bilan bog‘liq masalalar ushbu texnologiyalarni samarali qo‘llashga to‘sqinlik qilishi mumkin.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari bilan uyg‘unlikda tahlil qilindi. Xususan, Holmes, Bialik va Fadel tomonidan ilgari surilgan sun’iy intellekt yordamida ta’limni individuallashtirish g‘oyalari mazkur tadqiqot natijalari bilan mos keladi. Tadqiqot davomida ham sun’iy intellekt vositalari har bir o‘quvchining o‘zlashtirish darajasi va ehtiyojlariga mos ta’lim muhitini yaratish imkonini berishi aniqlandi. Shuningdek, Andersonning intellektual o‘qitish tizimlari

haqidagi nazariyasi asosida sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quvchilarning xatolarini aniqlash va individual tavsiyalar berish orqali o‘quv jarayonini optimallashtirishi mumkinligi tasdiqlandi. Bu esa boshlang‘ich ta’limda differensial va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarni samarali amalga oshirish imkonini beradi. **T**adqiqot natijalari sun’iy intellekt texnologiyalarini pedagog faoliyatining o‘rnini bosuvchi emas, balki uning imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida ko‘rish lozimligini ko‘rsatdi. Chunki boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘qituvchining tarbiyaviy, motivatsion va kommunikativ faoliyati muhim ahamiyatga ega bo‘lib, sun’iy intellekt bu funksiyalarni to‘liq bajara olmaydi. Shu sababli inson va sun’iy intellekt hamkorligiga asoslangan pedagogik model eng maqbul yondashuv hisoblanadi. Bundan tashqari, sun’iy intellekt texnologiyalarini boshlang‘ich ta’limga joriy etish jarayonida pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, metodik ta’minotni takomillashtirish hamda axborot xavfsizligi va akademik halollik tamoyillariga rioya etish muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt texnologiyalari zamonaviy ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda va ularni boshlang‘ich ta’lim jarayoniga integratsiya qilish ta’lim sifatini oshirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Sun’iy intellekt asosidagi texnologiyalar o‘quvchilarning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va bilim darajalarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish imkonini beradi. Tadqiqot davomida sun’iy intellekt texnologiyalarining boshlang‘ich ta’limdagi ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinib, ularning o‘quv jarayonini individuallashtirish, o‘quvchilar bilimini monitoring qilish, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘qituvchi faoliyatini qo‘llab-quvvatlashdagi ahamiyati aniqlandi. Sun’iy intellekt vositalari yordamida ta’lim jarayonining moslashuvchanligi va samaradorligi ortib, o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasi hamda ijodiy faolligi rivojlanishi kuzatiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning ayrim muammolari mavjudligini ham ko‘rsatdi. Xususan, raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi, pedagoglarning sun’iy intellekt bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurati, axborot xavfsizligi hamda akademik halollik masalalari ushbu texnologiyalarni samarali qo‘llashda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan omillar hisoblanadi. Tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Sun’iy intellekt texnologiyalari boshlang‘ich ta’limni individuallashtirish va differensiallashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Sun’iy intellekt vositalari o‘quvchilarning bilim darajasini tezkor baholash va ta’lim natijalarini tahlil qilishda samarali hisoblanadi. Sun’iy intellekt o‘qituvchi faoliyatini yengillashtiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi innovatsion pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. Boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellektdan foydalanish o‘quvchilarda raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va muammolarni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi. Sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim amaliyotiga samarali joriy etish uchun pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish hamda metodik ta’minotni takomillashtirish zarur. Demak, sun’iy intellekt texnologiyalaridan oqilona va maqsadli foydalanish boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish hamda zamonaviy ta’lim muhitini yaratishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Russell S., Norvig P. **Artificial Intelligence: A Modern Approach** (4th Edition). – Hoboken, NJ: Pearson, 2021.

2. Holmes W., Bialik M., Fadel C. **Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning**. – Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.

3. Anderson J.R., Corbett A.T., Koedinger K.R., Pelletier R. Cognitive Tutors: Lessons Learned. // *The Journal of the Learning Sciences*. – 1995. – Vol. 4(2). – P. 167–207.

4. Inventado P.S. **Educational Data Mining and Learning Analytics**. In: Learning Analytics. – New York: Springer, 2014. – P. 61–75.

5. **Guidance for Generative AI in Education and Research**. – Paris: UNESCO Publishing, 2023.

6. UNESCO. **Artificial Intelligence and Education: Guidance for Policy-makers**. – Paris, 2021.

7. **OECD Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem**. – Paris: OECD Publishing, 2023.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent, 2020.

9. O‘zbekistonda ta’limni raqamlashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar va dasturlar.

10. Bates A.W. **Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning**. – Vancouver: BCcampus, 2022.

11. Xasanboyeva O., To‘raqulov X. **Pedagogika nazariyasi va tarixi**. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.

12. Xoliqov A. **Umumiy pedagogika**. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

Methods for Developing Speech in Children with Mild Intellectual Disabilities

Otaqo‘ziyeva Marxabo Arabboy qizi
Student of Kokand State University

Annotation

This article discusses the pedagogical and psychological foundations of speech development in children with mild intellectual disabilities. The causes of speech development difficulties, ways to overcome them, and effective methods used in special educational institutions are analyzed. The article also highlights the importance of speech therapy sessions, didactic games, and communicative activities in improving children's speech skills.

Keywords

Mild intellectual disability, speech development, speech therapy, special education, communicative skills, corrective pedagogy, didactic games, speech disorders.

Kirish

Yengil darajadagi aqliy zaif bolalarda bilish jarayonlarining rivojlanishi bilan bir qatorda nutq faoliyatida ham turli kamchiliklar kuzatiladi. Ularning lug‘at boyligi cheklangan, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, gap tuzish va o‘z fikrini erkin ifodalash qobiliyatlari yetarli darajada shakllanmagan bo‘ladi. Nutqdagi bunday kamchiliklar bolaning ta’lim olishi, muloqot qilishi va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli nutqni rivojlantirish maxsus pedagogika va logopediya fanlarining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatish, qiyosiy tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Yengil darajadagi aqliy zaif bolalarda nutq rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda ularni korreksiya qilish usullari o‘rganildi.

Natijalar va muhokama

Lug‘at boyligini rivojlantirish

Nutqni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri lug‘at boyligini kengaytirishdir. Buning uchun rasmlar bilan ishlash, predmetlarni nomlash, hikoya tuzish va suhbat metodlaridan foydalaniladi. O‘quvchilar yangi so‘zlarni o‘rganish orqali o‘z fikrlarini aniqroq ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Tovush talaffuzini shakllantirish

Yengil darajadagi aqliy zaif bolalarda ayrim tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish holatlari uchraydi. Logopedik mashqlar, artikulyatsion gimnastika va fonetik mashg‘ulotlar tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Bog‘lanishli nutqni rivojlantirish

Bolalarda mustaqil fikr bildirish va voqealarni izchil bayon qilish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun hikoya tuzish, matnni qayta so‘zlash va savol-javob usullaridan foydalaniladi. Bu metodlar mantiqiy fikrlash va nutq faolligini rivojlantiradi.

Didaktik o‘yinlardan foydalanish

Didaktik o‘yinlar bolalarning qiziqishini oshirib, nutqiy faolligini kuchaytiradi. “Kim tez topadi?”, “So‘zni davom ettir”, “Rasmga qarab hikoya tuz” kabi o‘yinlar lug‘at boyligini kengaytirish va muloqot madaniyatini shakllantirishga yordam beradi.

Kommunikativ faoliyatni tashkil etish

Nutq rivojlanishida muloqot muhim o‘rin tutadi. Jamoaviy ishlar, rolli o‘yinlar va suhbatlar orqali bolalarda erkin muloqot qilish, o‘z fikrini bayon etish va boshqalarni tinglash ko‘nikmalari shakllanadi.

Xulosa

Yengil darajadagi aqliy zaif bolalar nutqini rivojlantirish murakkab va uzoq davom etadigan pedagogik jarayondir. Lug‘at boyligini kengaytirish, tovush talaffuzini to‘g‘rilash, bog‘lanishli nutqni rivojlantirish hamda didaktik o‘yinlardan foydalanish nutqiy kamchiliklarni bartaraf etishda samarali natija beradi. Nutq rivojlangan sari

bolaning ta’limdagi muvaffaqiyati, muloqot qobiliyati va ijtimoiy moslashuvi ham yaxshilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Po‘latova P.M. Oligofrenopedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.

Shomaxmudova R.Sh. Maxsus pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

Vygotskiy L.S. Defektologiya asoslari. – Moskva: Prosvesheniye, 1995.

Levina R.Ye. Logopediya asoslari. – Moskva, 2018.

Rasulov A.A. Korreksion pedagogika asoslari. – Toshkent, 2019.

Nurmatova D.T. Maxsus ta’lim metodikasi. – Toshkent, 2021.

Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.

UNESCO. Inclusive Education Guidelines. – Paris, 2020.

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

IMPROVING PERSONAL DATA LEGISLATION: BEST FOREIGN PRACTICES IN THE USE OF DATA COLLECTED THROUGH PHOTO AND VIDEO RECORDING DEVICES

Durbek Rakhimberdiev

Senior Consultant,Institute for Analysis and Regulatory Impact Assessment under the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan

Abstract

this article examines the legal regulation of relations connected with the installation of surveillance cameras and photo- and video-recording devices and the use of data collected through them. The first section analyzes the current situation in the Republic of Uzbekistan, identifying practical problems — the installation of cameras in inappropriate places, violations of the rights and freedoms of other persons, and the improper use of collected data — as well as gaps in the existing legislation. The second section reviews the advanced foreign experience of the Federal Republic of Germany, the Republic of Korea and the People’s Republic of China in regulating video surveillance, the requirements for installing recording devices, and the procedure for using, storing and destroying the data obtained. The third section develops practical proposals for amending and supplementing the national legislation on personal data. The article substantiates the need to establish clear legal grounds, requirements and limitations in order to ensure a balance between security interests and the constitutional right to privacy.

Keywords

personal data; privacy; surveillance cameras; video recording; data protection; foreign experience; CCTV; right to privacy; Uzbekistan.

ШАХСИЙ МАЪЛУМОТЛАР ТЎҒРИСИДАГИ ҚОНУНЧИЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ: ФОТО ВА ВИДЕО ҚАЙД ЭТУВЧИ

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

МОСЛАМАЛАР ОРҚАЛИ ЙИҒИЛГАН МАЪЛУМОТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШДА ИЛҒОР ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА

Дурбек Раҳимбердиев

Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги Қонунчиликни таҳлил қилиш ва тартибга солиш таъсирини баҳолаш институти бош маслаҳатчиси

Аннотация: мазкур мақолада кузатув камераларини ҳамда фото ва видео қайд этувчи қурилмаларни ўрнатиш ва улар орқали йиғилган маълумотлардан фойдаланиш билан боғлиқ муносабатларни ҳуқуқий тартибга солиш масалалари ўрганилган. Биринчи қисмда Ўзбекистон Республикасидаги амалдаги ҳолат таҳлил қилиниб, амалиётдаги муаммолар — камераларнинг тегишли бўлмаган жойларга ўрнатилиши, бошқа шахсларнинг ҳуқуқ ва эркинликларининг бузилиши ҳамда йиғилган маълумотлардан нотўғри фойдаланиш, шунингдек амалдаги қонунчиликдаги бўшлиқлар аниқланган. Иккинчи қисмда видеокузатувни тартибга солиш, қайд этувчи қурилмаларни ўрнатишга қўйиладиган талаблар ҳамда олинган маълумотлардан фойдаланиш, сақлаш ва йўқ қилиш тартиби бўйича Германия Федерацияси, Корея Республикаси ва Хитой Халқ Республикасининг илғор тажрибаси кўриб чиқилган. Учинчи қисмда шахсий маълумотлар тўғрисидаги миллий қонунчиликка ўзгартириш ва қўшимчалар киритишга қаратилган амалий таклифлар ишлаб чиқилган. Мақола хавфсизлик манфаатлари ҳамда шахсий ҳаёт дахлсизлигига бўлган конституциявий ҳуқуқ ўртасидаги мувозанатни таъминлаш мақсадида аниқ ҳуқуқий асослар, талаблар ва чекловларни белгилаш зарурлигини асослайди.

Калит сўзлар: шахсий маълумотлар; шахсий ҳаёт дахлсизлиги; кузатув камералари; видеокузатув; маълумотларни ҳимоя қилиш; хорижий тажриба; CCTV; шахсий дахлсизлик ҳуқуқи; Ўзбекистон.

Замонавий жамиятда ахборот-коммуникация технологияларининг жадал ривожланиши ва фото ҳамда видео қайд этувчи қурилмаларнинг кенг тарқалиши

хавфсизликни таъминлаш ва жиноятчиликнинг олдини олиш борасида янги имкониятларни яратди. Шу билан бирга, кузатув камераларининг тартибсиз ва назоратсиз ўрнатилиши фуқароларнинг шахсий ҳаёт дахлсизлиги ҳуқуқига жиддий таҳдид солувчи ижтимоий муаммоларни ҳам келтириб чиқармоқда. Хавфсизлик манфаатлари ва шахсий ҳаёт дахлсизлиги ўртасидаги мувозанатни таъминлаш ҳар қайси ҳуқуқий давлат учун муҳим вазифа ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги Қонунчиликни таҳлил қилиш ва тартибга солиш таъсирини баҳолаш институти томонидан турли объектлар ҳамда транспорт воситасининг ички қисмига кузатув камераларини ўрнатиш ва улар орқали йиғилган маълумотлардан фойдаланишга оид муносабатлар ўрганилди ҳамда мазкур йўналишда қонунчиликни такомиллаштириш юзасидан таклифлар ишлаб чиқилди. Мазкур мақолада ушбу таҳлил натижалари ва илғор хорижий тажриба асосида тегишли хулоса ва тавсиялар келтирилади.

I. Амалдаги ҳолат ва қонунчиликдаги муаммолар

Сўнгги беш йилликда мамлакатимизда жисмоний ва юридик шахслар томонидан кузатув камераларини ўрнатиш ҳамда улардан фойдаланиш ҳолатлари сони кескин ошиб бормоқда. Бу тенденцияни кузатув камераларининг импорт ҳажми ҳам яққол кўрсатиб турибди. Жумладан, 2023 йилда Ўзбекистон Республикасига 467 мингга яқин кузатув камералари импорт қилинган бўлиб, унинг қиймати 21,6 миллион АҚШ долларини ташкил этган. 2025 йилга келиб эса импорт қилинган кузатув камераларининг сони 1,066 миллиондан ортиқни, уларнинг қиймати эса 38,5 миллион АҚШ долларини ташкил этди. Бу икки йил ичида камералар импортининг қарийб икки баробарга ошганини англатади.

Жисмоний ва юридик шахслар томонидан кузатув камераларининг ўрнатилиш ҳажмининг ортиши ижтимоий ҳаётда бир қатор муаммоларни

келтириб чиқармоқда. Ушбу муаммоларни шартли равишда уч гуруҳга ажратиш мумкин.

1. Кузатув камераларининг тегишли бўлмаган жойларга ўрнатилиши. Оммавий ахборот воситалари, ижтимоий тармоқлар ҳамда жойига чиққан ҳолда ижтимоий объектлар ва жамоат жойларида олиб борилган ўрганишларда айрим савдо марказлари, маиший хизмат кўрсатувчи ҳамда овқатланиш шахобчаларининг махсус хоналарида — кийим алмаштириш, она ва бола хоналари ҳамда инсон ҳаётининг сир тутиладиган томонларини акс эттирувчи маълумотларни йиғиш имконияти мавжуд бўлган бошқа махсус хоналарда — кузатув камералари ўрнатилиш ҳолатлари аниқланган. Масалан, Тошкент шаҳрининг Миробод туманидаги 110-сонли ихтисослаштирилган давлат умумтаълим мактаби ўқувчилар кийиниш хонасига видеокузатув камералари ўрнатилгани, Тошкентдаги аквапарклардан бирининг кийим алмаштириш хонасида камералар жойлаштирилгани, шунингдек “Самарқанд дарвоза” савдо комплексининг болалар майдончасидаги “она ва бола” хонасида кузатув камераси мавжудлиги маълум бўлган.

2. Бошқа шахсларнинг ҳуқуқ ва эркинликларининг бузилиши. Жисмоний ва юридик шахслар томонидан кузатув камералари фақат ўз мулкига тегишли қисмларга йўналтирилган ҳолда эмас, балки аҳоли турар-жойларига туташ ҳудудларга, шунингдек бошқа жисмоний шахсга тегишли бўлган кўчмас мулк объектларига йўналтирилган ҳолда ўрнатилмоқда. Камераларни ўрнатишнинг асосий мақсади ўз мулкида хавфсизликни таъминлаш ҳамда ўғрилик, талончилик каби жиноятларнинг олдини олиш бўлса-да, аксарият ҳолларда камераларни ўрнатишда огоҳлантирувчи белгилар (масалан, “CCTV” ёки “ҳудуд камера назорати остида” каби) қўйилмаяпти. Бу эса фуқароларнинг ўзлари кузатилаётганидан бехабар қолишига олиб келмоқда.

3. Йиғилган маълумотлардан нотўғри фойдаланиш. Жисмоний ва юридик шахслар томонидан ўрнатилган кузатув камералари орқали йиғилган маълумотларни ижтимоий тармоқлар орқали тарқатиш ҳолатлари одатий тусга айланиб бормоқда. Бу эса ўз навбатида фуқароларнинг шахсий дахлсизлик ҳуқуқига салбий таъсир кўрсатмоқда. Таъкидлаш лозимки, “Ахборотлаштириш тўғрисида”ги Қонуннинг 13-моддасига мувофиқ жисмоний шахсларнинг шахсига тааллуқли маълумотлар тўғрисидаги ахборот махфий ахборот тоифасига киритилган.

Юқорида қайд этилган муаммолар вужудга келишининг асосий омилларидан бири мазкур соҳадаги ижтимоий муносабатларнинг етарли даражада тартибга солинмаганлиги ҳисобланади. Хусусан, амалдаги қонунчиликда қуйидаги масалалар тартибга солинмаган:

– **кузатув камераларини ўрнатиш асослари.** Қонунчиликда жисмоний ва юридик шахслар томонидан кузатув камералари қайси ҳудудларга ўрнатилиши мумкинлиги (фақат ўзларига мулк ёки бошқа ашёвий ҳуқуқ билан тегишли бўлган объектлардами ёки ҳар қандай жойдами) ҳамда камералар ўрнатилиши тақиқланган жойлар (кийим алмаштириш хоналари, ҳаммом, “она ва бола” хонаси, меҳмонхонанинг мижозлар турар-жой хоналари ва бошқалар) аниқ белгиланмаган;

– **кузатув камераларини ўрнатишга қўйиладиган талаблар.** Камераларни ўрнатишда муайян талабларни инобатга олиш (жумладан, камеранинг тасвирга олиш радиуси, қайси ҳудудга йўналтирилган бўлиши ва бошқалар) ҳамда бошқа шахсларни камера орқали тасвирга олинаётганлиги ҳақида хабардор қилиш мажбурияти юзасидан нормалар белгиланмаган;

– **йиғилган маълумотлардан фойдаланиш асослари ва тартиби.** Амалдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда камералар орқали йиғилган маълумотлардан фойдаланишга рухсат этиладиган (жиноятни фош этиш,

ҳуқуқбузарликнинг олдини олиш ва бошқалар) ҳамда фойдаланиш тақиқланадиган (тарқатиш, тижорий ва бошқа мақсадларда фойдаланиш) ҳолатлар, шунингдек маълумотларни сақлаш муддати назарда тутилмаган.

II. Хорижий давлатлар тажрибаси

Германия Федерацияси

Германияда “Маълумотларни ҳимоя қилиш тўғрисида”ги федерал қонунда жамоат жойлари, ижтимоий объектлар, транспорт воситалари ва аҳоли турар-жойларида видеокузатув тизимларини ўрнатиш асослари ва талаблари, шунингдек улар орқали йиғилган маълумотлардан фойдаланиш асослари белгиланган. Бунга кўра, жамоат жойлари, ижтимоий объектлар, оммавий йиғилиш ва кўнгилочар жойлар ҳамда транспорт воситаларида видеокузатув тизимлари давлат органлари зиммасига юклатилган функция ва вазифаларни амалга ошириш, хавфсизликни таъминлаш, ижтимоий манфаатларни ҳимоя қилиш, жиноятчиликнинг олдини олиш, шунингдек мулкдорлар томонидан ўзига тегишли бўлган хусусий мулкни лозим даражада ҳимоя қилиш мақсадларида ўрнатилишига рухсат этилади.

Мазкур объектларга видеокузатув тизимлари юридик ва жисмоний шахслар томонидан ўрнатилганда, ушбу ҳудуд ва (ёки) объектда видеокузатув олиб борилаётганлиги, видеокузатув ким томонидан ва қайси мақсадда амалга оширилаётганлиги, маълумотларни йиғувчининг номи ва алоқа маълумотлари, қайд этилган видеотасвирнинг сақланиш муддати, видеотасвирни тақдим этиш имконияти мавжуд ёки мавжуд эмаслиги ҳамда видеотасвир қайси давлат органларига талаб қилиб олиш асосида тақдим этилиши тўғрисидаги маълумотлар имкон қадар эрта ва аниқ тарзда таниб олинишини таъминлайдиган тегишли чоралар кўрилиши шарт. Кузатув камералари орқали йиғилган тасвирлар белгиланган мақсад учун ўз аҳамиятини йўқотган тақдирда ёки маълумот

субъектининг қонуний манфаатлари уларни кейинги сақлашга тўсқинлик қилса, улар кечиктирилмасдан ўчириб ташланиши лозим.

Корея Республикаси

Корея Республикасида “Шахсий маълумотларни ҳимоя қилиш тўғрисида”ги қонун фото ва видеофиксация қилувчи қурилмаларни ўрнатиш ҳамда улардан фойдаланишнинг умумий тартиб-таомиллари ва асосларини белгилайди. Қонунга мувофиқ очиқ жойларда бундай қурилмаларни ўрнатиш жиноятларнинг олдини олиш ва тергов ҳаракатлари учун зарур бўлган ҳолларда; қонуний ваколатга эга шахс ёки орган томонидан иншоотларнинг хавфсизлиги ва бошқаруви ҳамда ёнғиннинг олдини олиш мақсадида; шунингдек йўл ҳаракати қоидаларининг бузилиш ҳолатларини қайд этиш, йўл ҳаракати маълумотларини сақлаш ва таҳлил қилиш мақсадида ўрнатиладиган ва фойдаланиладиган ҳолларда рухсат этилади.

Шахсий ҳаётга сезиларли даражада таҳдид солиши мумкин бўлган жойларда, масалан, ҳаммом, ҳожатхона, сауна ва кийиниш хоналарига фото ва видео қайд этувчи мосламаларни ўрнатиш қатъиян тақиқланган. Қонун билан видеофиксация қилувчи қурилмалар жисмоний ва юридик шахслар томонидан ўрнатилган тақдирда уларга нисбатан аниқ талаблар жорий этилган. Жумладан, видеотасвир субъектлари бундай қурилмани осонгина таниб олишлари учун видеокузатув олиб борилаётган ҳудуд, видеокузатув мақсади, олинган видеотасвирларни сақлаш муддати ва видеотасвирни йиғувчи шахснинг алоқа маълумотларини акс эттирган махсус белги тахтасини жойлаштириш, видеокузатув тизимидан бошқа мақсадларда фойдаланмаслик, шунингдек кузатув камераларида овоз ёзиш функцияларидан фойдаланмаслик каби зарур чоралар кўрилиши керак.

Қонун билан кузатув камералари орқали йиғилган маълумотлардан фойдаланиш бўйича минимал талаблар ҳам жорий этилган бўлиб, йиғилган видеотасвирлар йўқолиши, ўғирланиши, ошкор қилиниши (ижтимоий

тармоқларда тарқатилиши), сохталаштирилиши ёки ўзгартирилишига йўл қўймаслик учун зарур чоралар кўрилиши шарт.

Хитой Халқ Республикаси

Хитой Ҳукуматининг “Жамоат хавфсизлигига оид видеокузатув тизимларини бошқариш тўғрисида”ги қарорига мувофиқ жамоат жойлари, ижтимоий объектлар ва шахсларнинг инсон ҳаётини сир тутиладиган томонларини акс эттирувчи маълумотларни тасвирга олиш, кузатиш ёки тинглаш имконини берувчи бошқа жойларда фото ва видео тасвирни қайд этувчи ускуна ва қурилмаларни ўрнатиш тақиқланади. Бунга меҳмонхона, ресторан ҳамда яшаш ва овқатланиш хизматларини кўрсатувчи бошқа объектлардаги мижозларнинг шахсий ёки алоҳида махсус хоналари (ҳаммом, кийим алмаштириш, ҳожатхона); талабалар ётоқхоналаридаги яшаш хоналари, шунингдек ташкилотлар томонидан ходимлар учун яшаш ёки дам олиш мақсадида ажратилган хоналар; жамоат ҳаммомлари, ҳожатхоналар, кийим алмаштириш хоналари ҳамда она ва бола хоналари киритилган.

Жисмоний ва юридик шахслар томонидан ўрнатилаётган кузатув камералари давлат стандартларига мос бўлиши, ўзида зарарли киберхавфсизликка таҳдид солувчи дастурлар ўрнатилмаганлиги таъминланиши, шунингдек камераларни ўрнатиш жойи, бурчаги ва видеотасвирларни йиғиш диапазони оқилона белгиланиши ҳамда ҳудуднинг видеокузатув остида эканлигини огоҳлантирувчи белгилар ўрнатилиши лозим. Камералар орқали олинган видеотасвирлар камида 30 кун давомида сақланиши ва ундан кейин, агар қонунчилик билан алоҳида қоидалар назарда тутилмаган бўлса, ўчирилиши лозим. Йиғилган видеотасвирлар қонунга мувофиқ оммавий тарқатиш учун ишлатилганда ва уларда шахсга доир маълумотлар (юзлар, транспорт воситаларининг давлат рақамлари) ёки ташкилотларнинг қонуний ҳуқуқлари ва манфаатларига зарар етказиши мумкин бўлган маълумотлар (юридик

шахсларнинг номлари, бизнес лицензиялари) мавжуд бўлса, бундай маълумотлар видеотасвирда ўчирилган ҳолда тарқатилиши ва (ёки) уларга нисбатан қатъий ҳимоя чоралари кўрилиши лозим.

III. Таклифлар

Юқорида келтирилган таҳлил ҳамда Германия, Корея ва Хитой тажрибасидан келиб чиқиб, Ўзбекистон Республикасининг “Шахсга доир маълумотлар тўғрисида”ги қонунига қуйидагиларни назарда тутувчи ўзгартириш ва қўшимчаларни киритиш мақсадга мувофиқ деб ҳисобланади:

– кузатув камералари ҳамда фото ва видео қайд этувчи қурилмаларни давлат органларига тегишли бинолар, жамоат жойлари ва ижтимоий объектларда, шунингдек аҳоли турар-жойларининг туташ қисмларида ўрнатиш асосларини аниқ белгилаш;

– кузатув камералари ҳамда фото ва видео қайд этувчи қурилмаларни ўрнатиш тақиқланадиган ҳудуд ва жойларни белгилаш. Бунда ваколатли давлат органлари томонидан жамоат хавфсизлигини таъминлаш мақсадида ўрнатиладиган ва мазкур давлат органининг ягона электрон тизимига уланган ҳолатлар мустасно қилиниши лозим;

– кузатув камералари ҳамда фото ва видео қайд этувчи қурилмаларни ўрнатишга бўлган талабларни (тасвирга олиш радиуси, йўналтирилиши, огоҳлантирувчи белгилар ва бошқалар) белгилаш;

– кузатув камералари ҳамда фото ва видео қайд этувчи қурилмалар орқали йиғилган маълумотлардан фойдаланиш, уларни ижтимоий тармоқларда жойлаштириш ва давлат органлари талаблари асосида тақдим этиш асосларини, учинчи шахсларга тарқатишга нисбатан чекловларни, маълумотларга ишлов бериш тартибларини, сақлаш муддатларини ҳамда йўқ қилиш мажбуриятларини белгилаш.

Хулоса сифатида таъкидлаш лозимки, кузатув камераларини ўрнатиш ва улар орқали йиғилган маълумотлардан фойдаланиш муносабатларини ҳуқуқий тартибга солиш — бу нафақат хавфсизликни таъминлашнинг, балки фуқароларнинг шахсий ҳаёт дахлсизлигига бўлган конституциявий ҳуқуқини ҳимоя қилишнинг ҳам муҳим воситасидир. Илғор хорижий тажриба шуни кўрсатадики, ушбу соҳани самарали тартибга солиш учун камераларни ўрнатиш асослари, уларга қўйиладиган талаблар ҳамда йиғилган маълумотлардан фойдаланиш, сақлаш ва йўқ қилиш тартибларини аниқ ва батафсил белгилаш зарур. Ўзбекистонда ушбу ёндашувни жорий этиш хавфсизлик манфаатлари ва шахсий дахлсизлик ўртасидаги мувозанатни таъминлашга хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикасининг “Ахборотлаштириш тўғрисида”ги Қонуни.

2. Ўзбекистон Республикасининг “Шахсга доир маълумотлар тўғрисида”ги Қонуни.

3. Германия Федерациясининг “Маълумотларни ҳимоя қилиш тўғрисида”ги федерал қонуни (Bundesdatenschutzgesetz, BDSG).

4. Корея Республикасининг “Шахсий маълумотларни ҳимоя қилиш тўғрисида”ги қонуни (Personal Information Protection Act, PIPA).

5. Хитой Халқ Республикасининг “Жамоат хавфсизлигига оид видеокузатув тизимларини бошқариш тўғрисида”ги қарори.

6. Адлия вазирлиги ҳузуридаги Қонунчиликни таҳлил қилиш ва тартибга солиш таъсирини баҳолаш институти. Фото ва видео қайд этувчи қурилмаларни ўрнатиш ва у орқали йиғилган маълумотлардан фойдаланиш муносабатларини тартибга солиш бўйича таҳлилий маълумотнома. — Тошкент, 2025.

7. General Data Protection Regulation (GDPR), Regulation (EU) 2016/679.

8. OECD (2013). Guidelines on the Protection of Privacy and Transborder Flows of Personal Data. OECD Publishing, Paris.

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

ANALYSIS OF THE EFFECTIVENESS OF USING UNMANNED SYSTEMS IN PREVENTING EMERGENCIES AND MITIGATING THEIR CONSEQUENCES, AND FUTURE TRENDS

Ahadov Jon-Muhammad Komiljon o‘g‘li
Academy of the Ministry of Emergency Situations of the Republic of Uzbekistan

Abstract: This article analyzes the role of modern technologies in monitoring and mitigating the consequences of emergency situations. Specifically, it examines the technical capabilities of unmanned aerial vehicles (UAVs) such as "Lochin", FIXAR, and DJI used within the system of the Ministry of Emergency Situations of the Republic of Uzbekistan, as well as recent legislative reforms in the field. The article provides a scientific basis for the effectiveness of drones in increasing operational efficiency and ensuring the safety of rescue personnel.

Keywords: *unmanned aerial vehicle (UAV), drone, Lochin, DJI Matrice, emergency situations, monitoring, safety, digitalization.*

Uchuvchisiz tizimlarni favqulodda vaziyatlarni oldini olish va oqibatlarini bartaraf etishda qo‘llanilishi samaradorligi tahlili va kelajak tendensiyalari

Ahadov Jon-Muhammad Komiljon o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalarning favqulodda vaziyatlar (FV) monitoringi va oqibatlarini bartaraf etishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi FVV tizimida qo‘llanilayotgan "Lochin", FIXAR va DJI kabi uchuvchisiz uchish apparatlarining (UUA) texnik imkoniyatlari hamda sohadagi so‘nggi qonunchilik islohotlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada dronlarning operativlikni oshirish va qutqaruvchilar xavfsizligini ta’minlashdagi samaradorligi ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *uchuvchisiz uchish apparati, dron, Lochin, DJI Matrice, favqulodda vaziyatlar, monitoring, xavfsizlik, raqamlashtirish.*

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

Аннотация: В данной статье анализируется роль современных технологий в мониторинге и ликвидации последствий чрезвычайных ситуаций (ЧС). В частности, рассматриваются технические возможности беспилотных летательных аппаратов (БПЛА), таких как «Лочин», FIXAR и DJI, используемых в системе МЧС Республики Узбекистан, а также последние законодательные реформы в этой сфере. В статье научно обоснована эффективность дронов в повышении оперативности и обеспечении безопасности спасателей.

Ключевые слова: *беспилотный летательный аппарат, дрон, Лочин, DJI Matrice, чрезвычайные ситуации, мониторинг, безопасность, цифровизация.*

KIRISH: XXI asrda tabiiy va texnogen xavflarning ko‘payishi, global iqlim o‘zgarishlari, urbanizatsiya jarayonining kuchayishi va infratuzilmaning murakkablashuvi favqulodda vaziyatlarni oldini olish, ularning oqibatlarini yumshatish hamda aholining xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yangi texnologik yechimlarni joriy etishni talab qilmoqda. Ana shunday innovatsion texnologiyalardan biri — uchuvchisiz uchish apparatlari, ya’ni dronlardir. Bugungi kunda tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlar soni ortib borayotgani, ularni oldindan aniqlash, tezkor baholash va oqibatlarini minimallashtirish zarurati Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishni talab qilmoqda. Shu jarayonda uchuvchisiz uchish apparatlari (dronlar) zamonaviy texnologik vosita sifatida operativlik (tezkorlik), xavfsizlik va aniqlik jihatlaridan yuqori samaradorlikka ega. Ma’lumki, dronlar qisqa vaqt ichida voqea hududining to‘liq tasvirini ya’ni yer yuzasini yuqori aniqlikda xaritalashga, suv toshqini xavfini modellash, zilziladan zarar ko‘rgan binolarning holatini baholash, katta maydondagi yong‘inlarni razvedka qilish va xavfli hududlarni kategoriyalarga ajratish imkonini berib qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi.

Bundan tashqari dronlar yuqori sifatli kameralar va sensorlar bilan jihozlangan. Ular o‘rmon yong‘inlarini erta bosqichda aniqlash, daryolarda suv sathining ko‘tarilishini kuzatish, tog‘li hududlarda ko‘chkiga olib kelishi mumkin bo‘lgan

jarayonlarni nazorat qilish kabi vazifalarni tez va aniq bajarib: real vaqtda ma’lumot berish, qutqaruv guruhlarini to‘g‘ri yo‘naltirish, qidiruv-qutqaruv ishlarini tashkillashtirish va boshqa ko‘p vazifalarni amalga oshirish imkoniyatlarini beradi.

Qutqaruvchilarning xavfsizligini ta’minlash, avariya, yong‘in yoki kimyoviy xavfli hududlarga bevosita kirish qutqaruvchilar hayotiga xavf tug‘dirishi mumkin. Dronlar xavfli hududga kirishni talab qilmasdan vaziyatni o‘rganish imkonini beradi va ofatlarning barcha bosqichlarida — ularning oldini olish, monitoring va oqibatlarini bartaraf qilish jarayonlarida muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Dronlar beqaror inshootlar, yong‘in zonalari, ifloslangan muhitlar yoki qiyin relyefli hududlarga inson hayotini xavf ostiga qo‘ymasdan kira oladi. Tejamkorlik jihatidan dronlardan foydalanish katta texnika va ko‘plab inson resurslarini jalb qilishdan ko‘ra arzonroq va samaraliroq bo‘lishi mumkin.

Xalqaro tajribalarni ko‘radigan bo‘lsak AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya, Turkiya va Yevropa davlatlarida dronlar favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va javob berishning ajralmas qismiga aylangan. O‘zbekiston ushbu yo‘nalishda xalqaro tajribalarni o‘z tizimiga joriy etishi muhim va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

Hozirgi davrda O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanishning dastlabki ilk bosqichlari, ularni qo‘llash bo‘yicha sinovlar amalga oshirilmoqda va dronlardan foydalanish so‘nggi yillarda sezilarli darajada kengaydi. Favqulodda vaziyatlarda asosan qidiruv-qutqaruv ishlari, tabiiy ofat oqibatlarini o‘rganish va yong‘in xavfsizligi monitoringi uchun zamonaviy uchuvchisiz uchish qurilmalaridan foydalanilmoqda. Hozirgi kunda Favqulodda vaziyatlar vazirligi arsenalida quyidagi turdagi dronlar mavjud:

1. Mahalliy ishlab chiqarilgan "Lochin" dronlari "Lochin" — O‘zbekiston Mudofaa sanoati agentligi huzuridagi Uchuvchisiz aviatsiya tizimlari ilmiy-ishlab chiqarish markazi tomonidan ishlab chiqarilgan. U Markaziy Osiyoda ilk bor o‘zlashtirilgan milliy uchuvchisiz uchish apparati brendidir. Ushbu dronlar ilk bor 2022-

yilda jamoatchilikka taqdim etilgan. "Lochin" dronlari bir vaqtning o‘zida ham harbiy, ham fuqarolik vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan, ya’ni ushbu dronlar favqulodda vaziyatlarda foydalanish uchun ham moslashtirilgan.

Vazifasi: Qidiruv-qutqaruv operatsiyalari, hududni razvedka qilish va monitoring.

Texnik imkoniyatlari: "Lochin" dronlari termal kameralar (teplovizorlar) bilan jihozlangan bo‘lib, ular yordamida tungi vaqtda yoki qalin tutun ichida inson tanasidan chiqayotgan issiqlikni aniqlash mumkin.

Turlari: Vertikal ko‘tariluvchi (kvadrokopter) va qanotli (samolyot tipidagi) modellar mavjud.

Texnik xarakteristikasi va turlari "Lochin" brendi ostida asosan ikki turdagi dronlar ishlab chiqariladi:

Samolyot turidagi (qanotli) dronlar: Uzoq masofaga uchish va uzoq vaqt havoda turishga mo‘ljallangan.

Kvadrokopter (multikopter) turidagi dronlar: Vertikal ko‘tarilish va qo‘nish (VTOL) xususiyatiga ega, borish qiyin bo‘lgan joylarda va qisqa masofalarda tezkor harakat qilish uchun qulay.

Asosiy ko‘rsatkichlar (masalan, Lochin HA-341 modeli misolida):

Parvoz radiusi: 50 km gacha.

Havoda turish vaqti: 2 soatgacha.

Maksimal balandlik: 4 500 – 5 000 metr.

Yuk ko‘tarish quvvati: Modelga qarab 10 kg gacha foydali yuk (kamera, datchik yoki maxsus vositalar).

FIXAR 007 NG dronining parvoz sinovlari 2022-yil iyul oyida O‘zbekiston Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan mamlakatdagi eng xavfli va og‘ir sharoitli hududlardan biri bo‘lgan Qamchiq dovoni ustida o‘tkazilgan. Ushbu dara strategik jihatdan juda muhim bo‘lib, u Toshkent va Namangan viloyatlaridagi Farg‘ona vodiysi hududlari o‘rtasida quruqlik transporti uchun asosiy yo‘l hisoblanadi hamda qo‘shni

Tojikiston hududini aylanib o‘tadi. Dovonning eng baland nuqtasi dengiz sathidan 2268 metr (7441 fut) balandlikda joylashgan. FIXAR 007 NG droni esa 2500–3000 metr balandlikda muvaffaqiyatli parvoz qilgan.

Bundan tashqari Favqulodda vaziyatlar vazirligi tezkor harakat qilish bo‘linmalarida xalqaro DJI (DJI) brendi seriyasiga mansub mashhur DJI Enterprise seriyasidagi dronlardan foydalanadi. Xususan, **DJI Matrice** va **DJI Mavic** modellarining sanoat versiyalari ham qo‘llanilmoqda.

DJI Matrice 300 RTK: Kuchli shamolga chidamli va yuqori aniqlikdagi lazer masofa o‘lchagichlarga ega.

Xususiyatlari: Ushbu dronlar real vaqt rejimida 4K formatda videoni shtabga uzatib turadi, bu esa favqulodda vaziyat joyida to‘g‘ri qaror qabul qilishga yordam beradi. DJI Matrice 300 RTK — bu shunchaki dron emas, balki sanoat va qutqaruv ishlari uchun mo‘ljallangan yuqori texnologik "uchar platforma" hisoblanadi. O‘zbekiston FVV tizimida ushbu model eng ishonchli va ko‘p funksiyali vositalardan biri sifatida tan olingan.

Uning asosiy texnik imkoniyatlari:

1. **Parvoz va chidamlilik:**
   - Maksimal parvoz vaqti: 55 daqiqa.
   - Ob-havoga chidamliligi: IP45 himoya darajasiga ega. Ya’ni, u yomg‘ir yog‘ayotgan vaqtda yoki chang-to‘zonli sharoitlarda ham bemalol uchishi mumkin.
   - Haroratga chidamliligi: −20°C dan +50°C gacha bo‘lgan haroratlarda ishlay oladi.
2. **RTK (Real-Time Kinematics) tizimi:** Santimetrgacha aniqlikda joylashuvni aniqlaydi. Bu xususiyat FVVga sel yoki zilzila sodir bo‘lgan hududlarning 3D xaritasini o‘ta aniqlikda chizish imkonini beradi.

3. **"Smart Inspection" va to‘siqlarni aniqlash:** Dronning 6 ta tomonida sensorlar va vizual datchiklar o‘rnatilgan. U har qanday tomondan kelayotgan to‘siqni 40 metr masofadan sezadi.

4. **Zenmuse H20 seriyali kameralar:** 20x optik zoom, radiometrik teplovizor va lazer masofa o‘lchagich (1200 metrgacha) bilan jihozlangan.

5. **Qo‘shaloq boshqaruv (Advanced Dual Control):** Ushbu modelni ikki kishi bir vaqtning o‘zida boshqarishi mumkin.

Xulosa: Agar "Lochin" bizning milliy faxrimiz va keng maydonlarni nazorat qilish vositasi bo‘lsa, DJI Matrice 300 RTK favqulodda vaziyatning eng qaynoq nuqtalarida "zargarlik aniqligida" ishlash uchun mo‘ljallangan asbobdir.

3. Maxsus vazifalar uchun qo‘llanilishi FVV dronlari quyidagi aniq maqsadlarda ishlatilmoqda:

Gidrometeorologik monitoring: Qor ko‘chishi yoki suv toshqini xavfini aniqlash.

Yong‘in nazorati: O‘rmon va qamishzorlardagi yong‘in o‘choqlarini aniqlash va o‘chirish strategiyasini belgilash.

Radioaktiv va kimyoviy nazorat: Maxsus datchiklar yordamida havoni masofadan tekshirish.

2026-yilga mo‘ljallangan davlat dasturlariga ko‘ra, dronlardan foydalanish samaradorligi an’anaviy usullardan 2-3 baravar yuqori ekanligi qayd etilgan.

Mazkur yo‘nalishda olib borilayotgan kompleks ishlar mavjud muammolarni aniqlash va FVV faoliyatini optimallashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishni talab qilmoqda. Shu maqsadda sohaga sun’iy intellekt va robototexnika keng joriy etilmoqda. Bu Prezidentimizning 2025-yil 20-oktabrdagi PQ-311-sonli qarorida ko‘zda tutilgan. Shuningdek, 2026-yil 3-apreldagi PQ-123-sonli qarorga muvofiq FVV Akademiyasi huzurida Qutqaruvchilarni tayyorlash texnikumi tashkil etilib, uchuvchisiz uchish apparatlari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash belgilanadi. Bu esa yaqin kelajakda sohani yangi yuqori bosqichga ko‘tarilishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1] O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘RQ-790, 17.08.2022. “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”. https://lex.uz/docs/-6161244

[2] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 171-son qarori, 29.04.2023. “Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. https://lex.uz/uz/docs/-6448083

[3] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 361-son qarori, 11.08.2023. “Favqulodda vaziyat ro‘y berish xavfi yoki favqulodda vaziyat ro‘y berganligi haqida xabar berishning avtomatlashtirilgan tizimini rivojlantirish ...”. https://lex.uz/uz/docs/-6565844

[4] O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘RQ-195, 26.12.2008. “Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to‘g‘risida”. https://lex.uz/docs/-1422085

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-310-son qarori, 20.10.2025. “Favqulodda vaziyatlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”. https://lex.uz/docs/-7776312

[6] O‘zbekiston Respublikasi FVVning 2024-yil 15-maydagi 144-son buyrug‘iga ilova: aholi punktlari va ob’ektlarning namunaviy xavfsizlik pasportlarini tuzish va tasdiqlash tartibi. https://lex.uz/docs/-7009602

[7] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 754-son qarori, 09.09.2019. “Aholining barcha qatlamlarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibi to‘g‘risida”. https://lex.uz/docs/-4508476

[8] O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 80-II-son, 26.05.2000. “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”. https://lex.uz/uz/docs/-32994

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

ECONOMETRIC ANALYSIS OF CREATIVE ECONOMY EFFICIENCY IN ADVANCED COUNTRIES (USING DEA)

Daminova Madinaxon Bahromjon qizi *- A PhD researcher of the Department of "Econometrics", Tashkent State University of Economics*

Abstract

This article presents an econometric analysis of the creative economy efficiency in advanced countries using Data Envelopment Analysis (DEA). The main goal of the study is to evaluate the potential for increasing creative exports (output) under the conditions of given input resources (GDP per capita, ICT use, and patents) using an output-oriented model. The results show that Singapore and the UK are utilizing 100% of their existing capabilities, while South Korea and the UAE have the potential to increase their creative product exports by 106.6% and 6.7%, respectively.

Key words: creative economy, creative export, DEA model, scale efficiency, output-oriented approach, econometric analysis, CCR and BCC models.

DUNYONING ILG'OR DAVLATLARI KREATIV IQTISODIY SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK TAHLIL QILISH (DEA YORDAMIDA)

Daminova Madinaxon Bahromjon qizi,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Ekonometrika" kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada dunyoning ilg'or davlatlari kreativ iqtisodiyoti samaradorligi Ma'lumotlarni o'rash tahlili (DEA) usuli yordamida ekonometrik tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi davlatlarning berilgan kirish resurslari (aholi jon boshiga YaIM, AKTdan foydalanish darajasi va patentlar soni) sharoitida kreativ eksport hajmini (chiquvchi resurs) qanchalik oshirish imkoniyati mavjudligini chiquvchiga asoslangan (output-oriented) model orqali baholashdan iborat. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Singapur va Buyuk Britaniya mavjud imkoniyatlardan 100% foydalanayotganligi,

Janubiy Koreya va BAAda esa kreativ mahsulotlar eksportini mos ravishda 106,6% va 6,7% ga oshirish potensiali mavjudligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: kreativ iqtisodiyot, kreativ eksport, DEA modeli, miqyos samaradorligi, chiquvchiga asoslangan (output-oriented) yondashuv, ekonometrik tahlil, CCR va BCC modellari.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish bosqichida kreativ industriyalar davlatlarning global bozordagi raqobatbardoshligi va innovatsion salohiyatini belgilab beruvchi asosiy omillardan biriga aylanmoqda. Xususan, kreativ mahsulotlar eksporti darajasi mamlakatning iqtisodiy farovonligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi tanlangan ilg'or davlatlar berilgan kirish resurslari (inputs) sharoitida kreativ eksport (output)ni qanchalik oshirish imkoniyati mavjudligini ko’rib chiqishdan iborat. Bu yerda asosiy e'tiborli jihati shundaki, kirimlar (inputs) o’zgarmas deb qabul qilinib, faqat chiqish (outputs) hajmini oshirish imkoniyati ko’rib chiqiladi. Bu esa o'tkazilayotgan modelning bevosita chiqishga asoslangan (output-oriented) yo’nalishga tayanilganligini ko’rsatadi. Tahlilda jami 20 ta davlat qamrab olingan bo'lib, kirish resurslari sifatida aholi jon boshiga YaIM (GDP_PC), axborot-aloqa vositalaridan foydalanish darajasi (ICT_use) va patentlar soni (Patents), chiquvchi resurs sifatida esa kreativ mahsulotlar eksporti (Creative_export) o'zgaruvchilari tanlab olingan.

Tadqiqotning maqsadi: *Tanlangan davlatlar berilgan kirish resurslari (inputs) sharoitida kreativ eksport (output)ni qanchalik oshirish imkoniyati mavjudligini ko’rib chiqamiz. Bu yerda asosiy etiborli jihati shundaki, kirimlar(inputs) o’zgarmas va chiqish(outputs) ni oshirish imkoniyati ko’rib chiqiladi. Bu esa bevosita modelimiz chiqishga asoslangan (output-oriented) yo’nalishga asoslangan ekanligini ko’rsatadi.*

Quyida tahlilimiz uchun ishlatilgan (1-ilova) ma’lumotlarning bir qismi R dagi natijalari “data” jadvali shaklida va uning deskriptiv statistikasi berilgan.

```
data
## # A tibble: 20 × 5
```

JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

```
##    Economy     Creative_export GDP_PC ICT_use Patents
##    <chr>              <dbl>  <dbl>   <dbl>   <dbl>
## 14 Singapore           12374  85410    93.6    1.62
## 15 South Korea          9964  35670    91.9  186.
## 18 UAE                 19302  49850    96.0  273
## 19 UK                  16370  49940    91.8   17.4
```

```
describe(data)
##                vars  n     mean       sd  median  trimmed     mad     min
## Economy*          1 20    10.50     5.92   10.50    10.50    7.41    1.00
## Creative_export   2 20  6530.35  7201.45 2039.50  5660.81 2922.20   48.00
## GDP_PC            3 20 16804.20 22607.78 4675.00 12326.56 4329.93 1360.00
## ICT_use           4 20    85.00     6.29   84.47    84.92    8.01   74.66
## Patents           5 20   273.08   299.80  185.62   239.37  255.59    1.00
##                    max    range skew kurtosis      se
## Economy*         20.00    19.00 0.00    -1.38    1.32
## Creative_export 20595.00 20547.00 0.63    -1.19 1610.29
## GDP_PC          85410.00 84050.00 1.64     1.81 5055.25
## ICT_use            96.02    21.36 0.12    -1.33    1.41
## Patents           843.00   842.00 0.75    -1.05   67.04
```

Ushbu dastlabki natijalarda “Economy” ustini tanlab olingan davlatlar nomi, “Creative_export” kreativ mahsulotlar eksporti ($ million, output), “GDP_PC” ustuni esa aholi jon boshiga YAIM miqdori ($, input), “ICT_use” ustuni esa axborot-aloqa vositalaridan foydalanish darajasi(%, input) va “Patents” ustuni patentlar soni (PPP$ bo’yicha YaIM (milliardlarda) bilan normallashtirilgan, input) ni ifodalaydi. Deskriptiv tahlil esa ma’lumotlarning “n”-kuzatuvlar soni, “mean”-o’rtacha qiymat, “sd”- standart og’ish, “median”-medianasi, “trimmed”-eng katta va kichik qiymatlar olib tashlanganda hisoblangan o’rtacha qiymat, “mad(median absolute deviation)”- mediana asosida

tarqalish o'lchovi, "min va max"- katta va kichik qiymatlar, "range"- diapazon ("max" dan "min" ayirmasi), "skew"- taqsimot og'ishi/assimmetriya, "kurtosis"- taqsimot qanchalik "o'tkir" yoki "yassi" va "se"- standart xatolik bo'yicha ma'lumot beradi.

